

Mavzu: Kirish.

Reja

1. «Yangi tarix» tushunchasi.
2. «Yangi tarix»ni davrlashtirish masalasi.
3. Yevropa va Amerika mamlakatlari Yangi tarixining umumiy tavsifi va asosiy muammolari:
4. «Yangi tarix» bo'yicha manbalar.
5. XVII asr o'rtalarida Yevropa va Amerika mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy axvoli.
6. XVII-XIX asrlarda xalqaro munosabatlar.
7. Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va axvoli.

Yangi tarix tushunchasi.

XVI asrning o'rtalari va XX asrning boshlarida Yevropa va Amerika mamlakatlarining rivojlanish davri tarixiy adabiyotlarda «Yangi tarix» nomli shartli nom bilan ataladi. Bu davr o'zidan avvalgi davrlardan Yangi sivilizatsiyaning vujudga kelishi, xalqlarning xayotida ro'y bergan chuqur o'zgarishlar, jamiyatdagi turli jarayonlarning intensivligi va ko'lamining kengligi, voqea va xodisalarning ko'pligi, zichligi, xilma-xilligi bilan ajalarib turadi. Xaqiqatdan xam bu davr butunlay, boshqa, Yangi davr edi. Bu davrga turli mamlakatlar va turli xalqlar bir vaqtda emas, turli davrlarda qadam qo'ydilar.

Atlantika qirg'oqlarida joylashgan Yevropa va Amerika mamlakatlari Yangi tsivilizatsiyaga tamal toshini qo'ydilar. Shuning uchun bu Yangi davrni ba'zan g'arb tsivilizatsiyasi yoqi Atlantika sivilizatsiyasi degan nomlar bilan xam ataladi. Bu davr boshlarida insoniyatning zamonaviy muammolarini ko'pchilik asoslari qo'yildi. Yangi davr yutuqlarining muxim sharti shu bo'ldiki, insoniyat, jamiyat, tabiat ustidan xukmronlik qilish shiori ostida tabiatning katta resurslaridan keng foydalana boshladi. Oqibatda keyingi jamiyat tabiat bilan konfliktlarga borib, ekologik kataklizmalar xavfi ostida qola boshladi. Yangi davr qishloq xo'jaligiga

asoslangan agrar ishlab chiqarishni industrial shaklini vujudga keltirdi, global industrilashtirish davri boshlandi.

Feodal patriarxal to'zumning parchalanishi, inson va fuqarolik xuquqi va erkinliklarini e'lon qilinishi Yangi davrning eng muxim va katta yutug'idir. Bexisob yaratuvchilik kuchlari dunyo qiyofasini butunlay o'zgartirib yubordi, ammo bu jarayon kam sonli kishilarning qo'lida xokimiyat va mulkning to'planishiga (kontsentratsiya), ular tomonidan ko'p sonli xalqlarni shavqatsiz ekspluatatsiya qilinishiga to'sqinlik qila olmadi. Oqibatda ozodlik va tenglik, jamiyat manfaatlari, ishlab chiqarish unumdorligi va ijtimoiy adolat eng muxim mezonlar va muammolarga aylandi. Kapitalning to'planishi va yiriklashuvi sinfiy, millatlararo va boshqa ijtimoiy qarama qarshiliklarni yanada keskinlashtirib yubordi. Bularning barchasi milliy va sotsialistik utopiya g'oyalarining keng tarqalishiga, antogonizmni keskinlashuviga olib keldi. Bu qarama-qarshiliklardan qutulish yo'lini topilishi, insoniyatni o'z-o'zini qirishdan va yadro xaloqatidan qutqarish imkoniyatini berar edi.

Yangi tarix davrini o'rganilishi muxim qadriyatlar, yutuqlar, bilimlarni o'rganish imkonini beradi. Inson xuquqlari va fuqaro erkinligi, demokratik g'oyalarni va bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda juda muxim rol' o'ynaydi. Busiz ishlab chiqarishning maxsuldorligi, axolining farovonligi, shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlash xaqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ammo buning uchun Yangi davrga ob'ektiv, turli xil siyosiy qarashlardan xoli nigoxlar bilan qaralishi lozim.

Yangi tarixni davrlashtirish masalasi.

«Yangi tarix»ni davrlashtirish turli tarixchi olimlar o'rtasida doimiy tortishuvlarga, turli munozaralarga, turlicha davrlashtirish xollarida namoyon bo'lgan. Ingliz va Fransuz inqiloblaridan iborat, ikki ulug' burjua inqiloblari o'rtasidagi ikki yarim asr davom etgan yillarni biz Yangi tarixning birinchi qismi

sifatida bayon qilamiz. Ba`zi tarixchilar uni aloxida bir davr deb atash va Yangi tarixni butun kursini 3 davrga (1640-1789 yillar, 1789-1871 yillar, 1871-1917 yillar) bo'lish mumkin deb xisoblaydilar. Ammo juda ko'plab dunyo tarixchi olimlari Yangi tarixni ikki davrga: Birinchi davr 1640-1871 yillar va ikkinchi davr 1871-1918 yillarga bo'lib davrlashtiradilar. Mantiqan o'ylab qaralganda bunday davrlashtirish ob`ektiv tarixiylik printsipiga va «Yangi tarix» fanini tushunarli va mukammal o'rganishga xizmat qiladi.

«Yangi tarix» fanini birinchi davrida kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va g'alabasi, Yevropa va Amerikadagi turli mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy xayotida, millatlarning rivojlanishida, siyosiy kurashda, XVII-XIX asrlardagi shiddatli siyosiy va mafkuraviy kurashlarda yo'z bergan tegishili protsesslardir. Kapitalizmning qaror topishi va rivojlanishi Yangi tarixning asosiy mazmuni va o'ziga xos xususiyatidir. O'rta asrlarning so'nggi yillariga kelib, Yevropa qit'asining rivojlangan mamlakatlarida birinchi burjua inqiloblari uchun va kapitalistik ishlab chiqarish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Chunki feodal to'zum o'zining taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi, feodal ekspluatatsiya Yevropada shaxarlarning rivojlanishi va xunarmandchilikning taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik Yevropadagi ilg'or mamlakatlarda manufakturalar (qo'l sanoati) vujudga kelib, bu kapitalistik manufakturalar xunarmandlarni va yollanma ishchilarni ekspluatatsiya qilishga asoslangan edi.

Dexqonlar, xunarmandlar, burjuaziya tabaqalari feodal tartiblarga qarshi keskin kurashlarga ko'tarildilar. Xalq ommasi (xunarmandlar, dexqonlar, ishchilar) burjuaziya raxbarligida burjua inqiloblari orqali feodal tartiblar va absolyutizmga bir qator og'ir zarbalar berdilar. XVI asr Niderlandiya inqilobi birinchi burjua inqilobi bo'lib, u faqatgina maxalliy ahamiyatga ega edi. 1640 yidagi Angliya burjua inqilobi, Angliyada kapitalistik to'zumni qaror topishi uchun xal qiluvchi

turtki bo'ldi. Ammo xali Yevropaning ko'p xududlarida XVII va XVIII asrlarda feodal absolyut tuzum, tartib va qoidalar saqlanib qolayotgan edi.

Yangi tarixni ikkinchi davri 1871-1918 yillarni o'z ichiga oladi. 1871 yilda Parij proletariati burjuaziya xukumatini ag'darib tashlab, proletariat diktaturasini o'rnatish uchun, kurash olib bordi. Bu davrda juda keng ko'lamdagi mustamlakachilik imperiyalari vujudga keldi, sanoat ishlab chiqarishining xajmi ko'p marta o'sdi, texnika va fan juda katta yutuqlarga erishdi. Rivojlangan mamlakatlardan qoloq mamlakatlarga kapital chiqarish kuchayib bordi, iqtisodiyotning barcha soxalarida ishlab chiqarish va kapitalni jamlanishi oqibatida gigant monopoliyalar vujudga kelib, bu monopoliyalar mamlakatlarni iqtisodiy va siyosiy xayotida muxim rol o'ynash bilan chegaralanib qolmasdan, xalqaro maydonda xam bu rol'ni da`vo qila boshladi.

Yangi bozorlar uchun, xom ashyo uchun, o'z ta'siriga olish uchun, kapitalni ko'proq kiritish uchun intilishni kuchayishi bir qator rivojlangan mamlakatlar o'rtasida avval bo'lib olingan dunyoning turli xududlari uchun turli davrlarda qator xonavayron qiluvchi o'zaro imperialistik urushlarni boshlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi jaxon urushi ana shu imperialistik urushlarning eng yirigi edi. Bu urushlar maxalliy xalq zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushar, xalqni xonavayron qilar, xalqni burujaziyaga qarshi keskin kurashga undar edi.

Yevropa va Amerika mamlakatlari Yangi tarixining umumiy tavsifi va muammolari.

Yangi tarixning birinchi davrida kapitalistik munosabatlar Yevropa va Amerikaning bir nechagina aytaylik, bir xovuchgina mamlakatlaridagina rviojlanayotgan bo'lib, ularning axolisi yeryo'zida yashayotgan axolini juda oz qisminigina tashkil qilar edi. Kapitalizmning tug'ulishi va tarkib topishi, mustamlakachilik sistemasining tug'ilishi va gullab yashnashi va tarkib topishidan tarixan ajralmasdir. Mustamlakachilik sistmasi XVI asrda, asosan ispanlar va

portugaliyaliklarning oqean orqasidagi erlarni bosib olishlari bilan boshlanadi, XVII-XVIII asrlarda bu tashabbus gollandiyaliklar, inglizlar va Fransuzlar qo'liga o'tib, bu sistema yanada rivoj topdi.

XVIII asrdayoq Osiyo va Amerikadagi mustamlaka erlar uchun Angliya va Fransiya o'rtasida g'oyat qattiq kurash bordi. Kapitalistik munosabatlar manufaktura sanoati bilan cheklanibgina qolmasdan, qishloq xo'jaligiga xam dadil kirib bora boshladi. Kapitalizm ayniqsa Angliyada qishloq xo'jaligiga dadil kirib bordi, oqibatda xo'jalikni kapitalistik ishlab chiqarish usulida yuritadigan fermerlar sinfini shakllanishi bilan tamomlandi. Fransiya kabi mamlakatlarda esa kapitalizm taraqqiyoti XVIII asr oxirlariga qadar agrar tuzumga Angliyadagiga nisbatan ancha sust ta'sir qildi.

1870 yillarda Germaniya imperiyasini tashkil topishi, Rossiya, AQSH, Yaponiyadagi radikal o'zgarishlar barcha xududlarda jamiyat taraqqiyotini tezlashishiga olib keldi. evolyutsion jarayon shimoliy Atlantika sivilizatsiyasini sifat jixatidan o'zgarishiga olib keldi, uning dunyo taraqqiyotidagi etakchilik rolini mustaxkamladi. Rivojlangan mamlakatlarda industrial ishlab chiqarishning muvaffaqiyatlari ijtimoiy-iqtisodiy tuzuldimalarda, g'oyaviy-siyosiy kuchlarning joylashuvida, yirik davlatlarning o'zaro va boshqa davlatlar bilan aloqalarida, ma'naviy xayotda bir qator o'zgarishlarni, jiddiy o'zgarishlarni yuz berishiga sabab bo'ldi.

Konservativ va milliy g'oyaviy-siyosiy oqimlar faoliyati faollashdi, imperializm barcha vositalar bilan o'z mustamlakalari va ta'sir doiralarini kengaytirishga xarakat qildi. Faqat milliy manfaatlarni ko'zlovchi millatchilik va shovinizm xam tobora kuchaya boshladi. Konservativ, liberal-demokratik oqimlar, agressiv-militaristik, patsifistik oqimlarning faolyati kuchayib, ular o'rtasidagi

o'zaro kurash davri boshlandi. Yevropa va Amerikaning ko'plab mamlakatlarida ishchilar sinfi, tashkilotlari o'sdi, bu tashkilotlar jamiyat xayotida muxim rol o'ynay boshladi. Markaziy, Sharqiy Yevropa, Lotin Amerikasi va boshqa mustamlakalarda milliy ozodlik xarakati keng quloch yoydi. evol'yutsiya oqibatida mamlakatlarning o'zaro ichki va tashqi qarama-qarshiliklari yanada kuchaydi.

XVII asr o'rtalarida Yevropa va Amerika mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy axvoli.

O'rta asrlar tarixidan Yangi tarix davriga o'tish bu feodal tuzumdan kapitalistik tuzumga (bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat) o'tish bo'lib, bu jarayon bir qator burjua inqiloblarining tasirida amalga oshirildi. Yangi tarix davri kapitalga (mablag', pul) asoslangan jamiyatning feodal jamiyati ustidan g'alabasi, kapitalistik davlatning rivojlanishi va mustaxkamlanishi, ayrim ziddiyat va qarama-qarshiliklarning yanada keskinlashuvi davri xamdir.

XVI asrning birinchi yarmidagi reformatsiya va Germaniyadagi fuqorolik urushlari burjua inqiloblarining ayrim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan edi. Ammo, Germaniyada burjua inqiloblarining g'alabasi uchun vaziyat to'la etilmagan edi. Shuning uchun bu voqealarda burjuaziya mag'lubiyatga uchradi. 1566 yildagi ilk Niderlandiya burjua inqilobi muvafaqqiyat qozondi va Yangi tuzumga o'tishda muxim qadam bo'ldi. Bu inqilob faqatgina Niderlandiyaning shimoliy qismlarinigina qamrab oldi. Ammo bunga qaramasdan keyingi burjua inqiloblarini vujudga kelishida katta rol o'ynadi. XVII asr o'rtalarida ro'y bergan ingliz burjua inqilobi g'alabasi shubxasiz muxim axamiyat kasb etadi. Bu inqilob g'alabasi Angliyada kapitalizmning tez o'sishi uchun muxim shart-sharoit kasb etdi. Bu inqilob tufayli XVIII asr o'rtalarida Angliyada dunyoda birinchi marta sanoat inqilobi ro'y berdi. Oqibatda Angliya uzoq vaqt jaxon savdosi, sanoatida asosiy o'rinni egallab, birinchi buyuk kapitalistik mamlakat aylandi.

Umuman, 1640 -1660 yillardagi ingliz burjua inqiloblari, Yevropa qit`asidagi va masshtabi (qamrovidagi) dagi birinchi burjua inqilobi edi. Yevropa qit`asida XVIII asrdagi fransuz burjua inqilobi feodal tuzum qoldiqlariga xal qiluvchi zarba berdi. Faqatgina XVIII asrning o`rtalaridagina kapitalistik tuzum feodal tuzum ustidan uzil kesil g`alaba qozondi. Kapitalistik tuzumni feodal tuzum ustidan g`alaba qozonishi turli qit`alarda va Yevropaning turli mamlakatlarida turli davrlarda, butun Yangi tarix darida , uzoq yillar mobaynida sodir bo`ldi. XVIII asr Fransuz burjua inqilobidan keyin xam ilg`or kapitalistik mamlakatlar bilan bir qatorda qoloq feodal davlatlar, jamiyatlar saqlanib qoldi. Ayrim kapitalistik mamlakatlarda xam feodal tuzumning ayrim sarqitlari saqlanib qoldi. Shunday bo`lsada burjua inqiloblari natijasida kapitalistik tuzum asosiy va etakchi jaxon iqtisodiy va siyosiy formatsiyasiga aylandi va jaxondagi xukmron formatsiya darajasiga o`sib chiqdi.

XVIII asr boshlarida Yevropadagi ayrim nisbatan rivojlangan mamlakatlar boshqa mamlakatlar va qit`alarni taraqqiyot jixatdan ortda qoldira boshladi. Metalni qayta ishlash, turli mexanizmlar, asbob-uskunalar ishlab chiqarishda, qurilishda, xarbiy sanoat va xarbiy qurollanishda, kemasozlik va dengizchilikda, turli fanlar: astronomiya, matematika, kartografiyada va boshqa soxalarda Yevropaning ilg`or mamlakatlari barcha qit`alar va mamlakatlarni ortda qoldirdi. Bu ustunlik Yevropalik xalqlarning irqiy kelib chiqishiga bog`liq bo`lmay, balki Yevropa mamlakatalarida xunarmandchilik va manufakturalarning rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga kelganligi edi.

XVII-XIX asrlarda xalqaro munosabatlar.

Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya o`z kemalari va quollarining afzalliklariga tayanib, okean ortida bir qator mustamlakalarni qo`lga kiritganlar. Mustamlakalarni talon-taroj qilinishi Yevropada kapitalni tezroq to`planishida muxim omil bo`ldi. Bu esa Osiyo, Afrika

va Lotin Amerikasi mamlakatlarini Yevropaning ilg'or mamlakatlaridan ancha orqada qolib ketishiga olib keldi.

XV-XVI asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar davrida Ispaniya va Portugaliya Yangi dunyoga olib boradigan muxim savdo yo'llarida qulay mavqeni egalladi. Ispan mustamlakachilari Amerikadan xisobsiz boyliklarni qo'lga kiritdilar. Ammo, feodallar Ispaniyasining qoloqligi, shaxarlar, xunarmandchilikni taraqqiy etmaganligi dvoryanlarni mablag'larini sovurishi oqibatida bu ulkan boyliklar Ispaniyada o'z maxsulotlarini sotuvchi golland, ingliz va fransuz savdogarlari qo'lga o'ta boshladi. Bu davrda Frantsuz qirolligi Ispan va Avstriya Gabsburglari bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Bu urushlarda o'z chegaralarini va savdo yo'llarini yanada kengaytirish uchun kurash olib bordilar. Yevropaning xristian qirolligi xisoblanmish Fransiya Avstriya Gabsburglariga qarshi Turkiya, Shvetsiya va Polsha bilan ittifoq tuzdilar. 1648 yildan boshlab Fransiya va Shvetsiya german millatining «Muqaddas Rim imperiyasining tuzilishi va chegaralarning kafolati» vazifasini o'z qo'llariga olishdi.

1648 yildagi Vestfaliya sulxi Germaniyaning siyosiy tarqoqligini uzoq vaqt saqlanib qolishga turtki bo'ldi. G'arbiy Germaniya va Italiya xududlarida xukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun Avstriya va Ispan Gabsburglari o'rtasida ko'p asrlik kurash olib bordilar. Bu davrda Italiya mayda-mayda davlatlardan, qoloq feodal monarxiyalardan tashkil topgan edi. Genuya va Venetsiya savdo Respublikalari asta sekin tanazzulga yuz tutayotgan, Usmoniylar imperiyasi tomonidan siqib chiqarilayotgan edi.

Yevropada ko'p asrlik Gabsburglar xonadonining ta'siri juda kuchli edi. Yevropaning janubiy sharqida XVIII asrda Turklar mustamlakalari ulkan o'lchovlarga etgan edi. Kichik Osiyo, Arab Sharqi, Bolqon mamlakatlari, Vengriya, shimoliy sharqiy Qora dengiz qirg'oqlari Usmoniylar Turkiyasiga bo'ysunar edi. XVI asrda Qora dengiz Turk ko'lga aylantirilgan va xalqaro savdoga yopiq

xududga aylantirilgan edi. Usmoniylarning bosqinchilik yurishlari Pol'shaga xam xavf sola boshladilar. Turkiyaning mustamlakachilik siyosati, Shuningdek Avstriya va Rossiyaning mustamlakachilik siyosati Yevropada xalqaro qarama qarshiliklarni vujudga keltiradi.

Gabsburglarga qarshi kurashda XVI asrda frantsuz qirollari va turk sultonlari o'zaro ittifoq tuzib, xamkorlikda faoliyat yuritdilar. Turklarning bu davrda Yevropadagi ta'siri kuchli bo'lsada, Usmoniylar imperiyasida ichki inqiroz boshlangan edi. Bu davrda Pol'sha davlati Litva, Ukraina erlarini o'z ichiga olgan kuchli davlat edi. Rossiyaning iqtisodiy, siyosiy, xarbiy rivojlanishi rus davlatining obro'sini ko'tarilishida katta axamiyat kasb etdi. Rossiyaning Turkiya, Pol'sha, Shvetsiya bilan munosabatlari keskinlashdi. Yevropaning shimolida Shvetsiya xarbiy va siyosiy jixatdan qudratli bo'lib, Boltiq dengizining shimoliy xududlari, Germaniya janubidagi daryo xavzalarini o'z xukmronligiga olgandi. Shvetsiya qudratli xarbiy dengiz flotiga ega bo'lib, Rossiyaning dengizga chiqishiga, Daniya va German davlatlarini mustaqil rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Uncha katta bo'lmagan Daniya qirolligi Norvegiyani o'ziga bo'ysundirgan bo'lsada, xarbiy jixatdan zaif edi.

Ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va axvoli.

Yevropaning shimoliy g'arbida unchalik katta xududga ega bo'lmagan ammo boy burjua pomeschik Gollandiya davlati joylashgan edi. Gollandiya Indoneziya, Janubiy Afrika, Sharqiy Xindistonda savdo faktoriyalariga ega edi. Gollandiya ulkan savdo floti, xarbiy flotga, ulkan mablag'larga ega bo'lib, Yevropa va mustamlakalar o'rtasidagi savdo sotiqlarda asosiy vositachi vazifasini bajarar edi. XVII asrda Gollandiyaning dengiz qudrati mislsiz darajada o'sdi, ammo kapitalistik ishlab chiqarishga o'tish uchun qulay vaziyat Gollandiyada emas, balki dengiz savdo yullarida qulayroq o'ringa ega bo'lgan Angliyada vujudga keldi. Bu davrda, ya'ni XVII asrda Garbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiy soxada

agrar mamlakatligicha qolayotgan edi. Ishlab chiqarishning asosiy qismini qishloq xo'jaligi tashkil qilardi. Bu davr uchun aniq statistik ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Taxminiy xisob kitoblarga ko'ra, 1600 yilda G'arbiy Yevropa mamlakatlarning axolisi 90-95 million kishidan oshmagan.

1700 yilga kelib, axoli soni 170-180 million kishiga etgan. Axolining asosiy qismi qishloqlarda yashagan. 100 ming axoli istiqomat qiladigan shaxarlar juda kam bo'lgan. XVIII asrga qadar qishloq xo'jaligida uch dalali almashlab ekish xukmronlik qilgan. Yerga ishlov berishda plug va sodda qul mexnati quollaridan foydalanilgan. Ayrim yirik shaxarlar atroflaridagina ko'chat ekish, almashlab ekish, urug' almashlab ekish usuliga o'tish uchun tajribalar o'tkazilgan. Bizning

davrimizgacha XVI-XVII asrlarga oid Germaniya, Gollandiya, Angliyaning sanoat tumanlaridagi turli ishlab chiqarish texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ayrim mexanizmlar keng qo'llanilgan bo'lsada, xamma sanoat korxonalarida qo'l mexnati xukmronlik qilar edi. Gollandiya provintsiyalari uchun shamol tegirmonlari o'ziga xos xususiyat edi. Qudratli suv yordamida xarakatlanadigan g'ildiraklar, parraklarni kashf etilishi katta axamiyatga ega edi. Bular yordamida xarakatga keltiriladigan vallar un ishlab chiqarish, qog'oz ishlab chiqarishda, porox sanoatida, o'rmon sanoatida, sim ishlab chiqarishda, temir eritishda, bolg'a, tokarlik va boshqa stanoklarni xarakatga keltirishda keng foydalanildi.

XVI-XVIII asrlarda shamol tegirmonlari va barcha ishlab chiqarish ustaxonalarida suv energiyasidan foydalanilar edi. Shuning uchun ular daryolar yaqinida joylashar edi. Tog' kon sanoatida kirka, cho'qmor, aravachalar, cho'mich, belkurak va bosqxa ibtidoiy asbob-uskunalardan foydalanilar edi. XVI - XVII asrlarda tasma bog'lamalar, bir necha mexanizmlarni xarakatga keltira oladigan uzatkichlar aylanma g'ildiraklardan asta sekin foydalanila boshlandi. Bu davrda

Germaniya shaxtalarida aravachalarni xarakatlantirish uchun yog'och rel'slardan foydalanila

boshlandi. Metallurgiyada asosan qo'ng'ir ko'mirdan keng foydalanilgan. Qayta ishlash sanoatida qo'l mexnati cheksiz xukmron edi. Ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar ishlab chiqarish sirlari xisoblanib, bu sirlar avloddan avlodga, oiladan oilaga, ustadan shogirdgagina ko'chib yurgan.

Ammo, XVI-XVII asrlarda ixtirochilik fikrlari keng yoyildi. Muxim ixtirolar XVII asrning ikkinchi yarmida juda keng yoyildi, ammo bu ixtirolar tsex ustalarining qarshiliklariga, turli tuman to'siqlarga duch keldi. Ko'p xududlarda xunarmandlar kustarlarga aylanib qoldilar. Ular xom ashyoni xam maxsulotni xam olib sotar va kapitalistdan olar va unga sotar edi.

Olib sotar kapitalist mayda ishlab chiqaruvchilarni tashkilotchisiga aylandi. Kustarlar esa asta sekin o'z uyidagi kapitalist ishchilariga aylandi. XVI asrdan boshlab Angliya, Gollandiya, Fransiyada mexnat taqsimotiga asoslangan ilk kapitalistik sanoat ishlab chiqarish usulida bo'lgan markazlashgan va juda ko'plab manufakturalar vujudga keldi. XVI-XVII asrlarda savdo burjuaziyasi qudratining keskin o'sishi, yirik kapitalning to'planishi, boylik ketidan quvishni kuchayishi davri bo'ldi.

Tayanch so'z va iboralar:

Burjua inqilobi, reformatsiya, fuqorolik urushi, sanoat inqilobi, feodal, formatsiya, kapitalistik mafkura, manufaktura, Kichik Osiyo, kustar, texnologik jarayon.

Nazorat savollari:

1. Kapitalni kontsentryalashuv jaroyini deganda nimani tushunasiz ?
2. Yangi tarix davrida shakllangan tabaqalar nomini bilasizmi ?
3. Jaxon savdosining Yangi markazlari qaysi mamlakatlarda joylashgan edi ?
4. Qaysi mamlakatda burjua inqilobi to'la g'alaba qozondi ?

5. Vestfaliya sulxi qaysi yilda tuzulgan edi ?
6. Manufakturadagi mexnat taqsimoti qanday oqibatlariga olib keldi ?
7. Yangi tarix fani necha davrga bo'lib o'rganiladi ?
8. Yangi tarix tushunchasiga tarif bering ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. «Sharq». 1998 y.
2. Yurovskiy. E.E. Krivoguz.E.A. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». 1-2 period. Moskva. «Visshaya shkola». 1998 g.
3. Yurovskiy.E.E. «Sbornik dokumentov to istorii novogo vremeni stran Yevropi i Ameriki. 1640-1870 g. Moskva. «Visshaya shkola». 1990 g.
4. Narochitskiy. A.L. «Novaya istoriya». Moskva. «Prosvesheniya». 1986 g.
5. «Vsemirnaya istoriya». v 12 tomax. Moskva. «Politizdat». 1960 g.
6. Popova.E.I, Tatarinova.P.N. «Novaya i noveyshaya istoriya». Moskva. «Visshaya shkola». 1984 g.
7. «Yangi tarix». 3 tomlik. Toshkent. 1976 y.

Mavzu: «Angliya XVII -XIX asrlarda».

Reja:

Kirish.

1. Inqilobning boshlanishi va fuqarolar urushi.
2. Respublika va protektorat.
3. Ikkinchi respublika va styuartlar restavratsiyasi.
4. Madaniyat va siyosiy fikr.
5. XVIII asrda Angliyaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyoti.

Xulosa.

Kirish

Angliya Yangi tarixida 1640-1660 yillardagi ingliz inqilobi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrni graf Klarendon «Buyuk qo'zg'olon davri», Makolele, Gardiner, Forsler (XIX asr mutafakkirlari) «Puritanlar inqilobi», Xilli esa «Inqiloblar asri», ayrim tarixchilar «Burjua inqiloblari asri» deb ataydilar. XVII asrning birinchi yarmida Angliya agrar mamlakat bo'lib, 4,5 mln axoli qishloqlarda yashagan. London yagona yirik shaxar bo'lib, 60-100 ming axoli yashagan. Isloxotlar agrar soxada boshlangan. Tyudorlar isloxotlari tufayli yerlar «djentri» (Yangi dvoryanlar, kichik yer egasi) va manufaktura egalari qo'lida to'plandi. Dexqonlar lendlord (katta yer yegasi) kapital munosabatlar, mulkiy tengsizlikning kuchayishi zarbasi ostida qoldilar.

Oqibatda 1597 yilda, 1607 yilda, 1631 yillardagi dexqonlar qo'zg'olonlari yo'z berdi. Manufakturalar rivojlandi, sudxo'rlik, savdogarlik, metallurgiya taraqqiy etdi. Shaxar burjuaziyasi va djentrilar ittifoqi mustaxkamlandi. Parlamentda muxolifatning qarama-qarshiligi o'sdi, qirollar Yakov I, Karl I (styuartlar) katolik Ispaniya, Fransiya bilan ittifoq tuzishga intilar. ilk burjuaziya bunga qarshilik qilardi. Anglikan cherkovi xam absolyutizmni qo'llab-quvvatlar, doimiy cherkov soliqlarini solar, taqvodorlar ustidan xukmronlikka intilar edi. Bu burjuaziya qatlamlarini qoniqtirmasdi. Ular puritanlar (toza) oqimiga kirib, episkoplar xukmronligiga, cherkov sudlariga qarshi, cherkovni katolik urf-odatlardan tozalashuchun kurashdilar. Puritanlar juda ko'plab marosimlar va buyumlarni rad etib arzon cherkov tarafdori edilar.

XVII asrning 30 yillarida «Bibliya» ingliz gumanisti Tindel tomonidan inglizchaga o'girildi. 1613 yilda qirol Yakov I Kembrij Universiteti professorlari (puritanlar oqimi vakillari) tarjimasidagi «Bibliya» ni chop etishga ruxsat berdi. Puritan cherkovi tuzulishi prosviterian (oqsoqol) nomini oldi va oqsoqollar kengashi-konsistoriyalar tomonidan boshqarilgan. Ayrimlar e'tiqodning to'la erkin deb atadilar. Ular davlat diniy ishlarga aralashmasligi zarur deb xisoblab, keng

diniy sabrlilik uchun kurashdilar. Bu oqimga o'rta tabaqalar, dexqon ijarachilar kirdilar. Puritanlik Yangi ma'daniyatni shakllantirdi, puritanlar teatr va turli ko'ngil ochar tadbirlarga qarshi chiqib, cherkov va diniy buyumlarni buzib tashladilar. Ammo kamtarlik, nafsini tiyish, xudo va odamlar oldida poqlik, xushaxloqlik, ishchanlik, insoniylik, xalqparvarlik, do'stlik kabi g'oyalarni keng targ'ib qildi.

Inqilobning boshlanishi va fuqarolar urushi.

1628 yilda parlament «Xaqiqat to'g'risida» xujjat tuzdi, bunda muxolifat talablari bayon etildi. Karl I parlamentni tarqatib yuborib, 11 yil o'zi tanxo xukmronlik qildi. 1639 yilda Shotlandiya bilan urush boshlandi. Karl I parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. Parlament 1640 yilning 13 aprel' va 5 may kunlarida ishladi va "qisqa parlament" nomini oldi. 1640 yilning 3 noyabrida qirol Yangi, "Uzoq parlamentni" chaqirdi. Bu ingliz inqilobini boshlanishi edi. Burjua dvoryan muxolifati qarashlari, «Ildiz va novdalar xaqida petitsiya» va «Buyuk remonstratsiya» (1641 yil dekabr) xujjatlarida o'z aksini topdi. 1641 yilda Yuqori komissiya va Yulduzlar palatasi sudlari, qirol yepiskoplik tashkilotlari, kemasozlik yo'llari yig'imi bekor qilindi. Graf Stafford va arxiepiskop Loddlar qatl etildi. 1642 yilning yanvarida, qirol 5 nafar parlament a'zosini qamoqqa olishni buyurdi, ammo qirol mag'lubiyatga uchradi. 1642 yilning avgustida u parlamentga qarshi fuqarolar urushini boshladi.

Parlament 1643 yilning 25 sentyabrida Shotlandiya bilan Konvenant va «Tantanali liga» shartnomalarini imzoladi. 1644 yilning iyunida Shotlandiya armiyasi royalistlar qo'shiniga zarba berdi. Independentlar raxbari Xantingdonlik Oliver Kromvel Yangi doimiy parlament armiyasini tashkil etdi. 1645 yilning 11 yanvarida «Yangi nusxadagi armiya» tuzuldi; 6.000 otliq, 1.500 dragun, 14.500 ta piyoda jangchidan iborat edi.

1645 yilning 14 iyunida royalistlar mag'lubiyatga uchrab Karl I shotlandlarga asirga tushdi. 1646 yilning 24 fevralida qirolga feodallarning qaramligi, yer egalariga qirolni xukmronligi, barcha shtraflar va feodal majburiyatlar bekor qilinganligi to'g'risidagi parlament akti qabul qilindi. Bu xalqqa hech narsa bermadi. Armiya qo'mondonlari, djentrilar, parlament monarxiyasi tarafdori edilar. 1646-1647 yillarda armiyada levellerlar (tenglashtiruvchilar) siyosiy partiyasi vujudga keldi. Ular demokratik qonunlarni, parlamentni xalq oldida javobgarligini talab qildilar.

1646 yilning 7 iyulida ko'p minglik «Shaxarliklar remonstratsiyasi» e'lon qilinib, bu xujjatda qirol xukmronligini tugatish, oliy xokimiyatni jamoa palatasiga berish va parlamentni xar bir kishi saylashi, xuquqiy tenglik, mulkiy erkinlik va xokazolar ilgari surilgan edi. 1647 yilda ingliz inqilobi Yangi burjua demokratik inqilob bosqichiga qadam qo'ydi. Parlamentni qirol bilan kelishishga intilishi, inqilobiy armiyani tarqatib yuborish zaruriyati demokratik kuchlar noroziligini kuchaytirdi. Independent ofitserlar «Takliflar boblari» nomli konstituttsiyasi loyixasini qirolga taqdim etdilar. Ammo qirol buni rad etdi. Londonda royalchilar davlat to'ntarilishini amalga oshirishga intildilar.

1647 yilning 6 avgustida armiya Londonga kirdi. «Takliflar boblari», «Armiya ishi», «Xalq kelishuvi» xujjatlari e'lon qilindi. Bular inqilobiy loyixalar bo'lib, 21 yoshdan umumiy saylov xuquqi, qirol xukmronligini yo'qotish va boshqa talablarni qo'ygan edi. 1648 yilning 28 oktyabrida Petnida armiya kengashi bo'ldi. Levellerlar respublika, independentlar konstituttsion monarxiya tarafdorlari edilar. Petnida independentlar g'alaba qozondilar. 1647 yilning noyabrida Karl I Uayt oroliga qochib borib shotland presviterianlari bilan ittifoq tuzdi. 1646 yili bu yerda ikkinchi fuqoralar urishi boshlandi, sentyabrda urush Krom'vel g'alabasi bilan tugadi. 6 dekabr'da polkovnik Prayd parlamentda «Prayd tozalovi» ni o'tkazdi.

Oliy xaqiqat sudi tashkil etildi. 1649 yilning 30 yanvarida Karl I qatl etildi. Angliya respublika deb e`lon qilindi.

Respublika va protektorat.

Respublika o`rnatilgach levellerlar bu tuzumni keskin tanqid qildilar, "Angliyaning Yangi zanjirlari" pamfletini chiqardilar. Xaqiqatdan xam Angliyada xokimiyat armiya qo`mondonlari va Kromvel qo`lida to`plangan edi. Parlament xalqqa demokratik erkinliklar bermagan edi. Urushlar tufayli xalq axvoli yanada og`irlashgan edi. 40 minglik Armiyani xarajatlari xalq gardaniga edi.

1649 yilning baxorida «chin levellerlar» yoki diggerlar (xaydovchilar) xarakati keng yoyildi. Kurashga J.Uinstenli raxbarlik qilib, Serri grafligida Avliyo Georgiy tepaligida o`z faoliyatini boshlaydi. Bu ilk ibtidoiy kommunistik manzilgox bo`lib, 1650 yilda yakson qilingan. Shu davrda levellerlar Solsberida qo`zg`olon ko`taradilar, ammo Kromvel qo`zg`olonni bostirib, jazo to`g`risidagi qonunlarini e`lon qiladi. Inqilobning demokratik kuchlari mag`lubiyatga uchraydi. 1649 yilning iyulida Kromvel Irlandiyaga yurish boshlaydi. Buni ikkita muxim xususiyati bor:

1. Irlandiya talanib aksilinqilobiy lendlordlar sinfi tashkil topdi.
2. Inqilobiy armiya, talonchi armiyaga aylanib xalq xarakati sindirildi.

Karl I ning o`g`li Karl II Shotlandiyada Uch mamlakat qiroli deb e`lon qilindi. Shotlandiyada prosviterian cherkovi xukmronligi o`rnatildi. 1650 yilning 3 sentyabrida, 1651 yilda Denbar va Vusterda Kromvel Karl II ni mag`lubiyatga uchratdi. Kromvel obro`si yanada ko`tarilib Yevropa mamlakatlari Angliya respublikasini tan oldilar.

Ammo mamlakatning ichki axvoli yanada og`ir, juda xam achinarli edi. Mamlakat xonavayron bo`lgan, savdo, xunarmandchilik, dexqonchilik orqaga ketgan edi. Yangi xo`jayinlar xalqni yanada ayovsiz talar edilar. Bu davrdagi parlamant «qoloqlari» (dumlari) a`zolari maqsadi o`zaro boyish, xukmronliklarini

oʻrnatish va kuchaytirishdan iborat edi. Barcha tabaqalar isloxotlarni talab qila boshladilar. 1653 yilning 20 aprelida Kromvel Yangi parlamentni tuzadi. U 139 ta oʻrta tabaqa vakillaridan tuzilgan edi. Bu parlament qirol sudini bekor qildi, ingliz qonunshunosligini dasturga sola boshladi, kambagallarga yetkazilgan zarar uchun tovon pulini toʻlash va boshqa bir qator muxim tadbirlarni joriy qila boshladi.

Parlamentning bu tadbiri xukmdor tabaqaga yoqmadi va kichik parlament oʻz-oʻzini tarqatib yuborishga majbur boʻldi. 1653 yilning dekabrda Angliyada Yangi «Boshqaruv quroli» nomli konstitutsiya qabul qilindi. Shunga muvofiq Kromvel Angliya, Shotlandiya, Irlandiyaning umrbod lord protektori (Oliy xukmdori) deb eʼlon qilindi. Parlament 400 kishidan iborat boʻlib, 3 yilda bir marta saylangan saylov okruglari shaxarlar va oʻrta tabaqalar foydasiga taqsimlangan. Ijroiya xukumat protektorga va 15 kishilik umrbod saylanadigan Davlat kengashiga topshirilgan edi. Protektor cheksiz xuquqlarga ega edi. Amalda Kromvel xarbiy diktaturasi oʻrnatilgan edi.

Protektorat kelishuvchilik va extiyotkorlik bilan siyosat olib bordi. Berbon parlamenti isloxotlari bekor qilindi. Shotlandiya va Irlandiya Angliyaga toʻla qoʻshib olindi. Ularni parlamentlari tarqatilib, 30 tadan iborat jamoa palatasiga vakillar yuborish mumkin edi xolos. Irlandiya axolisi xosilsiz yerlarga xaydaldi. Gollandiya bilan sulx tuzilib, Shvetsiya, Daniya, Portugaliya bilan foydali savdo shartnomalari tuzuldi. Parlament protektor xokimiyatini oshirishga, saylovchilar sonini kengaytirishga intildi. Oqibatda Kromvel parlamentni tarqatib yuborib, mamlakatni oʻzi boshqardi.

Angliya 11 okrugga boʻlinib, mayor-generallar politsiya rejimi oʻrnatildi. Angliyada sotqinlik, chaqimchilik kuchayib, shubxalar mamlakatiga aylandi. 1655 yilda Ispaniya bilan urush boshlandi, mablagʻ etishmovchiligi kuchaydi. Siti xukumatga zayom berishdan bosh tortdi. Kromvel 1656 yilning sentyabrda Yangi parlamentni chaqirishga majbur boʻldi. Yangi parlamentda O.Kromvel monarxiya

tuzumiga yaqin bo'lgan bu konstitutsiyani qabul qilib, tasdiqlagan bo'lsa xam, xukumatga muammolari xalq etish imkoni bo'lmadi. Moliyaviy defitsit kuchayib, davlat qarzi 1,5 mln. funt sterlingga etdi. Kromvelni shaxsiy obro'sigina Angliyani qo'zg'olonlar va parchalanishdan saqlab qoldi.

Ikkinchi respublika va styuartlar restavratsiyasi.

1653 yilning 3 sentyabrida Kromvel vafot etdi, xokimiyat uning o'g'li Richard qo'lga o'tdi, u mamlakatdagi axvolni yaxshilay olmadi. Xalq noroziligi kuchayib, 1659 yilning baxorida xokimiyatga, uzoq parlamentning qoloq (dumlar) respublikachilari kelib, Angliyada ikkinchi respublika o'rnatildi. Ammo ular o'z shaxsiy manfaatlari uchun kurashib, isloxotlarni amalga oshirishni uddalay olmadilar. 1659 yilda general Lambert qoloq (dumlar) respublikachilarni xaydab yuborib, xarbiy diktatura tuzumini o'rnatdi. General Mokka armiyasi Londonda joylashib, 1648 yilda parlamentdan xaydalgan prosviterianlarni xokimiyatga olib keldi.

1660 yilda prosviterianlar Vestminsterda yig'ilib, Uzoq parlament aktlarini bekor qilib, prosviterian cherkovi boshqaruvini joriy etdilar. Uzoq parlament vakillari o'zlarini tarqatib yuborib, Konventga saylovlar e'lon qildilar. Bu davrda Gollandiyada yashayotgan Karl II Bred deklaratsiyasini e'lon qilib, Angliya xalqiga amnistiya e'lon qildi. Konvent 1660 yilning 26 mayida Karl II ni qonuniy monarx deb e'lon qildi. Angliyada absolyut monarxiya tuzumi o'rnatildi. Restavratsiya repressiya bilan almashtirildi. Inqilob arboblari, sektantlar qo'lga olinib qatl etildi.

Anglikan cherkovi tiklanib, prosviterian va independentlar xaydab yuborildi. Karl II tipografiyalarni sonini, keskin kamaytirib, bosmaxonalar ustidan qattiq senzurani o'rnatdi. Maydonlarda turli adabiyotlar yoqildi. Royalchilar boy bergan mol-mulklarini qaytarib olishga intildilar. Ammo xukumat burjuaziya manfaatlari bilan xisoblashishga majbur edi. Karl II Portugaliya qirolchasiga uylanib, Bombey shaxrini qo'lga kiritdi. Angliya ichki xayotida reaksiya kuchaya boshladi.

Katoliklar Fransiyasining ta'siri kuchaydi. Muxolifatni qarshiligi xam kuchaya boshladi. 1685 yilda Karl II vafot etdi. Taxtga uning akasi Yakov II (katolik) chiqdi. Karl II ning noqonuniy o'g'li Manmout qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi.

Shundan so'ng terror yanada kuchaydi. Yakov II Angliyani Rim papasiga bo'ysindirishga intildi. 1688 yilda muxolifat Niderlandiya xukmdori, Yakov II ni kuyovi Vil'gelm Oranskiy (Mariyaning eri) ni Angliyada protestantlik erkinligini o'rnatishga taklif etdilar. 5 noyabrda Vil'gelm 15.000 lik qo'shin bilan Angliyaga tushdi. Yakov II Fransiyaga qochdi. 1689 yilda Vil'gelm Angliya qirol deb e'lon qilindi. Davlat to'ntarishi amalga oshirilib, «Sharafli inqilob» nomini oldi. Angliya konstitutsion monarxiyaga aylandi. Qirol parlament bilan bir birga xokimiyatni boshqardi. «Xuquqlar xaqida bill» qabul qilindi.

Qirol parlament ruxsatisiz soliq sola olmas, diniy ishlarga aralashmas, qo'shin to'play olmas edi. Ammo saylash xuquqi o'zgarmadi, anglikan cherkovi o'z kuchini saqlab qoldi, ammo boshqa oqimlarga erkinlik berildi. Ikki partiyali sistema qaror topdi: Viglar (burjua dvoryan partiyasi) va torilar (konservatorlar yer egalari) xukumat yer aristokratiyasi va burjuaziya o'rtasida taqsimlanib, xalq xayoti o'zgarishsiz qolaverdi. Mamlakatda agrar to'ntarish amalga oshdi, manufakturalar gullab yashnadi, mustamlakalar va dengizda xukmronlik uchun kurash keskinlashdi.

Ma`daniyat va siyosiy fikr.

XVII asrda Angliyada o'rta asr madaniyatidan, Yangi asr madaniyatiga burilish yuz berdi. Bu jarayon g'oyaviy dunyoqarashda o'z aksini topdi. Inqilobiy kurash e'tiqod erkinligi uchun kurash sifatida boshlandi. Bu kurash puritanlikni asosiy bayroq qilib oldi. Ammo inqilob davrida puritanlik mag'lubiyatga uchradi. Mavxum diniy qarashlar o'rniga, tafakkur ta'limoti idealistik intilishlar g'oyalar o'rniga birodarlik va muxabbat intilishlari g'oyalari keldi. Agar asr boshi Shekspir,

Marlo, Jonson, Spenser, Doin drama va poeziyasini gullab yashnashi bilan izoxlansa, inqilob madaniyati davrida Jon Milton ijodi gullab yashnadi. Uning ijodida Renessans va Reformatsiya g'oyalari keng yoyildi «Yo'qotilgan jannat», «Qaytarilgan jannat» poemalarida, «Samson kurashchi» dramalarida yaxshilik va yomonlik, insoniylik, shaxsiy, diniy erkinlik, respublikani yoqlash g'oyalari qo'llandi.

Bu davrda Samyu'l Xartlib to'garagi katta axamiyat kasb etadi. Uning to'garagi ijtimoiy ziyoli isloxotchilardan tashkil topgan edi va Yevropadagi isloxotchi gumanistik xarakterlar bilan uzviy bog'langan edi. To'garak a'zolari barcha soxalarda isloxotlar dasturini ishlab chiqdilar. Ular mashxur "Makariya qirolligi tarixi" utopik asarini yaratdilar. Tabiiy bilimlar, falsafiy bilimlar xam rivojlandi. Ular «Urush xammaga qarshi» g'oyasini rivojlantirdi, ammo kuchli avtoritar davlat tarafdori edilar. Filosof. J. Garrington respublika tarafdori bo'lib, yirik yer egalagini cheklash, yerlarni bo'lib berish, rotatsiya (Xar yili davlat tashkilotlarini uchdan bir qismini yangilash) g'oyalarini ilgari surdi. Levellerlar Lil'bern, Uol'vin, Overton tenglik g'oyalarini ilgari surdilar. Diggerlar sardori J.Uinstenli yerga umumiy egalik qilish g'oyasini ilgari surib, ijtimoiy utopiya g'oyalarini ilgari surdi. U. Petti o'z asarlarida «mexnat qiymati» teoriyasiga asos soldi. Kvaker J. Bellers «Ishlab chiqarish xamdo'stligi» loyixasini yaratdi. Bu xam mulkdorga foyda keltiradi va ishchilarni kambag'allikdan qutqaradi degan g'oyani ilgari surdi.

Inqilob mag'lubiyatga uchragach, mamlakatdagi g'oyaviy muxit birdaniga o'zgardi. Adabiyotda, siyosiy fikrlarda qo'rquv, tarqoqlik, tushkunlik keng yoyiladi. Qadriyatlar xam o'zgarib siyosiy muammolar o'rniga, iqtisodiy maanfatdorlik g'oyalari keng qo'llaniladi. J Chayld, Ch. Devenant, D Defo inson mavjudligining asosiy ma'nosi boylik to'plashdir degan g'oyani tan oldilar. Ilmiy texnik Yangiliklarga, boshqa mamlakatlarga iqtisodiy agressiyani yoqlashga intilish

kuchaydi. Angliyada poraxo'rlik, korruptsiya kuchaydi. Faylasuf D. Lokk «Xukumat xaqida traktat» asarida 1689 yillardagi voqealar mazmunini bayon qilib berdi. Angliyada ma`rifatparvarlik davri boshlandi.

XVIII asrda Angliyaning siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti.

1702-1714 yillarda Angliyada Anna (Mariyaning singlisi) qirollik qildi, so'ngra Gannoverlar dinastiyasi xukmronlik qildi. Parlament asosan yirik yer egalariidan tashkil topdi. Ammo xukumat va parlament burjuaziya manfaatlari bilan xisoblashishga majbur edi. Ikki partiyali sistema saqlanib qoldi. Torilar qirolni, viglar parlamentni qo'llab quvvatladilar. Ammo ijtimoiy maqsadlar bir xil ko'proq boylik to'plash edi. Korruptsiya butun siyosiy xayotni qamrab olgan edi.

1701 yilgi vorislik qonuniga ko'ra styuartlar taxtdan butunlay maxrum bo'ldilar. Mamlakatda ministrlar ta`siri kuchaydi. Ular parlamentda davlat siyosati uchun javobgar edilar. 1713 yilgi Utrext sulxiga ko'ra Angliya Gibraltar, Menorka orolini egallab, askento (Amerikadagi ispan mustamlakasiga 30 yil davomida qul tashish) xuquqini oldi. Viglar va torilar xokimiyatni almashib boshqarar edilar. Angliyada mustamlakalar kengaytirildi. Angliya, Ispaniya (1701-1713 yillar) taxti uchun, Avstriya (1740-1748 yillar) mulklari uchun urushlarda shuningdek Fransiyaga qarshi etti yillik (1756-1763 yillar) urushlarda ishtirok etib, yirik mustamlakachi davlatga aylandi.

«Ost-Indiya», «Gvineya» va boshqa savdo kompaniyalari, qul savdosi katta daromad keltirdi. XVIII asrda ikkita muxim jarayon 1) Agrar inqilob yakunlandi. 2) Yerlar yirik yer egalari qo'liga o'tdi. Yomenri (ingliz kam yerli dexqoni) tabaqasi butunlay yo'qoldi. Xonavayron bo'lgan dexqonlar, qambag'allar va daydilar saflarini to'ldirar edilar. Xukumat ularga qarshi ayovsiz qonunlar chiqardi. 1698 yilgi farmonga ko'ra nafaqa oluvchi qambag'allar qo'llariga maxsus belgi bog'lab yurishlari kerak bo'lib, boshqa xududga ruxsatsiz keta olmas edilar. Bolalar majburan manufakturalarga berilar, bolalar va ayollarga kam ish xaqi to'lanar edi.

Ko'plab dexqonlar Shimoliy Amerikaga emigratsiyaga ketdilar. Xukmron tabaqalar boyib bordi. Ular 1694 yilda Angliya bankiga asos soldilar.

XVIII asrda sanoatda xam muxim o'zgarishlar yuz berdi. Mayda ishlab chiqarish o'z o'rnini manufakturaga bo'shatib berdi. Mexanika soxasida bir qator o'zgarishlar qilindi. 1733 yilda Jon Key uchuvchi moki ixtiro qildi, to'quvchilik rivojlandi. 1738 yilda ip yigirish dastgoxi yaratildi. 1764 yilda Jeyms Xargvis «Jenni ip yigiruv dastgoxini» yaratdi. 1771 yilda R.Arkrayt birinchi ip yigiruv fabrikasini ochdi. 1790 yilda bunday fabrikalar soni 150 taga etdi. R. Arkrayt, E. Kartrayt bu ixtironi yanada rivojlantirdilar, 1765 yilda Jeyms Uatt bug' mashinasini yaratib, 1771 yilda uni yanada takomillashtirdi. Natijada sanoat korxonolari suv energiyasiga bog'liqlikdan ozod bo'ldi va ko'mirga extiyoj ortdi. Sanoatni rivojlanishi tufayli Manchester, Birmengem kabi yangi shaxarlar vujudga keldi, yo'llar qurilishi, transport, aloqa tizimi rivojlandi.

Yangi sinf, sanoat proletariati shakllandi. Mexnat og'ir, ish soatlari 14-18 soat edi. Ish xaqi oz edi. Mexnat intizomi qattiq edi. Yangi dastgoxlar yaratilishi, ishchilarni ko'plab ishdan bo'shatishlarga olib kelar edi. Natijada ishchilar stanoklarni buzib sindirar edilar. Angliyada ludchilar (Ned Ludd) xarakati keng yoyildi. 1769 yilda ludchilarga o'lim jazosi joriy qilindi. XVIII asrda stachka xarakati keng yoyildi. Sanoatning rivojlanishi tufayli, sanoat burjuaziyasining qudrati yanada yuksaldi. Irlandiyada qo'zg'olon ko'tarildi. 1783 yilda Angliya 13 ta mustamlakani (Shimoliy Amerika) mustaqilligini tan oldi, ammo Kanada va Xindistonni o'z qo'lida saqlab qoldi.

Xulosa:

XVIII asrda ingliz ma`rifarparvarligi gullab yashnadi. Bu jarayonda inqilob mutaffakkirlarining ta`siri katta bo'ldi. Tabiiy inson g'oyasi intellektual g'oyalar keng yoyildi. Shaxs erkinligi, xususiy mulkka egalik demokratik erkinliklar birinchi o'ringa qo'yildi. Lokk, Toland, Bolmeng Broklar xalq suverintetini tan olib xalq

siyosiy xayotda faol qatnashishi zarur degan g'oyani ilgari surdilar. Filosofiyada sensualizm (J. Lokk.) «xamma bilimlar va qarashlar insonning sezgi tajribasi maxsuli» g'oyalari keng yoyildi. Materialistlar ta'limoti xam Pristli, Kollinz, Gortli tomonidan keng rivojlantirildi. Adam Smit davlatni iqtisodiy boyish teoriyasiga asos soldi, raqobat erkinligini ximoya qildi. Radikal demokratik oqim (Pristli, Men, Goldvin) va utopik (Spens, Ogil'vi) ta'limotlari vujudga keldi.

Tayanch so'z va iboralar.

Puritan, djentri, lendlord, independent, presviterian, konsistoriya, levellerlar, restavratsiya, amnistiya, senzura, protektorat, diggerlar, askento, rotatsiya, parlament, absolyut, monarxiya.

Nazorat savollari.

1. Puritan cherkovi qanday tuzilgan edi?
2. Angliyada fuqarolar urushi sabablarini bilasizmi?
3. Angliyani respublika deb atalishini qanday axamiyati bor?
4. Olivyer Kromvel faoliyati xaqida nimalarni bilasiz?
5. Angliyadagi «Sanoat to'ntarishi» xaqida so'zlab bering?
6. Ingliz ma'rifatparvarlari qanday g'oyalarni ilgari surgan edilar?
7. Ingliz burjua inqilobi qanday tarixiy axamiyatga ega?
8. XVII-XVIII asrlarda Angliya qanday tashqi siyosat olib bordi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. Sharq. 1998 y.
2. Yurovskiy. E.E. Krivoguz.A.M. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». 1- 2 period. Moskva. 1998 y.
3. Yurovskiy.E.E. «Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Yevropi i Ameriki». 1640-1870 gg. Moskva. «Visshaya shkola». 1990 g.
4. «Vsemirnaya istoriya». v 12 ti tomax. Moskva. «Politizdat». 1960 g.
5. «Yangi tarix». 3 tomlik. Toshkent. 1976 y.

6. Kertman.L.G. «Geografiya, istoriya i kul`tura Anglii». Moskva. «Visshaya shkola». 1979

Mavzu: Fransiya XVII-XVIII asrlarda .

Reja:

Kirish.

1. Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
2. Fransiya absolyutizm va uning tushkunlikka uchrashi.
3. Fransuz ma`rifatparvarligi.
4. XVIII asrdagi Fransuz inqilobi. Oqibat va natijalari.
5. Konsullik va imperiya.
6. Vena kongressi va Burbonlar restavratsiyasi.

Xulosa.

Kirish.

XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiya Yevropadagi markazlashgan yirik mamlakatlardan biri edi. 30 yillik urushdagi g'alaba Fransiyaning Yevropadagi xarbiy-siyosiy axvolini birmuncha yaxshiladi. Fransiya agrar mamlakat bo'lib, 28 million axolisi bo'lib, 90% krist`yan dexqonlardan iborat edi. Mamlakatda manufakturalar ko'paya boshladi, asosan to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Fransiya sanoati asosan zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaxo materiallar, soatlar, vino va boshqa maxsulotlar ishlab chiqarar edi. Qog'oz, kitob, qurol-yarog' manufakturalari vujudga kelib, rivojlana boshladi. Fransuz dvoryani sanoat va savdo bilan (Angliya dvoryanidan farqli) shug'ullana olmas edi. Bu davrdagi ilk fransuz burjuaziyasi (XVII asrda) kuchsiz bo'lib, siyosiy mustaqillik uchun intilmas, absolyutizmning madadiga muxtoj edi.

XVII asrning ikkinchi yarmi Fransiya absolyutizmga qarshi kurash bilan o'tdi. Lyudovik XIII ning (1615-1643 yillar) xukmronligi davrida kardinal

Rishel'e (1624-1642 yillar) tomonidan , Lyudovik XIV ning (5 yosh, onasi Anna Avstriyskaya 1643-1661 yillar) xukmronligi davrida, uning regenti italiyalik Mazarini tomonlaridan mamlakat boshqarildi. Rishel'e va Mazarini xam absolyutizm siyosatini olib borganlar. Bu esa barcha tabaqalarning noroziligini vujudga keltirdi. Yangi soliqlar qabul qilish masalasida kelishmovchiliklar chiqqanda, Parij parlamentidan ikki a'zo qamoqqa olinadi. Bunga javoban Parijliklar minglab barrikadalar quradilar. Bu barrikadalar Fronda deb ataladi. Birinchi «Parlament frondasi» 1648-1649 yillarda, ikkinchi «Shaxzodalar frondasi» 1650-1653 yillarda yuz berdi. Ammo bu ikkala fronda xam Mazarini tomonidan bostirilgan.

Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

1661 yilda Mazarini vafot etdi va Lyudovik XIV mamlakatni mustaqil idora qila boshladi. Aynan uning davrida fransuz absolyutizmi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi va «Oltin davr», «Lyudovik XIVning davri» nomlarini oldi. Uning davrida markazlashtirish jarayoni jadallashib, qirol xokimiyati yanada kuchaydi. Lyudovik XIV ni 54 yillik qirolligining 33 yili urushlar bilan o'tdi, ammo bosh maqsad Yevropada gegemonlikka erishishga muvaffaq bo'linmadi. To'xtovsiz davom etgan urushlar mamlakatni xonavayron qildi. Mamlakat axolisi XVII asr so'ngida 15 million bo'lsa, XVIII asr boshlarida 12 million qoldi. 1701-1714 yillarda Ispaniya vorisligi uchun bo'lgan urushda, kamizarlilar (oq ko'ylaklilar, englar) qo'zg'olonlari to'xtagani yo'q.

Mamlakatning iqtisodiy og'ir axvoli burjuaziya, dvoryanlar va mexnatkashlarning noroziliklarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Iqtidorli iqtisodchi Kol'berning urinishlari, Yangi mustamlakalarni egallash uchun tuzilgan savdo kompaniyalari xam yordam bermadi. Lyudovik XIV vafotidan so'ng taxtga uning nevarasi 5 yoshli Filipp Orleanskiy chiqib, taxtni 8 yil boshqardi. Ammo Yangi xukumat xam mamlakatni iqtisodiy krizisdan olib chiqib keta olmadi. XVIII

asrning 40-60 yillarida Fransiya Prussiya tomonidan turib Avstriya bilan (1740-1748 yillar) urush olib bordi, Angliyaga qarshi 7 yillik urushda (1756-1763 yillar) qatnashdi, bu esa mamlakat axvolini og'irlashtirdi.

Urushlar oqibatida Fransiya Yangi dunyo va Xindistondagi barcha mustamlakalaridan maxrum bo'ldi. Fransiya absolyutizmi va uning tushkunlikka uchrashi yanada kuchaydi. Agar Lyudovik XIV davri «Davlat mening o'zim» usulida davlat boshqarilgan bo'lsa, Lyudovik XV davri «Bizdan so'ng nima bo'lsa bo'lar» qabilida davlat boshqarildi. Uning davrida bazmu jamshidlar, tekinxo'r saroy aristoqratiyasini saqlash uchun ulkan mablag'lar sarflandi. Shunga qaramay XVIII asrning o'rtalaridan Fransiyada sanoat, savdo, qishloq xo'jaligi rivojlandi. 1790 yili axoli 26 million kishiga yetdi, qishloq axolisi jami axolining 84%ni tashkil qilgan edi.

Fransiyadagi ayrim dvoryanlar xo'jalikni kapitalistik asosda yuritish yo'liga o'tdilar. Dexqonlarga 40% yerlar senziva (abadiy merosiy mulk) shaklida qarashli bo'lib, dexqon bu yerdan keta olmas edi, sen'or uning xaydashi yoki yerdan maxrum qilishi mumkin emas edi. Dexqon shaxsan erkin va ko'pdan ko'p qadimgi urf-odatlar orqali: (o'lik qo'llar, shampar, natural soliq, cherkov solig'i, yo'l, ko'prik solig'i va xokazo) shaxsan qaram edi. Shunga qaramay Fransiya iqtisodida sanoat muxim rol o'ynay boshladi.

Tashqi va ichki savdo rivojlandi, yirik manufakturalar vujudga kela boshladi, savdo va sanoatchilar tabaqalarining iqtisodiy, ijtimoiy mavqei kuchaya boshladi. Ammo Fransiyada savdo va sanoatining rivojlanishiga absolyutizm, imtiyozli qirol manufakturalari, yagona og'irlik va o'lchov birliklarining yo'qligi, ichki bojxonalar, umum Fransuz bozorining shakllanmaganligi, feodal tartib sarqitlari to'sqinlik qilar edi. XVIII asr ikkinchi yarmida Fransiyada sanoatchilar, dvoryanlar, dexqonlar va ishchilarning ommaviy noroziligi kuchayadi. Ular imtiyozli tabaqalashtirishni yo'qotishni talab qildilar.

Fransuz ma`rifatparvarligi.

XVIII asrning o`rtalarida Fransuz ma`rifatparvarligining kuchli yuksalish davri bo`ldi, Fransuz burjuaziyasi va mexnatkashlari ommasining antifeodal intilishlarini namoyon etuvchi keng g`oyaviy oqimlar vujudga keldi. Olimlar, ma`rifatparvarlar, yozuvchilar ana shu g`oyalarning asoschilari bo`ldilar. Fanning turli soxalariga doir 600 dan ortiq lugatlar yaratildi. Beffonning ko`p tomli «Tabiat tarixi», Didro va Alamberini «Fanlar va xunarlar entsiklopediyasi», ko`plab bibliografik jurnallar, sayyoxatlar xaqida kitoblar chop etildi. Avval kitoblar monastirlarda saqlanib, faqat aristokratlar kutubxonaga ega bo`lgan bo`lsalar, endi yozuvchilar, amaldorlar, savdogarlar va boshqalar xam kutubxonalarga ega bo`la boshladilar. Ko`plab fransuz shaxarlarida kitob auksionlari o`tkazilar edi. Kitoblar Gollandiya, Shveytsariyada xam keng nashr qilinar va ko`plab kitob olib kelinib, sotuvchilar tomonidan Fransiyaning deyarli xamma shaxarlarida sotilar edi.

Bu davrda Fransiyaning barcha xududlarida maxfiy tipografiyalar, ta`qiqlangan adabiyotlar saqlanadigan ko`plab omborxonalari mavjud edi. Fransuz ma`rifatparvarlari: Vol`ter, Montesk`e, Russo, Didro, D.Alamberilar mavjud tuzumni keskin tanqid qilib, ozodlik va fuqarolar tengligi g`oyasini ilgari surdilar. Ularning g`oyalari Fransiyaning ruxiy madaniyati, revolyutsion qudratini oshirishda muxim rol` o`ynadi. Bu g`oyalar G`arbiy Yevropa, Janubiy Amerika, Shimoliy Rossiya davlatlariga kuchli ta`sir ko`rsatdi.

XVIII asrning 80 yillarida Fransiya feodal-absolyut tuzum krizisi yanada kuchaydi. 1787-1789 yillarda savdo-sanoat krizisi yuz berdi. 1786 yilda Angliya bilan tuzilgan shartnomaga ko`ra, Fransiya bozorlari arzon ingliz maxsulotlari uchun ochib qo`yildi. Ishlab chiqarishning to`xtab qolishi natijasida ishsizlik kuchaydi. 1788 yilgi qaxatchilik tufayli, oziq-ovqat maxsulotlarining narxi oshib ketdi. Davlat qarzi 3 martaga oshdi (1,5 milliard livrdan, 4,5 milliard livrga yetdi). 1787 yili monarxiya tarafdorlari «notabllar kengashi» ini (imtiyozli tabaqalarning

mashxur namoyondalari) chaqirdilar. Ammo ular xam 1614 yildan buyon chaqirilmayotgan General shtatlarni chaqirishni talab qildilar. General shtatlarni chaqirish, 1789 yilning baxoriga belgilandi. Shaxar va qishloqlarda deputatlarga nakazlar (talablar) ishlab chiqila boshlandi. Lyudovik XVI (1774-1792 yillar) yon berishga majbur bo'ldi. Ba'zi amaldorlarni almashtirdi, uchinchi tabaqa deputatlarining soni ko'paytirilib, doimiy turar joyga ega va soliq to'lay oladigan, 25 yoshli erkaklar saylash xuquqiga ega bo'ldilar.

XVIII asrdagi Fransuz inqilobi.

1788 yilning baxoridan Fransiyada kuchli xalq xarakati keng quloch yoydi, qo'zg'olonlar odatiy xolga aylanib qoldi. Nashriyot senzuradan ozod qilinib, juda ko'plab broshyuralar bosmaxonadan chiqdi. 1789 yilning 5 mayida Versal`da «General shtatlar» chaqirildi. Birinchi tabaqa : ruxoniylar 291 ta, ikkinchi tabaqa: 270 ta deputat dvoryanlardan, uchinchi tabaqa : 578 ta yer egalari, savdogarlar, sanoatchilar, intelligentsiya vakillaridan tashkil topgan edi. To'rtinchi tabaqa yo'q edi. Uchinchi tabaqa 17 iyunda «Millat yig'ilishi» (majlis,400 ta deputat) e'lon qilib, agar uni tarqatib yuborilsa, xalqni soliqlarni to'lamaslikka chaqirdilar. 9 iyo'lda barcha tabaqalar «Millat majlisiga» yig'ilib, o'zlarini «Ta'sis majlisi» deb e'lon qildilar. Qirol revolyutsiyani bostirish uchun yollanma xarbiy qo'shinini shaxarga kiritmoqchi bo'ldi.

12-13 iyulda g'alayonlar kuchayib, 14 iyulda xalq invalidlar uyiga bostirib kirib, qurollandi va Bastiliya qal'asini xujum bilan egalladi. Xujumda 662 kishi qatnashgan. Absolyutizm ag'darilib, dvoryanlar emigratsiyasi boshlandi, Fransiyada kuchli xalq ko'tarilishlari boshlandi. Bundan qo'rqqan «Ta'sis majlisi» 1789 yilning avgustida 2 ta muxim qonun aktlarini e'lon qildi: imtiyozli tabaqalar bekor qilindi, davlat soliqlarini to'lashda xamma tenglashtirildi. 26 avgustda majlis tomonidan «Inson va fuqarolik xuquqlari deklaratsiya»sini e'lon qilinishi katta

revolyutsion axamiyatga ega edi va bu yon berishlar siyosatini boshlanganligini bildirar edi.

Qonun oldida barchaning tengligi, soʻz, matbuot, vijdon erkinliklari, xavfsizlik xuquqi va boshqa xuquqlar eʼlon qilindi. Taʼsis majlisida markiz Lafayet va graf Mirabo katta rol oʻynadilar. 1790-1791 yillarda majlis merosiy dvoryanlik instituti, dvoryan gerblari va titullarini bekor qildi, ichki bojxonalar yoʻqotilib, sex sistemasi, Davlat reglamentatsiyasi bekor qilinib, tadbirkorlikka keng yoʻl berildi. Stachkalarini uyushtirish va oʻtkazishni taʼqiqlash qonuni eʼlon qilindi. 1791 yilning sentyabrida Taʼsis majlisi konstitutsiyani ishlab chiqarishni yakunladi. Barcha fuqarolar aktiv (25 yoshga toʻlgan erkaklar, 3 livr miqdorida soliq toʻlovchi, saylash xuquqiga ega) va passiv (saylov xuquqi yoʻq) fuqarolarga boʻlindi.

Konstitutsiya Fransiyada konstitutsion monarxiya tuzumini oʻrnatdi, bir palatali qonun chiqaruvchi yigʻilish qonun chiqaruvchi xokimiyatga, ijroiyl xokimiyat monarx vorisi va u tayinlagan ministirlarga tegishli boʻldi. Fransiya 83 ta departamentga boʻlindi. 1791 yilning 21 iyunida Lyudovik XVI Parijdan Varennga qochmoqchi boʻldi, u Avstriya armiyasidan madad olmoqchi edi. Ammo sir ochilib, qirol qoʻlga tushadi, xalq uni sotqin deb atay boshlaydi. Natijada siyosiy maqsadlarda: felʼyanlar, kordelʼerlar, yakobinchilar (monastir nomlaridan olingan, Avliyo Yakov, kordelʼerlar - belga arqon bogʻlovchilar, felʼyanlar- yirik moliyachilar, boylar) kabi klublar vujudga keldi. «Xalq doʻsti», «Papasha Dyushen» gazetalari katta gʻoyaviy taʼsirga ega edi.

1792 yilning fevralida Avstriya va Prussiya revolyutsion Fransiyaga qarshi ittifoq tuzdilar. Qirol, jirondistlar urush tarafdorlari boʻlib, felʼyanlarning baʼzilari va yakobinchilar urushga qarshi edilar. 1792 yilning 20 aprel kuni Fransiya Avstriyaga urush eʼlon qildi. 1792 yilning 10 avgustida xalq qoʻzgʻolon koʻtardi. Natijada qoʻzgʻolonchilar Parijni egallab, Parij kommunasini tuzdilar. 13 avgustda qirol oilasi bilan Tyuilʼri saroyidan Tamplʼ qasriga qamaldi. 11 avgust

dekretiga ko'ra fuqarolarning aktiv va passivlarga bo'linishi bekor qilinib, janob o'rniga grajdanin so'zi ishlatila boshlandi. 21 yoshli erkaklar saylov xuquqiga ega bo'ldilar. 1792 yilning 17 avgustida doktor J.Gil'otin gil'otinani yaratdi va qurdi. Konstitutsion monarxiya tarafdorlari xokimiyatdan chiqarilib, kommunarlar xokimiyatga chiqdilar, ko'plab dekretlar qabul qilindi, ammo amalga oshmadi. 20 sentyabrda Val'mi yonida revolyutsion armiya avstriya va pruss qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi, bu galabaning axamiyati katta bo'ldi, «Kulbalarga tinchlik, saroylarga urush» shiorini o'rtaga tashladi.

1792 yilning 20 avgustida Konvent ochildi. Jirondistlar 165 ta, montan'erlar 110 ta o'rin egallashdi, 500 ta gruppirovkalarga kirmagan vakillar «botqoq» nomini olishgan. 21 avgustda Konvent qirol xokimiyati tugatilganligi xaqidagi dekretni e'lon qildi, 22 avgustda Fransiya respublika deb e'lon qilindi. Konvent oziq-ovqat, non, narxlar, yer to'g'risida ko'plab dekretlar e'lon qildi va ularning ko'pchiligi amalga oshmadi. Ko'plab dexqonlar yerlarni o'zlaricha taqsimlab ola boshladilar. 1793 yilning 21 yanvarida soat 11 da Lyudovik XVI, oktyabrda Mariya Antuanetta qatl etildi . Jirondistlar Konventi «12 Komitet» tashkilotini tuzib , Kommunaga qarshi kurash boshladi. Jirondistlarga qarshi Kommunarlar birlashib, «Qo'zg'olon komiteti» tuzilib, 1793 yilning 31 mayida milliy gvardiya Konventni o'rab olib, jirondistlarni qamoqqa olinib, xokimiyatga yakobinchilar chiqdilar. Ammo Jirondistlar va Yakobinchilar tarafdorlari o'rtasida qurolli kurash boshlandi va Vandeyada jangda 600 ming Fransuz qirildi.

Yakobinchilar qo'zg'olonlarni oldini olish uchun 3 iyunda, 17 iyulda yerlar to'g'risida dekretlar chiqardilar, ammo bu dekretlar amalda qo'llanilmadi. Yer yana puli bor shaxslar qo'lida qoldi. Ammo yakobinchilar xam: qattiqqo'llar (beshennie) va so'l yakobinchilarga bo'linishdi. 1793 yilning 29 iyunida Konvent Yangi Fransiya Konstitutsiyasini qabul qildi: 21 yoshdan saylov xuquqi, umumiy baxt, mexnat, bilim olish, yordam olish, namoyish o'tkazish va boshqa xuquqlar

e`lon qilindi. Ammo bu xuquqlar rasmiy bo`lib, kafolatlanmagan, qonuniy asos yo`q edi. Bu konstitutsiyani qo`llash urush tugaguncha to`xtatildi. Yakobinchilar Konventi tarqab ketdi. 1793 yilning 13 iyulida Marat, Lionda Shal`e o`ldirildi.

1793-1794 yillarning kuzi va qishida urushda tub burilish bo`ldi. Amal`galma (o`qitilgan doimiy xarbiy qismlar bilan o`qitilmagan revolyutsion volonterlar xarbiy qismlari yaqinlashtirildi), aniq fanlardan foydalanish, dunyoda birinchi bo`lib xarbiy majburiyatni joriy etilishi, xarbiy taktikaning o`zgartirilishi tufayli Fransuz armiyasi g`alabalarga erishdi. Ammo yakobinchilar ichidagi kurash yanada kuchaydi, Robesp`yer boshqa gruppirovkalarga nisbatan terrorni kuchaytirdi. 24 iyundan keyin, qishda Jak, Shomet, Eber, Danton va boshqalar gil`otinaga tushdilar. Bularning barchasi Robesp`erga bo`lgan nafratni kuchaytirdi. 1794 yil baxoridan yakobinchilar bloki tushkunlikka uchray boshladi.

Yangi diniy oqim: «Oliy ong e`tiqodi» atrofida xalqni birlashtirish g`oyasi amalga oshmadi. 1794 yilning 10 iyuldagi terrorni kuchaytirish qonuni barcha tabaqalarni qo`rqitib yubordi. 1794 yilning 27 iyuli tunida Robesp`yer va uning tarafdorlari, ratushada Konvent a`zolari tomonidan otib o`ldirildi, o`lganlar ertasiga gil`otinadan o`tkazildi. Yana 80 nafar Parij Kommunasi a`zosi gil`otinadan o`tkazildi. Yakobinchilar diktaturasi yo`q qilinib, Konventni yakobinchilardan tozalandi. Yakobinchilar diktaturasi Fransiya xalqining axvolini yaxshilamadi.

Oqibat va natijalari.

Termidor to`ntarishi revolyutsiyaning tugashining boshlanishi bo`lib, Fransiyaning Napoleon Bonapart imperiyasiga olib keldi. U Termidor, II yili (27 iyo`l 1794 yil) xokimiyat Konvent qo`liga o`tdi. Termidor Konventi 27 iyo`ldan 26 oqtyabr 1795 yilgacha xokimiyatni boshqardi. 1795 yilning 12 terminali (1 aprel) da , 1 prerialya (20 may) da qo`zg`olonlar ko`tarilib, non va Yangi konstitutsiya

talab qilindi. Oqibatda 1795 yilda termidor Konventi Yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Bu konstitutsiya respublikani saqlab qoldi, umumiy saylov xuquqini bekor qildi, xususiy mulkchilik xuquqini e`lon qildi.

Revolyutsiya davrida qo`lga kiritilgan mulklarni qonuniylashtirildi, Konvent o`rniga «Oqsoqollar kengashi» (40 yoshdan katta, 250 kishi) va «500 lar kengashi» tuzilganligi e`lon qilindi. Bu ikki palata qonun chiqarish xokimiyatini qo`lga kiritdilar. Qonun chiqaruvchilar Direktoriyani saylardilar. Direktoriya 5 ta direktordan tashkil topgan, to`la ijroiya xokimiyat edi. Direktoriya burjuaziya manfaatini ko`zlar edi. Konvent tarqatilib, xokimiyat direktoriya qo`liga o`tdi. Termidor Konventi a`zolari «Oqsoqollar kengashi» va «500 lar kengashi» ga kirdilar. Direktoriya tarkibi 1795 yilning 4 brumerida va 1799 yilning 18 bryumerida almashdi, ammo xalqni axvoli og`irligicha qoldi.

Mana shunday noroziliklar sharoitida, mazlum sinf axvolini yaxshilash uchun turli guruxdagi kishilar kurash olib bordilar. Ulardan biri taniqli yurist va yer taqsimotchi Fransua Noel` Babyof (1760-1797 yillarda yashagan) edi. U asli Pikardiyalik bo`lib, revolyutsiya vaqtida Parijga ko`chib kelgan va mexnatkashlar axvolini juda yaxshi bilar edi. U Parij Kommunasi oziq-ovqat komissiyasida ishlagan, Konventni, Robesp`erni qattiq tanqid qilgan, xususiy mulkni ashaddiy dushmani edi. U turli jurnallarni chop etdi, ammo juda ko`p marta sudlandi, qamaldi. Turmada u Darete, Buonarotti va boshqa revolyutsionerlar bilan tanishib, «Tenglar jamiyatini» tashkil qildi, o`zini Grakx (Rim tribuni) deb ataydi. Ammo sotqin tufayli Babyof va Darete qatl etiladi. Jamiyatning «Tenglar manifesti» asari Buonarotti tomonidan Bel`giyada 1828 yilda chop etiladi.

Direktoriya vaziyatga qarab yakobinchilar, royalistlar va demokratlar bilan yaqinlashar edi. Direktoriya davrida Fransiya Respublikasini ximoya qilish uchun boshlangan urush, 1797 yildan mustamlakatchilik urushlariga aylandi. N. Bonapart Italiya va Avstriya qo`shinlariga zarba berib, Kampoforlio tinchlik sulxiga ko`ra

Lombardiyani, (Tsizalpinskugo) Genuya (Liguriya respublikasi)ni, Venetsiya respublikasini, Bel`giyani, Shveytsariyani, Ioniya orollarini Fransiyaga bo`ysindirib, u yerlarni talon-taroj qildi. Angliyani mustamlakachilik tuzumiga zarba berish uchun Fransiya Xindistonga ekspeditsiya yubordi. Napoleon Misr armiyasini yengdi (1798 yilning 20 iyunida Piramidalar yonidagi jangda) va Napoleon armiyani Suriyaga olib kirdi, ammo kasalliklar uning armiyasi axvolini og`irlashtirdi. 1 avgustda admiral Nel`son qo`modonligidagi ingliz floti Abukir bo`gozi yonida Fransuz eskadrasini yengdi. Angliya, Rossiya, Turkiya, Avstriya, Neopolitan qirolligi antifransuz ittifoqini tuzdilar. Xarbiy mag`lubiyatlar va tashqi xavfning kuchayishi, Direktoriyaning qarama-qarshi siyosati, ichki qo`zg`olonlar Fransiya yuqori tabaqalarini qo`rqitib yubordi. 18 bryumeri (1799 yilning 9 noyabrida) da 5 ta direktorlar iste`foga chiqdilar, «500 lar kengashi» xokimiyatni 3 ta konsulga berish dekretini qabul qilishga majbur bo`ldilar: birinchi Konsul etib Napoleon saylandi, xokimiyat uning qo`lida to`plandi.

Konsullik va imperiya.

Napoleon o`z xokimiyatni xuquqiy asoslash uchun Yangi konstitutsiya qabul qildi. Bunga ko`ra Fransiya respublikaligicha qoldi, ammo butun xokimiyat birinchi konsul qo`lida to`plandi. Konsul 10 yil muddatga saylanadigan bo`ldi. Birinchi konsul armiya qo`mondoni, qonun chiqaruvchi xokimiyatni a`zolarini tayinlash xuquqini qo`lga kiritdi, barcha ministrlar unga bo`ysingan. Maxalliy boshqaruv yo`qotilib, birinchi konsul tayinlangan perfektlar departamentlarni boshqara boshladi. Napolen talantli qo`mondon, ajoyib tashkilotchi edi. U revolyutsiya g`alabalarini saqlab qoldi, bu esa sanoatchilar va qoloq krestyanlar uchun manfaatli edi. Tangalarda uning tasviri tushirildi. 1802 yildan Napoleon tug`ilgan kuni, 15 avgust milliy bayram deb e`lon qilindi. U umrbod konsullik, valiabd tayinlash, ko`plab qirollar ega bo`lmagan xuquqqa ega bo`ldi.

1801 yilning 14 avgustida Rim papasi bilan konkordat shartnomasi imzolandi, cherkovni davlatdan ajratishga chek qo'yildi, diniy bayramlar qayta tiklandi. Papa xam revolyutsiya davrida davlatning cherkovdan tortib olgan yerlariga da'vosidan voz kechdi. 1804 yilda Napoleonga papa tomonidan tantanali ravishda imperatorlik toji kiydirildi. Bu voqea Davidning «Koronatsiya Jozefini» kartinasida aks ettirildi. 1804 yil, 1808 yil, 1811 yillarda Grajdan, Tadbirkorlik, Jinoyat kodekslari «Napoleon kodekslari» nomi bilan e'lon qilindi. Kodekslar fuqarolik munosabatlarini nazorat qilishi, xususiy mulkni ximoya qilishi kerak edi. Kodekslar progressiv axamiyatga ega bo'lib, Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlagan bo'lsada, vijdon erkinligi, qonun oldida tenglik, xususiy mulk daxlsizligini saqlab qolgan bo'lsada, jismoniy jazolash, o'lim jazosi, ayollar xuquqsizligi saqlanib qolgan edi.

Shunday bo'lsada Fransiya qishloq xo'jaligi: uzumchilik, vinochilik, chorvachilik, donli ekinlar etishtirish rivojlandi. Sanoatda: to'qimachilik, ipakchilik, metallurgiya rivojlandi, sanoat to'ntarishi boshlandi. Bug' mashinalari joriy qilindi. Sanoatda mashinalar soni 30 marta o'sdi. XIX asrning birinchi o'n yilligida sanoat 50% ga o'sdi, sanoatda, savdoda bosh upravleniyalar (boshqarmalar) tashkil topdi, Fransiya banki vujudga keldi. Fransuz burzuaziyasining mavqei mustaxkamlandi.

Napoleonning tashqi siyosati burjuaziya manfaatlari uchun xizmat qilar, Fransiyaning Yevropadagi iqtisodiy va siyosiy gegemonligini ta'minlashni maqsad qilib olgan edi. Napoleon armiyasi doimiy, ozod dexqonlardan tashkil topgan va malakali qo'mondonlar bilan ta'minlangan edi. Napoleon kodekslari Fransiya bo'ysinuvchi: Shveysariya, Varshava gertsogligi, Bel'giya, Ital'yan davlatlarida xam joriy qilindi. Bu mamlakatlarda taxtga Napoleon o'z aka-ukalarini, qarindoshlarini chiqargan. Yuqoridagi mamlakatlarda Napoleon kodekslari qo'llab quvvatlangan. Ammo Napoleonning siyosati Angliya, Avstriya, Rossiya,

Prussiyaning keskin qarshiligiga uchragan. 1805 yilning kuzida urush qaytadan avj olgan. 1805 yilning 21 oktyabrida Angliya admirali Nel'son Trafal'galar burnida fransuz-ispan flotini yenggan. Ammo 2 dekabr` kuni Austerlits jangida fransuzlar avstriya va rus qo'shinlarini engib, Italiyani to'la qo'lga kiritishgan. 1806 yilda Vena va Auershtadt jangida Prussiya mag'lubiyatiga uchratilib , fransuz qo'shinlari Berlinga kirgan.

Vena kongressi va Burbonlar restavratsiyasi.

Napoleon o'zining dushmani Angliyaga kontinental qamal e'lon qiladi, Angliya bilan xar qanday aloqalar, savdo-sotiq ta'qiqlanadi. Ammo Angliya o'z ittifoqchilari bilan dengiz kontrabandasini tashkil qiladi. Bu Rossiyaga katta zarar keltirar edi. 1807 yilda Sharqiy Prussiyadagi ikkita yirik jangda fransuzlar ruslarni yengdilar, ammo ikkalasi xam tinchlikni xoxlar edi. 1807 yilning 7 iyulida Til'zitda Aleksandr I va Napoleon I ittifoqchilik va tinchlik sulxini tuzdilar. Rossiya Fransiyani Yevropadagi gegemonligini tan oldi, kontinental qamalga qo'shilib, Angliyaga qarshi ittifoqqa qo'shildi. 1809 yilning baxorida Avstriya Yangi urushni boshladi, ammo mag'lubiyatga uchradi. 1809 yilda, Venada sulx tuzildi, Avstriya o'zining bir qism territoriyasidan maxrum bo'ldi. Bosib olingan mamlakatlardagi milliy ozodlik xarakatlari, kontinental qamal, Fransiyaning axvolini og'irlashtirib, sanoat krizisi boshlandi. Burjuaziya qatlamlari Napoleondan norozi bo'la boshladilar. Napoleon o'z xokimiyatini abadiylashtirish uchun Avstriya imperatori Fransning qizi Mariya Luizaga uylanadi. 1810 yili Napoleon xokimiyatini eng gullagan davri edi.

Bu davrda Fransiya-Rossiya munosabatlari yomonlashadi: Rossiya o'z portlariga neytral kemalar kirishiga ruxsat beradi, 1811 yilda Fransuz tovarlariga yuqori boj soliqlari solinadi. Napoleon Prussiya, Avstriya bilan ittifoq tuzib, Rossiyani diplomatik izolyatsiya qilishga urinadi, ammo bu amalga oshmaydi. Napoleon 500 ming kishilik saralangan armiyasi bilan 1812 yilning 24 iyuni tunida

Rossiyaga bostirib kirdi. Borodino qishlog'ida 7 sentyabr (26 avgust) kuni (ruslar 120 ming, Fransuzlar 135 ming) yirik janglardan biri bo'lgan. 14 sentyabrda Fransuzlar Moskvaga kirib, 18 oktyabrda chiqib ketishga majbur bo'lgan, oziq-ovqat etishmasligi, partizanlar urushi, ruxiy tushkunlik fransuzlarni mag'lubiyatga uchratgan. 1812 yilning dekabr oyining o'rtalarida Napoleon 20 minglik qolgan armiyasi bilan Parijga kiradi.

1813 yilning baxorida Fransiyaga qarshi olti davlat ittifoq: Rossiya, Angliya, Ispaniya, Portugaliya, Prussiya, Shvetsiya, Avstriya tuzadilar. 1813 yilning 16-19 oktyabrda Leyptsig yaqinida xalqlar jangi bo'lib o'tadi. Fransuzlar mag'lubiyatga uchraydilar. 1814 yilning 31 martida ittifoqchilar Parijga kiradilar. Parijda Taleyran boshchiligida muvaqqat xukumat tuziladi. 30 mayda tinchlik bitimi imzolanadi. Fransiyaning barcha XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida egallagan mulklaridan maxrum qilinadi, chegarasi 1792 yilning xolatiga qaytariladi. Napoleon taxtdan tushirilib, Lyudovik XVI ning akasi Graf de Lil` (Fransiyada 20 yil yashamagan) Lyudovik XVIII nomi bilan taxtga chiqadi.

Xulosa.

Lyudovik XVIII bilan birga Fransiyaga ko'plab emigrantlar qaytib keladi. U 1814 yilda xartiya e'lon qilib, Fransiyaning konstitutsion monarxiya deb e'lon qiladi. Ikki palatali parlament tashkil etildi: yuqori palata qirol tomonidan saylanadi, quyi palata 40 yoshdan yuqori 1000 frank soliq to'laydigan kishilar tomonidan saylanadi. Lyudovik XVIII ba'zi bir o'zgarishlarni tan olishga majbur bo'ladi. 1814 yilning sentyabrda Venada Kongress chaqiriladi.

Kongresda ittifoqchilar o'rtasida norozilik kelib chiqadi, direktoriyadagi kelishmovchiliklardan foydalanib, Napoleon 1815 yilning 1 martida Parij tomon yurish boshlaydi. Lyudovik XVIII qochib ketadi. 1815 yilda Napoleon o'zining so'nggi yurishini Parijdan Bel'giyaga boshlaydi. 18 iyunida Vaterloo jangida u ittifoqchilardan qaqshatgich zarbaga uchraydi. 22 iyunida inglizlarga asirga tushadi,

ikkinchi marta taxtdan voz kechib, Avliyo Elena oroliga surgun qilinadi. 1821 yilning mayida vafot etadi.

Tayanch soʻz va iboralar:

Manufaktura, fronda, regent, shampar, passiv, felʼyanlar, kordelʼer, konvent, kommuna, amalʼgalma, konkordat, konsul, yakobinshilar.

Nazorat savollari:

1. Fransuz absolyutizmi qachon oʻzining eng yuqori choʻqqisiga chiqdi?
2. Antifeodal gʻoyalarni qaysi Fransuz mutafakkirlari ilgari surdilar?
3. Aktiv fuqarolar qanday xuquqlarga ega edilar?
4. Fransuz inqilobiy armiyasi qanday shiorni oʻrtaga tashladi?
5. Fransuz revolyutsiyasining oqibatlari eslang?
6. Konsullik Fransiyada kim tomonidan joriy etildi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. Yurovskoy.E.E.,Krivoguz.I.M. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» Moskva. «Visshaya shkola». 1998 g.
3. Ado. A.V, Sirotkina. V.G. «Velikaya Fransuzkaya revolyutsiya i Rossiya». v 2 tomax. Moskva. 1989g.
4. Istoriya Fransii. v 3 t. Moskva. 1972-1973 g.
5. Manfred. A.Z. «Velikaya Fransuzkaya revolyutsiya». Moskva. 1983 g.
6. Dalin .V.M. «Iz istorii sotsialʼnoy misli vo Fransii». Moskva. 1984 g.
7. Jores. J. «Sotsialʼnaya istoriya Fransuzskoy revolyutsii». v 6 tomax. Moskva. 1976-1983 g.
8. Volgin. V.P. «Razvitie obshestvennoy misli vo Fransii v XVIII veke». Moskva. 1958 g.
9. Ado. A. V. «Krestyanskoe dvijeniya vo Fransii vo vremya Velikoy burjuaznoy revolyutsii kontsa XVIII veka». Moskva. 1989 g.

10. Manfred. A.Z. «Napoleon Bonopart». Moskva. 1980 g.

11. Tronuskiy.N.A. «U istokov bonapartizma. Proisxojenje rejima Napoleona I.» Saratov. 1989 g

Mavzu: Italiya XVII - XIX asrlarda.

Reja:

Kirish.

1. XVII - XIX asr boshlarida Italiya.
2. XIX asrning 20-30 yillardagi inqiloblar.
3. Iqtisodiy taraqqiyot.
4. XIX asrning 30-40 yillardagi mo'tadil liberallar faoliyati.

Xulosa .

Kirish

Yangi davrga Italiya o'rta asrlardagi og'ir meros bilan qadam qo'ydi. Italiya 9 ta mayda davlatlarga bo'linib ketgan va chet mamalakatlarga qaram edi. Yevropadagi 1701-1714 yillardagi Italiya taxti uchun, 1733-1735 yillardagi Pol'sha taxti uchun, 1740-1748 yillardagi Avstriya taxti uchun bo'lgan urushlar Apennin yarim oroli xalqlarini axvolini yanada og'irlashtirdi. Shuningdek davlatlarning xayotiga xam kuchli ta'sir ko'rsatdi. Italiyaning shimoli va markazida Avstriyaning ta'siri kuchaydi. Genuya va Venetsiya respublikalari o'zining kuch-qudratini butunlay yo'qotdi. Markazi P'emont bulgan Sardiniya qirolligi rivojlandi.

XVII asr davomida feodal tartiblar saqlanib qolib, xo'jalik va jamiyatda inqiroz kuchayib, kapitalistik munosabatlar qiyinchilik bilan tarqala boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib ma'rifatli absolyutizm ruxidagi isloxotlar amalga oshirildi. Soliq, iqtisodiy tizimda qonunlar tartibga solindi. Ayniqsa Shimoliy Italiyada kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi. Ammo isloxotlar

feodal-absolyut tizimni o'zgartirmadi. Ziyoli va ma`rifatparvarlar milliy mustaqillik va birlik g'oyasini ilgari surishgan bo'lsada, ammo ma`rifatparvar qirollarga umid bog'lashgan.

XVII - XIX asr boshlarida Italiya.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Italiyada mustaqillik va birlashish uchun kurash keng tus oldi. XVIII asr oxiridan 1870 yilgacha bo'lgan tarixiy davr «Risorjimento» (Qayta tug'ilish) deb nomlandi. 1789-1794 yillardagi Fransuz inqilobi ta'sirida Apennin yarim orolida antifeodal, antiavstriys kurashlar kuchaydi va respublika uchun shiorlar keng tarqaldi. 1796 yilda Fransuz armiyasi Italiyaga bostirib kirdi. Natijada 4 ta respublika e`lon qilindi. 1799 yilda fransuzlar xaydab chiqarildi va absolyut tartiblar o'rnatildi. Ammo 1800 yilda Fransuz armiyasi Italiya davlatlarini o'ziga buysundirdi. Shimoliy Italiya Fransiyaga qo'shib olindi. Napoleon Yangi davlatlar tashkil etib, ularni boshqarish uchun kishilarni o'zi tayinladi. Napoleonning buyrug'i bilan: sex cheklovlari, boj soliqlari va feodal qonunlar bekor qilinib, Napoleon kodekslari joriy etildi. Dvoryan va ruxoniylarning imtiyozlari bekor qilindi, cherkov yerlari sotildi. Italiya kontinental qamalga qo'shildi, xarbiy safarbarlik o'tkazildi, inqilobiy kuchlarga qarshi kurash olib borildi. Fransiya Italiya davlatlarida okkupatsiya tartibini o'rnatdi.

Neapolitan qirolligida karbonarilar xarakati vujudga keldi. Bu xarakat Risorjimento taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shdi. Karbonarilarning yashirin bo'limlari - ventlarda fransuz va italyan inqilobchilari xam qatnashib, 1812-1813 yillarda Neapolitian qirolligida inqiloblarni amalga oshirdilar. Napoleon tuzumi ag'darilgach, karbonarilar xarakati Janubiy Italiyaga xam tarqaldi. Italiyada restavratsiya davri boshlandi. Absolyut monarxiya tuzumi tiklandi, dvoryanlar va ruxoniylar xukmronligi tiklandi. Bu amalda orqaga qaytish edi. Fransiya zulmi Avstriya zulmi bilan almashdi, barcha Italiya davlatlari Avstriya ta'siriga tushib qoldi.

XIX asrning 20-30 yillaridagi inqiloblar.

XIX asrning 20-30 yillari butun Yevropada inqilobiy ko'tarilishlar davri bo'ldi. Italiyaning Neopolitan qirolligining Nola shaxarchasida qo'zg'olon ko'tarildi va bu qo'zg'olon g'alaba qozondi. 1812 yilgi Ispaniya konstitutsiyasi asosida konstitutsiya e'lon qilindi. Qirol Ferdinand ushbu konstitutsiyani tasdiqladi. Mamlakatda kelishuvchi kuchlar xokimiyatni egalladilar. Ammo 1821 yilning fevral oyida Avstriya agressiyasi boshlandi. Inqilob taqdiri axamiyatsiz bo'lgani uchun 7 marta Rieti shaxrida neopolitan armiyasi mag'lubiyatga uchradi. 23 mart kuni absolyut monarxiya tiklandi. Qatagon avj oldi. Shundan so'ng Italiyaning shimolidagi P'emontda inqilobiy xarakatlar boshlandi va inqilobchilar butun Shimoliy Italiya uchun mustaqillik talab qildilar. 1821 yilning 10 martida Alessandriya shaxrida karbonari-ofitserlar raxbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Ispan konstitutsiyasi asosida konstitutsiya e'lon qilinib, Turinda muvaqqat xukumat tuzuldi. P'emont inqilobi xarbiy to'ntarishga yaqinroq edi. Turin xukumati xalqni xam, armiyani xam o'z tomoniga og'dira olmadi. 10 aprelda Avstriya armiyasi jangsiz Turin va Alessandriyani egalladi. Qatagon siyosati keng avj oldi.

1830 yili Fransiyadagi iyo'l inqilobi ta'sirida, 1831 yilda Modena va Parma gertsogligida, Papa davlatida inqilobiy xarakatlar, qo'zg'olonlar ko'tarildi. 1831 yilning fevralida Avstriya qo'shinlari Markaziy Italiyaga agressiya boshladilar. 26 marta Birlashgan Italiya provintsiyalari Bolon'ya shaxrida konstitutsiya to'g'risidagi aktga imzo chekdilar. Mag'lubiyatlar karbonarilarning qarshi kurash usuli, maqsadi kurashning Yangi shartlariga javob bermasligini, tarqoq qo'zg'olonlarning mag'lubiyati muqarrar ekanligini isbotlab berdi. Buni yaxshi tushungan Genuyalik xuquqshunos va filolog J.Madzini umumitalyan demokratik xarakatining doxiysiga aylandi. U Marselda yagona umumital'yan milliy ozodlik kurashi tashkilotini «Yosh Italiya» tashkilotini 1832 yilda tuzadi.

Iqtisodiy taraqqiyot.

Liberallar dasturida asosiy e'tibor iqtisodiyotdagi burjua isloxotlariga qaratilgan edi. XIX asrning 20-30 yillarida Shimoliy Italiyada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish boshlandi. Lombardiya, P'emont xududlarida an'anaviy dexqon ijarachilar va dvoryan xo'jaliklari bilan bir qatorda, Yangi agrotexnika qo'llaniladigan yirik tadbirkorlik xo'jaliklari tashkil topdi. Bu xo'jaliklarda ishchi kuchi asosan batraklar bo'lib, doimiy qishloq xo'jalik ishchilari tabaqasi vujudga keldi. Qishloq xo'jaligi tovar xususiyatiga ega bo'ldi. Shimoldagi dexqonlar axvoli janub dexqonlaridan bir muncha yaxshi edi.

Shimoliy Italiyada qishloq xo'jaligining rivojlanishi ipak, jun, paxta, gazlama sanoatini rivojlanishga turtki berdi. Markazlashgan korxonalar, texnika bilan jixozlangan korxonalar vujudga keldi. 1830-1840 yillarda sanoat to'ntarishi boshlandi. Sanoat ishchilari soni xali ozchilikni tashkil etar edi. Shaxar axolisini axvoli og'ir edi. Yangi soxalarda ayollar va bolalar mexnati keng qo'llanilar edi. Kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi Shimoliy Italiyada sanoat guruxlarini yiriklashuvi va mumstaxkamlanishiga olib keldi. Dvoryanlarni ayrimlari sindi, ayrimlari Yangi ishlab chiqarish bilan shug'ullandi. Ammo Markaziy va Janubiy Italiyada iqtisod qoloq, feodal tartiblar saqlanib qolayotgan, sanoat xali xam kustar ishlab chiqarish xolatida edi.

Lombardiya-Venetsiya qirolligi 1815 yilda mustaqil deb e'lon qilingan bo'lsada, to'liq Avstriya xukmronligi ostida edi. Mamlakatni avstriyaliklar boshqarishar edi, politsiya xalq xayotining barcha soxalariga faol aralashar edi, senzura tartiblari kuchaytirildi, italiyaliklarga xech qanday lavozimlar berilmas edi. Avstriya imperatori Frans I: «Lombardiyaliklar italyan ekanliklarini unutishlari lozim» deb ta'kidlar edi.

Yuqoridagilarning xammasi Lombardiyada restavratsiya davrini tezroq borishiga olib keldi, milliy ozodlik xarakati keng tus oldi. Liberallar yashirin tashkilotlar tuzib, cheklangan isloxotlar o'tkazishga xarakat qildilar. 1818 yilda graf

F.Konfalon'eri «Italiya federatsiyasi» yashirin tashkilotini tuzib, Shimoliy Italiyada konstitutsion monarxiya tuzumini o'rnatish uchun kurashdi. Janubiy va Markaziy Italiyada restavratsiya davri xamma tabaqalar uchun katta qiyinchiliklar olib keldi. Agrar inqiroz, ochlik, og'ir iqtisodiy axvol mavjud edi. Bu xududda xam Avstriya zulmi avj olgan edi. Napoleon davrida joriy etilgan taraqqiyparvar o'zgarishlar bekor qilindi. Janubiy va Markaziy Italiyada karbonarilar xarakati keng avj oldi, milliy mustaqillik uchun, respublika uchun, absolyutizmga qarshi shiorlar keng tus oldi. Karbonarilar xarakati dexqonlar orasida keng tarqalgan bo'lsada, mustaxkam emas edi.

XIX asrning 30-40 yillardagi mu'tadil liberallar faoliyati.

Italiyaning tez iqtisodiy yuksalishiga tarqoqlik va qoloqlik to'sqinlik qilayotganligini mu'tadil liberal oqimi vakillari, juda yaxshi tushunar edilar. Ularning aksariyati katta yer egalari va tadbirkorlar edilar. Masalan: graf. K.B.Kavur ital'yan liberallari yo'l boshchisi, P'emont bosh vaziri. U P'emontdagi yerida ilg'or agrotexnikani joriy etib, ko'p tarmoqli tovar xo'jaligini tashkil etgan edi. U erkin savdo tarafdori bo'lib, bojxona to'siqlarini bekor qilish uchun kurashdi, yagona og'irlik, uzunlik o'lchovlari, yagona pul birligi joriy etish uchun kurashdi. 1830 yillarda Italiyada temir yo'llar qurila boshlandi.

Xalqning qashshoqligi Italiya iqtisodiy rivojlanishiga to'siq ekanligini tushungan mu'tadil liberallar ijtimoiy muammolarni xal etish uchun bir qator amaliy tadbirlarni amalga oshirdilar. Jumladan, Toskana, P'emontda dexqonlar va shaxarliklar uchun maktablar, ko'plab tumanlarda qashshoqlar uchun yordam kassalari, kambagallarning bolalari uchun mexribonlik uylari tashkil etildi. 1839 yil va 1847 yillarda 9 ta umumital'yan olimlar kongresslari o'tkazilib, bu kongresslar liberallarning dasturlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Liberallar matbuotda, kongresslarda chiqishlar qilib, isloxotchilik g'oyalari keng targ'ib

qilishdi, amalga oshirgan amaliy tadbirlaridan asosiy maqsadlari milliy birlashuvdan iborat edi.

Italiya liberallari yagona davlat tuzish uchun milliy muammoni xalq etish, ital'yanlarni milliy o'zligini anglashi zarur va muxim deb xisoblar edilar. Italiya liberallari orasida Vinchentso Joberti aloxida ajralib turadi. U liberallarni g'oyaviy xabarlaridan biri bo'lib, Italiyani qirolliklarining «qon to'kislarsiz, xisxayajonlarsiz, inqiloblarsiz» o'zaro kelishuv bilan federatsiya asosida birlashgan davlat bo'lishi g'oyasini ilgari surgan. 1847-1848 yillarda matbuotda Avstriyaga qarshi umumital'yan urushiga da'vat etgan liberallar g'oyalari keng tarqaldi. 1846 yilda papalik taxtiga Yangi papa Piy IX ni kelishi liberallarda isloxotlarga ishonch o'yg'otdi. Chunki avvalgi papa Grigoriy XI olib borgan eskicha siyosat Italiyani to'la iqtisodiy inqirozga maxkum etgan edi. Madzini kelgusi davlatni respublika tuzumida bo'lishini, siyosiy erkinlik, fuqorolar tengligi, umumiy saylov xuquqi har bir kishiga berilishini orzu qildi. Madzini inqilobni «xalq bilan va xalq uchun» g'oyasi asosida amalga oshirish tarafdori edi. U birinchidan mamalakatni birlashtirishda asosan xalqqa tayanishga intilsa, ikkinchidan milliy ozodlik kurashi, quyi tabaqalarning ijtimoiy kurashiga aylanib ketishini istamas edi. Madzini shaxar axolisining quyi tabaqasini axvolini yengillashtirish uchun intilar, ammo agrar masalani xalq qilish, qishloq axolisini manfaatlarini ximoya qilishni istamas edi.

Uning sa'yi xarakati bilan «Yosh Italiya» xarakati butun, Apennin yarim orolida keng yoyildi va turli tabaqa vakillarini birlashtirdi. 1833-1834 yillarda Madzinichilarning umumitalyan inqilobini tashkil etishiga urinishi natija bermagach, ular yaqin orada Italiya inqilobi amalga oshmaydi degan xulosaga keldilar. Bu davrda Italiya milliy ozodlik inqilobida birinchi o'ringa mo'tadil liberal oqimi g'oyalari chiqib, yuqoridan qilingan o'zgarishlar va isloxotlar Italiya uchun eng to'g'ri yo'l degan fikr keng tarqaldi.

Xulosa.

XVII-XIX asrlarda Italiya xududida kapitalistik munosabatlar vujudga keldi. Davr talabi natijasida turli isloxotlar amalga oshirila boshlandi. Napoleon I qo'shinlari tomonidan ital'yan qirolliklarini bosib olinishi va bu xududlarda Napoleon kodekslarini joriy etilishi o'sha davr uchun progressiv jarayon edi. Chunki tarqoq ital'yan qirolliklarini qurol kuchi bilan majburan birlashtirdi. Ammo Fransiya nazoratini o'rnatilishi milliy zulmni kuchaytirib yubordi. Natijada Risorjimento davri boshlandi. Yuqori va quyi tabaqa vaqillari xam Italiyani birlashuvini orzu qilayotgan edilar. Karbonarilar xarakati Italiyadagi milliy ozodlik xarakatida aloxida axamiyatga ega.

XIX asrning birinchi yarmida ko'plab ital'yan qirolliklarida qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Mo'tadil liberallar oqimi xam inqilobiy jarayonlarda qatnasha boshladi. Iqtisodiy taraqqiyot Italiyaning shimoli va janubida bir-biridan keskin farq qildi. Avstriya imperiyasi Italiya davlatlarini birlashuviga to'sqinlik qildi. Chunki Venetsiya, Lombardiya Avstriya imperiyasiga katta foyda keltirayotgan edi. Xulosa qilib aytganda, Italiya davlatlarini milliy ozodlik va birlashshish uchun kurashi kundan-kunga kuchayib bordi.

Tayanch so'z va iboralar:

Avtoritar, liberalizm, demoktariya, imperiya, statut, senat, separatizm, mulk senzi, proteksionizm, fritrederchilik, konstitutsion monarxiya, risorjimento, repressiya, paterkalizm, intelligentsiya.

Nazorat savollari:

1. Italiyada davlat va cherkov munosabatlari qanday axvolda edi?
2. Mo'tadil liberallar xukumati qanday ichki siyosat olib boradi?
3. Mustamlakachilik siyosati qaysi yillardan boshlandi va dastlab qaysi davlatlar mustamlakaga aylantirildi?
4. Qaysi xukumat «Taraqqiyparvar liberalizm» dasturini amalga oshiradi?
5. Italiya-Turkiya urushi natijalari xaqida gapirib bering?

6. Italiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari xaqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. Sharq. 1998 y.
2. Yurovskoy.E.E.,Krivoguz.I.M. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» Moskva. «Visshaya shkola».1998
3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax.T.6-12.M,Politizdat,1960.
4. Burjuaznie revolyutsii XVII-XIX vekov v sovremennoy zarubejnoy istoriografii.M, Visshaya shkola ,1986.
5. Istoriya Italiya .v 3-x tomax.M,Nauka,1070-1971.
6. Istoriya diplomatii v v 5-ti tomax.M,Nauka 1959-1960

Mavzu: Shimoliy Amerika XYII-XIX asrlarda.

R e j a:

Kirish.

1. Koloniya (mustamlaka) larni tashkil etishi.
2. Mustamlakalarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi.
3. Mustaqillik uchun kurash va AQSHning tashkil topishi.

Xulosa.

Kirish

XYII asrda Britaniya mustamlakachiligining keng yoyilishi Shimoliy Amerika taqdirida xal qiluvchi axamiyat kasb etdi. Xosildor yerlar va afsonaviy boyliklar to'g'risidagi shov shuvlar Britaniya xukumatida Yangi erlarni egallashga intilishni yanada kuchaytirdi. Fransiyaning bu Yangi yerlarni o'zlashtirishga kirishishi, bu intilishni yanada kuchaytirdi. London va Plimut xususiy aksionerlik kompaniyalari qirol Yakov I Styuarddan Yangi territoriyalarga ko'chib borib joylashish xuquqini qo'lga kiritdi.

1607 yilning may oyida inglizlar Shimoliy Amerikadagi Djejmstoun qishlog'iga asos solishdi va doimiy yashash uchun birinchi marta joylashdilar. 1625 yili bu yerda Karl I Virginiya Elizaveta turmushga chiqmaganligi uchun Qariqiz mustasmlaka (Qirol mustamlakasi) si tashkil etilganligini e'lon qilindi. Virginiyada administrsiya yuqori tabaqa, jentrilar, qirolning qarindoshlaridan tashkil topgan edi. Aksionerlar va Amerika qit'asiga o'zi pul to'lab kelganlar – teng xuquqli fuqorolar frementlar deb ataladi. Kompaniya bilan kontrakt tuzib, kompaniya bergan pul xisobidan Amerikaga kelgan fuqorolar , quyi tabaqa vakillari serventlar deb atalgan. Ular kompaniyaga etti yil ishlab berishlari shart edi. Kontrakt tugagach ularga bepul er berish va'da qilingan. Keyinchalik maxalliy aristokratiya sinfining vujudga keishi, serventlar axvolini og'irlashtirib, ularni qaram ishchilarga, vaqtinchalik qullarga aylanishiga olib kelgan.

Koloniyalarni (mustamlakalarni) tashkil e'tilishi.

Plantatsiya xo'jaligi to'xtovsiz ishchi kuchlarini talab qilgan, natijada 1619 yildan boshlab qora tanli qullar Virginiyaga keltirila boshlangan. Oddiy mustamlakachilar qirol yoki lordga belgilangan soliq – kvitrenta to'laganlar. Virginiya qirol mustamlakasidan tashqari, bu davrda xususiy mustamlakalar xam vujudga keldi. 1632 yilda qirol Karl I Sesil Kolvertga Shimoliy Virginiyani (Merilend), 1881 yilda Karl II aristocrat Uilyam Penga katta yerlarni beradi. Bu mustamlaka keyinchalik Pensilvaniya nomini oldi, 1662 yil Aenk Feladelfiya shaxriga asos soldi. Bu mustamlakalar provinsiya deb atala boshlanadi. Kolvert katoliklarni, Pen protestant sektasidagi do'stlari, kvakerlarning kelishini qo'llab – quvvatlardi.

Shimoliy va janubiy Karolinada xam 1664 yilda Nyu York, Nyu Jersi, Delaver, 1732 yilda Djorjiya kabi xususiy provinsiyalar mavjud edi. Keyinchalik bu provinsiyalarning xammasi qirol ixtiyoriga o'tgan. Mustamlaka egalari bu xududlarga axolini ko'chib kelishidan manfaatdor edilar. Shunday bo'lsada, bu

xududlarda xam qullar mexnatidan keng foydalanilgan. Shimoliy sharqiy xududlarni egallash, mustamlakachilikni uchinchi –korporativ turi edi. Xali lordlar, xususiy yer egalari egallamagan Yangi Angliya (Kanadagacha bylgan xududlar) yerlari Amerikaga emigratsiya kelgan diniy jamoalar a’zolarining erlari edi. Ular maxalliy xindu qabilalaridan erlarni naqd pulga sotib oldilar.1620 yilning sentyabirida nuritan separatistlari xozirgi Massachusetts qirg’oqlarida Yangi Plimut manzilgoxiga, keyinchalik Rod Aylend, Konnekikut, Nyu Gempshir va Men mustamlakalariga asos soldilar. Bu xududlarda qirol amaldorlari yo’q edi. Dindor emigrantlar “Fuqorolik jamiyatini” tuzishga xarakat qilganlar.

Ular saylanadigan gubernator xokimiyatini va frimentlarning umumiy yig’ilishi ta’ sis etadilar. Serventlar esa xuquqsiz edilar. Erkin mustamlakachilar yerlarini o’zaro bo’lishib olganlar, intizomga qattiq rioya etganlar. Bunday mustamlakalar raxbarlari “Ierusalin” singari jamiyat tuzmoqchi bo’lib, boshqacha diniy e’tiqodlarni ta’qib qilganlar. Massachusettsda puritan ruxoniylari katta obro’ga ega bo’lganlar, teokratik boshqarish va diniy fanatizm juda kuchaygan, faqatgina XYIII asrda puritanlik diniy fanatizm juda kuchaygan, “Buyuk uyg’onish” yuz bergan.

Mustamlakalarini ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi.

Shimoliy Amerikada asosiy sharoit feodallarning yerga monopol xuquqning yo’qligi tufayli feodal tuzum keng ildiz ota olmadi, feodal tuzum rivojlana olmadi. XYII – XYIII arslarda feodal tartib qoidalari mavjud bo’lsa xam mustamlaka tuzumi ularni sun’iy rivojlanishiga yordam bermadi. Feodal va plantatsiya xo’jaliklarida ba’zi o’xshashliklar bo’lsa xam, plantatsiyalarda xo’jalik yuritish tubdan farq qilgan. Lendlordning (feodal) maqsadi mustamlakachilardan kvitrenta olish bo’lsa, plantatorning maqsadi yetishtirilgan xosildan foyda olish edi. Qul savdosi, kontrabanda, yer olib sotish ingliz mustamlakalarida keng yoyildi. Qishloq axolisining 80 % ni fermerlar tashkil qilgan. Amerikada xaydalmaidigan yerlarni

o'zboshimchalik bilan mustamlakachilar tomonidan egallab olish – skvatterlik xarakter keng yoyildi. Bu yerda monopol egalik qilishga zarba berib, g'arbiy yerlarga ko'chib borishga katta imkoniyat yaratdi.

Amerikada boshqaruvning oliparxiya tuzumi o'rnatildi. Mustamlakalar kuchli va katta nufuzga ega bo'lgan oilaviy uyushmalar, avloddan avlodga meros tartibida boshqarildi. Bu davrda mustamlakalardagi xayot Yevropa mamlakatlaridagi xayotga nisbatan xam erkinroq va yumshoqroq edi. Xokimiyat qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlarga bo'lindi. Ammo gubernator katta xuquqlarga ega edi. Mustamlakalarda: Virginiyada Nataniel Bekon (plantator) rahbarligida 1676 yilda, savdogar Jeykob Leysler rahbarligida Nyu Yorkda (1689-1691yillarda) gubernatorlarga qarshi yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar demokratik talablar va saylov xuquqlarini kengaytirishni talab qildi. Ammo bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirildi.

Erkin mustamlakachilarning umrinimg uzunligi, yaxshi iqtisodiy ta'minlanganligi, yaxshi ovqatlanishi va boshqalar jixatidan Yevropaning o'rtacha darajasidan yuqori edi. Mustamlakalar qirg'inbarot va vayron qiluvchi urushlardan, qirol, aristokratlar va armiya uchun yig'iladigan soliqlardan ozod edilar, daydilar va qambag'allar yo'q edi va. Protestantlik insonlarni yuqori mexnat madaniyatiga o'rgatdi, oddiy amerikaliklar xususiy katta mulkni mashaqqatli mexnatlari tufayli qo'lga kiritdilar. Erkin mustamlakachilarni metropoliya xukumatiga bo'ysindirish qiyin edi. Ular ko'plab iqtisodiy – siyosiy va diniy erkinliklarga ega bo'lib, shu erknliklarni mustaxkamlash va kengaytirishga intilganlar.

Amerika va Angliyadagi murakkab jarayonlar tufayli, 1775 – 1783 yillarda Shimoliy Amerikadagi mustamlakalar mustaqillik uchun urush boshladilar. XYIII asr o'rtalarida mustamlakachilar o'z flotiga, ichki bozoriga, eksport maxsulotiga ega bo'ldi. Axoli 1688 yilda 200 ming kishi bo'lsa, 1775 yilda 2, 7 mln. kishiga yetdi. Negrlar butun axolini 18 foizini tashkil etdi. Maktablar, kollejlari ochildi,

gazetalar chop etildi. Boston, Nyu York, Charlston, Filadelfiya shaxarlari gullab yashnadi. Bendjamin Franklin, Tomas Jefferson, Jon Adams, Jeyms Medson kabi ma'rifatparvarlar yetishib chiqdi. Agar XYIII asrda mustamlakalar mustaqillik uchun xarakat qilganida, mustamlakalar birlasha olmaganligi uchun Buyuk Britaniya Amerikada tanxo xukumdor bo'lib oldi. Metropoliya xukumatining mustamlakalarda tadbirkorlar erkinligini cheklash va yanada qattiqroq buysundirishga intilishi mustaqillik uchun kurashning iqtisodiy sabablar edi .

XYIII asrda boshqa davlatlar bilan savdo sotiq qilishni ta'qiqlash, qayta ishlash sanoatining kengaytirmaslik, 1762 yilda g'arbga o'zicha ko'chishni ta'qiqlash qonunlari qabul qilindi. 1764 yilda Yangi bojxona soliqlari joriy qilindi. 1765 yilda 19 ming kishilik doimiy armiyani mustamlakalarga joylashtirish va bu armiyani boqish uchun "gerb yig'imi" joriy qilindi. Buning oqibatida mustamlakalarda kuchli noroziliklar boshlandi. "Ozodlik o'g'illari" va boshqa klublar tashkil topdi. Nyu York, Karolina mustamlakalarida feodallarga qarshi agrar xarakatlar avj oldi. Tez orada "G'erb yig'imi"ni Yangi bojxona to'lovlari bilan almashtirishdi. Ammo axvol o'zgarmadi. 1770 yilning martida Bystonda shaxarliklar va soldatlar to'qnashdilar. Ingliz tovarlariga kollektiv boykot elon qilish taktikasiga o'tildi. 1773 yili Semyuel Adams tarafdorlari bilan xinducha kuyinib olib, "Boston choyxo'rligini" amalga oshirdilar.

Bunga javoban Angliya Boston portini yopib, Amerika shimoliy-g'arbini (Massachusets), Kvebek (Kanada) provinsiyasiga qo'shib yubordi. 1774 yili Filedelfiyada I continental Kongress mustamlakalar vakillari kengashini chiqardi. Kongress mustamlakachilarining "o'zini o'zi boshqarish, yashash, mulkiy erkinlik va ozodlik" xaqidagi «Xuquqlar deklaratsiya» sini e'lon qildi. 1775 yilning 19 aprelida Amerikadagi Angliya bosh qo'mondoni general Geidj va qurollangan fermerlar o'rtasida Leksington (Boston)da mustaqillik uchun birinchi jang bo'lib o'tadi, unda vatanparvar kuchlar g'alaba qozonadi.

Mustaqillik uchun kurash va AQShning tashkil topishi.

1775 yilning may oyida to'plangan ikkinchi kontinental kongress mustamlaka xukumati emas, balki Amerika xukumati edi. Kongressda metropoliya bilan muzokaralar olib borish tarafdorlari xam bor edi. Amerika xarbiy qo'shinlariga Virginiyalik plantator va tajribalik qo'mondon polkovnik Djorj Vashington qo'modon etib sailanadi. Demokrat Tomas Peyn ko'p tirajda «Sog'lom fikr» pamfletini chiqardi. 1776 yilning 4 iyulida Kongress T. Jefferson tuzgan «Mustaqillik deklarasiya» sini qabul qildi. Bu inson xuquqlari deklaraciyasini, ko'plab ilg'or falsafiy qarashlarni birinchi marta amalga oshirilishi edi. Birinchi marta tarixda davlat xujjati xalq mustaqilligi principinini davlat tuzilishni asosi deb e'lon qildi. Deklarasiya Angliya qirolini va Parlamentini tiraniyada, yani oddiy inson xuquqlarini poimol etganlikda aibladi. Endilikda mustamlakalar «ozod va mustaqil shtatlar» leb ataldi va mustaqil davlatning barcha xuquqlariga ega deb e'lon qilindi.

Lendlordlar, qirol amaldorlari, savdogarlarning ayrimlari, fermer va negrlarning ko'pchiligi Angliya bilan aloqalarni uzishni xoxlamas edilar. Ular loyalistlar-qirol va parlamentni yoqlovchilar nomini oldilar. Vatanparvarlarni plantatorlar va ko'plab savdogarlar qo'llab-quvvatladilar. 1775 yilda Britaniya qo'shinlari yaxshi tayorlangan, yaxshi qurollangan, son jixatdan ko'p edi. Vashington armiyasida pul, qurol-yarog ' etishmas edi. Loyalistlar o'z qo'shinlari bilan inglizlarga yordam berdilar. 1775 yilda qirol Georg III Ekaterina II dan 20 minglik korpus so'raidi. Ammo rad javobini oladi. 1780 yilda Angliya 50 ming, Vashington 20 ming armiyasi bor edi. Uni irregulyar miliciya va partizanlar qo'llab quvvatlashdi.

1776-1777 yillardagi urush xarakatlarida gox u tomon, gox bu tomon g'alaba qozondi. Saratogada 7 minglik ingliz qo'shini tor-mor etilgach, 1778 yilda Franciya, 1779 yilda Ispaniya, 1780 yilda Gollandiya bilan ittifoq tuzilib, ularga

Angliyaga urush e`lon qildilar. Rossiya va Avstriya 1780 iilda xarbiy dengiz neitraliteti tuzilib, u Angliyani dengizidagi agressiyasiga qarshi qaratilgan edi. Fransiyadan markiz de Lafayet, Rossiyadan dvoryan Verter fon Rozental' va ko'plab ko'ngillilar Angliyaga qarshi Amerika mustamlakachilari tomonida turib kurashdilar. Angliya 1780 yilda AQSh janubida katta g'alabalarga erishdi.

Ammo 1781 yilning 19 oktyabrida Yorktaunda Fransuz - Amerika qo'shinlari lord Kornuollisning 8 minglik korpusini engdilar. Bu urush taqdirini xal qildi. 1782 yilda Parijda AQSh va Angliya boshlang'ich, 1783 yilning 3 sentyabrida yakuniy sulx shartnomasini tuzdilar. Missisipi daryosigacha bo'lgan xududlar mustaqil AQSh davlatiga, Florida Ispaniyaga, Kanada Angliyaga tegdi. AQShda urush davom etayotgan vaqtda respublika raxbari ichki qaita tuzilishlarni amalga oshirdi. Mustamlakalar respublika boshqaruv uslubidagi shtatlar deb e`lon qilindi. 1776-1780 yillarda konstitutsiyalar qabul qilindi. (13 shtatda). Bu konstitutsiyalarda fundamental qonunlarga katta e`tibor berildi. Bunga muvofiq gubernatorlar sailanadigan, sailovda qatnashish uchun mulk senzi bekor qilindi, qonun chiqaruvchi organlar (legislaturalar) ikki palataga bo'lindi.

Fuqarolik xuquqlari, xususiy mulk daxlsizligi, shaxs daxlsizligi, «xabeas korpus», qamoqqa olishni qonunyligini sud orqali aniqlash (Karl II, 1679 yilda qabul qilgan) xuquqlariga bo'lindi. Yangi xukumat feodal tartiblarni bekor qildi, erga egalik qilishni cheklashlarini bekor qildi, loyalistlarni musodara qilingan erlarini fondini tashkil qilib, ularni fuqorolarga xususiy mulk qilib sota boshladi. 1787 iilda kongress jamoa erlari fondini tashkil qilib, ularni fuqoralarga xususiy mulk sifatida sota boshladi.

Shimoliy shtatlarda va ozod erlarda qullik va serventlik bekor qilinib yollanma mexnat rivojlandi. Janubda esa qullik va skvaterlik saqlanib qoldi. 1781 yilda «Konferensiya bandlari va adabiy ittifoq» nomli mustaqil shtatlar shartnomasiga ko'ra AQSh konfederasiya davlati edi. Markaziy xokimiyat

legislaturalar tomonidan tayinlangan shtat vakillarining Kontinental kongressi qo'liga edi. Dastlab AQShda Prezident, senat va Oliy sud yo'q edi. Xar bir shtat o'z iqtisodiga, xarbiy qo'shilariga, bojxonasiga va boshqalarga ega edi. Konfederasiya xukumati byudjet va bankka ega bo'lmaganligi uchun shtatlarga hech qanday yordam bera olmas edi. Urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida shtatlar savdo-sotiqni yo'lga qo'ya olmadilar va iqtisodiyotni stabillashtira olmadilar. Ayrim shtatlar qadrsiz qog'oz pullarni muomalaga chiqardilar. Ammo bu xam muammolarni xal qilmadi. Vaziyatni faqat umum davlat tadbirlarigina xal qilardi. 1786-1787 yillardagi Massachusets boshqa va shtatlardagi kambag'al fermerlar qo'zg'oloni, ichki siyosiy notinchlik xokimiyatni islox qilishga turtki bo'ldi.

1787 yilda federal konstitutsiya (mualliflar J. Vashington, B. Franklin, A. Gamil'ton, J. Medison) konventda ko'rib muxokama qilindi, konstitutsiya xokimiyatning konfederativ shakli kamchiliklarini tugatishi lozim edi. Konstitutsiyada ayrim tuzatishlar qilindi, kongress vakillar palatasiga to'g'ridan to'g'ri sailov joriy qilindi, xar bir shtatdan senatorlar soni bir xil etib belgilandi, AQSh prezidenti, Oliy sudi va sud sistemasi ta'sis etildi. 1778 yilgacha konstitsiyani, ya'ni konstitutsiya dushmanlari qattiq tanqid qildilar. 1808 yilgacha esa qullar keltirishga ruxsat berildi. Konstitutsiya uzoq kurashlardan so'ng, 1788 yilning iyun' oyida konstitutciya kuchga kirdi, 1791 yilning noyabr oyida esa xuquqlar xaqida «bill» kuchga kirdi.

Xulosa.

AQShni tashkil topishi revolyusion xarakter kasb etgan edi. AQSH Yangi davrning birinchi demokratik respublikasi bo'lib, uning tuzumi ma'rifatparvarlik davrining siyosiy ideali ko'rinishida edi. Yevropalik revolyusionerlar singari, Amerikaliklar xam «eski tuzum» qoldiqlari bilan kurashdilar. XYIII asr Amerika

revolyusiyasi Angliya va Fransiyadagi revolyusiyadan farqli bo'ldi. Birorta gubernator qatl etilmadi. Loyalistlarga AQSh dan ixtiyoriy ketishga ruxsat berildi. Buyuk Britaniyadan tashqari mamlakatlar Amerikaliklarga iliq munosabatda bo'lishdi.

Rossiya AQSh bilan savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yadi. 1782 yilda Amerika elchisi F. Dein Peterburgga keladi va yaxshi kutib olinadi. AQSh feodal-monarxiya Yevropasiga xavf tug'dirmas edi. Amerika davlati amaldorlari tashqi siyosatda o'z mamlakatlari manfaatlarini uchun, neytralitet, tinchlik va barcha mamlakatlar bilan erkin savdo qilish xuquqlari uchun kurashdilar. Bu jixatdan bu revolyusiya Niderlandiya inqilobiga o'xshab ketadi. AQSh asoschilari ichki muammolarni xal qilishda faqat siyosiy usullardan foydalandilar. Shu tufaili elita xokimiyatni o'z qo'lga oldi. Keng fuqaro erkinliklari joriy qilish, siyosiy keskinlikdan tinch xukmronlik qilish tomon bordilar. Qo'zg'olonchilarning aksariyati xususiy mulkdorlardan tashkil topganligi uchun, ular ug'irlik, yondirish, o'zga mol-mulknini o'zlashtirishga xarakat qilmadilar. AQSh ning davlat tuzilishi revolyusion tuzum yoki diktatura tuzumini o'rnatilishiga yo'l qo'ymas edi. Qonunga ko'ra real mustaqillikka faqat shtatlar erishgan edi. Kontinental kongress xokimiyatga to'liq egalik qila olmas edi. Bosh qymondon, J. Vashington Sezar yoki Kromvel bo'lishga intilmadi. Sulx tuzilgach, armiya tarqatilib yuborildi. Mashxur tarixchilar Morison va Komadjenn «Revolyusiya natijalaridan yo'l boshchilar xam xalq xam manfaatdor bo'lgan edilar» deb yozgan edilar. 1787 yilgi federal konstitutsiya isloxotlarni oxiriga etkazdi.

Tayanch so'z va iboralar:

Jentri, serventlar, kvakker, korporativ, skvatter, aristokrat, kongress, deklarosiya. Fermer, legislatur, konfederaciya, Federal.

Nazorat savollari:

1. Xususiy mustamlakalar xaqida nimalar bilasiz?

2. Amerikada qandai boshqaruv tuzumi o'rnatilgan?
3. Mustamlakalarni mustaqillik uchun kurashlari qaisi yillarda bo'lib utdi?
4. «Boston choyxo'rliigi» xaqida so'zlang?
5. AQSh qaisi yillarda tashkil topdi?
6. AQSh qanday tuzumdagi davlat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov. I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent, «Sharq», 1998 yil.
2. Yurovskiy. E. E. Kriyoguz. I. M: «Novoe istoriya stran Yevropi i Ameriki». 1-2-period. Moskva. «Visshaya shkola». 1998 g.
3. Yurovskiy. E. E. «Sbornik dokumentov to istorii novogo vremeni stran Yevropi» i Ameriki (1640-1870). Moskva. «Visshaya shkola». 1999 g.
4. Narochnickiy. A. L. : «Novaya istoriya». Moskva. «Prosvesheniya», 1986 g.
5. «Vsemernaya istoriya» v 12 tomax. Moskva. «Politizdat». 1960 g.
6. Popova. E. I. Tatarinova P. N. : «Novaya i noveyshaya istoriya». Moskva. «Visshaya shkola». 1984 g.
7. «Yangi tarix». 3 tomlik. Toshkent. 1976 yil.

Mavzu: «Avstriya XVII- XIX asrlarda.

Reja:

Kirish.

1. Turkiya bilan urush. Karlovo bitimi.
2. Imperiyani ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. «Ma`rifatparvar absolyutizm» siyosati.
3. Avstriya imperiyasi slavyan xalqlarining «Milliy uyg'onish» davri.
4. Avstriya imperiyasi Napoleon urushlari davrida.
5. Avstriya va Vengriyada 1848 yil inqiloblari.

Xulosa.

Kirish.

30 yillik urush va 1648 yilgi Vestfal'iya sulxi, Avstriyani buyuk mamlakatga aylanishiga va Gabsburglar dinastiyasini xokimiyat tepasiga kelishida muxim bosqich bo'ldi. Muqaddas Rim imperiyasi o'rnida ko'plab mustaqil german davlatlari vujudga keldi. Germaniyada gegemonlik uchun Fransiya va Avstriya o'rtasidagi asriy kurash yanada kuchaydi. Imperator Leopold I (1648-1705 yillar) «mulkiy viloyatlar» asosida Avstriya atrofida o'z imperiyasini vujudga keltira boshladi. Buning uchun u barcha o'z mulklarida yagona soliq sistemasini, o'zi boshqaruvidagi markazlashgan boshqaruv organlarini joriy etdi. Shu davrda Turk sultonlari xarbiy yurishlari boshlandi. 1660 yilda birinchi Avstriya Turkiya urushi bo'lib o'tdi. Sen Gotard jangida Avstriya g'olib chiqib, Leopold I 1664 yilda «Varshava sulxi»ni shoshilinch imzoladi.

Imperator Vengriya qirolligini qolgan xudularini birlashtirish bilan shug'ullanib, bu g'alabadan to'la foydalanib qola olmadi. Vengriyada komitatlar (maxalliy boshqaruv birligi) boshqaruvi joriy etilgan edi. 1670 yilda yirik venger va xorvat feodallarini yirik fitnasi fosh etilib feodallar jazolanadi. Shu yili soldatlar va dexqonlar qo'zg'olonlari ko'tarilib, 1678 yilda bu xarakatni Imre Tekeli boshqara boshlab, Turk sultonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Leopold I 1681 yilda Venger dvoryanlariga yon berishga majbur bo'ldi.

Turkiya bilan urush. Karlovo bitimi.

Usmoniylar bu vaziyatidan foydalanib, 1683 yilning yozida urush xarakatlarini boshladilar. 10 iyunda 200 minglik Buyuk vazir Qora Mustafonin armiyasi Venani qamal qildi. Papa Innokentiy IX vositachiligida Pol'sha, Venetsiya, Genuya, Toskana, Portugaliya, Ispaniya, Rossiya davlatlari «Muqaddas Liga» armiyasini tashkil etdilar. Fransiya bu ligaga qo'shilmadi. 12 sentyabrda liga qo'shinlari usmoniylarga daxshatli zarba berishdi. 1687 yilda Leopold I Venger davlat yig'inini chaqirib, imperiya foydasiga muxim yonberishlarni qo'lga kiritdi, Vengriyani o'zining sulolaviy mulki deb e'lon qildi.

Bu davrda imperiya qo'shinlari katta g'alabalarni qo'lga kiritdi. Bundan xafsiragan Fransuz qiroli Lyudovik XIV Pfal'ts shaxriga bostirib kirdi. Shaxzoda Evgeniy Savoyskiy Avstriya qo'shinlariga qo'mondonlik qilib, Vena, Budu, Zenta janglarida g'alab qozondi. 1669 yilda yilda Karlovo bitimi imzolanib, Turklarning Vengriyadagi xukmronligiga chek qo'yildi. 10 yillik urush mamlakatni xonvayron qildi. 1697 yilda Vengriyada dexqonlar va soldatlar qo'zg'olonlari ko'tarildi, ammo mag'lubiyatga uchradi.

XVIII asr boshlarida Ispaniya qiroli Karl II (Gabsburglar vaqili) vafot etdi. 1701 yilda Ispaniya qiroli taxti uchun barcha Yevropa mamlakatlari kurash boshladilar. Venger qo'shinlariga Ferents Rakotsi II qo'mondonlik qildi. 1704 yilda uning armiyasi Venaga xavf sola boshladi. 1705 yilda Rakotsi Davlat yig'inini chaqirdi, Gabsburglar imperatori Iosif I ga buysunishdan bosh tortdi, Rakotsi Vengriya qiroli deb e'lon qilindi. Fransiya Vengriyaga xar tomonlama yordam berdi. Rakotsi milliy davlat qurish uchun kurashdi. Senat, iqtisodiy sovet, mis milliy pullarni, yangi maktablarni, «Merikurius veridikus» gazetalarini joriy etdi.

Ammo Rakotsini mamlakatdagi barcha sinflarni birlashtirish va boshqarishga intilishi amalga oshmadi. 1707 yili Rakotsi Pyotr I bilan ittifoq tuzdi. 1708 yildan boshlab Avstriya qo'shinlari katta g'alabalarni qo'lga kiritdi. Rakotsi Varshavada Pyotr I bilan uchrashish uchun jo'nab ketdi, o'rniga Shandor Karoyini tayinladi. Karoy 1711 yilda Avstriya bilan Satmar sulxini tuzdi. Imperator Vengriya Konstitutsiyasini xurmat qilishga so'z berib, urush qatnashchilariga amnistiya berdi. Gabsburglar Ispan taxtiga ega bo'lmasalarda, o'z tarixlaridagi eng katta (Italiya, Niderlandiya, Reyn) xududni egallab oldilar.

Imperiyaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. «Ma`rifatparvar absolyutizm» siyosati.

Avstriya imperiyasi Adriatika, O'rta Yer va Shimoliy dengizlar orasidagi ulkan xududlarni egallagan bilan, amorf davlat birlashmaligicha qolayotgan edi. Imperiya birligi, umumiy boshqaruv, umumiy qonuniylik yo'q edi. Imperiyaning

barcha qismlari xususiy tabaqa maxkamalari tomonidan boshqarilar edi. Avstriya Vengriyada feodal munosabatlar qishloqda xam, shaxarda xam xukmronlik qilar edi. Avstro-Chex provintsiyalari imperiyani asosiy yadrosi bo'lib, bu xududda savdo, manufakturalar rivojlandi. XVII asrda Davlat banki, Dengiz savdo kompaniyasi tashkil etildi. Yangi yo'llar qurilishi boshlandi.

1640 yilda Karl VI vafot etdi, taxtga 23 yoshli Mariya Tereziya chiqdi. Ko'plab davlatlar Avstriya taxtiga da'vo bilan chiqdilar. 1740-1748 yillarda Prussiya Avstriya merosi uchun birinchi urushni boshladi. Vengriyani yordamida Tereziya barcha dushman armiyalarini mag'lub etdi. Anton Kaunitsa (1753-1793 yillar) kantsler lavozimini egallab, Yangi tashqi siyosiy kontseptsiyani ishlab chiqdi. 1756 yilda Avstriya-Fransiya Versal' shartnomasini imzoladilar. Angliya - Prussiya Vestminster ittifoq shartnomasini imzoladi. 1756-1763 yillarda Avstriya taxti uchun etti yillik urush bo'lib o'tdi. Xubertsburg shartnomasi 1763 yilda Sileziyani Prussiyaga yakuniy topshirdi.

Mariya Tereziya va uning o'g'li, 1765 yildan Rim imperatori Iosif II «ma'rifatparvar absolyutizm» davlatini qurish uchun isloxotlarni amalga oshirdilar. Isloxotlar asosan avstro-chex erlarida o'tkazildi. Asosan xarbiy, boshqaruv, iqtisodiy soxalarda isloxotlar qilindi. Vena Xarbiy akademiyasi, umrbod xarbiy xizmat, rekrutlikka olish tashkil etildi. Sulola maxkamalari davlat qo'liga olindi. Mariya birinchi bo'lib axoli va yer mulklarni ro'yxatga oldirdi. Dvoryanlarni va ruxoniylarni soliq imtiyozlarini, pomexchiqlarni sud xokimiyatini bekor qildi. 1776 yilda u o'lim jazosini chegaralab, o'rta asr azoblashlarini ta'qiqlab, jinoyat xuquqini tartibga soldi. Barshchina xaftasiga 5 kundan 3 kunga kamaytirildi.

Maktab reformasi o'tkazilib, xalq ta'limiga tamal toshi qo'yildi. Qishloq, shaxar maktablari, universitetlar ochilib, tabiiy, ilmiy bilimlarga keng yo'l ochildi. Iosif II krespostnoy majburiyatlarni saqlagan xolda, krespostnoy xuquqni bekor qildi, dexqonlar shaxsan ozod bo'ldilar. Iosif II nemis tilini yagona rasmiy til deb

eʼlon qildi. Ammo Iosif II ning «maʼrifatparvar absolyutizm» siyosati eski uslubdagi islohotlar bilan feodal tuzumni saqlab qolish vazifasini xal qila olmadi. Bu davrda ogʻir sinov chex va slovaklar zimmasiga tushdi. 1618-1648 yillardagi 30 yillik urushda cheklar oʻz mustaqilliklarini yoʻqotdilar. 1685 yildagi xujjatlarda birinchi marta «Slovakiya» (qishloqlik) termini ishlatilgan. Bu xalqlar uzoq davrlar Avstriya-Vengriya imperiyasi zulmi ostida yashashga majbur boʻldi, barcha masalalar bu xududlardan tashqarida xal etildi.

Iosif II 1778 yilda Ekaterina II bilan ittifoq tuzib, Usmoniylar imperiyasiga qarshi urush boshladi, ammo gʻalabaga erishmadi. Urush tufayli mamlakatni xonavayron boʻlishi yanada kuchaydi. Antiavstriya xarakatini kuchayishi tufayli Iosif II oʻzining koʻplab radikal islohotlaridan voz kechdi. Uning ukasi Leopold II (1790-1792 yillar) davrida «Maʼrifatparvar absolyutizm» dan «feodal absolyut reaksiya»ga oʻtish davri boshlandi. Taxt va monarxiyani qulashdan saqlash, Fransiya revolyutsiyasi bilan kurash birinchi oʻringa qoʻyildi.

Leopold II Avstriya-Vengriya xukmron tabaqalari bilan kelishdi, Turkiya bilan urushni tugatib, Prussiya bilan ittifoq tuzdi. Frans II (1792-1835 yillar) davrida imperiya Fransiya bilan tinimsiz urushlar davrini boshladi.

Avstriya imperiyasi Napoleon urushlari davrida

Repressiyalardan va revolyutsiyalardan choʻchigan venger dvoryanlari aktiv siyosiy faoliyatdan oʻzlarini chetga tortib, Vena saroyi bilan xamkorlikni kuchaytirdilar. 1805 yilda va 1809 yillarda N. Bonapart tomonidan Vengriyaga mustaqillikni taklif etilganda, venger davoryanlari rad etdilar. Gabsburglarni Fransiya qarshi urushlari faqat magʻlubiyat bilan tugadi. 1806 yilda Napoleon tayziqi bilan Gabsburglar «Muqaddas Rim imperiyasi» imperatori unvonidan maxrum boʻlishdi. Avstriya imperiya deb atala boshlandi. 1809 yilgi magʻlubiyatdan soʻng, Avstriya tashqi ishlar vaziri Klemens Metternix moxirlik

bilan diplomatik siyosat olib bordi. Uning sharofati bilan, Avstriya g'olib davlatlar safiga qo'shilib oldi. Metternix «Muqaddas ittifoq» mualliflaridan biri edi.

Vena kongressi Bel'giyadan tashqari barcha Avstriya mulklarini o'ziga qaytarib berdi. Avstriya Germaniya va Italiya ustidan o'z nazoratini o'rnatib, bu xalqlarni birlashishiga to'sqinlik qildi. XIX asrda Avstriya agrar mamlakat bo'lib, Yevropa mamlakatlaridan orqada qolayotgan, axolini uchdan ikki qismi qishloq xo'jaligi bilan band edi. Manufakturalar va savdoning o'sishiga sexlar va ko'p sonli ichki bojlar to'sqinlik qilar edi.

Frans I poytaxtda manufakturalar va fabrikalar tashkil etishni ta'qiqladi. Ko'plab yozuvchilarning asarlari, xalq ma'naviyati senzura nazoratiga o'tkazildi. Maktab ustidan ruxoniylar nazorati o'rnatildi. Ferdinand I davrida (1835-1848 yillar) xam Metternix imperiya xududida siyosiy va diniy ta'qiqlarni avj oldirib yubordi. Metternix politsiya nazorati, shaxsiy va diplomatik pochmani tekshirish, yashirin sudlar tashkil etish, buysunmaganlarni jazolash sistemasini vujudga keltirdi. Bo'lib tashla, xukmronlik qil siyosatini amalga oshirdi. Maqsad feodal munosabatlar va davlat absolyut xukumatini saqlab qolish edi.

Ammo shunga qaramasdan Avstriya xududida kapitalistik munosabatlar juda sekinlik bilan shakllana boshladi. 30-40 yillarda quyi Avstriya va Chexiyada sanoat inqilobi yuz berdi. 1816 yilda Brno fabrikasida birinchi bug' mashinasi, 1828 yilda temir yo'l, 1830 yilda doimiy paroxod liniyasi ishga tushdi. 30-40 yillarda ko'mir qazib chiqarish 4 marta, cho'yan eritish 2 marta o'sdi. Imperiyaning qolgan xududlarida xam iqtisodiy ko'tarilish yuz bera boshladi. Qishloq xo'jaligida xam kapitalistik evolyutsiya vujudga kela boshladi. Vengriyada xaydaladigan yerlar miqdori ko'paydi, texnika ekinlarini etishtirish keskin o'sdi, mexnat qurollari takomillashtirildi, agrotexnika yaxshilandi. Ammo Yangi vujudga kelgan banklar qishloq xo'jaligini kreditlar bilan ta'minlay olmas edi, pomeschiklar ssuda

ololmas, oqibatda xo'jalikni intensiv rivojlantira olmas edilar. Oqibatda feodal krespostnoy ekspluatatsiya yanada kuchaydi.

Avstriya imperiyasidagi slavyan xalqlarining milliy uyg'onish davri.

1848 yilgi burjua inqilobidan avvalgi ikki o'n yillik Avstriya imperiyasi tarixiga «mart arafasi davri» nomi bilan kirdi. Bu davrda Avstriya jamiyatining barcha tabaqalari ijtimoiy-siyosiy xayotida o'ziga xos ko'tarilish davri bo'ldi. Imperiyani barcha xududlarida «vabo isyonlari» ko'tarildi, unda barcha millat vakillari qatnashdilar. 1830 yillarda Vengriyalik graf Ishtvan Secheni keng qamrovli burjua isloxotlari programmasini ishlab chiqdi. Ammo uning rejasi faqat Vengriya bilan cheklangan, venger dvoryanlarini Gabsburglar dinastiyasi bilan ittifoqini mustaxkamlash, katta yer egaligini saqlab qolishni ko'zlar edi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida, ayniqsa 30-40 yillarda kapitalistik munosabatlarni rivojlanishi, turli xalqlarni zamonaviy millatlarga aylanishga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ularning tafakkuri o'sdi. Antifeodal xarakterdagi milliy xarakterlar keng avj oldi. Yugoslav, chexlar, ruminlar, slovaklar, vengerlar xayotida milliy uyg'onish davri boshlandi. Bunda albatta Yevropa ma'rifatparvarligi, ma'rifatparvar absolyutizm shovinizmini ta'siri katta bo'ldi. Milliy uyg'onishning birinchi davrida (XVII-XIX asr 20 yillari) milliy xayot, milliy adabiy til, teatr, madaniyat va boshqalar vujudga kelib, unda «uyg'otuvchilar» Yozef Dobrovskiy (1753-1829 yillarda yachagan, slavyan tili va madaniyati tarixchisi) va Yozef Yungman (1773-1847 yillarda yachagan, chex adabiyoti, chex-nemis lug'ati muallifi) ni xizmatlari katta bo'ldi.

«Uyg'otuvchilar» umumslavyan birligi, Rossiya birodarligi g'oyalarini keng targ'ib qildilar. Yirik slavyan namoyondasi Yan Kollar (1793-1852 yillar) «Sharafli qiz» (1824 yilda yozilgan) poemasi Gus, Jijka, Kostyushko, Minin kabi qaxramonlarni kuyladi. Ammo u slovaklarni «Chexoslovaklarni bir qismi deb qarar», barcha kichiq slavyanlarni tan olmas edi. Lyudovit Shtur (1815-1856 yillar

yashagan) o'z tarafdorlari bilan slovak adabiy tilini yaratishga xarakat qildi. 1845 yilda «Slovak milliy gazetasini» chiqarib, slovak burjuaziyasini milliy programmasini targ'ib qildilar. Madyarlar xam nemis tiliga o'tishga qarshi, lotin tili o'rniga vengyertilini joriy qilishni talab qilib, juda katta qo'zg'olonlar uyushtirdilar. Ammo ular boshqa slavyan xalqlarini xisobga olmadilar. Oqibatda Gabsburglarni feodal tuzumiga qarshi barcha xalqlar birlasha olmadilar. Chexiya va Moraviyada nemislar xam ko'p yashar edilar, oqibatda slavyan-nemis to'qnashuvlari bo'ldi.

Avstriya va Vengriyada 1848 yil inqiloblari.

1846 yilgi iqtisodiy krizis, 1845-1847 yillardagi xosilsizlik, inflyatsiya, qimmatchilik, ishsizlik imperiyada katta noroziliklarni keltirib chiqardi. Parijdagi 1848 yilning fevral voqealari ta'sirida mart oyida imperiyada isloxotlar o'tkazish, senzurani tugatish, Metternixning iste'fosi, umumavstriya parlamentini chaqirish, konstitutsiya qabul qilish talablari bilan Vena xalqi va studentlar 13 martda namoyishga chiqdilar. Venaga imperator xarbiy qo'shin kiritdi. Studentlar akademik legion (keyin milliy burjuaziya gvardiyasi) tuzib, qurollandilar.

Imperator yon berishga, Metternixni xukumatdan chetlashtishga majbur bo'ldi. Bu revolyutsiyani birinchi yirik g'alabasi edi. Yangi xukumatga liberal burjuaziya vaqillari kirdilar. Ular Yangi konstitutsiya loyixasida burjua erkinliklari, ikki palatali parlametni e'lon qildilar. Ammo imperatorning barcha xuquqlarini saqlab qoldilar. Saylov xuquqining mulkliyligi saqlab qolindi. Bunga qarshi Vena demokratalari Milliy gvardiya siyosiy komiteti revolyutsion tashkilotini tuzib, 15 mayda namoyishlarni boshlab yubordilar. Imperator saroyi Tirol'ga qochdi. Venani MGSK raxbari Adol'f Fishgof boshqardi. Iyulda Avstriya reyxstagi o'z ishini boshladi. Katta siyosiy ustunlikka ega liberal burjuaziya asosiy rol o'ynadi.

Feodal krepostnoy munosabatlar ta'qiqlandi, ba'zi majburiyatlar bekor qilindi, dinastiya «yaxshi saxiy boshqaruv qonuni» sifatida saqlab qolindi. Oqibatda

qishloq axolisi demokratik Venaga qarama-qarshi qilib qo'yildi. Italiya va Vengriyaga qarshi kontrrevolyutsion urush qo'llab quvvatlandi. Frankfurt yig'inida Avstriya Yangi Germaniya ittifoqiga kirishga intildi. 1848 yilning iyunida Pragada imperiya slavyan xalqlari vakillari se'zdlari bo'lib, ular Avstriyani Germaniya ittifoqiga kirishiga qattiq to'sqinlik qildilar.

1848 yil 17 iyunda Parij qo'zg'oloni, 23 avgust Vena qo'zg'olonlari bostirildi. Oqtyabr oyining boshlarida Vena xalq qo'liga o'tdi, imperator saroyi Chexiyaning Olmyuts shaxriga qochdi. Chex va xorvat qo'shinlari Vena qo'zg'olonini bostirdilar. 2 dekabrda saroy to'ntarishi qilinib, zaif Ferdinand o'rniga, 18 yoshli Frans Iosif (1848-1916 yillar) taxtga chiqdi. Venger burjua inqilobi 1848 yilning 15 martida boshlandi. 17 martda Venger davlat yig'inida xisob beradigan birinchi Venger xukumati tuzuldi. Unga Graf Layosh Vateni boshchilik qildi. Krestyan reformasi o'tkazildi, uchdan bir qism xaydaladigan yerlar dexqonlar qo'liga o'tdi. Ayrim pomeschiklar yerlarini dexqonlar o'z bilganicha bo'lib oldilar.

Ammo Venger qirolligida boshqa slavyan xuquqlari xisobga olinmadi. Oqibatda serb, rumin, xorvatlar Venger qirolligiga qarshi chiqib, Avstriya kontrrevolyutsiyasi tarafdorlari ta'siriga tushib qoldilar. Venger xukumati avstroslavyanizm asoschisi Lyudovit Shturni qamoqqa oldi. Sloveniya mustaqilligi e'lon qilindi. 1848 yilning sentyabrida Avstriya- Xorvatiya qo'shinlari Vengriyaga bostirib kirdi, ammo engildi. So'ngra Paskevich qo'mondonligidagi 200.000 kishilik rus armiyasi 1849 yilning 13 avgustida Vengriyadagi inqilobni bostirdi.

Xulosa.

Imperiyadagi inqiloblar bostirilgach, monarx, katta yeregalari va yirik burjuaziya tabaqalarining ittifoqi-neoabsolyut tuzum vujudga keldi. Bu tuzum 1851 yilda to'la qaror topdi. Konstitutsiya bekor qilinsa xam, krepostnoylik tiklanmadi. Temir yo'l qurilishi boshlanib, kapitalistik munosabatlar shakllandi. Avstriya 1859

yilda Fransiyadan engilib, Lombardiyani topshirdi, Rossiya bilan aloqalari yomonlashdi. 1860 yilgi «Oktyabr diplomi» va 1861 yilgi «Fevral patenti» konstitutsiyalari kuchli noroziliklarga sabab bo'ldi. 1866 yilgi Avstriya-Prussiya urushidan so'ng, Avstriya Germaniyadan umrbod ajraldi. Dinastiya Venger oppozitsiyasi bilan kelishishiga majbur bo'lib, 1867 yilning fevralida avstro-venger bitimi imzolanib, imperiya ichki davlat ishlarida mustaqil bo'lgan ikkita davlat, (dualistik) Avstriya-Vengriya monarxiyasiga aylandi.

Tayanch so'z va iboralar:

Komitat, medie, liga, amorf, ma`rifatparvar absolyutizm, provintsiya, kontsepsiya, rekrut, slovak, reaktsiya, senzura, neobsolyut, avtroslavyanizm.

Nazorat savollari.

1. Venada turk xarbiy qo'shinlari mag'lubiyatining asosiy sababi nima ?
2. Mariya Tereza qanday isloxlarni amalga oshirdi?
3. «Ma`rifatparvar absolyutizm» isloxlari qanday maqsadni o'z oldiga qo'ygan edi?
4. Nima uchun Napoleon Vengriyaga ikki marta siyosiy mustaqillik taklif qildi?
5. Nima uchun slavyan xalqlari Avstriya zulmiga qarshi birlasha olmadilar?
6. 1848 yil inqiloblari mag'lubiyatini sabablari nimada?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. Sharq . 1998 yil.
2. Prister. E. «Kratkaya istoriya Avstriyi». Moskva. Nauka. 1952 g.
3. «Osvoboditel'noe dvijeniya narodov Avstriyskoy imperii: Vozniknovenie i razvitie . Konets XVII v-1849 g». Moskva. Misl. 1980 g.
4. Potemkin. F.V, Moloka A.I: Revolyutsii 1848-1849 gg. V 2 t. Moskva. Politicheskaya literatura. 1952 g.
5. Averbux. R.A. Revolyutsii v Avstriyi . (1848-1849 gg) Moskva. 1987 g.

6. Agadi. I. Istoriya Vengreskogo krest'yanstva. Moskva. 1956 g.

7. Istoriya Vengrii v 3 t. Moskva. 1971-1972 gg.

Mavzu: Germaniya XVII-XIX asrlarda.

Reja:

Kirish

1. Germaniya davlatining iqtisodiy taraqqiyoti. Shaxarlar.
2. Absolyutizm. German davlatlarining xalqaro munosabatlari.
3. XVIII asrdagi Fransuz inqilobi va nemis davlatlari.
4. Germaniya ittifoqi.
5. 1848 - 1849 yillardagi inqilob.

Xulosa

Kirish

XVII - XIX asrlardagi German davlatlarining axvoli Angliya va Fransiyadan keskin farq qilib, og'ir va murakkab edi. 1648 yilning 24 oktyabrida Myunstyer va Osnibryuk shaxarlarida imperator va imperiyadagi tabaqalar vakillari o'rtasida sulx shartnomalari tuzuldi va Vestfaliya sulxi nomini oldi. Natijada Muqaddas Rim imperiyasi xayoti yana 150 yilga o'zaytirildi. Ammo ayrim davlatlar imperiya tarkibidan chiqib, mustaqil davlatlarga aylandi. Katolik, protestantizm, kalvinchilik mazxablari tan olinib, diniy muammolar birgalikda xalqilinadigan bo'ldi.

Imperiyada 300 ta diniy va dunyoviy knyazliklar, 51 ta imperiya shaxri, 1475 ta imperiya ritsarlari mulklari mavjud bo'lib, ularning xammasi «mustaqil» davlatlar deb xisoblangan. Knyaz va davlatlar birligining ramzi-imperator edi. Imperator Maynts arxiepiskopi rahbarligida diniy va dunyoviy kurfyuristlar kollegiyasida, Gabsburglar sulolasi vakilidan saylangan. Kurfyuristlar kollegiyasi

birinchi kuriya, knyazlar kengashi (100 ovoz)-ikkinchi kuriya, shaxarlar kengashi (51 shaxar) - uchinchi kuriya xisoblangan va bu kuriyalarning yig'ini Reyxstag deb atalib, 1663 yildan Regensburg shaxrida reyxstag majlislari o'tkazilgan.

Germaniya davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti. Shaxarlar.

30 yillik urush German davlatlarining iqtisodiy xayotiga salbiy ta'sir etgan bo'lsada, sekinlik bilan iqtisodiy o'sish boshlandi. German davlatlaridagi tarqoqlik iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilgan. German davlatlari agrar munosabatlarida keskin tafovutlar mavjud edi. El'badan sharqda joylashgan german davlatlarida (Brandenburg, Meklenburg, Prussiya) yirik dvoryan xo'jaliklari vujudga kelib, tovar xo'jaliklariga ixtisoslashuv amalga oshirildi. Dexqonlar shaxsan qaram kishilar bo'lib o'z yerlaridan maxrum bo'lib, barshina o'tar edilar. Imperiyaning janubi g'arbida (Baden, Vyurtemberg) yirik dvoryan xo'jaliklari yo'q edi, sen'or tartibi mavjud bo'lib, dexqonlar feodal rentasi to'lar edilar.

Jabr zulmniig kuchayishi natijasida dexqonlarning qo'zg'olonlari keng tarqalib bir necha o'n yillar davom etar edi. Dexqonlar barshinani bajarishdan, soliq to'lashdan bosh tortar, feodallarni o'ldirar, mulklarini vayron qilar, ommaviy ko'chib ketar, qaroqchilik bilan shug'ullanar edilar. 1761-1771 yillarda Janubiy Germaniyada M. Klostermayer raxbarligida, 1705 - 1706 yillarda Bavariyada dexqonlar qo'zg'olonlari, XVIII asrning 30-40 yillarida selitra urushlari bo'lib o'tdi. XVIII asrda nemis dexqonlari Atlantika okeani ortiga va Rossiya xududlariga ko'chib o'tdilar.

30 yillik urushdan so'ng Imperiya shaxarlarining uchdan bir qismi knyazliklarga aylandi. Xududiy davlatlar ta'sirining o'sishi tufayli shaxar rezedentsiyalar soni o'sdi. Urush natijasida shaxarlarda xunarmandchilik inqirozga uchradi. XVIII asr boshidan boshlab iqtisodiy xayot rivojlandi. Knyazlar tomonidan yirik manufakturalar tashkil etildi. Sex xunarmandchiligi o'z axamiyatini yo'qota boshladi. XVIII asr oxiridan Berlin tekstil va metallurgiya markaziga aylandi. 1782

yilda to'qimachilik manufakturalari soni 65 taga etdi. 1784 yilda birinchi to'quv fabrikasi, 1785 yilda birinchi bug' mashinasi ishga tushdi. Shaxarlarda norozilik chiqishlari, qishloqlarda dexqonlarning qo'zg'olonlari bilan bog'lanmagan edi. 1702 - 1703 yillarda Xildesxaymda, 1727-1733 yillarda Myulxauzenda yirik qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. XVIII asrda sex masterlari birodarlik ittifoqlariga birlashib, o'z xaq xuquqlari uchun, «xavorang dushanba»ni saqlab qolish uchun kurash olib bordilar. 1731 yilda birodarlikni ta'qiqlovchi imperator qonuni e'lon qilindi.

Absolyutizm. German davlatlarining xalqaro munosabatlari.

XVIII asrda German davlatlarida Gabsburglar, Gogentsollernlar sulolasining absol'yut tuzumi mustaxkamlangan, Saksoniya kurfyuristlari va gertsoglarning absolyut tuzumi inqirozga uchragan edi. Vestfaliya sulxiga ko'ra Brandenburg-Prussiya davlati (Fridrix Vilgel'm) kengaydi. Bu davlat Boltiq va Shimoliy dengizga chiqdi. 1660 yilda Oliv sulxiga ko'ra Prussiya mustaqillikka erishdi. Buyuk kurfyurist Fridrix Vil'gelm davrida xududiy davlat Yevropadagi yirik davlatlardan biriga aylandi. 1701 yildan boshlab Prussiya qirollari Kyonigsbergda toj kiya boshladilar. Fridrix Vil'gelm I (Qirol soldat) xarbiy, maorif, diniy isloxotlar o'tkazdi. U markazlashgan, pruss xarbiy amaldorlaridan iborat davlat boshqaruvini yaratdi.

Pruss xarbiy amaldorlari qirolga va o'z burchlariga sodiq edilar. Fridrix II davrida olib borilgan urushlar tufayli Sileziya Prussiya tarkibiga kiritildi. U Volter bilan yozishmalar olib borgan, (Volter San Susida Fridrix II mulkida yashagan) fransuz tili va adabiyoti ixlosmandi edi. U ma`rifatparvar absolyutizm siyosatini olib borgan. Merkantilizm siyosatini olib borgan. 150000 armiya saqlagan va «San Susilik faylasuf», «Qari Frits» nomlarini olgan.

Vestfaliya sulxidan so'ng german xududiy davlatlari xalqaro muammolar xal etiladigan, urushlar olib boriladigan xududga aylandi. Rossiyaning Yevropada

faol tashqi siyosat olib borish natijasida, XVII asrda Rossiya va German davlatlarining siyosiy aloqalari kuchaydi. Ayniqsa Pyotr I davrida, Shvetsiya Rossiya urushida german davlatlari Rossiya bilan ittifoqchi bo'ldilar. Pyotr I davrida German imperatorlari, knyazlari bilan sulolaviy nikoxlar tizimi vujudga keldi. Rossiya - Prussiya ittifoqi Angliya, Avstriya, Polsha va ayrim german davlatlarining qarshiligi va noroziligini vujudga keltirdi. XVIII asrda Rossiya vaziyatga qarab turli nemis davlatlari bilan xar tomonlama aloqa olib borgan. 1758 yilda Sharqiy Prussiya Rossiya xududi deb e'lon qilingan, ammo Elizavetaning o'limi Fridrix II ni mag'lubiyatdan saqlab qoldi.

Fridrix II o'z vorislariga Rossiya bilan aloqalarni mustaxkamlashni vasiyat qilgan. Rossiya xududiga yuz minglab nemislar ko'chib kelib joylashgan. XVIII asrda yagona nemis millatining shakllanishi jarayoni yuz berdi, nemis adabiy tili vujudga keldi. Xristian Tomazius 1687 yilda universitetda nemis tilida birinchi marta ma'ruza o'qidi. XVII asrda nemis ma'rifatparvarligi (Leybnits, Volf, Kant) davri boshlandi. 1770 yilda 40 ta nemis universitetlari mavjud edi. Bu davrda nemis millati davlat millati emas, madaniy millat (kulturnatsion) edi. Rossiya bilan aloqalar mustaxkamlanib, Rossiya imperatori Aleksandr I ning Germaniyadagi obro'si juda oshdi.

Germaniya Ittifoqi.

Vena kongressi aktiga ko'ra 1815 yilning 8 iyunida Germaniya ittifoqi tashkil etildi. Ittifoqqa 35 ta mustaqil monarxiya va 4 ta mustaqil shaxar kirdi. Ittifoqning eng kuchli a'zolari Avstriya va Prussiya bo'lib, bundestagning (ittifoq vakillik organi) qarorlari, ularning ta'siri ostida chiqar edi. Ittifoq 5 ta qal'a, bundesxer, aloxida mamlakatlarning armiyalaridan tashkil topgan armiyaga ega edi. Ammo bundestag qarori ittifoq a'zolari uchun majburiy emas edi. Germaniya ittifoqi o'z oldiga nemis xalqini iqtisodiy va siyosiy birlashtirish maqsadini

qo'ymagan edi. Balki Avstriya shtat kantsleri Klemens fon Metternixning ta'mirlash siyosati uchun tuzilgan edi.

Vena kongressida «Muqaddas ittifoq» tuzuldi va konservativ tayziq siyosati boshlandi. Tayziq siyosati asosan Germaniyaga qarshi qaratilgan bo'lib, Germaniya va Rossiyani yaqinlashuviga yo'l qo'ymaslik edi. Metternixni tayziq siyosatiga qaramasdan Germaniya ittifoqida liberal, demokratik va milliy xarakat rivojlanishda davom etdi. 1832 yilning 27-30 mayida Pfaltsda 30 ming kishilik namoyish o'tkazilib, ular ozod va birlashgan Germaniya talablarini qo'ydilar. 1815-1848 yillarda german davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlandi.

Pomeshchik xo'jaliklari burjua va yunker xo'jaliklariga aylandi. Axolini qashshoqlashuvi tufayli yiliga 20-30 ming kishi emigratsiyaga ketdi. 1834 yilda Prussiya tashabbusi bilan Nemis bojxona ittifoqi tuzuldi. Nemis davlatlarida sanoat to'ntarishi amalga oshirildi. Temir yo'llar qurildi, tog' va metallurgiya, mashinasozlik va to'qimachilik sanoati yuksaldi. Reyn viloyati ittifoqning sanoat markaziga aylandi. Ishchilar soni o'sdi. 1846 yilda Prussiya sanoatida 750 ming ishchi mavjud edi.

1830 yillarda ilk ishchilar tashkilotlari vujudga keldi. Bu tashkilotlar chet elda ishlaydigan nemis ishchilari tomonidan tuzuldi. 1836 yilda Parijda «Adolat ittifoqi» yashirin tashkiloti tuzuldi. 1847 yilda Londonda «Kommunistlar ittifoqi» tuzuldi. Axolining ziyoli qatlamlarida birlashgan Germaniya barpo etish g'oyasi keng tarqaldi. Konservator va liberallar birlashish g'oyalariga qarshi chiqdilar. 1845-1847 yillardagi xosilsizlik, 1847 yildagi iqtisodiy inqiroz, 1848 yildagi milliy muammolar mamlakat axvolini og'irlashtirdi.

XVIII asrdagi Fransuz inqilobi va nemis davlatlari.

Fransiyadagi inqilobiy jarayon nemis davlatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or nemis mutafakkirlari Fransiya inqilobiy g'oyalarini qo'llab-quvvatladilar. Ammo nemis burjuaziyasi zaif, xalq mentaliteti turlicha, yagona inqilobiy markaz

yo'q edi. 1789-1790 yillarda, 1793-1794 yillarda nemis davlatlarida feodal tuzumga qarshi tarqoq qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. German davlatlariga Fransuz kontrrevolyutsionerlari emigratsiyaga (Kolbets) keldilar. 1792 yilning avgustida nemis qo'shinlari Valmi yonida fransuzlardan engildilar. Gyote: "Shu yerdan jaxon tarixining Yangi davri boshlanadi deb yozgan edi".

I. Kloots («Inson qavmining notiqi») va uning tarafdorlari «Butun Jaxon Respublikasi» g'oyasini ilgari surdilar. Maynts shaxri 1792 yilning 21 oktyabrida fransuzlar tomonidan egallandi va inqilob markaziga aylandi. 1793 yilning 24-26 fevral kunlari Reyn nemis milliy konventiga saylovlar o'tkazilib, Maynts respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. Bu nemis tuprog'idagi birinchi demokratik respublika edi. Maynts respublikasi Fransiya tarkibiga kiritildi. Nemis yakobinchilari Xalqdan ajralib qolgan edilar. Fransuz xarbiylari nemis inqilobchilarini qo'llab quvvatlaydilar.

Napoleon urushlari nemis xalqi taqdiriga ulkan ta'sir ko'rsatdi. 1806 yilda Muqaddas Rim imperiyasi tugatilib, Reyn ittifoqi tashkil topdi. Bu ittifoq 1812 yilda Prussiya va Avstriyadan tashqari butun nemis davlatlarini birlashtirdi. Reyn ittifoqi Fransiya bilan xarbiy ittifoq to'zadi. Reyn ittifoqida antifeodal tadbirlar amalga oshirilib, Napoleon kodekslari amalga oshirildi. Ammo Fransiya nemis shaxarlari, davlatlariga asoratli qarzlari berib, soliqlar miqdorini oshirdi. 1807 yildagi Til'zit sulxiga ko'ra Prussiya o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Prussiyada 1807 yildan boshlab feodal tartiblar bekor qilindi va xarbiy boshqaruv isloxlari o'tkazildi. Armiyada dvoryanlar imtiyozlari tugatildi, tan jazosi bekor qilindi, ta'lim berilgan zaxira landver qismlari tashkil qilindi.

Fransiyaning Rossiyaga qarshi yurishida Avstriya va Prussiya, Fransiya ittifoqchi bo'ldilar. Prussiya ministri Shteyn Rossiya tarafida bo'ldi. Uning taklifi bilan nemis-rus xarbiy legioni tuzuldi va 10.000 ta murojatnoma nemis xalqiga

tarqatildi. 1813 - 1814 yillardagi ozodlik urushlarida Rus - Nemis aloqalari mustaxkamlanib imperator Aleksandr I ning Germaniyadagi obro'si yanada oshadi.

1848-1849 yillardagi inqiloblar.

Parij inqilobi ta'sirida 1848 yilning 1 mart kuni Baden gertsogligida militsiya tuzish, matbuot, vijdon, namoyish o'tkazish erkinligi va umumgerman parlamentini tuzishni talab qilgan petitsiya gertsogga topshirildi. Gertsog bu talablarni bajardi. «Mart inqilobi» butun Germaniyaga tarqaldi va Avstriya va Vengriyani xam qamrab oldi. Prussiya qiroli F.Vilgelm IV 18 martda senzurani bekor qildi. Birlashgan landtag chaqirishga , konstitutsiya qabul qilishga Germaniya ittifoqini tuzishga va`da berdi. Metternix mamlakatdan qochib ketdi. 1848 yilda Germaniyaning markaziy va janubiy g'arbida dexqonlarning yirik g'alayonlari yuz berdi.

1848 yilning 18 mayida Frankfurt na Maynda, Avliyo Pavel cherkovida Milliy majlisning birinchi majlisi ochildi. Umumgerman milliy majlisi imperiyaning markaziy xukumati bo'la olmadi. Majlisda konstitutsiya va Germaniya kelajagi to'g'risida uzoq baxs olib borildi. 1849 yilning 28 martida parlament imperiya konstitutsiyasini qabul qildi. Nemis xalqi tarixida birinchi marta fuqaro erkinliklari qonuniylashtirdi. Xususiy mulk daxlsizligini e`lon qilindi, feodal tartiblar, toifalar , o'lim jazosi bekor qilindi. Kichik German varianti qabul qilinib, ijroiya xukumat boshlig'i etib, Prussiya qiroli Vilgelm IV saylandi. Xalq yig'ini (folksxaus - ikki palatali parlament) qonun chiqaruvchi xokimiyat edi. Birinchi palata vakillar palatasi , ikkinchi palata davlat yig'ini shtatenxaues bo'lib xar bir davlat va landtag vakillaridan iborat edi. Konstitutsiya monarxiya tuzumini saqlab qoldi.

Ammo 1849 yilning 3 sentyabrida F. Vilgelm IV konstitutsiyani imzolashdan bosh tortdi. Germaniyada kontrinqilob davri boshlandi. Ko'plab german davlatlari xam konstitutsiyaga qarshi chiqdilar. Respublikachilar va

demokratlar konstitutsiyani ximoya qilishga xarakat qildilar. 1849 yil may- iyun' oylarida ko'plab shaxarlarda xalq namoyishlari bo'lib o'tdi. Ammo g'alayonlar shafqatsizlik bilan bostirildi. 1848 yilning dekabrda qirol konstitutsiya tufxa etdi. Mart talablari qisman bajarildi, qirol xar qanday qonunni bekor qilish xuquqiga ega bo'ldi. 1849 yilda uch toifali saylov tizimi joriy etildi. Yuqori palata vakillari ruxoniylar va aristokratiya tabaqasi vakillaridan tashkil topdi.

Xulosa

German davlatlarida inqilob mag'lubiyatga uchradi va Germaniyani birlashtira olmadi. Inqilob tugallanmaganligi sababli monarxiya tuzumini tugata olmadi va ayrim davlatlarda monarxiya tuzumi saqlanib qoldi. Ammo ayrim german davlatlarida feodal tartiblar barxam topdi, konstitutsiyalar tiklandi, axoliga ayrim erkinliklar berildi. Natijada Germaniyada kapitalizm jadallik bilan rivojlandi. Nemis burjuaziyasi siyosiy xayotda faol ishtirok eta boshladi. Inqilob demokratik kuchlarning o'sganligini, xalq ommasining siyosiy faolligini o'sganligi va yagona maqsad yo'lida jiplashganligini ko'rsatdi. Germaniyani quyidan inqilobiy yo'l bilan birlashtirish amalga oshmadi. Germaniyani yuqoridan birlashtirish uchun xarakat boshlandi. Prussiya taxti vorisi Vilgelm: «Kim Germaniyani boshqarishni xoxlasa, u Germaniyani egallab olishi lozim» deb yozgan edi.

Tayanch so'z va iboralar:

Kollegiya, reyxstag, rezidentsiyalar, absol'yut, shtatnatsion, kul'turnatsion, emigratsiya, landver, bundesxer, bundestag, legion, kantsler, kongress, yunker, fol'ksxaus, shtatenxaus.

Nazorat savollari:

1. German davlatlarining iqtisodiy o'sishiga nimalar to'sqinlik qilar edi?
2. Germaniyani yuqoridan birlashtirish g'oyasini tushuntirib bering?
3. Prussiya XIX asrda qaysi mamlakat bilan ittifoqchilik aloqalarini olib borgan?
4. Napoleon urushlari german davlatlari xayotiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

5. Uch tabaqali saylov tizimi qanday xususiyatlarga ega?
6. Vena kongressi Germaniya ittifoqiga qanday munosabatda bildirgan edi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. « Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. Yurovskaya.E.E, Krivoguz. I.M, : «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». Moskva. «Visshaya shkola». 1998 g.
3. Galkin. I.S.: «Sozdanie Germanskoy imperi (1875-1871gg)». Moskva.1986g.
4. Skazkin.S.D.: «Germanskaya istoriya v novoe i noveyshee vremya». V 2 t. Moskva. 1970 g.
5. Pertsov. V.N.: «Ocherki istorii Germanii». Minsk. 1959 g.
6. Deborin. A.M: «Ocherki sotsial'no-politicheskoy misli v Germanii konets XVII, nachalo XIX veka». Moskva. 1967 g.
7. Kann. S. B: «Revolyutsiya 1848 goda v Avstriyi i Germanii.» Moskva. 1959 g.
8. Stepanova.E.A, Levinova.S.Z: «Bor'ba za yedinuyu demokraticeskuyu Germaniyu v period revolyutsii 1848-1849 gg.» Moskva. 1955 g.

Mavzu: « XVII-XIX asrlarda Rossiya

Reja

Kirish

1. XVII asrda Rossiyaning taraqqiyoti.
2. Pyotr I xukmronligi davri.
3. Xalq qo'zg'olonlari.
4. Rossiyani mustamlakachilik siyosati.
5. Madaniyat, ilm-fan, san`at.

Xulosa.

Kirish.

Yangi davr boshlanishida Rossiya Yevropadagi eng qoloq mamlakatlardan biri edi. Mamlakat «boyarlar dumasi, boyarlar aristokratiyasi bo'lgan somoderjaviya» asosida boshqarilar edi. Boyarlar dumasi va turli tabaqalardan tashkil topgan Zemstvo soborlari tez-tez chaqirilib turilar edi. Maxkamalar sistemasi juda sertarmoq edi. Ularning soni va tarkibi beqaror edi. Maxalliy boshqaruv podsho tomonidan tayinlangan voevodalar tomonidan boshqarilar edi. Butun XVII asr Rossiya uchun uzoq va og'ir urushlar bilan o'tdi. Bu davrda Rossiya savdo va xarbiy flotiga ega emas, dengizga chiqish imkoniyatlaridan maxrum etilgan edi. Rossiyaning ichki va tashqi axvoli, xo'jaligi, madaniyati, tashqi siyosati bu soxalarda qat'iy choralar ko'rish va isloxotlarni o'tkazishni talab qilayotgan edi.

XVII asrda Rossiyaning taraqqiyoti.

XVII asrda Rossiya sekinlik bilan bo'lsada, taraqqiy eta boshladi. Shaxar xunarmandchiligi, davlat manufakturalari taraqqiy etdi. Umumrossiya bozori vujudga keldi. Yirik savdo markazlari Moskva, Novgorod, Arxangel'sk, Svensk, Makarevsk, Irbit yarmarkalari taraqqiy etdi. Moskva, Tula, Novgorod, Serpuxov shaxarlari temirsozlik markazlariga aylandi. Yaroslavl va Vologda xududlarida to'quvchilik gullab yashnadi. Bu tarmoqlardagi manufakturalar asosan davlat, boyarlar, savdogarlar va ajnabiylar tomonidan qurilar edi.

Manufaktura va zavodlar krepostnoylar mexnatiga tayanar edi. Rossiya krepostnoylar mamlakati edi. Dexqonlarning 50 foizi oqsuyak feodallarga, 16 foizi ruxoniy feodallarga krepostnoy qaramlik xolatida edi. Barshina, natural, pul soliqlari ko'payib ketishi tufayli axoli qishloqlardan qochib keta boshladi. XVII-XVIII asrlarda Rossiyaning g'arb va sharq mamlakatlari bilan savdo sotiq aloqalari, xar yili o'tkaziladigan yarmarkalar orqali amalga oshirilar edi. Yirik savdo yarmarkalari muntazam o'tkazilar edi. Yagona Rossiya bozori shakllanayotgan edi.

Arxangelsk G'arbiy Yevropa bilan tashqi savdoni amalga oshiradigan asosiy port edi.

1667 yilda «Yangi savdo ustavi» chiqarildi. Chet el savdogarlariga rus bozorlarida chakana savdo qilish ta'qiqlandi. A.M.Romanov (1645-1675 yillar) podsholigi davrida dexqonlarni qaramligi kuchaydi. 1649 yilning yanvarida Zemstvo sobori «Sobor qonunlari» (Aldovskiy tomonidan tuzilgan)ni tasdiqladi. Bu qonunlar podsho xokimiyatini mustaxkamlab, feodal tarqoqlikka barxam berdi, rus dexqonlarini yerga emas, butunlay xo'jayiniga bog'lab qo'ydi. Bu qonunlar krepostnoylik mazmunida bo'lib, dvoryanlar g'alaba qozondi. Dvoryanlar o'z yerlarini «votchina» tarzida meros qilib qoldiradigan bo'ldi. Podsho mamlakatni «podshoning amri, boyarlar xukmi» formulasi asosida boshqarar edi. Duma mansablari podsho tomonidan berilar edi.

XVIII asr oxirida Rossiyada 2294 ta sanoat korxonasi ishlab turar edi. Ural Rossiya metallurgiyasining markaziga aylandi. Rossiya cho'yan eritish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Kapitalistik manufakturalar soni 52 taga yetdi, Ivanova - Voznesensk to'qimachilik markaziga aylandi. 1774 yilda cherkov yerlarining bir qismi davlatga o'tdi. 1775 yilda gubernya isloxoti o'tkazilib, Rossiya 50 ta gubernyaga bo'lindi, gubernyalar uezdlarga, uezdlar volostlarga bo'lindi.

1785 yilda bir qator qonunlar qabul qilindi. Dvoryanlar va shaxar zodagonlarining mavqei ancha o'sdi. Rossiya gubernyalarida krepostnoylar soni 45 foizdan 70 foizgacha yetar edi. Krepostnoy dexqonlarning 56 foizi barshchina, 40 foizi obrok to'lar edi. XIX asrda Rossiyada bir qator isloxotlar amalga oshirildi: 1861 yilning 19 fevralida krepostnoylik bekor qilindi. 1864 yildan gubernya va uezd doirasida saylab qo'yiladigan xokimiyat organlari Zemstvo muassasalari tuzuldi. Shu yili sudlar mustaqillikga erishdi. 1874 yilda umumiy xarbiy majburiyat (21 yoshdan) e'lon qilindi.

Pyotr I xukmronligi davri.

Pyotr I (1672-1725 yillar.) Rossiya podshosi, imperatori, (1721 yildan) davlat arbobi, sarkarda. A.S.Pushkin Pyotr I ni «Abadiy xizmatchi» deb atagan. U o'rt to'rt xunar egasi, Gollandiyada kema duradgori, Angliyada injener unvonini olgan, Fransiyada esa Fanlar Akademiyasining a'zosi unvoni berilgan. 1695-1696 yillarda Pyotr I Turkiyaga qarshi Azov urushini olib bordi. 1696 yilda Rus flotiga asos soldi. 1697 yilda Turkiyaga qarshi koalitsiya tuzish maqsadida Ulug' elchilik guruxi tarkibida Pyotr Mixaylov nomi bilan yashirinib, G'arbiy Yevropaga jo'nab ketadi. Turli mamlakatlarda bo'ldi va turli zamonaviy soxalar bilan yaqindan tanishdi.

Pyotr I Turkiyaga qarshi koalitsiya tuzish mumkin emasligini tushunib etdi va Rossiya uchun xayot mamot masalasi bo'lgan Boltiq dengiziga chiqish uchun kurash boshladi. Shimoliy urush (Shvetsiyaga qarshi) 1700-1721 yillarda bo'lib o'tdi. 1700 yilda Turkiya bilan sulx tuzilib, Rossiya Shvetsiyaga qarshi urush e'lon qildi. Urush 21 yil davom etdi. Avstriya, Daniya va Rossiya «Shimoliy ittifoq» ni vujudga keltirdilar. 1708 yilning yozida Lesnaya qishlogi yonida, 1709 yilning 27 iyulidagi «Poltava jangi»da, 1714 yilning iyulida Gangut (dengizda), 1720 yilning iyulidagi Grengam (dengizda) janglarida rus qo'shinlari g'alaba qozondi. 1721 yilning 30 avgustida Neshtadt (Finlandiyadagi shaxar) sulxi tuzulib, Islandiya, Liflyandiya, Ingermanlandiya, Kareliya, Boltiq dengizidagi orollar Rossiyaga o'tdi. 1711 yilda Prut daryosi soxillarida Turkiya Rossiyaga urush e'lon qildi.

Rossiya mag'lubiyatga uchrab, Azovdan voz kechdi. 1722 -1723 yillarda Rossiya Eron urushlari bo'lib o'tdi. Rossiya bu urushda g'olib chiqdi. Kaspiy dengizining g'arbiy qirg'oqlari, Darbant, Dog'iston, Boku, Ozarbayjonning ba'zi qismlari Rossiyaga o'tdi. 1724 yildagi Konstantinopol sulxiga ko'ra Rossiya Kavkaz ortini va Kaspiy bo'yini egalladi. Astraxan, Gruziya, Armaniston yerlari bosib olindi. Pyotr I davrida bir qator davlat isloxotlari o'tkazildi. 1711 yildan

Boyarlar dumasi Senat bilan almashtirildi. 1718 -1722 yillarda kollegiyalar tashkil qilindi. 1722 yilda «Mansab jadvali» e`lon qilindi. 1714 yilda yagona vorislik farmoni chiqarildi va dvoryan pomest`elarini votchinalar bilan tenglashtirildi. 1721 yili Rossiya imperiya deb e`lon qilindi.

1703 yili Neva daryosi quyilishida Sankt Peterburg (Pyotrning kalit shaxri) shaxri qurilib, 1712 yildan Rossiyaning poytaxti bo`lib qoldi. Rossiyada 1700 yildan Yangi kalendar qo`llanila boshlandi, 1708-1710 yillarda grajdan shrifti joriy qilindi, 1703 yilda birinchi rus bosma gazetasi «Vedomosti» nashr qilindi. 1715 yilda Sankt Peterburgda Dengiz Akademiyasi, 1719 yilda birinchi rus muzeyi «Kunstkamera» ochildi. 1725 yilda Sankt Peterburg Fanlar akademiyasi ochildi.

Xalq qo`zg`olonlari.

XVII-XVIII asrlarda Rossiyada krepostnoy qaramlikning kuchayishi, soliqlarni o`sib ketishi, tabaqalanishni kuchayishi tufayli qo`zg`olonlar avj oldi. 1648 yilda Voronej, Kursk, Elets, Tomsk, Moskva shaxarlarida yirik qo`zg`olonlar bo`lib o`tdi. Qo`zgonlar xukumatga katta xavf tug`dirdi. Qalbaki mis pullarni ko`payib ketishi va pulning qadrsizlanishi tufayli 1662 yilda Moskvada «Mis isyoni» qo`zg`oloni bo`lib o`tdi. Xukumat mis pul ishlab chiqarishdan voz kechishga majbur bo`ldi. 1666 yilda Don daryosi bo`yida Vasiliy Us boshchiligidagi qochoq dexqonlar otryadi Moskvaga yurish qildi. Pomeschchiqlarga qarashli mol-mulkni bosib oldi.

1667-1671 yillarda Rossiyada yirik dexqonlar urushlari bo`lib o`tdi. Bu urushga Stepan Razin boshchilik qildi. Razin qo`shini Don, Volga daryolari xavzasida va Kaspiy dengizida o`z xukmronligini o`rnatdi. U o`z kemalari, strunlariga ega edi. Razin qo`shini Boku, Yoyiq, Astraxan, Saritsin, Anadir, Kurmish, Saratov, Penza, Nijniy Novgorodni va boshqa shaxarlarni egalladi. Razin odil podshoga ishonar va xalqni krepostnoylikdan ozod qilishga va`da berardi. 1670

yilning 1 avgustida xukumat 60.000 kishilik dvoryanlar qo'shinini Razinga qarshi jangga yubordi. 1671 yilning may oyida qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirildi.

XVIII asr boshlarida Rossiyada dexqonlar og'ir jabr zulm va krepostnoylik tuzumi qonunlaridan qutulish uchun boshqa xududlarga qochib keta boshladilar. Xukmron tabaqalar qochoq dexqonlarni tutib kelish uchun xarbiy kuchlarni safarbar qildilar. 1707-1710 yillarda Don xududida kazak K.A.Bulavin boshchiligida dexqonlar urushi bo'lib o'tdi. Shuligin, Zaparoje, Sochi, Cherkassk, Saritsin shaxarlari qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. 1708 yilning iyulida Bulavin xalok bo'ldi. Ammo qo'zg'olon 1710 yilgacha davom etdi.

E.I.Pugachyov «Pyotr III» nomini olib, 1773-1775 yillardagi dexqonlar urushiga raxbarlik qiladi. Orenburg, Boshqirdiston, Ural o'lkasida dexqonlar urushi alanga oladi. Pugachev «Imperator Pyotr III manifestlari» ni e'lon qilib, butun Rossiyada erkinlik va tinchlik o'rnatishni va'da qildi. Pugachyov armiyasi turli xalqlardan tashkil topgan edi. O'nlab shaxarlar, yuzlab qishloqlar Pugachyov qo'liga o'tdi. Qo'zgon shafqatsizlik bilan bostirildi. 1775 yilning 10 yanvarida Pugachyov Moskvada Bolotnaya maydonida qatl etildi. 1825 yilning 14 dekabrda Sankt Peterburgda Senat maydonida yosh zobitlar va ziyolilarning qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Ular liberal isloxlarni talab qildilar. Qo'zgonchilar xalq ommasini qo'zg'olonga jalb etmadilar, oqibatda qo'zg'olonchilarni xalq qo'llab-quvvatlamadi, oqibatda qo'zg'olon mag'lubiyatga uchradi. Bu qo'zg'olonlar natijasida 1861 yilning 19 fevralida Rossiyada krepostnoy to'zum bekor qilindi.

Rossiyani mustamlakachilik siyosati.

XVII asr boshlarida Rossiya xar tomonlama Yevropa mamlakatlaridan orqada qolayotganligi sababli mustamlakalar uchun olib borilgan kurashlarda faol ishtiroq eta olmadi. Ammo Pyotr I davrida muntazam armiyani tashkil etilishi, Rossiyani taraqqiyotiga tamal toshini qo'yilishi munosabati bilan XVIII asrda Rossiya faol mustamlakachilik siyosatini olib bordi.

1756-1763 yillarda Rossiya 7 yillik urushda Prussiyaga qarshi ko'rashib, bir qator xududlarni qo'lga kiritdi. Ammo, Pyotr II tufayli 1762 yilda bu xududlar Prussiyaga (Qirol Fridrix II ga) qaytarildi. Ekatarina II xukronlik qilgan davrda mustamlakachilik siyosati sharqqa qaratildi. Qrim, Kuban, Gruziya bo'ysindirildi. 1791 yilgi Yassi sulxiga ko'ra Qora dengiz qirg'og'i, Belorussiya va Ukrainaning o'ng qirg'og'i Rossiyaga qaytarildi. O'rta va kichik juz qozoqlarining iltimosiga binoan, 1731 yilda kichik juz, 1739-1740 yillarda o'rta juz qozoqlari ixtiyoriy asosda Rossiyaga qo'shildi. Omsk, Petropavlosk, Semipalatinsk, Ustkamenagorsk, Orenburg shaxarlari qurildi. 1801 yilda Sharqiy Gruziya, 1809 yilda Finlyandiya, 1812 yilda G'arbiy Gruziya Rossiya qo'liga o'tdi.

1806-1811 yillardagi Rossiya-Turkiya urushlari tufayli Bessarabiya Rossiyaga o'tdi, Rus kemalari Dunayda erkin qatnash xuquqini qo'lga kiritdi. 1809 yilda Rossiya Shvetsiya sulxiga ko'ra, Finlyandiya va Aleut orollari Rossiyaga o'tdi. 1813 yilgi Rossiya - Eron o'rtasidagi «Guliston» sulxiga ko'ra Boku, Qorabog', Ganja, Shirvon, Darbant Rossiya qo'liga o'tdi. 1812 yilda Alyaskadan Kaliforniyagacha bo'lgan xududlar Rossiyaga o'tdi. 1812 yilda oktyabr - noyabr oylarida Napoleon Bonapart Rossiyadan qaqshatgich mag'lubiyatga uchragan. 1830 yildan boshlab Rossiya, Nikolay I davrida «Yevropa jandarmi» nomini oldi.

XIX asrning 30-50 yillaridan boshlab, Rossiyani mustamlakachilik siyosati yanada kuchaydi. 1839 yilning 14 noyabrida general Perovski boshchiligidagi qo'shinlar Xiva xonligiga yurish boshladi. Ammo 1840 yilda Orenburgga qaytdi. 1845 yilda Ural, 1847 yilda Raim, 1848 yilda Qorabuloq xarbiy qal'alari qurildi. 1851 yilda Tuychibek, 1853 yilda Oqmasjid qal'alari egallandi. 1860-1864 yillarda Sayram, Turkiston, Chimkent, Avliyo ota va boshqa xududlar egallandi. 1863 yil 17 iyunda Toshkent bosib olindi. 1868 yilda O'ratepa, Jizzax, Xo'jand, Samarqand, Kattako'rg'on shaxarlari bosib olindi, 1868 yilda Buxoro amirligi Rossiyaning

vassaliga aylandi, 1873 yilda Xiva xonligi, 1876 yilda Qo'qon xonligi, 1881 yilda turkmanlar buysundirildi. Oqibatda O'rta Osiyo Rossiya mustamlakasiga aylandi.

Madaniyat, ilm-fan, san`at.

XVII asrda Rossiyaning madaniy taraqqiyotidagi ko'pgina Yangi ijtimoiy xodisalar uning iqtisodiy va siyosiy xayoti bilan bog'liqdir. Rossiyada Petrushkin nomidagi qo'g'irchoq o'yinlari, daydi artistlar, xaralar (niqob) teatri faoliyati keng yoyildi. XVII asrda rus yogoch arxitekturasi gullab yashnadi. Rassomlik san`atini dunyoviy lashtirish uchun kurash boshlandi. Rossiya shaxarlarida kurantlar (katta soatlar) o'rnatila boshladi. Moskvada Dorixona maxkamasi va «Rus tabiblar maktabi» ochildi. Rossiyada savodli kishilar etishmas, ayollar butunlay savodsiz bo'lib, maktablar barmoq bilan sanoqli edi. 1687 yilda Slavyan-Grek-Lotin maktabi ochildi.

XVIII asrning birinchi choragida umumta`lim va maxsus o'quv yurtlari shaxobchalari vujudga keldi. Novgorod, Revel, Astraxanda «navigatsiya» maktablari ochildi. Konchilik, artilleriya, injenerlik maktablari paydo bo'ldi. Turli fanlardan lug'atlar, qo'llanmalar chop etildi. Arab raqamlaridan foydalanishga o'tildi. 1704 yildan boshlab teatrlar qo'yila boshlandi. 1725 yilda Rossiya Fanlar Akademiyasi ish boshladi.

XVIII asrning 30-40 yillarida mustamlakalarni egallash maqsadida ekspeditsiyalar tashkil etildi. V.Bering, S.Dejnyov, S.Krashennikovlar Kamchatka, Kuril orollariga ekspeditsiyalar uyushtirdilar. Rus olimi V.V.Lomonosov Yangi fizikaviy ximiya faniga asos soldi. U Rossiyada birinchi ximiya laboratoriyasini tashkil qilib, smaltani (noyaltiroq oyna) ixtiro qildi. 1775 yilda birinchi rus universiteti Moskvada ochildi. Unda 3 ta fakultet mavjud bo'lib, yuridik, filosofiya, meditsina fakultetlari bor edi. Darslar lotin tilida olib borilgan. I.I.Polzunov (1728-1766 yillar) bug' mashinasini ixtiro qildi. Ixtirochi I.P.Kulibin vodoxod, o'zi yurar foytun, ko'zguli proyektor yaratdi. Ammo bu ixtirolar keng

ommalashmadi. D.I.Fakvezin: «Brigadir», «Nodon boyvachcha», A.N.Radishev «Peterburgdan Moskvaga sayoxat», L.Tolstoy «Urush va tinchlik» asarlarini yaratdilar. N.I.Novikov «Turuten» (Tekinxur), «Suratkash» satirik jurnallari nashr etildi. Arxetekturada V.Rastrelniy, V.I.Bojinov, M.V.Kazakov faoliyat olib bordi. Rassomlik san`atida: I.Argunov, A.Antropov, F.Roqatov, V.Barovinovskiylar etishib chiqdilar.

Xulosa

XVII - XIX asrlarda Rossiyada krepostnoy xuquq va mustabid podsho xokimiyati Rossiyaning sotsial iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan edi. Mamlakatning texnika va madaniy taraqqiyoti to'xtalib qolayotgan edi. Pomeschiklar va feodallar krepostnoylar, feodalga qaram axolining kam unumli erksiz mexnatini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirib, eskicha ish tutishni afzal ko'rdilar. Vaxolanki, bu vaqtda kapitalistik Angliyada sanoat to'ntarishi boshlanib, qo'l mexnatini o'rnini mashinalar olgan edi. Fransiyada burjua inqilobi amalga oshirilgan edi. Rossiya qoloq, feodal, agrar va mustabid mamlakatligicha qolayotgan edi.

Tayanch so'z va iboralar;

Boyar, aristokratiya, дума, samoderjaviya, voevoda, ustav, sobor, votchina, gubernya, uezd, barshchina, krepost`noy, obroq, ulug' elchilik, strun.

Nazorat savollari.

1. Nima uchun Rossiya qoloq mamlakatligicha qolayotgan edi ?
2. XVII asrda Rossiyada sanoatning qaysi tarmoqlari rivojlandi ?
3. Rossiyadagi isloxotlar xaqida nimalarni bilasiz ?
4. Rossiya-Shvetsiya, Rossiya-Turkiya munosabatlari qanday edi ?
5. Xalq qo'zg'olonlari mag'lubiyatlarini sabablari nimada deb o'ylaysiz ?
6. Rossiya XIX asrda qanday mamlakat edi ?

adabiyot.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. Sharq. 1998 y.
2. Yurovskoy.E.E.,Krivoguz.I.M. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» Moskva. «Visshaya shkola».1998
- 3.Vsemirnaya istoriya v 12 tomax.T.6-12.M,Politizdat,1960.
- 4.Burjuaznie revolyutsii XVII-XIX vekov v sovremennoy zarubejnoj istoriografii.M, Visshaya shkola ,1986.
- 5.Istoriya diplomatii v v 5-ti tomax.M,Nauka 1959-1960
- 6.Barg M.TSivilizatsionniy podxod k istorii.Kommunist,1991.
- 7.SkazkinS.D Konets Avstro-russko-germanskogo soyuza.M,Nauka,1974

Mavzu: «Lotin Amerikasi mamlakatlari XVII-XIX asrlarda»

Reja:

Kirish

1. Lotin Amerikasi mustamlaka tuzumi davrida.
2. XVII asr oxiri XIX asr boshlarida milliy ozodlik revol'yutsiyalari.
3. Milliy davlatlarning vujudga kelishi.

Xulosa.

Kirish:

1492 yilda Amerika kash etilgandan so'ng, Ispaniya va Portugaliya XVII asr boshlarigacha Amerika, Afrika va Osiyodagi mamlakatlarni egallash va geografik kashfiyotlarda birinchi o'rinni egalladilar. 1494 yilgi Tordel'siya shartnomasi Yangi dunyo xayotida muxim axamiyat kasb etib, Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari mustamlakalari chegaralarini belgilab berdi. Braziliya Portugaliyaga, boshqa barcha xududlar Ispaniyaga tegishli deb e'lon qilindi. XVII asrda mustaxkamlanib olgan Gollandiya, Frantsiya va Angliya iberiya mustamlakachilarini xamma joyda siqib chiqara boshladilar. Ular Yamayka,

Kyurasao, Gaiti, Gviana xududlarini va Karib dengizidagi boshqa orollarni egallay boshladilar. XVIII asrda Amerika mustamlakalarini bo'lib olish tugallandi.

Mustamlakachilik sistemasi, tugilayotgan Yevropa kapitalizmi manfaatlariga xizmat qilar va barcha Amerika mustamlakalari uchun bir xil xarakterga ega edi. Ispaniya va Amerika savdosini 1503 yilda tuzilgan Savdo palatasi, Sevil'ya shaxri orqali va 1717 yildan Kadis portidan, Frantsiya Amerika savdo munosabatlarini 1664 yilgacha Vest Indiya, 1674 yildan Frantsiyaning qirollik xukumati Gallandiyani Niderlandiya Vest-Indiya kompaniyasi, Angliya munosabatlarini 1651 yilda tuzilgan «Navigatsiya akti» orqali nazorat qilinar va olib borilar edi. Barcha davlatlar o'z mustamlakalariga boshqa mamlakatlar bilan savdo qilishni ta'qiqlar, kontrabandaga qarshi kurashar, turli soliqlarni, boj to'lovlarini ayovsiz undirar edilar.

Lotin Amerikasi mustamlaka tuzumi davrida.

Mustamlakalardagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, avvalo xududlarning tabiiy, iqlimiy va demografik xususiyatlariga ega edi. Karib xavzasi. Venesuela, Yangi Grenada, Braziliya, Gvianada, Meksika shimolida ovchilar va dexqonlar yashaganlar. Markaziy va Janubiy Meksika, Gvatemala, Sal'vador, Boliviya o'zining qimmatbaxo metallarga boyligi va mayya, atstek, inklar, chibchalir kabi yuqori xind tsivilizatsiyasini yaratgan tub joy axolisi bilan xam ajralib turgan.

Bu xalqlar qadimgi Sharq mamlakatlari uchun xarakterli bo'lgan Osiyocho ishlab chiqarish usuli va despotiya davlat tuzimi davrida yashaganlar. Mustamlakachilar xind jamoasini o'z maqsadlariga buysundirishga intilganlar. enkom'enda - xind jamoasini boshlangich ekspluatatsiya formasi bo'lib, bu xizmat ko'rsatgan konkistadorlarga jamoani bir qismini bo'lib berilganligi aloxida ajralib turgan. Xindular o'z yo'lboshchilari kasik va kuraklar boshqaruvida xo'jalik yuritib, yaratgan maxsulotlarini bir qismini berganlar va konkistadorlarga «shaxsiy xizmat» ko'rsatganlar.

XVI asrning 40 yillarida «Yangi qonunlar» bilan enkom`endalar qisqartirilib, shaxsiy xizmatlar bekor qilingan. Jamoa er egaligi minimal miqdordagi xaydaladigan va exido nomli jamoa bilan mustaxkamlangan. Pul topishga majbur etilgan jamoalar turli yo'llar bilan tovar-pul munosabatlariga tortilgan, «Shaxsiy xizmatlar»ni bekor qilib, mustamlakachilar «Jamoasi ishlari»ni xinducha «mita», «kaatekl'» joriy qildilar. Bu asosiy ekspluatatsiya usuli Ispan Amerikasida XVIII asrgacha saqlanib qoldi. Negr qullar va xindu jamoasi dexqonlari juda qattiq ekspluatatsiya qilingan. Shuningdek kreollar, oq tanli kambag'allar, metislar xam boshqa usul va turli darajada zkspluatatsiya qilingan.

Jamiyatning yuqori ta'baqasini mustamlaka aparatining oliy chinovniklari, ruxoniylari, kompaniya egalari, savdogarlar, kema egalari, sanoatchilar, katta er egalari tashkil qilishgan. Dastlab xususiy erlarni faqat qirol marxamati bilangina qonuniy olish mumkin bo'lgan bo'lsa, XVI asrda qirol marxamatidan to'rt yil o'tgach xususiy er egalari o'z erlarini o'z xoxlaganlaricha boshqarish xuquqiga ega bo'lganlar. 1591 yilda noqonuniy er egalari belgilangan to'lov evaziga bu erlarni xususiylashtirishi va qonuniylashtirish xuquqiga ega bo'lishgan. 1631 yildan qirol marxamati va er uchun to'lov bir vaqtda amalga oshirilgan. Faqatgina xindu jamoasi erlari, cherkov erlari va mayorotlar bundan mustasno edi.

Mustamlakalarda xo'jalik avvaldanoq ichki va tashqi bozor uchun maxsulot chiqarish uchun tashkil etilgan. Meksika tog' kon rayonlarida, Iberiya-Amerika qishloq xo'jaligida yollanma mexnat xam keng yoyila boshladi. Ammo Yangi dunyo axolisining kamligi, ilk kapitalizm xarakteri xususiyatlari, bo'sh erlarning kattaligi ishlab chiqaruvchilarning ommaviy ekspropriyatsiyasiga va arzon ishchi kuchi bozorlarining shakllanishiga to'sqinlik qildi. Oqibatda yollanma ishchi kuchi qimmatlashib bordi. Masalan: XVIII asrda kumush konlaridagi shaxtyorlar ishlab chiqarilgan kumushning 1/8 ulushini. mexnat xaqi sifatida olishgan. Bu foizni kamaytirish va uni pul bilan to'lashni talab qilib qo'zg'olonlar ko'tarishgan.

Bu davrda ekspluatatsiyaning aralash usullaridan: ishchilarni qarz yordamida, jamoa ishi-mita yordamida, qul va katorgachilar mexnatidan foydalanilgan.

Mustamlakalardagi ijtimoiy qarama qarshiliklar, irqiy qarama-qarshiliklar bilan yanada chuqurlashgan. Nazariya nuqtai nazaridan teri rangi insonni ijtimoiy xolatini aniqlamagan. Boy xindular o'z xalqlari ustidan cheksiz xukmronlik qilib, ular latifundiyalarga egalik qilishgan, frantsuz Gaitisida barcha plantatsiyalarning 1/4 qismi, qullarning 1 dan 5 qismi badavlat mulat va negrlarga qarashli bo'lgan. Ammo teri rangi mustamlaka apparatida o'rin egallash, maxalliy o'zini o'zi boshqarish organlari: munintsipal, ayuntamiento, kabil'do, yigilishlarda ishtirok etish, ta'lim olish, kiyinish, qurol olib yurishda asosiy rol' uynagan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida milliy ozodlik inqiloblari.

Mustamlakalarda mulksiz tabaqalarning chiqishlari keng tus ola boshlagan. Ayrim ozod qilingan xududlarda Afrikacha va Xinducha ilk jamoa tuzilmalari(qochoq negrlarning Palmaris respublikasi, Araukaniya davlati) yoki Osiyocha ishlab chiqarish usuli va xindu davlatchiligi ko'rinishidagi (Santos Atauil'naning Perudagi imperiyasi 1742-1756 yillar) imperiyalar vujudga kelgan, qo'zgalonlar, negrlar, xindular, oq tanlilar tomonidan xam ko'tarilgan. Lotin Amerikaliklar mustamlakachilar xaqida ularni yirik o'g'rilar va zulmkorlar deb e'tirof etadilar. Nemis olimi Aleksandr fon Gumbol'd 1799-1804 yillarda Amerika qit'asiga sayoxat qilib Yangi Ispaniya qirol xazinasiga, axolisi besh marta ko'p bo'lgan Britaniya Xindistoni Angliya xazinasiga beradigan foydasidan ikki marta ko'p foyda keltirgan- deb yozgan edi. Bu xar bir meksikalik xindistonlikka nisbatan o'n marta ko'p maxsulot etishtiradi degani edi.

Mustamlakalardagi olinadigan foyda qo'yilgan kapital miqdori va bog'liq edi. Mustamlakalarni rivojlanishiga katta qurilish ishlari juda katta ta'sir ko'rsatgan. Tog'-kon sanoati uchun katta kanallar qurish, minglab qullar sotib olish, shakar plantatsiyalari uchun qullar keltirish va shakar pishirish zavodlari qurish, (15 mln.

dollar) tez o'sayotgan axolini kiyim kechak, oziq-ovqat, turli maxsulotlar bilan ta'minlash zarur edi. Oqibatda maxsulot etishtiruvchilar o'z xo'jalik tarmoqlarini vujudga keltira boshladilar. XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliya, Ispaniya, Portugaliya mustamlakalar qoloqligini tugatish va mustamlakalardan olinadigan foydalarni ko'paytirish maqsadida Amerikada savdoni liberallashtirish reformasini o'tkazdilar. Natijada olinadigan foydalar o'sdi. Masalan ispan Amerikasida 1778-1784 yillarda daromad 9 million pesodan 143 million pesoga etdi. Ammo eksport tarmoqlarni rivojlanishi mustamlakalar iqtisodiyotini umumiy o'sishiga olib keldi. Rio-de Plata vitse qirolligida ichki bozor 1776-1800 yillarda 22 marta o'sdi.

Mustamlakalarida tovar ishlab chiqarishni o'sishi, maxalliy tadbirkorlar qatlamini mustaxkamlaydi. Ular asosan Yevropalik ilk burjuaziya vakillarini vorislari bo'lsalar xam, ikki, uch avloddan so'ng ular maxalliy kishiga aylandilar. Ular o'z qo'llarida katta erlar, yirik savdo uylari, 50% narxlarni to'lab, endi mustamlaka cheklovlarini bekor qilishni talab qila boshladilar. Keyinchalik ular Lotin Amerikasidagi burjua ozodlik xarakatini boshqardilar.

Bu davrda Yevropa mamlakatlari erkin kapitalistik raqobat bosqichiga o'tayotgan, sanoat to'ntarishlari yuz berayotgan edi. Yangi dunyo Yevropa kapitalizmi uchun xom ashyo ta'minotchisiga aylangani uchun shokolad markizlar, shakarokratiya, indigochilar, yirik er va konlar egalari, chorvadorlar maxaliy tadbirkorlarning bayroqdorlari edilar.

Savdo va tadbirkorlikni erkinlashtirish G'arbiy Yevropa fabrikalarini, zavodlarini sinishiga olib kelgan edi. Ammo Lotin Amerikasidagi o'sish suratlari maksimal tashqi savdo erkinligini talab qilar, unga Yevropa mamlakatlari konkurensiyasi daxshat sola olmas edi. Chunki ishlab chiqarish keng rivojlangan, arzon resurslar, arzon ishchi kuchi mavjud edi. Masalan: Yevropaliklar konkurensiyaga chidamay turli qonunlar, masalan Angliya fermerlari 1846 yilda «Non qonunlari» bilan ximoyalandilar. Bularning barchasi latifundiyachilarni jaxon

xo'jaligi bilan mustaxkam integratsiya birlashishiga bo'lgan intilishni kuchaytirdi. XVIII-XIX asrlarda Ispaniya Amerikasidagi konsulado (savdo-sanoat mustamlaka ministirliklari) tufayli latifundiyachilar qimmatli boshqaruv maxoratini o'zlashtirdilar. Ularning qurolli otryadlari kreollardan tashkil toptan edi. Ular inqiloblarning asosiy xarakatlantiruvchi kuch edilar.

Jaxon xo'jaligiga integratsiyalashuv, xar bir mamlakatda ma'lum siyosiy, iktisodiy va ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltirishni talab qiladi. (hozirda Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan shartnomalar asosida qarz berilishi.) XVIII asrning ikkinchi yarmida latifundiyachilar ta'siri ostida o'zgarishlar, qayta tuzishlar boshlanib, 1810-1826 yillardagi ozodlik urushlari tufayli bu jarayon tezlashdi. Venesuela, Kuba, Yangi Grenada (1821 yilda) Boliviya va Peru (1826 yilda) Meksika (1824 yilda) birinchi konstitutsiyalarini, mustaqilliklarini e'lon qildilar va boshqa davlatlarning bu xududlardagi manfaatlarini bekor kildilar. 1788 yilda er mulklarini taqsimlashni ta'qiqlash xaqidagi ispan qonuni bekor qilindi. Lotin Amerikasi mustalakalarida 1777- 1830 yillarida xindularning xususiy mulkdorlarga aylantirish baxonasi bilan jamoa erlari tugatish va talash ishlari amalga oshirildi . Fendu chorvador qabililari qirib tashlandi va siqib chiqirildi. egasiz erlar va chorva xayvonlarini boqish uchun minglab ozod dexqonlarga qochoq negrlarga, xindularga berildi . XV-XVIII asrlarda Angliyadagi kabi bu davlatlarda xam ommaviy ekspropyatsiya, « daydilikka» qarshi daxshatli qonunlar bilan amalga oshirildi, talangan xalq majburiy yollanma mexnatga Yevropa investitsiyasini jalb qilishni qo'llab quvvatlanishiga olib keldi. o'rgatildi . Xamma mustaqil davlatlarda savdo va tadbirkorlikni erkinlashtirish import va eksport bojlarini kamaytirish, tsex xunarmandchiligini tugatish chet el kapitalini jalb qilish, kontnentga Lotin Amerikasi revolyutsionerlari xamma er egalari turlarini burjua er egaligiga aylantirdilar, millionlab erkin dexqonlar, xindular va xunarmandlari majburiy yollanma mexnat qilishga majbur qildilar, kapitalni erkin aylanishiga sharoit

yaratib, Adam Smit (Xalqlar boyligi asari 1794 yilda nashr etilgan) rejasi asosidagi bozor iqtisodiyoti poydevorini qurdilar. Turli davlat tuzilmalari bu xarakatni qo'llab quvvatladilar. Latifundiyachilar burjua tuzumi taraqqiyoti uchun barcha erkinliklari va xuquqlarini tortib oldilar.

XVIII-XIX asrlarda metropoliyalar urushlar va inqiloblar ichida qoldi. Latifundiyachilar bu vaziyatdan o'zlarining talonchilik isloxotlarini amalga oshirishda foydalanmoqchi bo'ldilar, ammo quyi tabaqalar va burjuaziya o'rtasidagi shafqatsiz kurash bunga to'sqinlik qildi. 1780-1781 yillarda Peruda Tupak Amaru boshchiligidagi xindular qo'zg'oloni, 1781 yilda Yangi Grenadadagi Kommuneros (keyinchalik – geril'e, partizanlar urushi) urushlari bo'lib o'tdi. Bunday qo'zg'olonlar Lotin Amerikasining barcha xududlarini qamrab oldi.

1822 yilgi Braziliya inqilobigina sof burjua inqilobi edi. 1815 yilda Braziliya Portugaliya qirolligining teng xuquqli a'zosiga aylandi. 1820 yili Portugaliyadagi inqilobdan so'ng, qirol Joan VI va keyin uning o'g'li Braziliya regenti Pedruni Yevropaga chaqirib olib, mustamlakada o'z tuzumini ta'mimlamoqchi bo'ladilar. Bunga javoban Braziliya pomeschiklari Fozendero Pedruni qirol sifatida olib qolib, Braziliya xukumatini tuzadilar. 1822 yilning 7 sentyabrida Pedru Braziliyaning mustaqillik manifestini e'lon qilib, kontstituttsiyaviy monarxiya e'lon qilinib, Pedru I xokimiyati tuziladi. Revol'yutsiya tez sodir bo'lgani uchun, negrlar qo'zg'olon ko'tarishga ulgurmaydilar va qullik yana oltmish olti yil saqlanib qoladi.

Xalq demokratik inqiloblari Gaiti va Paragvayda sodir bo'ladi. Gaiti-San-Damingoning bir qismi Frantsiyaga qarashli bo'lib, tipik quldorlik mustamlakasi edi. Bu erda inqilob 1792 yilgacha burjua xarakterida edi. San-Damingo konstituttsiyasi- qabul qilindi. 1802 yilgacha Tussen Lyuvertyur qullar qo'zg'oloniga raxbarlik qiladi. Ular Frantsuz ekspedittsion korpusini yanchib, Gaiti mustaqilligini e'lon qiladilar. Bu burjuaziya maqsadlariga mos kelar edi. Oq

tanlilardan tortib olinagan erlarda davlat plantatsiya xo'jaliklari tashkil etilib, u erda kechagi qullar ishlay boshladilar. Ularning axvoli yaxshilangan bo'lsada, erkinligi o'z plantatsiyasini tashlab ketishi mumkin emas deb ta'kidlanadi.

Paragvayda asosan metislar yashab, ular tenglik va mustaqillikka intilganlar. Ularga doktor Fransua (1766-1840 yillarda yashagan laqabi Robesp'er) raxbarlik qilgan. 1810 yilda Paragvayliklar Buenos Ayresdan yuborilgan ispan ekspeditsiyasini mag'lub etadilar. 1811 yilda ispan rejimini ag'daradilar. 1814-1840 yillarda Fransua Paragvayda xukmronlik qiladi. Bu davrda burjuaziya , cherkov erlari tortib olinib Davlat ekstantsiyalari (davlat xo'jaliklari) tuziladi. Ishlab chiqarish davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi, maxsuldorlik repressiyalar yuli bilan oshiriladi, negr qullar va davlat dushmanlari mexnatidan keng foydalaniladi, xususiy savdo cheklanadi, narxlar davlat tomonidan belgilanadi, kambag'allarga bepul narsalar tarqatiladi, o'rta xollar soni o'sadi. Lotin Amerikasida birinchi bo'lib bepul majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etilib, 1822 yilda O'rta va Oliy ta'lim bekor qilinadi. Maxfiy politsiya keng faoliyat ko'rsatgan. Xalq talablari aks etgan burjua inqiloblari va boshqa ko'plab Ispan Amerikasi mamlakatlari uchun xarakterlidir. Faqat Kuba va Puerto Rikogina XIX asr oxiriga qadar mustamlaka zulmi ostida qoldi. Bu davrda Venesuela, Yangi Grenada, Meksikada Migel Idalgo boshchiligida yirik quzg'olonlar bo'lib o'tdi.

Milliy davlatlarning vujudga kelishi.

Lotin Amerikasi revolyutsiyachilari mustaqillik urushi tufayli, AQSH tarixini takrorlamoqchi edilar. Chunki tabiiy muxit , sharoit, urf-odatlar bir xil edi. Ammo urush yillarida Rio-De-La Platani Argentina, Boliviya , Urugvay va Paragvayga bo'linishi, parchalanish jarayonini tezlashtirdi. 1830 yilda Kolumbiya , Venesuela, ekvador, Yangi Granadaga, 1823 yilda Meksikadan ajragan Markaziy Amerika 1838-1841 yillarda Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua va Sal'vadorga bo'linib ketdi. Umuman Lotin Amerikasida 18 ta mustaqil davlat tashkil topdi.

Oqibatda erishilgan ozodlik rivojlanishga emas, balki birodarkushlik urushlariga olib keldi.

Lotin Amerikasi inqilobchilarining maqsadlari amalga oshmadi. Xalq xonavayron bo'ldi, iqtisodiyot tanazzulga uchradi. Yevropalik chayqovchilar, arzon ingliz savdo mollari Lotin Amerikasi bozorlarini egallab oldi, oqibatda eksport tarmoqlari, tog'-kon sanoati tanazzulga yuz tutdi. Axolining katta qatlamlari liberallardan norozi bo'la boshladilar. Maxalliy burjuaziya tezda fritrederchilikni (savdo erkinligi-fre tred) bekor qilinish talab qildi. Liberallar federal konstitutsiyalar e'lon qilib, provintsiya avtonomiyasidan chetga xom ashyo chiqarish, chetdan maxsulot kiritishni ta'qiqlash va boshqa maqsadlarda foydalanib, liberallar markazlashtirish siyosatini yo'qqa chiqardilar.

Liberallar isloxotalarni tezlashtirishga xarakat qilib, xo'jalik jamoa aloqalarini beshbattar xonavayron qildilar. Oqibatda Lotin Amerikasi tashqi xavf oldida ojiz bo'lib qoldi. Masalan 1836 yilda liberallarni chet el emmigratlariga Meksikada keng yo'l ochilishi Texasni, 1846-1847 yillarida 51 % Meksika xududini AQSH tomonidan tortib olinishiga olib keldi. Natijada yosh mustaqil davlatlar xayoti katta xavf ostida qoldi. Bu mamlakatlardagi burjuaziya xam istagan vaqtida yo'q bo'lib ketishi yoki sinfsiz mamlakatga aylanish xavfi tug'ildi. Mamlakatlardagi tanalluzlar sog'lom fikrlovchi burjuaziyani uyg'otdi. O'z xayotini saqlab qolish uchun ular XIX asrning 30 yillarida liberallarni xokimiyatdan ag'darish uchun keskin kurash boshladilar. Oqibatda Diego Parpales Chilida (1830-1837 yillar) , A.Karrera Gvatemalada (1838-1865 yillar), umuman barcha davlatlarda xokimiyatga konservatorlar xokimiyatga chiqdilar, ularning asosiy qismi 1810-1826 yillardagi ozodlik urushlarining yo'l boshchilari edilar.

Konservatizm (lotincha konserv - saqlash) liberallar va ularning isloxotlarini irg'itib yuborib, maxalliy axoli materialidan mustaqil millatlar va davlatlar qurishga intiladilar. Zaif federal respublikasi o'rniga qattiq markazlashgan xukumatni

vujudga keltirib, ijroiya xokimiyatni xuquqlarini kengaytirdilar. Ular xarbiy kuchlardan , cherkov va monarxlik ordenlaridan xalqni nazorat qilishda keng foydalanib ularning avvalgi mulklari va xuquqlarini tikladilar. Siyosiy va ijtimoiy soxada konservatorlar, lotin amerikaliklar o'zligiga asosiy e'tiborni qaratadilar.

Xulosa

Konservatorlar sog'lom va o'zgaruvchan iqtisodiy siyosatni, birlashishning material asosi deb xisoblaydilar. Ular davrida jaxon bozoriga maxsulot chiqarish bir necha marta o'sdi, ular maxalliy sanoatni xamma joyda chet el raqobatidan boj to'lovlari va ta'qiqlar bilan ximoya qiladilar. Meksika va Yangi Grenadada sanoatlashtirishni davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Ijtimoiy soxada ularga yon berishlar va manyovr usuliga o'tishdi. Peru, Boliviya, Gvatemalada jamoa erlarini sotish ta'qiqlanadi. Xindulardan tortib olingan erlarni bir qismi qaytariladi. Ammo Argentina va Chilida chorvadorlarni qirib tashlash daydilikka qarshi qonunlarni keng joriy qilindi. Shunday qilib, Lotin Amerikasida konservatorlar burjua inqilobini yaksong qiluvchi xarakatlarni to'xtatib xalqni urushdan oldingi xolatiga qaytarib, xududlar butunligi, mustaqillikni saqlash va mustaxkamlash uchun xarakat qilib extiyotkorlik bilan liberal isloxotlarni davom ettirdilar.

Tayanch so'z va iboralar:

Tordel'siya, Vest Indiya, navigatsiya, despotiya, mita, kaatekl', exido, konkistador, mayorat, ekspropriatsiya, plantatsiya, kabil'do, peso, shokolad markizlar, latifundiya, kreol, geril'i, kommuneros, regent.

Nazorat savollari:

1. Amerika erlarini mustamlakaga aylantirish qaysi asrlarda nixoyasiga etdi ?
2. Maxalliy xindu xalqlarini ekspluatatsiya qilish usullarini aytib bering?
3. Lotin Amerikasida ishchi kuchi nega qimmat bo'lgan?
4. Qaysi davlatda qulchilik uzoq vaqt saqlanib qoldi?

5. Qaysi davlatda birinchi burjua inqilobi g'alaba qozondi?
6. Lotin Amerikasidagi qaysi maxsulotlar Yevropaga eksport qilingan?
7. Inqilobning xarakatlantiruvchi kuchlarini qaysi tabaqalar tashkil etganlar?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. SHarq. 1998 y.
2. «Vsemirnaya istoriya.» V 12 t. Moskva. Politizdat. 1990 y.
3. Yurovskoy. E.E, Krivoguz. I. M. «Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.» Moskva. Visshaya shkola. 1998 y.
4. Yurovskaya. E. E. «Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640- 1870 gg)» Moskva . Visshaya shkola. 1990 g.
5. «Yangi tarix.» 3 tomlik. Toshkent. 1976 y

Mavzu: XVII - XIX asrlarda Xitoy.

Reja:

Kirish

1. XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII asrning oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli.
2. Maxfiy jamiyatlar faoliyati va xalq qo'zgonlari.
3. Birinchi afyun urushi
4. Taypinlar qo'zgoni
5. Ikkinchi afyun urushi
6. Taypinlar va boshqa xalq qo'z'olonlarining bostirilishi.

Xulosa

Kirish

1628-1645 yillardagi dehqonlar urushi Xitoyda feodal tuzumni mustahkamladi. XVII asrning 20-30 yillarida Shimoliy Xitoyda qudratli dehqonlar urushi boshlanib u 15 yildan ko'proq vaqt davom etdi. 1644 yilda imperiya poytaxti

Pekin qo'zg'olonchilar tomonidan olinib, Min sulolasi taxtdan agdarildi. Natijada Xitoyning shimoliy va markaziy viloyatlarida feodallar yer mulklaridan, imtiyozlaridan mahrum qilinib, ularning ko'pchiligi qirgin qilingan. Ana shunday bir vaqtda Xitoy feodallari manjur knyazlariga yordam so'rab murojaat qildilar. Lyaodun yarim orolining shimoliy qismida yashagan manjur qabilalari Min imperiyasining vassali edilar. 1644 yilda Xitoy armiyasining qo'mondoni U Sanguy manjurlarga vassal tushib, ularga buysunganligini ma'lum qilgach, manjur qo'shinlari Pekinni egallab, Xitoyda manjurlarning Sin sulolasi (1644-1912) hukumronligiga asos soldilar. Tahtga Nurhachining nabirasi Shi Tszu Shin Chji nomi bilan tahtga chiqdi. Faqat 1681 yildagina manjurlar butun Xitoyda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.

Manjur bosqinidan so'ng Xitoyning ijtimoiy iqtisodiy tuzumida sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi, Xitoy avvalgidek agrar mamlakat bo'lib qolaverdi. Min sulolasining hukumronligidagi kabi Xitoyda ishlov beriladigan yerlar amaldorlar va fuqaro yerlari kabi 2 ta toifaga bo'lingan. Fuqaro yerlari ishlov beriladigan yerlarning $\frac{3}{4}$ qismini tashqil etgan. Xitoy qishlog'ining ijtimoiy iqtisodiy hayoti asosini o'zaro qarindoshchilik aloqalari bilan bog'langan, yerga jamoa bo'lib egalik qiladigan qishloq jamoalari tashkil etadi. Bundan tashqari jamoada alohida individual tarzda yerga egalik qilish ham mavjud bo'lib, oldingisidan farqli holda bu yerlarni sotish yoki ijaraga berish mumkin bo'lgan. Qishloqni ekspulatatatsiya qilishning asosiy ko'rinishi ijara chorakorlik bo'lib, ijara haqi hosilning 30% - 70% miqdorida olingan. Manjurlar avvalgi soliq tizimini saqlab qolgan holda soliqlarni 30-50 % gacha qisqartirdilar. Qishloqlar o'n, yuz va ming honadonga bo'linib, oqsoqol va sardorlar tomonidan boshqarilgan. O'nta honadondan bitta jamoani tashkil qilgan. Dehqonlar hech qanday huquqlarga ega bo'lmaganlar. XVIII asrda millionlab dehqonlar ochlikdan o'lganlar. Yerlarning bir qismi imperatorga, uning yaqin qarindoshlariga, manjur aslzodalari va zobitlariga

tegishli bo'lgan. Davlat yer egaligining bir turi chegaradagi harbiy punktlarga tegishli bo'lib, ulardan keladigan daromad harbiy garnizonlar ta'minotiga sarflangan.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning oxirlarida xitoyning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy ahvoli

Xitoy o'zining siyosiy tuzumiga ko'ra mustabid tizimiga asoslangan bo'lib, yakka hukmdor bog'dixon cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan. Imperatorning qonun chiqaruvchi hokimiyati imperalor kotibiyati va harbiy kengashdan iborat ikkita maslahat organidan iborat bo'lgan. Mamlakat ma'muriy jihatdan 18 ta provintsiyalarga bo'lingan va ularni gubernatorlar boshqargan. Har bir provintsiyada 10 tadan viloyatlar bo'lib, viloyatlarda esa 1,5 mingga yaqin yezdlar bo'lgan. XVIII asrning oxirlarida Xitoyning mazkur 18 ta provinlsiyalarida 300 mln. ga yaqin aholi yashagan. Shaharlar manjurlar davrida talon taroj qilindi,avvalgi ahamiyatini yo'qotdi.Manjurlar shaharlarni ko'proq o'zlarining tayanch punktlariga aylantirdilar. Manjurlar savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qildilar.Keyinchalik mamlakat boshqaruvi va savdo, hunarmandchilikni o'z nazoratlariga oldilar.Konlardan 3/5 hajmida soliq olinib boshlandi. Manjurlar Konfutsiylik ta'limotini davlat mafkurasiga aylantirdilar. Davlat boshqaruvida patriarhal boshqaruvni mustahkamladilar. O'zidan kattaga itoat etish, eski urf odatlar va ananalarga qat'iy amal qilishga asoslangan avtoritar davlat boshqaruvini vujudga keltirdilar. Tsing sulolasi shomoniylikka e'tiqod qilsalarda buddaviylik, daosizm, musulmon dinlaridan davlatni boshqarishda keng foydalandilar.

Tsing hukumati 1755-1757 yillarda Xitoyning shimoli-g'arbidagi Jung'or va 1757-1759 yillarda esa Qoshg'ar xonliklarini bosib olinib, Sinszyan viloyatiga aylantirildi. 1768-1769 yillarda juda katta harbiy yo'qotishlar evaziga Birmada, 1788-1789 yillarda Ve'tnamda Xitoy hukmronligi o'rnatildi. Bosqinchilik

yurushlari natijasida XVIII asrning oxirlariga kelib, Xitoy territoriyasi ancha kengaydi. Biroq harbiy yurushlarni uyushtirish. bosib olingan yerlarda qo'zg'olonlarni bostirish hukumatdan katta harajatlarni talab qildi. Natijada yangi soliqlar joriy qilindi. eskilarining miqdori oshirildi. Xitoy aholisi juda tez ko'payib bordi va XIX asr o'rtalariga kelib mamlakat aholisining soni 400 mlnga.yetdi. Natijada aholining turmush darajasi yomonlashib, joylarda isyon, qo'zg'olon ko'rinishidagi hukumatga qarshi xalqning norozilik harakatlari avj oldi.

Xitoy Yaponiya, Rossiya, Angliya, Frantsiya va Gollandiya bilan qizg'in savdo –sotiq aloqalarini olib bordi.1719 yili Kanton shahrida birinchi ingliz savdo faktoriyasi ochildi. Ninbo shahrida frantsuz savdo faktoriyasi ochildi. 1784 yilda birinchi AQSH kemasi Xitoyga keldi.1716 yilda chet elliklarni Xitoyga kelishi cheklandi. 1724 yilda 300 ta xristian cherkovi yopildi, barcha missionerlar Xitoydan chiqarib yuborildi. 1757 yilda imperator Tsinlun Kantondan boshqa barcha portlarga chet elliklarni kirishini ta'qiqladi.

Maxfiy jamiyatlar faoliyati va xalq qo'zg'olonlari

XVIII asr oxirlarida Xitoyda xalq qarshiligini tashkil qiluvchi markazlar vazifasini diniy sektalar va maxfiy jamiyatlar o'tadi. Barchaning o'zaro tengligi, o'zaro yordam berish zaruriyati kabi talablar turli diniy sektalar va maxfiy jamiyatlar g'oyasining asosini tashkil qildi. Bu sektalar va jamiyatlar qo'zg'olon ko'tarish yo'li bilan Xitoyda jamiyat munosabatlarining yangi printsiplarini joriy qilishga harakat qildilar. Ularning orasida eng keng tarqalgan shior bu manjurlarning noqonuniy hokimiyatini ag'darish shiori edi. Muxolifatdagi bu tashkilotlar faoliyatida «harbiy san'at» ya'ni, o'z tarafdorlarinl qol jangiga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etdi. Diniy sektalar va maxfiy tashkilotlarga turli xil ijtimoiy guruhlarning vakillari a'zo bo'igan, ularning aksariyatini qashshoq dexqonlar tashkil etgan. XVII asrning 70 yillarida Szyulinshan-Shaolin buddaviylik monastri

monaxlarining faol ishtiroki natijasida juda ommabop «Triada»-Sanxexay (128 ta monah) jamiyati tuzildi. Monaxlar manjurlar hokimyatini tan olmagan uchun qo'shin tomonidan ular tor-mor qilinib, mazkur monastr yoqib yuborilgan.

XVII asr oxirlarida «Oq nilufar» (Baylyanszyao-mug'ullarga qarshi kurash) jamiyatining faoliyati kuchaydi. 1727 yilda bu harakatga a'zo bo'lganlarga o'lim jazosi belgilangan. Uning rahbarligida 1786 yilda Xitoyda katta xalq qo'zg'aloni uyushtirildi. Qo'zg'olon asosan Markaziy Xitoy provintsiyalarini qamragan va 1804 yilgacha davom etgan. Qo'zg'olonchilar manjurlar hukumatini ag'darib, amaldorlarning sotqinligi va shavqatsizligiga chek quyishni talab qildilar. 1796-1804 yillardagi qo'zg'olonning mag'lubiyatidan so'ng ham diniy sektalar va ularning larafdorlari manjurlar hukmronligiga qarshi kurashdan voz kechmadilar. 1813 yilda "Samoviy idrok jamiyati" Shimoliy Xitoyda qo'zg'olon uyushtirdi. Uning daholaridan biri o'zini Xitoy imperatori Min sulolasining davomchilaridan biri deb e'lon qildi. 200 kishidan iborat qo'zg'olonchilarning bir guruhi 1813 yilning oktyabrida Pekindagi Sin hukumati qarorgohiga hujum uyushtirib, hokimyatni egallashga urindi. Biroq, hujum saroy qo'shini tomonidan tor-mor etildi. 1814 yil boshida qarshilikning so'ngi to'lqinlari ham bostirildi.

XVII asr o'rtalarida Gelaohay-Katta akalar jamiyati vujudga keldi. Ularning maqsadi manjurlarni ag'darib, Min sulolasini tiklashni ko'zlagan. 1735 yilda Myao tog'lik qabilalari qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olon XIX asr o'rtalarigacha davom etgan. 1772 yilda Szinchuan qabilalari qo'zg'olon ko'tardilar, 1783 yilda Gansu provinsiyasining musulmonlari qo'zg'olon ko'tardilar. 1721 yilda Tayvanda 30 mingdan ortiq dehqonlar g'alayon ko'tardilar. 1786-1787 yillarda Tayvanda juda katta halq g'alayonlari bo'lib o'tdi. XVIII asr ohiri XIX asr boshlariga kelib mahfiy jamiyatlar faoliyati yanada kuchaydi. 1774-1775 yillarda Shandun provinsiyasida, 1786 yilda Xenan, Shandunda, 1796 yilda Xuebe, Xenan, Shansi, Sichuan, Gansu,

1797 yilda Sichuan provinsiyalarida Oq Nilufar tashkiloti tomonidan yirik qo'zg'olonlar uyushtirildi.

Bu qo'zg'olonlarda hamma tabaqalar, hatto ayollar ham faol ishtirok etdilar. Biroq mag'lubiyatga qaramasdan maxfiy jamiyatlar va diniy sektalarning faoliyati davom etdi. Ular XIX asr davomida ham, asosan, manjur hokimiyatiga qarshi kurashining ilhomchisi bo'lib qoloverdi. 1841-1849 yillar davomida Xitoyliklar, tibetlaiklar, dunganlar va Xitoydagi boshqa xalq vakillari tomonidan manjurlarning hokimiyatdan agdarish, amaldorlarning shavqatsizligini tugatish uchun. shuningdek, soliq va majburiyatlarga qarshi 110 ta xalq qo'rzg'olonlari ko'tarilgan. XVIII asr oxiri XIX asrning boshlarida Xitoyga Angliya, Frantsiya va AQSh kabi xorijiy davlatlarning savdo ekspansiyasi tobora kuchaydi va maxfiy jamiyatlar va diniy tashkilotlar faoliyati juda kuchaydi.

Birinchi afyun urushi (1840-1842 yy.)

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Sin imperiyasining ichki inqirozi mamlakatga Angliya ta'sirini kuchayishi bilan yanada chuqurlashdi. Angliyaning "Ots-Indiya" kompaniyasi Xitoy janubidagi savdoga o'z monopoliyalarini o'rnatib, Xitoy hukumatini mavjud chegaralarini inkor qilishga harakat qildi. Angliya Xitoy bozorlarini ochib qo'yilishiga erishish uchun kurashni davom ettirdi. Xitoy hukumati bilan kelishmagan holda Angliya – Xitoy savdosini kuzatish maqsadida ingliz hukumatining vakili lord Nepper Xitoyga keladi. Sin hukumati Nepperdan mamlakatdan chiqib ketishni talab qiladi. Shunda Nepper harbiy ig'vogarlik uyushtirib ikkita harbiy kemani qo'lga oladi. Xitoy bilan Angliya urushining keskinlashuvida Afyun (Opium) savdosi katta rol o'ynaydi. 1773 yil Indiyadagi Britaniya hukumati Xitoyda Afyun savdosiga ham o'z monopoliyasini o'rnatdi. Shundan boshlab Hindiston Xitoyni talash uchun Angliya qo'lidagi asosiy vosita bo'lib qoldi.

XIX asrning 20-yillarida Xitoyga afyun kiritish jadal ravishda o'sib bordi. 1816 -1819 yillarda yiliga 4420 quti (yashik) afyun kiritilgan bo'lsa, 1835-1819 yillarda esa yiliga 35445 quti afyun kiritilgan. 1795-1838 yillar mobaynida Angliyaning Xitoydagi afyun savdosi 70 barobarga ko'paydi. Mazkur vaqt davomida Xitoyga 450 ming quti yoki 27 million kg afyun keltirilgan. Afyun savdosi bilan Amerikalik savdogorlar ham shugullanishgan. Amerikaliklar Xitoyga afyuni Turkiyadan keltirganlar. Xitoy hukumati 1800 yilda rasmiy ravishda afyun savdosini taqiqlanganligiga qaramasdan ingliz va Amerikalik mahalliy amaldorlar orqali kontrabanda yo'li bilan afyun savdosini olib borganlar.

Xitoy xalqining ilgor vakillari afyun savdosiga va uning istemol qilinishiga qarshi kurashdilar. Shunday kishilardan biri Lin Szsyuy edi. 1838-yil dekabrda u Xitoy hukumatining Guanchjouda provintsiya (afyun savdosining eng yirik markazlaridan biri)dagi vakili lavozimiga tayinlandi. Provintsiyaning markazi bo'lgan Guanchjouda Lin Szyuy afyun savdosiga qarshi qa'tiy chora ko'rishi asosida ingliz va amerikalik savdogorlardan 20 ming qutidan ziyodroq afyuni konfiskatsiya qilishga erishdi. Angliya hukumati ushbu holatdan Xitoyga qarshi urushda bahona sifatida foydalandi. 1834 yil dengizda Xitoy-Angliya harbiy to'qnashuvlari bo'lib o'tdi. 1840 yil Angliya e'lon qilmasdan Xitoyga qarshi urush boshladi, bu urush «Birinchii afyun urushi» yoki birinchi «ingliz-xitoy» urushi, deb nom oldi. Inglizlar juda shafqatsiz ravishda urush olib bordilar. Lin Szsyuy lavozimidan chetlatilib, uning o'rniga Xitoyning taslim bo'lishi tarafdori bo'lgan Si Shan tayinlandi. U Angliyaning talablarini qabul qilishga tayyor ekanligini ma'lum qildi, biroq Bogdixon kelishuv bitimini tasdiqlamadi. Bundan norozi bo'lgan ingliz hukumati Xitoyga yangidan qo'shin jo'natib, urushni davom ettirdi.

Urushda Xitoy taslim bo'ldi. Urush 1842 yil avgustida Nankinda imzolangan sulh shartnomasi bilan o'zining nihoyasiga etdi. Nankin shartnomasi Yangi zamon tarixi davomida Xitoyning chet davlatlar bilan imzolagan dastlabki noteng

shartnomasi edi, unga ko'ra Xitoyning Guanchju, Siyameen, Futjou, Ninbo va Shanxaydan iborat beshta porti inglizlar uchun ochib qo'yildi. Gonkong (Syangan) oroli Angliya ixtiyoriga o'tdi. Shunigdek, Xitoy 21 mln. dollar miqdorida tovon to'lash majburiyatini oldi, bojxona mustaqilligidan mahrum bo'ldi. mamlakatga kiritilayotgan ingliz savdo mahsulotlariga 5% miqdorida boj to'lovi belgilandi. 1843-yilda Angliya Xitoy bilan «5 portda savdo qilish bo'yicha qo'shimcha bitim» deb nomlanuvchi hujjat imzolab, inglizlarni Xitoy sudlariga tortmasligi, mazkur portlarda ingliz aholi punktlariga asos solish kabi huquqlarni qo'lga kiritdi. 1844-yilda AQSh va Frantsiya ham Xitoy bilan shunday shartnomalarni imzolashga erishdilar.

Taypinlar qo'zg'oloni (1850-1864 yy)

Afyun urushi va uning oqibatlari xalq ommasining ahvolini yanada ogirlashtirdi. Xitoyga afyun kiritish sur'atlari tez o'sdi. Tashqi savdodagi daromad Xitoy qo'shinini chetda • qolib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada mis tangaga nisbatan kumish yuan (pul birligi) ning kursi oshib ketdi. Bu quyi xalq ommasining ayniqsa dehqonlarning ahvolini ogirlashivuga olib keldi. Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashib. Xitoyning janubiy provintsiyalarida xalqning norozilik harakatlari kuchaydi, Guandun va Guansi provintsiyalarida dehqonlarning qo'zg'olonlari ko'tarildi. Bu provintsiyalar asr o'rtalarida ko'tarilgan qo'zg'olonning o'chog'iga aylandi, bu voqealar tarixga «Taypinlar qo'zg'oloni» nomi bilan kirdi. Taypinlar qo'zg'oloniga o'qituvchi Xun Syutsyuan (1814-1864) boshchilik qildi.

U 1843 yilda «Samoviy hukumdorga siginish jamiyatl» (Bay shan de xo'z)ni tuzdi. Xun Guanchjoudagi xristian missionerlari orqali xristian diniy la'limoti bilan yaxshi tanishdi. Xristianlikni yakka xudo haqidagi ijtimoiy tenglik haqidagi aqidalarini taypin (ijtimoiy adolat ramzi) printsplari bilan uygunlashtirib yangi diniy ta'limot yaratdi va o'zini bu dinning paygambari, deb e'lon qildi. 1850 yilda Xun Sinlarga qarshi Guansida qo'zg'olon uyushtirdi. Qo'zg'olonchilarning

ijtimoiy tarkibi turli xil bo'lib, unda dehqonlar, ishchilar, hunarmandlar, savdogorlar qatnashdi. Qo'zg'olonchilar boshlariga qizil peshonabog taqib olganliklari uchun bu qo'zg'olon «Qizil peshonabog'lilar» qo'zg'oloni, deb ham ataladi.

Tsin hukumatining qo'zg'olonni bostirishga bo'lgan urinishi muvaffaqiyatsiz bo'ldi. 1851 yil 11 yanvarda qo'zg'olonchilar Sinn sulolasining hokimiyatiga qarshi «Yalpi farovonlik samoviy davlati»-Taypin tyangoni tuzuldiganligini e'lon qildi. Xun Syutsyuanni samoviy hukumdor, deb atay boshladilar. Qo'zg'olonning dastlabki bosqichida qo'zg'olonchilarning asosiy maqsadi Xitoyni manjurlar zulmidan ozod etish va feodal tuzumini tugatishdan iborat edi. Dastlabki davr-Tszintyan qo'zg'olonidan Nankinni olinishigacha va u erda Taypinlar davlatining markaziga asos solinishigacha bo'lgan davr (1850-1853). Taypinlar davlati hududini kengaytirish uchun kurash davri-Nankin olingandan to taypinlar lagerini bo'linib ketishigacha bo'lgan davr (1853-1856), Taypinlar qo'zg'olonining tanazzulga yuz tutishi davri (1856-1860) Taypinlarning manjur-xitoy feodallariga va chet davlatlar agressiyasiga qarshi kurashi va maglubiyatga uchrashi davri (1860-1864) dan iborat.

Taypinlarning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri bu ularning armiyasi va lagerida intizom o'rnatilganligi va ko'p sonli kuchli armiyani lashkil qilinganligi edi. 1851 yil kuzida Guansi provintsiyasining Yun'an shahrida taypinlar hukumati tuzildi. 1853 yilda Nankin olinib u taypinlar davlatining poytaxtiga aylantrildi. Nankinda hukumat «Samoviy sulolaning yer tizimi»,-degan hujjat qabul qildi. Bu taypinlar davlatining o'ziga xos dasturi bo'lib, u barcha yerlarni qo'zg'olonchilarga teng taqsimlab berishni, harbiy jamoalar tuzishni, huquqda ayollar erkaklar bilan tenglashtirishni, mulkiy tengsizlikka barham berishni ko'zda tutgan edi.

Taypin tyangoning davlat tuzimi monarxiyadan iborat edi. Tashqi siyosatda taypinlar teng huquqda va o'zaro foydali bo'lgan savdoni yuritish, Taypin tyango hududida afyun savdosini taqiqlashga harakat qildilar. Taypinlar Sinn sulolasini

taxtdan ag'darish maqsadida 1853 yilda Pekinga tomon shimol yurushini boshladilar, biroq bu va 1854 yildagi ikkinchi yurush ham taypinlar uchun muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Taypinlarning harbiy muvaffaqiyatsizliklari ularning xalq orasida mavqeini zayiflashtirib yubordi. Taypinlar orasidagi ichki kurash ham mazkur harakat uchun halokatli boldi, 1856 yilda taypinlarning kuchlari bolinib ketdi. Bunday holatning bosh sabablaridan biri bu qo'zg'olon davomida feodallardan tortib olingan boyliklar evaziga iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lib olgan qo'zg'olon daholari qo'zg'olonchilar ommasining umumiy manfaatlariga xiyonat qila boshladilar. Asosan dehqonlardan iborat bo'lgan armiya tarkibida ham birlik va intizom saqlab qolinmadi.

Taypinlar hukumati va qo'shiniga rahbarlik qilayotgan tajribali Yan Syutsinga 1856 yil suiqasd uyushtirilib u va uning bir necha ming kishidan iborat tarafdorlari qirib tashlandi. Vaqtinchalik taypinlar hukumati va qo'shiniga boshchilik qilgan Shi Dakay 1857 yilda vazifasidan ozod etilgach yuz mingdan ortiq qo'shin bilan Nankindan Janubiy-Garbiy Xitoy hududiga ketdi. Dehqonlar urushining tushkunlik davri boshlandi. Bu davrda taypinlar davlatining rahbarlari bilan oddiy qo'zg'olonchilar o'rtasida tobora ajralish kuchaydi. Qo'zg'olonchi dehqonlar ilgargidek umumiy tenglik goyasini amalga oshirishga harakat qildilar. Ularning rahbarlari esa yangi feodallarga aylanib bordilar. Taypinlar lageridagi bolinish va harakat rahbarlarining tez-tez almashuvi, ular o'rtasida hokimiyal uchun o'zaro kurash harbiy harakatlarning borishiga salbiy ta'sir o'tkazdi. Shu vaqtdan boshlab taypinlar asosan mudofaaga o'tdilar.

Ikkinchi afyun urushi (1856-1860 yy.)

Taypinlar qo'zg'olonining kuchayishi va ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun hukumat tomonidan bo'lgan urushlardagi muvaffaqiyatsizliklar, Xitoyni mustamlakaga aylantirish uchun harakat qilayotgan Yevropa davlatlarini tashvishga soldi. Xitoyda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy ahvolda o'zlarining

mavqeini mustahkamlash yolida foydalanmoqchi bo'lgan Angliya, Frantsiya va AQSh 1854 yilda Sinn hukumatiga yangi talablar qo'ydi. Sin hukumati bu talablarni rad etdi, biroq, Qrim urushi (1853-1856y.y.) davom etayotgan bir vaqtda mazkur davlatlar Xitoyga qarshi urush harakatlarini boshlashga jazm qilmadilar. Xitoyga qarshi urushni 1856 yilda Angliya boshladi, biroq keyinroq urushga Frantsiya ham qo'shildi.

Bu urush Xitoy tarixida «ikkinchi afyun urushi» nomi bilan ma'lum. Harbiy jihatdan ustunlikka ega bo'lgan ittifoqchilarning qo'shini 1858 yil iyunida Sinn hukumatini sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Tyantszinda imzolangan anglo-xitoy, franko-xitoy shartnomalariga ko'ra har ikkala davlat poytaxt Pekinda o'zlarining doimiy vakolatxonalariga ega bo'lish, ingliz va Frantsuz fuqarolari Xitoyda erkin faoliyat yuritish, Yantszi daryosi bo'ylab savdo qilish huquqlarini ko'lga kiritdi. Soliq va to'lovlar miqdori yanada pasaytirildi, afyun savdosiga rasmiy ravishda ruxsat berildi. Xitoy Angliya" va Frantsiyaga tovon to'lash majburiyatini oldi.

1858 yili Rossiya va Xitoy o'rtasida Aygun shartnomasi imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq Amur o'lkasi masalasi bo'yicha bu 2 davlat kelishib oldi. Amur daryosining so'l qirg'og'i Rossiya ixliyoriga o'tdi. Garchand, Rossiya va AQSh afyun urushlarida qatnashmagan bo'lsalarda Tyantszinda rus-xitoy, Amerika-xitoy shartnomalari imzolanib, har ikkala davlat ham Xitoyda o'z huquqlarini kengaytirishga erishdilar. Shunday qilib, Tyantszin shartnomalari Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirishda navbatdagi qadam bo'ldi. Sin hukumati bu bitimlarni ratifikatsiya qilishni pajsalga sola boshladi. Bunga javoban Angliya va Frantsiya 1860 yilning iyunida Xitoy shimolida yangidan harbiy harakatlarini boshladi. Tyantszin egallanib, uning aholisi qirg'in qilindi, u erda zo'rlik va talonchilik hukmron bo'ldi. Hashamati bilan mashhur bo'lgan Xitoy imperatorining

yo'zgi saroyi anglo-Fransuz askarlari tomonidan vaxshiylarcha talandi va keyin yoqib yuborildi.

1860 yil Sinn xonadonining vakili knyaz Gunn Anglo va Frantsuz vakillari bilan Tyantszin shartnomasining shartlarini takrorlovchi Pekin konventsiyasini imzoladi. Bundan, tashqari Xitoyga 16.7 mln. lyan tovon to'lash majburiyati yuklandi. Bu ikki davlat Xitoydan qullarni olib kelib sotish uchun rasmiy ravishda ruxsatnomaga erishdilar. Ikkinchi afyun urushining asosiy natijasi bu Xitoyni asoratga solinishini kuchayishi bo'ldi. Urush natijasida kapitalistik davlatlar Xitoyning ichki rayonlariga kirish va Pekin hukumatiga o'z ta'sirini o'tkazish kabi imkoniyatlarga ega bo'ldilar. Biroq, Tyantszin va Pekin shartnomalarining bajarilishiga taypinlar harakati to'siq bo'lmoqda edi.

Taypinlar va boshqa xalq qo'zg'olonlarining bostirilishi.

Taypinlar Yantszi vodiysining bir qismida o'z nazoratini o'rnatib mustaqil Xitoy davlatini tuzish uchun kurashmoqda edilar. Garbiy Yevropa davlatlari taypinlar harakatini bostirish uchun Sinn hukumati bilan ochiqdan-ochiq ittifoqchilik qildi. Dehqonlar urushi tarixida manjur-xitoy feodallari va Yevropalik-amyerialik interventlarning birlashgan kuchlariga qarshi kurash davri boshlandi. 1860-1864 yillar davomida taypinlar bilan sin va anglo-frantsuz-amerika qo'shinlari o'rtasida urush harakatlari davom etdi. Taypinlar davlati qurshovga olinib, birin-ketin uning hududlari ittifoqchilar tomonidan egallanib, 1864 yilning 19 iyulida Taypinlar davlatining poytaxti Nankin ishg'ol qilindi.

Xun Syutsyuan oldinroq joniga qasd qildi. taypinlar armiyasiga qo'monlonlik qilgan Li Syuchen o'ldirildi. Bir sutka mobaynida qo'zg'olonda ishtirok etgan yuz mingdan ziyodroq Nankin aholisi qirg'in qilindi. XIX asrning 50-70 yillarida Xitoyda taypinlar qo'zg'oloni bilan bir davrda sinlarga qarshi. hukumatning soliq, milliy va diniy siyosatga qarshi mamlakat shimoli va garbida bir qator xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Ulardan biri Xitoyning shimoliy-garbiy

qismida musulmon diniga e'tiqod qiluvchi dunganlarning sin hukumatiga qarshi ko'targan qo'zg'oloni edi. Qo'zg'olon 1862 yil Shensi provintsiyasida boshlanib, keyinchalik Sinlszyanda davom etdi.

Xulosa

60-yillarning oxirilarida qo'zg'olon ommaviy tus oldi, unda dunganlar bilan birga uygurlar va boshqa xalq vakillari ham qatnashdilar. Sintszyanda mustaqil musulmon davlatini • tuzish uchun bo'lgan kurash davomida uchta xonlik tashqil topdi. Bular markazi Yettishahar bygan Qoshg'or, markazi Urimchi bo'lgan Dungan va markazi Kulja bo'lgan Taranehi xonliklari edi. 1878 yilda sin hukumati sinzyan qo'zg'olonini shafqatsiz ravishda bostirishga rnuvaffaq bo'ldi. Boyonxu boshchiligida ko'pchilik dunganlar O'rta Osiyoga kelib o'rnashdilar. Taypinlar va boshqa xalk qo'zg'olonlarini bostirishda 30 mln. dan ortiq Xitoy aholisi qurbon qilindi. Bu va chet davlatlarning mustamlakachiligi oqibatida XIX asrning 70-yillarida Xitoy o'ta og'ir ijtimpiy-iqtisodiy inqirozni boshidan kechirdi. 1861 yilda tahtga chiqqan imperator Sisi Xitoyni qudratli davlatga aylantirish harakatini boshlab berdi. U 1861 yilda maxsus dastur elon qildi, mamlakatda yalpi nazorat tartibini o'rmatdi.

Tayanch iboralar:

Tsin sulolasining hukumronligi. Davlat tuzumi. Yerga egalik qilishning shakllari. Maxfiy jamiyatlar va diniy sektalar. «Oq nilufar jamiyati»ning faoliyati. Lin Szesyuy. Birinchi afyun urushi. Nankin shartnomasi. Taypin-tyango. Xun Syutsyuan. Taypinlarning ijtimoiy, iqtisodiy va diniy siyosati. Qo'zgoning bosqichlari. Ikkinchi afyun urushi. Tyantszin sulh shartnomalari. Aygun shartnomasi. Pekin konventsiyasi. Taypinlar qo'zg'olonining bostirilishi va uning oqibatlari.

Nazorat savollari:

1.XIX asr oxiri Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

2. Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.

1. Xalq qo'zg'olonlari va ularning bostirilishi

2. Ijtimoiy harakat. Sun Yat Sen.

5. Xitoyga xorijliklarning inlyyervenlsiyasi

6. Xitoyda manjurlar hukumronligining urnatilishi.

7. Tsinn impyeriyasining davlat to'zimi.

8. Maxfiy jamiyatlar va diniy sektalar faoliyati.

9. Birinchi afyun urushi uning sabablari, borishi va oqibatlari.

10. Nankin shartnomasining asosiy shartlari.

11. Taypinlar qo'zg'olonining shart-sharoitlari.

12. Taypinlar davlatining ichki va tashki siyosati.

13. Xun Syutsyuan va uning diniy ta'limoti.

14. Taypinlar harakatining borishi va boskichlari.

15. Ikkinchi aryun urushining kclib chikish sabablari.

16. Tyantszin sulh shartnomalari va ularning oqibatlari.

17. Rus-xitoy munosabatlari va Aygun shartnomasi.

18. Ikkinchi afyun urushining yakuni va Pekin konventsiyasi.

19. Taypinlar qo'zg'olonining bostirilishi va oqibatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Taypinskaya vosstanie, 1850-1864: Sb. dokumentov. M. 1960

2. Vasilev L.S. Istoriya Vostovka. V2t. M. 1998. T1-2

3. Ilyushechkin V.P. Krestyanskaya voyna taypinov. M.1998

4. Fan Ven Lan Novaya istoriya Kitaya. M., Nauka, 1972.

5. Vneshnyaya politika gosudarstva Tsinn. M., Nauka, 1977

6. Yefimov T.V. Vneshnyaya politika Kitaya v 1894-1899 gg. M., V.I., 1958.

7. Txvinskiy S.L. Istoriya Kitaya i Sovremennost M., 1976

8. Novaya istoriya stran zarubejnogo Vostoka. M., Nauka 1961.

9. Novaya istoriya Azii i Afriki. M., Nauka 1982.

10. Yefimova T.V. Revolyutsiya v Kitae i Sun Yat Sen (1911-1913) M., 1957.

11. Ko'znetsov V.S. Ekonomicheskoe politika tsnskogo pravitelstva v pyervoy polovine XIX veka. M., 1973

Mavzu XVII-XIX asr boshlarida Hindiston.

Reja:

Kirish

1. Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va davlat tuzumi.
2. Ingliz mustamlakachiligining o'rnatilishi va uning oqibatlari.
3. Hindiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi, Sinohiyalar qo'g'oloni

Xulosa

Kirish

XVIII-asr o'rtalarida shimoliy va markaziy Hindiston hududlari Boburiylar yoki «Buyuk mo'g'ullar» (Yevropaliklar noto'g'ri ravishda Boburning kelib chiqishi mo'g'ullardan deb u asos solgan davlatni «Buyuk mo'g'ullar» davlati deb nomlaganlar) davlati tarkibiga birlashtirilgan bo'lib, bu davlatda Hindiston aholisining 2/3 qismi yashar edi. Shuningdek Boburiylar davlati janubida musulmon sulolalarining hukumronligida bo'lgan Bidjopur va Golkonda sultonliklari bilan shimoliy-sharq va sharqdan Nepal kinyazliklari, Tibet va Assam bilan chegaradosh edi. Boburiylar davlatida yashovchi bengallar, maratxlar, gujaratlar, panjobliklarda asta-sekin bo'lsa ham etnik-madaniy jamoalar shakllanayotgan edi.

Biroq hindlardagi kastachilik tizimi va mamlakat aholisini 1/10 qismini musulmonlardan iborat ekanligi umumdavlat miqyosida aholining diniy va siyosiy hamjihatligiga tusqinlik qilmoqda edi. Boburiylar davlati harbiy-feodal davlat bo'lib, uning hukumdori «podshoh» deb yuritilgan. Mamlakatning soliq,

ma'muriy, harbiy va sud hokimiyati podshoh qo'lida jamlangan. Podshoh xazina ishlari bo'yicha-devon, harbiy qo'shinga boshchilik qilishi va oliy sudga rahbarlik qiluvchi-qoziga tayangan holda davlatni boshqargan. Sud ishlari islom shariati asosida yuritilgan.

Podshoh Avrangzeb (1658-1707) hukumronligi davrida davlat 19 ta viloyat-sublarga bo'linib, ularni podsho tomonidan tayinlanadigan noyiblar-subadorlar boshqargan. Har bir viloyatlardagi ma'muriy, harbiy va sud hokimiyati subadorlarga tegishli bo'lgan. Ular ixtiyoridagi ma'lum miqdorda harbiy qo'shin bo'lib, bu qo'shin yordamida subadorlar viloyal aholisini podshohga tobeylikda saqlagan. Viloyat devonlariga yer solig'i va boshqa to'lovlarni yigishda yordam bergan. Mazkur viloyatlarda sud hukmlarining ijrosini ta'minlagan, okruglarning (viloyat okruglariga, okruglar esa volostlarga bo'lingan) boshqaruvchilari bo'lgan-laksillar, volostlarning boshqaruvchilari bo'fgan-parkanalari tayinlangan va ularni nazorat qilgan. Deyarli barcha oliy lavozimlar musulmonlar qo'lida bo'lib, ularni ijtimoiy va etnik kelib chiqishi turli xil bo'lgan. Hukmdorlar. harbiy boshliqlar va bir qism oddiy harbiy askarlar turkiylardan, qo'shin askarlarining ko'pchiligi afgonlardan iborat bo'lib. ma'muriyatda shia mazhabiga e'tiqod etuvchi eroniylar va ruhoniylar orasida esa arablar ko'pchilikni tashkil qilgan.

Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va davlat tuzumi

Podshoh mamlakatdagi barcha yerlarning oliy feodal mulkdori bo'lgan. Shu sababli ishlov beriladigan hamma yerlardan davlat foydasiga soliq va majburiyatlar yig'ilgan. Yerlarning katta qismi jag'ir, zamindor, in'om va vaqf kabi feodal yer mulklaridan iborat bo'lgan. Jag'irlarning egalari-jagirdorlar deb atalgan, ular feodallarning hukmron qatlamini tashkil qilganlar. Bular harbiy boshliqlar bo'lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun unvon va mansabining katta va kichikligiga qarab ma'lum bir hududdagi yer soliqlarini o'zlashtirish xuquqiga ega bo'lganlar.

Avrangzeb hukmronligi vaqtida mamlakatda jag'irdorlarni soni 4 ming kishiga etgan.

Jag'irdorlar daromadining bir qismini harbiy unvonga mos ravishda ma'lum maqsadda to'plangan qo'shinni ta'minlashga sarflangan. Jagirdorlik naslidan nasliga meros o'tgan. Jagirdorlarning aksariyat qismi musurmonlardan iborat bo'lgan jagirdorlardan farqli ravishda zamindorlar yollanma harbiy harajatlarni ta'minlash majburiyatidan xoli bo'lganlar. Ular ma'lum bir hududdagi dehqonlardan podsho xazinasiga yer soliqlarini yigish bilan shugullanib yigilgan soliqning 10%ni xizmat uchun o'zlashtirganlar. Zamindorlar o'zlariga tegishli yer mulkni meros qoldirish huquqiga ega bo'lganlar. Ba'zan zamindorlarga yer soligidan ozod etilgan yer mulklari ham berilgan. Zamindorlar asosan hind feodal asilzodalaridan iborat bo'lgan.

Xizmatlari uchun yoki iltifoti ramzi sifatida ayrim kishilarga in'om qilingan yer in'om mulklari deb atalgan. Ko'pincha podsholar musulmon ruhoniylarga ana shunday yer-mulklarini in'om etganlar, bu feodal mulklardan olinadigan yer solig'i to'liq ravishda in'omdor ixtiyorida qoldirilgan in'om yerlari ham nasldan-naslga meros bo'lgan. Vaqf yerlari bu musulmon dini muassasalariga tegishli yer mulklari bo'lib ulardan olinadigan daromad masjid va madrasa va hokazolar ta'minotiga ishlatilgan. Hindistonning so'nggi o'rta asr va mustamlaka davriga agrar tizimning ijtimoiy iqtisodiy asosini qishloq jamoasi tashkil qilar edi. Yerga jamoa bo'lib egalik qilish jamoa ichida dehqonchilik bilan hunarmandchilik uygunlashuvi jamoa doirasida mehnatni o'zaro taqsimlashini dehqonchilik va hunarmandchilik kabi ishlab chiqarishi sohalarini bir biridan mustaqilligi va ularni tovar almashuvidagi o'zaro munosabati, asosan, natural soliqlarni olinishi turli ko'rinishdagi kasta jamoalarini mavjudligi, jamoa nazorati ostidagi xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik tizimini biqiqiligi bu hind qishlog'i jamoasini asosiy belgilari edi.

Hind qishloq jamoalarining ijtimoiy tarkibi bir xil emas edi. Ularning har birida turli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan eng kamida 3 xil toifadagi aholii mavjud bo'lgan ularning orqasida oliy toifani jamoa yerlari va boshqa mulklarga egalik qilgan oilalar guruhi tashkil qilgan. Teng huquqli jamoachi oilalarni har biri me'ros uchun ishlov beriladigan yer uchuastkalariga ega bo'lgan jamoaga solingan davlatning yer va boshqa feodal soliqlari jamoachi dehqonlar tomonidan umumiy kafillik asosida to'langan jamoa panchaya,-deb nomlangan. Qishloq kengashi boshqargan panchayatga jamoaning yer solig'ini tulovchi dehqonlar kirgan va unga ishlovchi oqsaqoli «patel» rahbarlik qilgan Jamoa ma'muriyatining boshqa bir vakillik va boshliq mirzasi-«patvapi» edi. U jamoa yerlari bilan bog'lik bo'lgan hisob kitob ishlarini yuritgan.

Oqsoqol (patel) va mirzo (kotib) (patvari) mansablari avloddan avlodga meros o'tgan. Hind qishloq jamoasining tarkibiy qismlaridan birini jamoachi hunarmandlar va xizmatkorlar tashkil etgan. Ular temirchi, duradgor, etikdo'z, cho'pon va x.k kabi kasbiy kastalarga kirganlar. Ular xizmatlar evaziga belgilangan miqdorida hosilning bir qismiga. ba'zan esa hatto yer mulklariga ega bo'lganlar unda yer uchastkasiga egalik qilish va hunarmandchilikning mazkur turi bilan shug'ullanish huquqi ham meros o'tgan.

Qishloq jamoasi davrasida jamoa yerlarini vaqtincha merosiy ijaraga olib mehnat qiluvchi ijtimoiy qatlam ham mavjud edi. Mazkur qatlam vakillarining eng quyi kastalarga tegishli ekanligi jamoada ularning yarim qul holatini ta'minlagan. Jamoalar yetishtirayotgan hosilning teng yarmi yer solig'i sifatida davlat xazinasiga to'laganlar. Bundan tashqari jamoa davlat foydasiga turli xil mehnat majburiyatlarini ham o'tagan.

Ingliz mustamlakachiligining o'rnatilishi va uning oqibatlari

XVII asrdayoq hind shaharlardagi mulkdor va savdogarlarning Yevropalik savdogarlar bilan aloqalari kengaydi. Hind mahsulotlarining

to'g'ridan-to'g'ri Yevropa bozorlariga chiqishi haridorlar sonini oshirdi. Yevropa savdogorlari savdodagi moliyaviy zaruriyat tufayli tez-tez hind hamkasblariga murojat qilib turganlar. Masalan: inglizlarning kompaniyasi ulardan katta miqdorlarda moliyaviy qarz olib turgan bunga javoban kompaniya ham o'zining Surat, Bombay, Madrasdagi savdo faktoriyalaridan mulkdor hindlar uchun siyosiy panox bergan. Shu tariqa Hindistondagi «Kompradorlar» deb atalgan alohida savdogarlar qatlami shakllangan. Ular hind feodallariga xizmat qilib, chet el kapitali va ajnabiylar ma'muriyati bilan ham teng ravishda hamkorlik qilganlar.

Hindistondagi Yevropa savdo kompaniyalari orasida eng muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bu Angliyaning 1600 yilda asos solingan "Ost Indiya" kompaniyasi edi. Qirolicha Yelezavetaning maxsus yorlig'i bilan mazkur kompaniya Yaxshi Umid burnidan sharqda joylashgan mamlakatlar bilan bo'ladigan savdoga o'z monopoliyasini o'rnatgan edi. XVIII asrga kelib "Ost-Indiya" savdo kompaniyasi Bombay, Madras va Kalkuttada mustahkam faktoriyalarga asos solgan edi. Hindistondan ushbu kompaniya asosan paxta, ipakdan tayyorlangan matolarni chetga chiqargan. Hatto katta miqdorda hind gazlamalarining Angliyaga kiritilishi ingliz manufakturachilarining noroziligiga sabab bo'lgan. Kompaniya hind gazlamalarini nafaqat Yevropaga balki, Osiyo va Afrika mamlakatlariga ham chiqargan. Kompaniyaning savdo mollarini Hindistondagi ichki boj va to'lovlardan ozod qilinishi haqidagi farmonning chiqishi ham savdo suratlarini o'sishiga sabab bo'ldi.

Biroq bu Yevropalik va Hind savdogarlarining munosabatlarini murakkablashtirdi, bu davrga kelib hind savdo kapitali faqat haridorlik faoliyati bilan cheklanib qolmasdan tayyor mahsulot yoki xom-ashyo uchun oldindan pul to'lab qo'yish bilan ishlab chiqaruvchini o'ziga iqtisodiy jihatdan qaram qilib qo'ya boshladi. XVII asrning oxiri-XVIII asr boshlarida Hindistonda dastlabki manufakturalar paydo bo'ldi, usha vaqtdayoq ingliz va shakllanayotgan hind

burjuaziyasi o'rtasida dashtabki ziddiyatlar ham boshlandi, jag'irdor va zamindorlarning ko'pchiligi o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida o'zboshimchalik bilan soliqlar miqdorini oshirdilar, mahsulot bilan olinadigan soliqlarni pul bilan olish tartibini joriy qildilar, jamoa yerlarini tortib oldilar yig'ilgan yer soliqlarini o'zlashtirdilar. Natijada mamlakat aholisining ahvoli og'irlashib xalqning norozilik harakatlari kuchaydi, hazina bo'shab qolganligi bois Hindistonda markaziy hokimiyat zaiflashib qoldi. Feodallar va noiblarning alohida mustaqil davlat tuzish uchun urinishlari avj oldi. Boburiylar davlatida birn-ketin viloyatlar mustaqil davlatlar sifatida ajralib keta boshladi.

Bunga Avrangzebning qattiqqo'llik siyosati ham sabab bo'ldi. Garchi uning davrida Bejanur va Golgkonda (1686-1687) qo'shib olingan bo'lsada oshiqcha soliqlar, hindlarning davlat ishlaridan uzoqlashtirilishi, ibodatxonalarning mulkini talon-taroj qilinishi islom dinini majburan qabul qildirilishi natijasida norozilik kuchaydi va hind rojalari undan tobora yuz ugirdilar. Boburiylarning Dekan noibi 1724-yilda mustaqil Haydarobod knyazligiga asos soldi. 1739-yil Eron shoxi Nodirning Dehliga qilgan talonchik yurushi Boburiylarning davlatini parchalanishini kuchaytirdi. 1740-yilda Bengaliya noibi, 1747-yil Aud noibi o'z mustaqilligini e'lon qildilar 1747-yil Afgon davlatining asoschisi Axmadshoh Durroney Hindistonga yurush qilib, Panjobni egalladi. XVII asrning 40-yillarida Hindistonda inglizlarning fransuzlarga qarshi kurashi oqibatida hind yerlarining inglizlar tomonidan bosib olinishi boshlandi. Angliyadan oldin bu yerga Portugaliya, Daniya, Gollandiya kabi davlatlar bostirib kelgan edilar, ammo inglizlar ularni siqib chiqarib yubordilar. Ularning asosiy raqibi, Frantsiya bilan kurash boshladilar va ularni tormor etdilar. Frantsuz "Ost-Indiya" kompaniyasiga tegishli bo'lgan Panjshyer shahri gubernatori Dyupleks hindlarni harbiy xizmatga yollab ulardan sipoxiylar qushinini tuzdi. Avstriya merosi uchun bo'lgan urush davomida frantsuzlarning Hindistondan siqib chiqarishga uringan ingliz qo'shinlariga qarshi

janglarda sinohiylar qo'shinidan frantsuzlar Hindistonda o'zlarining siyosiy hukmronligini ta'minlashda va Dekanda hududiy bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda foydalandilar. Bengaliya uchun bo'lgan anglo-frantsuz kurashi 1757-yilda Bengaliya navabi (knyazlik) taxtiga inglizlar vakili Mir Jafarning o'tirishi bilan Angliya foydasiga hal bo'ldi.

Yetti yillik urush (1756-1763) yakunlangan Parij sulhiga ko'ra frantsuz "Ost-Hindiston" kompaniyasining Hindiston bilan savdo huquqi saqlab qolingan. Panjsher va boshqa bir qator shaharlar uning ixtiyorida qoldirilib, Frantsiyaning Hindistonda harbiy qo'shin saqlashi ta'qiqlandi. Shunday qilib etti yillik urush ingliz "Ost-Indiya" kompaniyasini nafaqat savdo, balki harbiy va ma'muriy uyushmaga aylantirdiki, aynan shu davrda Sharqda Britaniya imperiyasiga asos solindi. 1756 yil Bengaliya davlati va Aud navabligida mustaqil ravishda yer soliqlarini yig'ish va uni moliyaviy boshqarish huquqini qo'lga kiritdi. Aud navabligi inglizlarga Ollohobod va Kor okruglarini berib, 5 mln. rupiya to'ladi. Shu tariqa inglizlar Bengaliya navabligi aholisini yer soliqlari asosida asoratga soldilar. Yer solig'i inglizlarning Bengaliyadagi asosiy daromad manbayi bo'lib qoladi.

1773 yilda "Ost-Indiya" kompaniyasi har besh yilda, keyinroq esa har yili Bengaliya okruglarining har biridan yig'ilishi lozim bo'lgan yer solig'ining miqdorini belgilab borgan, "Ost-Indiya" kompaniyasining genyeral-gubernatori Uorren Xeystings (1773-1784) 1775-yilga kelib Bengaliyadan yig'iladigan soliqlar miqdorini 3 barobar ko'paytirishga muvaffaq bo'ldi. Kompaniya daromadlarining yana bir manbayi bu tuzga o'rnatilgan ingliz monopoliyasi edi, ishlab chiqarilayotgan tuzning hammasi omborlarga keltirilib, kim oshdi savdosiga qo'yib sotilgan. Aholining o'z extiyoji uchun tuz olishi taqiqlangan, unga amal qilmaganlar qattiq jazolanganlar.

Hind hunarmandlari ham inglizlar tomonidan shafqatsiz ravishda ezildi. Xeystingis buyrug'iga ko'ra hind xunarmand-tuquvchilari kompaniyaning

buyurtmalarini bajarishi shart edi. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini chetga sotib yubormasligi uchun ularga maxsus qorovullar qo'yilgan. Bundan tashqari kompaniya noiqtisodiy zo'rovonlik usullari bilan hind savdogarlarini xunarmandchilik mahsulotlarini sotib olishdagi monopoliyasidan mahrum qilib, ularni ijaradorlik va sudxo'rlik faoliyati bilan shug'ulanishiga majbur qildi. Oqibatda Bengaliya qishloq ho'jaligi va xunarmandchiligi tushkunlikka yuz tutdi, aholisi soliq zulmi ostida qolib, qashshoqlikda yashashga mahkum qilindi. Ingliz savdo-sanoat burjuaziyasini "Ost-Indiya kompaniyasining monopoliyasiga qarshi kurashi oqibatida 1773 yil Hindistonda general-gubernatorlik lavozimi joriy qilindi. Ushbu lavozimga nomzodni kompaniyaning direktorlar palatasi tavsiya etgan. General-gubernator vakolatl 4 kishidan iborat kengash bilan cheklangan. Ingliz burjuaziyasining talabi bilan Pitt boshliq hukumat 1784 yilda imperiya hududlarini boshqaruvi tug'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra Hindistonni boshqarish qirol tomonidan tayinlanadigan 6 kishilik nazorat kengashi ixtiyoriga berilgan.

1786 yil Hindiston general-gubernatori lavozimiga o'tirgan Kornuollis yer solig'i tizimini o'zgartirdi. Unga ko'ra 1793 yil Bengaliyadagi yer mulklariga doimiy yer solig'i joriy etildi, raiyatning yerga meroslik huquqi zamindorlar xisobiga tugatilgan. Ularning ixtiyoriy hosilning zamindorga to'langan rentadan ortgan qismigina qoldirilar edi. Natijada soliqni to'lay olmagan dehqonlarning yerlari zamindorlar qo'liga o'tdi. Soliq solishning bu yangi tizimi «zamindorlik» tizimi, deb atalgan. Madras viloyatida dehqon yerlarini zamindorlar foydasiga tortib olish uchun bo'lgan urinishi raiyatning qarshiligiga sabab bo'ldi. Natijada mustamlakadagi hokimiyat «raiyatvari» deb atalgan soliq tizimini joriy qildi. Unga muvofiq lalmikor yerlardan olinadigan xosilning yarmi, sugoriladigan yerlardan esa hosilning 3/5 qismi miqdorida yer solig'ini to'lash sharti asosida yer egalarning merosiylik huquqi e'tirof etildi. XIX-asrning 70-yillarida inglizlar

Hindistonda yer solig'ini hosilning darajasiga qarab faqat ishlov beriladigan yerlarga emas, balki mavjud yer maydonlarning barchasiga joriy qilganlar.

XIX-asrning boshlarida ingliz sanoati ayniqsa, paxtani qayta ishlash sohasi tez rivojlandi. 1787-1812 yillarda Angliyaga kiritilayotgan paxtaning jami 52 mln f.st dan 194 mln f.st.ga oshdi. Angliya burjuaziyasining xom ashyoga va tayyor mahsulotlarini sotish uchun bozorga ehtiyoji katta edi. Burjuaziyaning talabi bilan ingliz parlamenti 1813-yilda "Ost-Indiya" kompaniyasini Hindistondagi savdo monopoliyasi huquqidan mahrum qildi. Natijada, Hindistonga ko'p miqdorda ingliz sanoat mahsulotlari birinchi navbatda fabrikada tayyorlangan ip kalavalar keltirila boshlandi. Arzon va pishiq bo'lgan ingliz ip-kalavalari hind to'qimachi xunarmandlarini xonavayron qildi. Ingliz bug' kemalari hind kemasozlarini, metall va melall buyumlarni keltirilishi esa hind tog'-rudachilik sohasini kasod qildi.

Hindiston xalqining milliy-ozodlik kurashi va sipohiyar qo'zg'oloni.

Inglizlar bosib olgan hududlarda dastlabki davrlardayoq hind xalqining mustamlakachilarga qarshi kurashi boshlandi. Biroq u XIX asrdagina uzluksiz tus oldi. 1816 yil Shimoliy Hindiston xalqning kuchli norozilik chiqishi bo'ldi. Bareyli aholisi mahalliy politsiya ta'minoti uchun inglizlar joriy etgan soliqni to'lashdan bosh tortdilar. XIX-asrning 20-yillarida Shimoliy Hindistonning musulmonlardan iborat aholisi orasida vahhobiylar harakati paydo bo'ldi. Bu harakatga Muhammad Ismoil va Said Ahmad Barelvilar rahnomolik qildilar. Ular nafaqat sof islomga qaytishni balki, musulmon dehqonlari hunarmand va savdogarlarini g'ayridin inglizlar tomonidan asoratga solinishiga qarshi targibot ishlarini olib borish, xalqni muqaddas urush-jihodga chorlaganlar.

XIX-asrning 30-50-yillarida Bombay, Madras va Bengaliya viloyatlari aholisining ozodlik va antifeodal qo'zg'olonlari davom etdi. Bu qo'zg'olonlarni eng yirigi 1855-1857 yillardagi Santal qabilalarining qo'zg'oloni edi. Soliqlarni to'lay olmagan santallarning yerlari inglizlar tomonidan tortib olinib bengaliyalik

zadogonlar va sudxo'rlarga xususiy mulk sifatida sotilgan. Inglizlarning soliq talonchiligi va politsiyaning zo'ravonligi oqibatida mazkur qo'zg'olon boshlangan. Birok o'q-yoy va nayza bilan qurollangan qo'zg'olonchilar Bombeydan chaqirilgan inglizlarning yaxshi qurollangan muntazam qo'shini tomonidan shafqatsiz ravishda tor-mor etilgan. 1839-1842 yillardagi ingliz-afgon urushi munosabati bilan ingliz qo'shinlari Sind amirligi hududiga kiritildi. Biroq urush tugagandan keyin ham ingliz qushinlari Sind hududiga qolaverdi. Sind amirining ingliz qushinlarini Sinddan olib ketish haqidagi talabi 1843 yil Sind va "Ost-Indiya" kompaniyasi o'rtasidagi urushga sabab bo'ldi. Inglizlarning harbiy ustunligi amirni mag'lubiyatiga va Sindni kompaniya mulklariga qo'shib olinishiga olib keldi.,

Endi inglizlar Panjobdagi Sikx feodal davlatini bosib olishga kirishdilar. 1845-1846 yillardagi birinchi va 1848-1849 yillardagi ikkinchi ingliz-sikx urushlarida sikx qo'shinarining mag'lubiyati oqibatida Panjob ham inglizlarga bo'ysindiriladi. 1849 yilda Panjobni va 1856 yilda Aud knyazligini "Ost-Indiya" kompaniyasi mulklariga qo'shib olinishi bilan amalda butun Hindiston xududi ingiizlarga tobe ettirildi. Ingliz mustamlakachililarining yuz yillik talonchiligi oqibati Hindistonda 1857 - 1859 yillardagi xalq qo'zg'aloni ko'tarildi. Ingliz manbalarining guvoxlik berishicha mazkur qo'zg'alon arafasida o'tgan besh yil davomida ingizlar ikki mingdan ziyod in'om va jigalarini tortib oldilar. Aud, Nagpur, Jxansi va boshqa bir qator yirik hind kinyazliklarini bosib oldilar. Natijada nafaqat dehqonlar va xunarmandlar, balki soliqni to'lay olmaslik oqibatida yer mulklaridan mahrum qilingan zamindorlar, maosh to'lanadigan politsiya va sinohiyalar harbiy qo'shini tashkil qilinishi oqibatida xizmatlari uchun berilgan yer mulklaridan ayrilgan jagirdorlar ham ingliz mutsamlakachilik tuzumidan aziyat chekmoqda edilar.

Hullas, Hindistonda inglizlarning talonchilik va zo'ravonliklari xalq qo'zg'alonini keltirib chiqardi. Qo'zg'alon 1857 yilda 140 ming kishidan iborat bo'lgan Bengaliya sipoxiyalar qo'shinida boshlandi. Bengaliya armiyasi asosan

musulmonlar, braxmanlar va rejputlar kabi hukmron tabaqa vakillaridan iborat bo'lib, ular qo'zg'alon arafasida o'zlarining iqtisodiy va ijtimoiy hukmronlik maqomini yo'qotgan va inglizlarning soliq talonchiligiga duchor bo'lgan edilar. Qo'zg'alonning muhim markazlaridan bo'lgan Kanpurda ingliz mutsamlakachiligi o'rnatilgandan to 1840 yilgacha merosiy yer mulklari 35% ga kamaydi, savdo-sudxurlik katsasi bo'lgan - baniya vakillarining yer mulklari esa 43%ga ko'paydi.

Bundan tashqari Bengal sipohiylari noroziligining bir qator boshqa sabablari ham mavjud edi. Masalan, Bengaliya provinsiyasidan o'zga xududlarda xizmat uchun sipohiylarning maoshiga qo'shib berilgan "bitta" deb nomlanuvchi qo'shimcha maoshni bekor qilinishi, armiyaga yollanuvchilar uchun Hindistondan tashqarida va xatto dengizda xizmat qilish majburiyatini joriy qilinishi, sipohiylarni ingliz ofitserlari tomonidan taxqirlanishi va boshqalar shular jumlasidandir. Ingliz qo'mondonligi sipohiylar armiyasini o't otar miltiqlar bilan qurollantira boshladi. Sipohiylar orasida miltiq patronlari o'ralgan qog'ozlarni cho'chqa va sigir yog'lariga botirganligi to'g'risida mish-mish tarqaldi. Sipohiylar patronlarni miltiqqa joylash uchun qog'ozlarni tish bilan yirtar va gunoxga botgan sanalar edilar. Bengaliya sipohiylarining chiqishlariga ayni voqelik baxona bo'ldi.

Qo'zg'alon 1857 yil 10 mayda Dexli yaqinidagi Mirut harbiy garnizoni joylashgan shaharchada boshlandi. Sipohiylar shahar kambag'allari va shahar atrofidagi qishloqlarning dehqonlari yordamida ingliz amaldorlari va ofitsyerlarini qirib tashlab, xibsdagilarni ozod qildilar. Qo'zgalonchilar Dehliga yo'l olib, 11 may kuni Dehlini egallashga muvaffaq bo'ldilar. Sipohiylar Boburiylar davlatining hukmdori ingliz ma'muriyalining nafaqaxo'ri Baxodirshoxdan inglizlarga qarshi xalqni umumiy kurashga chaqirishni va bu kurashga rahbarlik qilishni talab qildilar. Bir oy davomida Dehlidan Patnagacha bo'lgan hududlar deyarli

qo'zg'alonchilar qo'liga o'tdi. Panjobdagi Bengal armiyasi quolsizlantirildi, ayrim qo'zg'alon ko'targan polklar esa aholi tomonidan qo'llab quvvatlandi.

Madras va Bombeydagi sipohiyalar armiyasi Bengal sipohiyalaridan farqli xolda ingliz ma'muriyatiga sodiq qoldilar. Buning bosh sababi mazkur hudud sipohiyalarning quyi kastalardan chiqqanligi edi. Chunki harbiy xizmat uchun beriladigan maosh ularning ochlikdan o'lmasliklarining yakkayu-yagona imkoniyati va yashash manbai edi. Madras va Bombay sipohiyalarini qo'zg'alon ko'tarmaganligi o'z navbatida Dekan aholisini umumxalq kurashiga jalb qilmadi. Shunday qilib mazkur qo'zg'alonda feodal asilzodalar ham ishtirok etdilar. Ular qo'zg'alonda o'zlarining siyosiy hokimiyatini tiklash vositasini ko'rib, inglizlardan ozod qilingan hududlarda o'zlarini hokimiyatini o'rnatdilar yoki o'rnatishga harakat qildilar. Shu tariqa Dehli, Kanpur va Audda milliy ozodlik kurashining mustaqil markazlari shakllandi. Dehlida Bahodirshoh hokimiyati tiklangach, ta'bib Hakim Axsanul vazirligida hukumat tuzildi, shahzoda Mirza Mo'g'ol bosh qo'mondon qilib tayinlandi Bengal armiyasining tajribali ofitsyerlari Baxtixon raisligida ma'muriy palata (parlament) tuzildi.

Xulosa

Kanpur qo'zg'aloniga Maratx knyazligining merosxo'ri bo'lgan Pana Sohib boshchilik qildi. Kanpur qo'zg'alonchilari armiyasiga esa braxman oilasidan chiqqan ajoyib sarkarda Tantiya Topi qo'mondonlik qildi. Aud milliy-ozodlik urushiga Ahmad shoh nomi bilan mashhur bo'lgan Mavlaviy Axmadulla qumondonlik qildi. Uning harbiy otryadi Poxlaxanga xujum qilgan ingliz qo'shiniga qarshi muvaffaqiyatli ravishda partizan urushini olib bordi. Ingliz qo'shinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan Qolen Kempbell uning boshi uchun 50 ming rupiya mukofot e'lon qildi. Aud feodallaridan biri mukofotni olish maqsadida 1858 yil 5 iyunda Ahmad shohga xiyonat qilib uni o'ldirdi.

1857 yil iyun oyida Jxansi knyazligida ham sipohiylar qo'zg'aloni ko'tarilib, knyazligi inglizlardan ozod qilindi. Knyaginiya Lakshmi Bay o'zini Jxansi hukmdori deb e'lon qildi. Qo'zg'alonni bostirish maqsadida yuborilgan ingliz qo'shinlariga Lakshmi Bay markaziy Hindiston hududlarida partizan urushlarini olib bordi. Tantiya Topi ham bir hind zamindorining xiyonati oqibatida 1859 yilning aprelida ushlab olindi va osib o'ldirildi. 1857-1859 yillarda ingliz mul'samlakachiligiga qarshi Hindistonda ko'tarilgan sipohiylar qo'zg'aloni shafqatsizlarcha bostirildi. Biroq ingliz mustamlakachilari hind xalqiga ayrim yon berishlarga majbur bo'ldi. 1858 yilda "Ots-Indiya" savdo kompaniyasi tugatildi, soliq asorati yumshatildi, ayrim soliqlar qisqartirildi. Sipohiylar qo'zg'aloni mag'lubiyatga uchrashiga qaramasdan Hindiston xalqining ingliz muslamlakachilik zulmidan ozod bo'lishidagi muhim voqelik sifatida ahamiyatlidir.

Tayanch iboralar:

Boburiylar yoki Buyuk muo'g'ullar davlati. Davlat tuzumi. Feodal yer egaligining shakllari. Jagirdor. Zamindor. In'omdor. Vaqf. Jamoa yer egaligi. Hind qishloq jamoasining xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi. Ost-Indiya savdo kompaniyasi. Kompradorlar. Ingliz-Fransuz raqobati. Sipohiylar qo'shini. Ingliz mustamlakachiligi. Inglizlarning soliq tizimi. Zamindori. Rayatvari. Hunarmandchilik. Savdo. Sanoat. Ingliz mustamlakachiligining oqibatlari. Milliy-ozodlik harakati. Sipohiylar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon markazlari. Qo'zg'olonning oqibatlari. Ingliz mustamlakachilik tizimi. Soliqlar asorati. Milliy-ozodlik kurashi.

Nazorat uchun savollar:

1. Boburiylar davrida Hindistonning davlat tuzumi qanday edi.
2. Hindistonda feodal yer egalik shakllari
3. Hind qishloq jamoasining xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi.

4. Hindistonda ingliz-frantsuz raqobati va uning oqibatlari.
- 5 "Ots-Indiya" savdo kompaniyasi va ingliz mutsamlakachiligining o'rnatilishi.
- 6.Ingliz mutsamlakachilik tizimining takomillashuvi: "raiytvari", "zamindori" soliq tizimlari.
- 7.Ingliz mutsamlakachiligining oqibatlari.
8. Sipohiyalar qo'zg'olonining kelib chiqish sabablari.
- 9.Qo'zg'olonning boshlanishi, borishi va yakuni.
- 10.Sipohiyalar qo'zg'olonining oqibatlari va tarixiy ahamiyati.
- 11.Inglizlar tomonidan mustamlakachilikning kuchaytirilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Glazami druzey. Russkiye ob Indii. Sbornik. Sots. A.V.Zanadova i E.P.Proxorova. M.1957.
- 2.Alaev I.B Sotsial'naya struktura indiyaskoy derevni: Uattar Pradesha XIX v. M. 1976.
- 3.Antonova K.A Angliyskoe zavoevanie Indii v XVIII veke. M. 1958.
- 4.Osipov A.M. Velikoe vostanie v Indii. 1887-1859. M. 5957.
- 5.Pavlov V.I. Cotsial'no-ekonomicheskaya stuktura prom'ishlennosti Indii. (Predposilki genezisa kapilalizma konets XVIII seredina XIX v) M. 1973.
- 6.Novaya itsoriya Indii. Otv.red. K.A.Antonova i dr. M. 1961.
- 7.Vasilev A.S. Istoriya Votsoka. V 2x t. M. 1998.t.2.
8. Novaya istoriya Indii M., Nauka, 1981 god.
9. Levnovskiy A.I. Osobennosti razvitiya kapitalizma v Indii. M., Nauka 1963.
10. Yangi tarix. T., «O'qituvchi», 1969 yil.

Mavzu: XVII -XIX asrlarda Eron

Reja:

Kirish

1. XVIII asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzumi.
2. Afshoriylar va kojariylar hukmronligi davrida Eron.
3. XVIII asrning oxiri -XIX asr o'rtalarida Eronning xalqaro ahvoli.
4. Bobiylar qo'zg'olomi va Amir Nizom islohotlari.

Xulosa

Kirish

XVIII asr boshlarida Eron agrar feodal davlat bo'lib, unda Safaviylar sulolasi hukmronlik qildi. Safaviylar davlatiga Eronning azaliy mulklaridan tashqari XVI-XVII asr boshlarida zabt etilgan Kavkaz orti, Kavkazning bir qismi, O'rta Osiyoning Marv shahrigacha bo'lgan qismi, Hirot, Farrax va Qandahordan iborat Avg'onitsonning garbiy qismi va Balujitson hududlari kirar edi. Eron iqtisodiyotining asosini dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik tashkil qilar edi.

XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida Eronda feodal ishlab chiqarish munosabatlari hukmron bo'lib, yer va suvga feodal mulkchilik mavjud edi. Davlat yerlari devoniy, shoh xonadoni vakillariga tegishli bo'lgan xos, saroy va boshqa ma'muriy amaldorlarga xizmatlari uchun vaqtincha berilgan shartli yer egaligi-tiulga va merosiy yer mulki bo'lgan-suyurg'olga egalik qilganlar. Ishlov beriladigan yerlarning kattagina qismi vaqf yerlaridan iborat edi. Asta-sekin mulk, yoki arbobi, deb ataluvchi xususiy yer egaligi ham keng tarqala boshlagan.

XVIII asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzumi.

XVIII asrning daslabki choragigacha bo'lgan davrda Eron markazlashgan davlatini Safaviylar sulolasidan chiqqan shohlar boshqardi. Shoh mamlakatning mutloq hukmdori edi. Davlat ishlarini boshqaruvchisi bo'lgan bosh vazir va boshqa oliy ma'muriy, diniy, harbiy amaldorlar ham shoh tomonidan tayinlangan. Ba'zan shoh maslahat kengashi vazifasini o'tagan Oliy kengash yigilishini chaqirib turgan. Mamlakat mamuriy jihatdan xoslar va devonlar, deb ataluvchi viloyatlarga bo'lingan. Devonlarni-beklarbegi, xoslarni esa maxsus vazirlar boshqargan. Viloyat boshqaruvchilari ham shoh tomonidan tayinlangan. Eronning ijtimoiy-siyosiy hayotida ruhoniylar katta nufuzga ega edi. Ularning qo'llarida nafaqat din ishlari, balki shariat sudlari, vaqf mulklari, maktab va madrasalari ham jamlangan edi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Safaviylar davlatning siyosiy va iqtisodiy tushkinlik davri boshlanib, u XVIII asrning boshlarida ogir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozni yuzaga keltirdi. Natijada mamlakatni tashqi siyosiy ahvoli yomonlashdi, ichki va tashqi savdosi qisqardi, feodal guruhleri o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi, davlat xazinasini bo'shab qoldi, feodal va milliy zulm kuchaydi. Safaviylarning so'ngi shohi Sulton Husayn (1694-1722) davrida aholidan olinadigan soliq, va yig'imlar 2-3 barobar ko'paytirildi. Viloyatlarda xalqning norozilik chiqishlari boshlandi, ayniqsa afg'on qabilalari va Kavkaz xalqlarining milliy ozodlik qo'zg'olonlari avj oldi. Qandahor atroflarida yashagan afg'on qabilalari Safaviylar davlatining inqirozidan foydalanib, 1709 yilda mustaqillikka erishdilar. 1722 yilda Mir Muhammad boshchiligidagi afg'on qo'shinlari Eronga hujum qildi. Afg'onlar poytaxt Isfaxonni egallab, Safaviylarni taxtdan agdardilar. Shu yili Rossiya imperatori Pyotr I o'zining "Eron yurushi"ni boshladi, rus qo'shinlari Darbantni va Kaspiy bo'yidagi Eron yerlarini egallagach, Pyotr I Astraxan orqali Petrburgga qaytdi. Erondagi mazkur holatdan foydalangan

Turkiya 1723 yilda Kavkaz ortiga yurush qilib, Tiflisni va keyinroq Eronning butun shimoliy-g'arbiy qismini bosib oldi.

Afshoriylar va kojariylar hukumronligi davrida Eron

Eron xalq ommasi juda faol ravishda afg'on bosqinchilariga qarshi kurash olib bordilar. Uning markazi Mozandaron viloyati bo'lib, kurashga Eronning turkiy qabilasi bo'lmish afshorlardan chiqqan Nodirxon rahbarlik qildi. U Safaviylar sulolasining so'ngi shohi Taxmasp II (1722-1732) ning xizmatiga kirgan. Nodirxon harbiy qo'nondon sifatida Eronliklarning afg'on bosqinchiligiga qarshi kurashiga bosh bo'ldi. 1729 yil 29 sentabrda Nodirxon qo'mondonligidagi eron qo'shini Damgon ostonasida afg'onlar ustidan xal qiluvchi g'alabani qo'lga kiritdilar va 1730 yilda mamlakat afg'onlardan to'liq ozod qilindi. Shu davrda Nodirxon Eron hukmdori bo'lib qoldi. 1730-1735 yillarda Nodirxon turk qo'shinlariga qarshi muaffaqiyatli urush olib borib, Eron hududini turk bosqinchilardan tozaladi. Afg'on va turk bosqinchilariga qarshi kurashdagi muaffaqiyatlardan foydalangan Nodirxon 1736 yilda quriltoy chaqirib o'zini Eron shohi, deb e'lon qildi.

Nodirxonning ichki siyosati asosan mamlakat boshqaruvini markazlashtirishga qaratildi. U shia ruhoniylari va Safaviylar asilzodalardan tortib olingan yerlar soxibiga aylanib davlatning feodal mulkchiligini kengaytirishga erishdi. Dehqonlar va shaharning mehnatkash aholisidan olinadigan soliq va to'lovlarni ko'paytirdi. Davlat hududini kengaytirish va xazinani talonchilik bilan to'ldirish maqsadida Nodirshox uzluksiz ravishda bosqinchilik urushlari olib bordi. 1736-1739 yillarda u Sind, Buxoro va Xorazmga ham talonchilik yurushlarini amalga oshirdi. 1732-1738 va 1741-1743 yillarda Nodirshox Ummonga harbiy ekspidisiyalar uyushtirdi. 1743-1745 yillarda u Mesopatamiya uchun Turkiyaga qarshi muvaffaqiyatsiz urush olib bordi. Uning bosqinchilik yurushlari natijasida yirik bir davlat imperiya vujudga keldi. Unga shimoliy Hindiston, Afgoniston, Balujiston, Armaniston, Ozorbayjon, Gruziya, Dog'iston, Xiva va Buxoro xonliklari

kirgan. Doimiy urushlar olib boirish oqibatida mamlakat ishlab chiqarish kuchlariga putur etdi, soliq zulmi dexqonlar va shahar mexnatkashlarini xonavayron qildi. Mamlakat xududida shox hokimiyatiga, uning noib va gubernatorlariga qarshi xalq qo'zg'olonlari avj oldi. Nodirshoxning qo'zg'olonlarini bostirishdagi shavqatsizliklari xalq orasidagi nufuzini tushirib yubordi. 1747 yil iyunida Xurosonda uyushtirilgan suyuqastda Nodirshox xalok bo'ldi.

Nodirshoxning o'limidan keyin yagona iqtisodiy va siyosiy asosga ega bo'lmagan uning ulkan davlati mustaqil feodal mulklarga parchalanib ketdi. Afgonitsonda Axmadshox Durroniy boshchiligida mustaqil afgon davlati tashkil topdi. Xuroson, Astrabod, Mozandaron, Ozorbayjon, Gilon, Isfaxonda ham maxalliy feodal xukmdorlari o'zlarining xukmronligini o'rnatib, xokimiyat uchun o'zaro kurash olib bordi. 1760 yil janubiy Erondagi zend qabilasidan Karimxon Xurosondan tashqari butun Eron hududini birlashtirib, poytaxti Sheroz shaxri bo'lgan yangi bir davlatga asos soldi. 1779 yilda Karimxonning vafotidan so'ng yana xokimiyat uchun urushlar boshlanib ketdi. Bu kurashda kojar qabilasidan bo'lgan Og'a Muhammad g'olib chiqib 1769 yilda o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Eronda markazi Texron bo'lgan yangi sulola kojarlarning hukumronligi o'rnatildi.

XVIII asrning oxiri -XIX asrning o'rtalarida Eronning xalqaro ahvoli

O'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy qoloqligiga qaramasdan XVIII asr oxirigacha Eron mustaqil davlat sifatida mavjud edi. Bungacha Yevropa davlatlari Eronga nisbatan savdo imtiyozlari to'g'risidagi talablari bilan cheklangan xolos. XVIII asr oxirlaridan yaqin va o'rta sharqda bosqinchilik harakatlari uchun Eronni plasdarmga aylantirish maqsadida Angliya va Frantsiya uning ichki ishlariga aralasha boshladilar. 1796 yilda Texronga kelgan frantsuz elchiligi shoxni Rossiya bilan urushboshlashga undadi va shuningdek Erondan Angliyaga qarshi urushda foydalanmoqshibo'ldi. Frantsiyaning Hindistonga

xujum qilish rejasini barbod etish maqsadida 1800 yilda Malkolum boshchiligidagi ingliz delegasiyasi Texronga tashrif qildi va savdo shartnomalarani tuzdi. Unga ko'ra Eron o'z xududiga frantsuzlarni qo'ymaslik va agar frantsuzlar Hinditsonga xujum qiladigan bo'lsa, Eron qo'shinlarini Afgonitsonga yo'naltirish majburiyatini oldi. Savdo shartnomasi Eronda inglizlarni soliqlardan ozod qildi. Eron portlarida erkin harakat qilish bilan bir qatorda ingliz mahsulotlarini mamlakatga boj to'lovlarisiz kiritish kabi imtiyozlarni berdi. Bularning barchasi uchun inglizlar Eronni qurol-yarog' bilan taminlashni

o'z bo'yniga oldi.

XIX asrning dastlabki yillarida Rossiya Kavkaz ortini bosib olishga kirishib, 1801 yilda Gruziani zabt etdi. Rossiyaning Kavkaz ortiga yurushi Eron manfaatlariga zid bo'lib, bu xolat 1804 yil boshlangan rus-eron urushiga sabab bo'ldi. 1805 yil Angliya va Rossiya Napoleonga qarshi ittifoqchilik qilish to'grisida shartnoma imzolashdi. Shuning uchun Angliya Eronga xech qanday yordam bermadi. Bundan foydalangan frantsuzlar 1807 yil 4- mayda Texronda mudofa va xujum qilmaslik to'grisida frantsuz-eron shartnomasini imzoladi. Bu shartnoma Rossiya va Angliyaga qarshi qaratilgan edi. 1807 yil 7- iyulda Frantsiya va Rossiya o'rtasida imzolangan Tilzit sulhi xalqaro vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Eron yana Angliya bilan yaqinlashishga urindi. Angliya va Frantsiyaning Eronga qurol-yarog' va moliyaviy yordamiga qaramasdan Eronga nisbatan ilgor bo'lgan Rossiya rus-eron urushida birin-ketin g'alabalarni qo'lga kiritdi.

1812 yilda Napoleon armiyasining Rossiyaga xujumi ham shox qo'shinlarining ahvolini yaxshilamadi. 1812 yil oktyabrda Aslando'z yaqinidagi jangda eron armiyasi tor mor etilganidan so'ng sulh muzokaralari boshlandi. Muzokaralar 1813 yil 12 oktyabrda Rossiya va Eron o'rtasida Guliston sulh

shartnomasini imzolanishi bilan nixoyasiga etdi. Bu shartnomaga muvofiq Eron, Dog'iston, Gruziya va shimoliy Azorbayjonga bo'lgan davosidan voz kechib ularni Rossiya tarkibiga kiritilganligini etirof etdi. Kaspiy dengizida faqat Rossiyagina harbiy flot saqlashga ega bo'ldi. Rus va Eron savdogalarning mazkur davlatlarga erkin kelishi va savdo ishlarini yuritishi kafolatlandi, keltirilayotgan savdo mollariga 5% bojxona to'lovlari belgilandi.

Guliston sulhi Angliyaning Eronni o'ziga buysundirish rejalarini barbod qildi. Rossiyaning ta'sirini o'sishiga yo'l qo'ymaslik va shoxni Rossiya bilan yangidan urush chiqarish maqsadida 1814 yilda inglizlar ingliz-eron shartnomasini tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Bu shartnoma shox saroyida Rossiyadan o'ch olish kayfiyatini kuchaytirdi. 1821-1823 yillarda chegara masalasini Eron va Turkiya o'rtasida bo'lib o'tgan urushda Eronni galabasi ham ruslarga qarshi kayfiyatni kuchayishiga olib keldi. 1826 yil iyulda shox qo'shinlari to'satdan ruslarga xujum qilib ikkinchi rus-yeron urushini boshladilar. Biroq bu urush Eron uchun muvaffaqiyatsiz bo'ldi. 1828 yil fevralda Rossiya va Eron o'rtasida Turkmanchoy sulh shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra bu ikki davlat o'rtasidagi Araks daryosi bo'ylab chegara belgilandi, sharqiy Armanitson Rossiya tarkibiga kiritildi, Eronga 20 mln rubl tovon puli to'lash majburiyati yuklandi. Turkmanchoy sulhi Eronda Rossiyaning ta'sirini mutsaxkamladi, bu esa Ingliz-Eron munosabatlarini yanada keskinlashtirdi.

Rossiya bilan bo'lgan urush xajatlarini qoplash va tovon puli to'lash maqsadida shoxning favqulotda soliq va to'lovlar joriy qilishi Eron axolisining noroziligiga sabab bo'ldi. Shox saroyi va ruxoniylar xalq noroziligini Rossiyaga va urushdan so'ng Rossiyaning Erondagi elchisi qilib tayinlashgan A.S.Griboedovga qarshi yo'naltirish uchun qilgan harakati oqibatida 1829 yil 11 fevralida gazablangan olomon elchi boshchiligidagi rus missayisini qirib tashladi. Shox Peterburgga maxsus elchi yuborib mazkur voqelik yuzasidan uzur so'radi.

1837-yilda Rossiyaning tezlashi bilan Muhammadshox (1834-1848) Xirotda yurush qilib, uni egalladi. Shox Xirotni egallab inglizlarning mazkur xududni olish uchun qilayotgan urinishlariga chek qo'yishi mo'ljallagan edi. Bunga javoban inglizlar 1838-yilda fors ko'rfaziga harbiy ekspiditsiya yuborib, Xirotdan Eronga qo'shinlarini chaqirib olishni, Angliya bilan ham Turkmanchoy sulh shartnomasiga o'xshagan shartnoma imzolashni talab qildi. Urush havfi ostida shoh Angliya talablarini qabul qildi va 1841-yilda ingliz-eron savdo shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Eronga inglizlarning erkin kirishini ta'minlab, ularni ichki bojxona soliqlaridan ozod qildi, kiritilayotgan ingliz mahsulotlariga 5% bojxona to'lovi belgilandi. 1845- yilda Frantsiya, keyinroq Avstriya va 1856-yilda AQSh Eronda shu mazmundagi imtiyozlarga ega bo'ldi. Noteng shartnomalarni imzolanishi Eronga chet el kapitalini kirishini tezlashirib, mamlakat hududini G'arbiy Yevropa davlatlarining tayyor mahsulotlari sotiladigan bozorga aylantirdi.

1856- yilda, ya'ni Qrim urushi ketayotgan bir vaqtda Eron shohi Hiroti bosib oldi. Bu Angliyaning Eronga urush e'lon qilishiga sabab bo'ldi. Ingliz qo'shini Fors ko'rfazidagi bir qancha port va orollarni egalladi. Frantsiya va Rossiyaning qarshiligi, Angliyada iqtisodiy va siyosiy ahvolini keskinlashuvi, Xitoy va Hindistondagi xalq qo'zgalonlari inglizlarni Eronga urush harakatlarini to'xtatishga majbur qildi. 1857- yil Parijda ingliz-eron sulh' shartnomasi imzolandi, Eron o'z qo'shinini Xirotdan, Angliya esa o'z flotini Erondan chaqirib oldi.

Bobiylar qo'zg'oloni va amir Nizom isloxotlari.

XIX asrning 40-yillari oxirida Eronning Zenjon, Isfaxon, Tabriz. Yazd va boshqa viloyat va shaharlarida shox va xonlarning hokimiyatga qarshi xalqning norozilik chiqishlari bo'lib o'tdi. Bu chiqishlarning tepasida Shia mazxabidagi bobiylik diniy oqimining asoschisi Shyerozlik savdogar Said Ali Muhammad

(1820-1850) turdi. 1844-yilda Ali Muhammad o'zini bob tarjimasini, eshik darvoza bo'lib u orqali ming yil oldin goyib bo'lgan Shiadagi 12 imom Maxdi o'zini ko'rsatdi deb, 1847-yilda esa o'zini maxdi deb e'lon qildi. Bob ta'limotining asosiy shartlari Ali Muhammad yozgan Bayon kitobida o'z aksini topgan.

Bob ta'limoti Quronda belgilangan qonun va tartiblarni eskirgan deb xisoblab uni yangi, muqaddas kitob "Bayon" bilan almashtirish lozimligini targ'ib qildi. Bayonda barchaning o'zaro tengligi va bobiyning muqaddas podsholigining o'rnatilganligi, barcha ajnabiylar va bobiy bo'lmaganlarning mulklarini tortib olishi, o'zlarini esa mamlakatdan quvg'un qilishni targib qilingan. Bob shaxs va mulkchilik huquqi bilan birga savdogarlarning manfaatlariga mos keluvchi sudxurlik foizini oshirish, qarzlarni o'z vaqtida uzish, savdoga oid yozishmalarning sir saqlanishi kabi shartlarini savdogarlar uchun boshqa bir qator imtiyozlar va yengilliklarni talab qildi.

1847 yilda Bob xibsga olindi. 1848 yil yozida Bobning izdoshlari Bedasht shaxrida majlis chaqirib bunda mavjud qonun va tartiblarini, soliq majburiyatlar va xususiy. mulkchilikni bekor qilinganligi umumiy mulkchilikni esa joriy qilqanligi, ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligi e'lon qilindi. Bobiyning Bedashtdagi majlisi xukumat tomonidan tarqatib yuborilgach Bobiyalar butun mamlakat bo'ylab o'zlarining goyalarini targ'ib qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Bobiyalar 1848 yil Mozondaronda o'zlarining dastlabki qo'zg'olonini ko'tardilar ammo u 1849 yilda bostirildi. 1850 yil Zenjonda ham Bobiyalar qo'zg'oloni ko'tarildi mamlakatda Bobiyalarning ta'siri tobora oshib boraverdi, 1850 yil o'rtalarida Eronda Bobiyalarning soni 100 ming kishiga etgan. Shunday bir vaziyatda Nasriddin shox (1848-1896) o'zining birinchi vaziri bo'lgan Mirzo Tagtxonning maslaxati bilan 1850 yili Bob Tabrizda qatl etildi.

Bobning o'limidan keyin ham Bobiylar harakati davom etdi. 1850 yil iyunida Fors viloyatining Nyeris shaxrida Bobiylarning uchinchi qo'zg'oloni ko'tarildi, biroq qo'zg'olon bir necha kundan keyin bostirildi. Zenzon qo'zg'olonchilari 1850 yilning oxirilarigacha qarshilik ko'rsatdilar va faqat dekabr oyida shox qo'shinlari shavqatsiz ravishda qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldilar. Zenzon va Nyeriz qo'zg'olonlari bostirilgandan so'ng Bobiylar harakati asta sekin so'na boshladi. Dexqonlar va xunarmandlar harakatdan chekindilar, Bobiylarning ko'pi ruxoniylar va savdogorlardan iborat targibotchilari terror yo'liga o'tdilar. 1852 yil avgustida Nasriddin shoxga qilingan muvafaqqiyatsiz suyuqasddan so'ng butun mamlakatlar bo'ylab Bobiylar ommaviy tarzda ta'qib va qirg'in qilindi.

Xulosa

Shunday qilib Eronda feodaf zulm va chet el kapitalistlarining asoratiga qarshi ko'tarilgan xunarmandlar, dexqonlar, savdogarlar, ruxoniylar kabi ijtimoiy qatlam vakillari ishtirokidagi xalq qo'zg'oloni maglubiyatga uchradi. Hukmron doiralarning bozor va dexqonchilik bilan bog'lik bir qismi mamlakatdagi mavjud inqirozli ahvoldan isloxotlar yo'li bilan chiqmoqchi bo'ldi. Ularning manfaatlarini shoxning birinchi vaziri Mirzo Tagixon ifoda etdi. Mirzo Tagixon bir vaqtda shox qo'shinlarining qo'mondoni bo'lganligi sababli u Amir Nizom unvoniga ega edi. Amir Nizom mamlakatda markaziy hokimiyalini mustaxkamlash, harbiy moliyaviy tizimini qayta tashkil qilish maqsadida isloxotlar boshladi. U viloyatlar noiblarining o'z boshimchaligi, poroxo'rligiga qarshi kurashdi, oliy ruxoniylarning davlat ishlariga aralashuvini cheklashga harakat qildi.

Amir Nizom amaldorlarning sonini va ularning maoshlarini qisqartirdi, ko'pgina shaxzodalarni nafaqalaridan maxrum qildi. Uning Eron milliy mustaqilligini mustaxkamlash, chet davlatlar, ayniqsa Angliyaning mamlakat

ichki ishlariga aralashuvini cheklash siyosati feodal aslzodalar, oliy ruxoniylar va inglizlarning qarshi harakatiga sabab bo'ldi. Qarshi kuchlar o'z tarafiga Nasriddin shoxni ham jalb etdi. Nixoyat 1851 yil Amir Nizom lavozimidan olinib qatil etildi. Uning isloxotlari bekor qilindi. Amir Nizom muvofaqiyatsizligi va Bobiylar qo'zg'olonining maglubiyati Eronda qoloq feodal tartiblarining hukmronligini saqlab qoldi. Bu esa Eronning zaiflashuviga va mamlakatni kelgusida chet davlatlar tomonidan asoratga solinishiga olib keldi.

Tayanch iboralar:

Safaviylar hukmronligi. Davlat tuzumi. Afgonlar hukmronligi. Pyotr I ning Eronga yurushi. Nodirshoh Afshor va uning tashki siyosati. Kojariylarning hokimiyatga kelishi. Eronda ingliz-frantsuz raqobati. Birinchi rus-eron urushi. Guliston sulhi. Ikkinchi rus-eron urushi. Turkmanchoy sulhi .A.S.Griboedov boshchiligidagi rus elchiligi. Xirot yurushlari. Yevropa davlatlari tomonidan Eronning asoratga solinishi. Said Ali Muhammadning "Bob" talimoti. Bobiylar harakati. Amir Nizom islohotlari.

Nazorat savollari:

- 1.XVII asr boshlarida Eronning ijtimoiy iqtisodiy va davlat tuzumi
- 2.Eronda Afgonlar hukmronligi Pyotr I ning "Eron yurushi"
- 3.Nodirshox Afshoriy hukmronligi davrida Eron
- 4.Eronda ingliz, frantsuz raqobati.
- 5.Rus Eron urushlari va ularning oqibatlari
- 6.Griboedov boshchiligidagi rus elchisining taqdiri
- 7."Xirot masalasi" va ingliz-eron munosabatlari
- 8.Said Ali Muhammad va "Bob la'limoti"
- 9.Bobiylar harakatining kelib chiqish sabablari
- 10 Amir Nizom isloxotlari va ularni ijtimoiy siyosiy tabiati

Foydanlanilgan adabiyotlar

1. Novaya istoriya Irana: Xretsomatlya sotsaviteli I.K.Belova I dr. M 1988
2. Bushev P.P. Gerat i anglo-iranskaya voyna 1856-1857 gg M 1959
3. Ivanov M.S. Babidskoe vostaniya v Irane (1848-1852) M 1939
4. Ivanov.M.S Antifeodalnie vostaniya v Irane v seredine XIX v. M 1982
5. Ochyerki novoy istorii Irana (konse XIX-nach.XX v) Sbornik. M 1978.

Mavzu: XVIII asr va XIX asr o'rtarida Turkiya.

Reja:

Kirish

1. Turkiyaning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli.
2. Turkiyada o'zinliklarning o'rni va mavqei.
3. Turkiyaning horijliklar bilan aloqalari.
4. "Yangi usmonlilar". Turkiyaning 1-Konstilutsiyasi.
5. Rus-turk urushi va uning oqibatlari
6. Xalqaro munosabatlar va milliy harakat

Xulosa

Kirish

Turk impyeriyasi turli millat va elatlardan iborat bo'lib, geografik jihatdan uch qit'a: Yevropada-Bolqon yarim oroli, Qrim, Qora dengiz, Azov dengizi qirg'oqlarini, Osiyoda -Kichik Osiyo, Arabiston, Iroq, Suriya, Falastin, Kavkazning bir qismi va Shimoliy Afrikadagi mo'zofotlarini o'z ichiga olgan edi. Turk (Usmon) impyeriyasiga qarashli barcha yerlar turk sipohiylariga beriladigan yerlar, poshsholik (podsholik) yerlari, masjid (vaqf) yerlari va xususiy mulkdorlarining yerlaridan iborat bo'lgan. Impyeriya harbiy tartib va qat'iy intizom asosida idora etilar edi. Asrlar davomida turk sultonlarining tayanchi yanicharlar bo'lib, ular turk askarlari korpusidan tashkil topgan edi. Xristianlardan asir tushgan o'g'il bolalar yoshligidan mashq qildirilib, bu korpusga xizmat qilishlari uchun tayyorlanar edilar. Ular

keyinchalik xatna (sunnat) qilinib, musulmon dinini qabuq qilar edilar. Turklar bolalarni go'daklik chog'idan qattiq intizomga o'rgatishar. mutaxassislar qo'lida harbiy ta'lim berishar edi.

Turkiyaning itimoiy-istisodiy va siyosiy ahvoli

Angliya va Frantsiya Turkiyaning Sharqiy Yevropadagi urushlarni qo'llab-quvvatlashar edi. Bundan maqsad o'z siyosatlarini amalga oshirish, turklarni Bolqon yarim orolida milliy-ozodlik harakatlarini bostirish uchun toydalanishdan iborat edi. G'arb davlatlarini, Turkiyani Rossiyaga qarshi kurashda ham tayanch deb bilar edilar. Rossiya va Turkiya o'rtasidagi urushlar ob'ektiv jihatdan Gretsiya, Ruminiya, Serbiya, Bolgariya, Chyernogoriya, Bosniya mamlakatlari mustaqillik uchun olib borgan kurashlari bilan chambarchas bog'liq, chunki bu mamlakatlar Turk impyeriyasi mustamlakalari hisoblanar edi.

Angliya, Frantsiya, Rossiya yordamida 1829-yil Gretsiya o'z mustaqilligiga erishgan bo'lsada, Istanbulni egallash va Kichik Osiyoni butunlay qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan edi. Chunki Rossiya podsholari o'zlarini Vizantiya' impyeriyasining vorislari deb hisoblar edilar. Shuning uchun ham 1730-yildan boshlab bir necha Rossiya-Turkiya urushlari bo'lib o'tdi. 1786, 1787, 1806, 1828, 1853, 1877, 1914 yillarda bo'lgan Rossiya-Turkiya' urushlari fikrimiz isbotidir. Turk impyeriyasining davlat arboblari islohotlar yo'li bilan davlatni saqlab qolish va feodal tarqoqlikka barham berishga harakat qildilar. Harbiy-texnik harakterda bo'lgan bu islohotlar bir necha marta o'tgan avlodlarni o'z ichiga oladi. Ammo Usmoniyalar turkiyasidagi keng qamrovli jarayonlarni idrok etish uchun millatlar va mazhablar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish maqsadga muvofiq.

Turkiyada o'zinliklarning o'rni va mavqeyi.

Musulmon bo'lmagan millat vakillarini o'zga dinga e'tiqod qiluvchilar sifatida e'lirof etib, turklar ularni «o'zinliklar» yoki «g'ayrimuslimlar» deb aladilar. «Ozinliklar»da o'ziga xos qonunlar mavjud bo'lib, ular o'zlariga ajratilgan yerlarda

yashaganlar Har bir millat uchun alohida ranglardagi kiyim kiyish belgilab qo'yilgan. Ayni paytda ushbu millatlarning hech biri shoyi, ipak kiyim kiyishi, otda yurishi va qurol taqishi mumkin bo'lmagan. Ularning birortasi qurol taqib, ot mingan taqdirda qattiq jazolangan.

Oila qurush borasida ular o'z dinlari qoidalariga itoat etganlar va oilaviy muammolarni o'z makkamalarida muhokama qilganlar. Biror bir g'ayrimuslim musulmon xotinga uylana olmagan, yoki musulmon mulkiga merosxo'r bo'lolmagan. Ularning chyerkov yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik inshoot barpo etishlari uchun maxsus farmon talab qilingan. G'ayrimuslimlar savdo-sotiqda ham ustama foydaga erisha olmaganlar. Jinoyat sodir etgan g'ayrimuslimga musulmon qonunlariga ko'ra jazo belgilangan, ammo xuddi shunday jinoyat sodir etgan musulmonlarga beriladigan jazoning yarmisi belgilangan. «O'zinliklar»ning ibodat qilishlari borasida o'ziga xos demokratik usullari joriy etilgan edi. Musavviylar, majusiylar o'z uylaridan chiqmagan holda, ya'ni musulmonlarga hech bir shaklda xalaqit bermay ibodat qilishlari lozim bo'lgan. Ular sekin-asta qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tganlar va aksariyat ko'pchiligi soliq to'lab bo'lsa-da, shaharlarga joylashib, hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Harbiy xizmat majburiyati bo'lmaganligidan, ularning ilm olish, savdo hamda kosibchilik bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoit mavjud edi. Shu sababli «o'zinliklar»dan ilmi kishilar, yirik savdogarlar, moliyachilar va tabiblar etishib chiqqan boshladilar.

Xarbiy xizmat sharaflil faoliyat bo'lganfigi uchun Usmonli turk davlati «o'zinliklar»ga bu huquqni bermagan, natijada, son jihatdan ularning o'sishi, ilm olishi va tadbirkor jamoaalarga aylanishi uchun o'zi istamagan holda yo'l ochib bergan edi. «O'zinliklar»dan Sulton Murod 1 davrida (1362-1389) piyodalar harbiy korpusi va yanicharlar korpusi tashkil etildi. Podshohlarning islomiy «duogo'ylari» o'rniga norasmiy tarzda «o'zinliklar»dan chiqqan kuchli tabiblar

saroyga kira boshladilarki, Usmoniy turk davlati tarixida olti podshohning asosiy tabiblari «o'zinliklar»ning yahudiy millatiga mansub kishilardan bo'lgan.

Dastlab faqat Turkiyada yashash huquqiga ega bo'lgan «o'zinliklar» millatlaridan, Usmonli turk davlatining oxirgi davriga kelib, o'zining harbiy-siyosiy tizimi salohiyat jihatdan zamonaviy Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida ishlab chiqarish munosabatlarining Yangi shakllari paydo bo'la boshlagan, katta va yangi shaharlar, bank tizimi, mashinalashgan yirik sanoat, o'qotar armiya va flot shiddat bilan rivojlanmoqda edi. Ushbu hududlardagi davlatlarning deyarli yarmini bir necha yil davomida o'z hukmida tutib turgan, engilmas kuch timsoli bo'lgan Usmoniy turk davlati naqadar zaiflashib qolganini XVIII asrning boshlariga kelib, to'g'rirori, Yevropadagi bir necha davlatlarga elchi yuborganidan so'ng ma'lum bo'ldi.

Turkiyaning xorijliklar bilan munosabatlari. G'arbchilik (tanzimat).

Usmonli turk davlati o'zining ichki va tashqi siyosatini, davlat tuzilishini Yevropadagi buyuk o'zgarishlar asosida isloh qilishga majbur bo'lib qoldi. Bu davrga kelib, Usmonli turk davlatida yashagan «o'zinliklar» davlat mahkamalarida anchagina yuqori mavqeini egallab olgan edilar. Ular orasidan moliyaviy jihatdan mavqei o'ta kuchli kishilar etishib chiqqan edilar. Frantsuz inqilobi natijasida ular ham o'zlarining siyosiy huquqlarini talab qila boshladilar. Natijada birinchi marta Yevropa, aniqrog'i Rossiya bilan Usmonli Turk davlati o'rtasida «Kuchuk Qaynarja»(1774) bitimi imzolandi. Siyosiy huquqlarini kundalik mavzuga aylantirgan ushbu bitim bilan «o'zinliklar» uzoq vaqt davom etgan tobelikdan keyin birinchi marta Usmonli Turk davlatida o'z xohishlarini, ma'lum ma'noda tayziqlarini o'tkaza boshladilar. Hatto Sulton Mahmud II (1808-1839) ularni o'z avlodim(qarindoshlarim), o'z vatandoshlarim deyishga majbur bo'ldi.

1856 yilda Qrim urushi tugagach, ushbu masalaga oid ikkinchi hujjat qabul qilindi. Bu «Islohot farmoni» dir. Bu hujjatlar g'ayrimuslimlarning diniy huquqlarini musulmonlarniki bilan tenglashtirdi. Qator soliqlar va g'ayrimuslimlarning huquqlarni cheklovchi qonunlar bekor qilindi, ularning askarlikka borishlari qonunlashtirildi, iqtisodiy huquqlari tenglashtirildi. Usmoniy turk hukmdorlari bunday qarorga osonlikcha kelmadilar. Bunga asosiy sabab Turkiyaning Yevropa davlatlaridan taraqqiyotda orqada qolishi bo'ldi. Ana shu qoloqlikning bir necha dalil-misollarini ko'rib chiqaylik: 1571 yil Lenanto(Gretsiya) yaqinidagi dengiz jangida turk floti tor-mor bo'ldi. 1869 yildagi urushda Rossiyadan, 1683 yilda Vena yaqinida Polsha, Avstriya va birlashgan German qo'shinlaridan butunlay engildi. 1768-1774 yillardagi Rossiya bilan bo'lgan urushdagi mag'lubiyat bilan Valaxiya(Moldaviya). Qora dengiz, Bolqon yarim orolidagi mavqeidan mahrum bo'ldi. 1774 yil tuzilgan «Kuchuk-Qaynarja» sulhi bilan Qrim xonligi mustaqil, deb e'lon qilindi, Qora dengiz va bo'g'ozlar rus davlati uchun ochiq deb e'lon qilindi. 1787-1793 yillardagi Rossiya bilan bo'lgan urushda yana engildi. 18-asr oxiriga kelib Turkiyaning Yevropa hududlaridagi mulklarining taqdirini hal qilish ko'pro'q yirik davlatlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Ana shundan keyin Axmadshoh II (1703-1730), Mahmudshoh I (1730-1774), Abdulhamid I (1774-1788) va ayniqsa Sulton Salim III (1789-1807) Usmonlilar imperiyasini parchalanib ketishi va halokatdan saqlab qolishga, markazlashgan davlat tuzishga urindilar. Ular «g'arbchilik» g'oyalariga tayandilar. Sulton Salim III Usmoniylar imperiyasini yangilash uchun «Nizomi jadid» («Yangi usul») islohotlarini joriy etdi. Unga yirik zamindorlar, yanicharlar, ulamolar va boshqalar qattiq qarshilik ko'rsatdilar va hatto Salim III ni 1807 yili taxtdan ag'dardilar. Uning o'rniga taxtga o'tirgan Mahmud II ustalik bilan davlatni boshQardi. U isloHotlarni birdaniga emas,

sekin-asta atrofiga Tarafdorlarini to'plab, kuch yig'ib amalga oshirdi. 1-tadbirni yanicharlarni yo'q qilib, zamonaviy armiya tuzdi va unga tayandi, 2-dan ma'muriy-boshqaruv apparatini yangiladi, shundan so'ng moliya, huquq va boshqa sohalarda ijobiy o'zgarishlar qildi. Armiyani ta'minlash uchun aholidan soliqlar yig'ib olgan. Turk armiyasining tuzilishi va ta'minoti aynan shunday bo'lib, u yerda soliqlarning asosiy qismini to'lovchi o'rta tabaqa yaxshi shakllanmagan edi.

Shu yo'nalishda ish yurituvchi. Prussiyada XIX asrda paydo bo'lgan davlat boshqaruvini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ilmiy harakatni ifoda etgan «Kameralizm» deb atalgan idora tizimini hamda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'arb texnologiyasini Usmonli turk imperiyasi o'zlashtirishi kerak edi. Bundan tashqari, Yevropaning inson manfaatlarini himoya qilish va uning farovonligini ta'minlash borasidagi qadriyatlar tizimi hukumat amaldorlarining manfaatiga mos kelar edi. Bu tizimning o'zlashtirilishida, asosan, Yevropaga yuborilgan elchilar, mamlakatdagi ilrjor fikrli kishilar katta rol o'ynadilar. Bu borada, ayniqsa, Usmonli turk davlatining Germaniya va Prussiyadagi elchilari Mehmet Chelebiy, Nishli Mehmet og'a, Avstriyadagi elchisi Sodiq Rifat poshsho, Buyuk Britaniyadagi elchisi Mustaf o Rashid poshsho, Frantsiyadagi elchisi Ali poshsho va Fuad poshsholar faoliyatlarini alohida qayd etish lozim. Bu davlat arboblari balki o'z faoliyatlari bilan zaiflashib borayotgan Usmonli turk davlatining ilgarigi qudratini tiklash. «modern» boshqaruv tizimi qayta tashkil etilgan mamlakatga aylantirishni istaganlar. Pirovard natijada Usmonli turk davlatida «G'arbchilik» harakatlari-«Tanzimat» davrini boshlab berdi Hamda Yevropaning kundalik turmush tarzi turk jamiyatiga kirib kela boshladi.

«Tanzimatchilar» ya'ni «g'arbchilik» tarafdorlari sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida islohotlarni amalga oshira boshladilar. Ular hamma mo'ljallagan rejalarini amalga oshirolmadilar, ayniqsa, harbiy va madaniyat sohalarida

qiyinchiliklar bor edi. Shunga qaramay hukumat Yevropacha armiya va flot tashkil etish uchun davlat xazinasidan mablag' ajratdi. Biroq, Yevropa madaniyati Turkiyaga shunday o'ziga xo bir holatda kirib kela boshladiki, buning asnosida chet elliklar. Birinchi navbatda Yevropa davlatlarining manfaatlari yotar edi. Buni etarlicha baholay olmagan Usmonli lurk davlati istisodiy qaramlikka tusha boshladi.

Ma'lumki, Yevropadagi siyosiy o'zgarishlar sanoat inqilobining natijasi edi. Ishlab chiqarishning kengayishi, sanoatlashishning amalga oshishi yangi bir ijtimoiy-siyosiy davlatni shakllantirdi, jamiyatdagi funktsiyalar qaytadan taqsimlandi. o'rta tabaqaga mansub burjuaziya sinfi o'zining ilk demokratik missiyasini o'tay boshladi. Axborot almashinuvi rivojlana boshladi. Pochta, telegraf, telefon, gazetalar, suv yo'llari, temir yo'llari kabilar yangi sharoitda axborot almashishi borasida o'ta muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb eta boshladi. Shunday qilib, «g'arbchilik» oqimi, garchi turk madaniyatiga o'ta jiddiy zarar ko'rsatgan bo'lsada, ijlimoiy-siyosiy madaniy sohadagi harakatlari bilan yangicha turmush tarzi yoki harbiy tashkilot sifatida kirib keldiki, bu ma'lum ma'noda olg'a siljish edi, ammo iqtisodning rivojlanishi ushbu ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan orqada qoldi. Buning sababi Turkiya davlati arboblari Yevropa taraqqiyotining asosida sanoat inqilobi yotganligini ko'ra olmadilar.

Yangi usmonlilar. Turkiyaning 1-Konstitutsiyasi.

Bu borada yo'l qo'yilgan nuqsonlar mamlakatda yangi bir siyoisy oqimning faollashuviga sabab bo'ldiki, u Turkiya tarixida «Yangi usmoniylar harakati» nomi bilan kirdi. Ularning faolligi tufayli 1860 yilda turk davlatining 1-Konstitutsiyasi qabul qilindi va uning asosida parlament tuzildi. Iqtisodiy faoliyalni kengaytirishga saratilgan «Karma tijorat) nomli tijorat, «Nizomie mahkamasi» nomli huquqiy tashkilotlar tuzildiki. ular mamlakatdagi iqtisodiy va huquqiy tizimlarni barqarorligini ta'minlashi lozim edi. «Yangi usmoniylar»

«g'arbchilik»ni ta'qib qila boshladilar. Ularning asosiy nomayondalari Nomiq Kamol va Ziyoshojar edi. «G'arbchi»larga qarshi kurashganlardan yana biri Ibrohim Shinoziy bo'lib, u 1862 yilda «Tasviri afkor» nomli gazeta tashkil qilib, uning sahifalarida «g'arbchilik»ning maqsad mohiyatini tushuntirish borasida, ushbu siyosiy kuchga qarshi kurashish yo'lida o'zi va hamtirkdoshlarini ko'plab maqolalarini chop qila boshladilar.

Aytish joizki, Usmonli turk davlati yarim madaniy tusda edi. Shaxs, bir tarafdin davlat yangidan belgilangan madaniy qoidalariga, boshqa tarafdin esa jamiyatda amal qilayotgan madaniyatga, urf-odatlariga ko'ra moslashuvi, ijtimoiylashuvi kerak edi. Qolavyersa bunday sharoit milliy urf-odatlarning, diniy aqidalarning va me'yorlarning har tmonlama cheklanishida, davlat qbul qilgan yangicha madaniyatga berilishiga olib keldi. Milliy madaniyat ustiga zo'rma-zo'raki keltirib qo'shilgan yangicha, «g'arblashgan» madaniyat uchun tegishli va qonuniy muhitning yo'qligi jamiyatga emiruvchi ta'sir ko'rsatdi. Turk tadqiqotchilaridan biri Enver Ziyoshojar so'zlari bilan aytganda, «bu unsur Tanzimot yoshlarining yuzakiligiga, rohatsizligiga, madaniyatni Parij modasi, deb tushunishlariga olib keldi».

Xulosa

1860-yillarning oxirlarida bu boradagi tanqidiy mulohazalar yanada kuchaydi, «Islohot farmoni»ning e'loni va uni amalga oshirishning oqibatlari natijasida turklar, musulmonlar o'z, mamlakatida o'zlarining hukmronlik mavqelarini yo'qotdilar. Jamiyatda vujudga kelgan bunday vaziyatdan «o'zinliklar» yaxshi foydalana bildilar va musuhnonlarni har sohada ortda qoldirdilar. «Yangi usmoniylar»(1865)ga turk ma'rifatparvarlari, jurnalistlar, o'qituvchilar, amaldorlar kirgan bo'lib, ular konstitutsion tuzum tarafdorlari edilar. XIX asr 70-yillarida Turkiya chet el mamlakatlarning mustamlakasiga aylandi, mamlakat jahon kapitalistik bozoriga tortildi. Bu yerda chet el banklari

ochildi. Turkiya sanoat ishlab chisarish jihatidan dunyoda oxirgi o'rinlardan birida turar edi.

1876 yilda (30 may) libyeral guruh rahbari Midhat poshsho «Yangi usmonlilar bilan birga saroy to'ntarishi yasadi. Taxtga sulton Abdulhamidll o'tirdi. U Midhat poshsho tomonidan ishlab chiqarilgan konstitutsiya loyihasini tasdiqladi va u 1876 yil 23-dekabrda tantanali ravishda e'lon qildi. Ammo sulton 1877 yil boshida Midhat poshshoni bosh vazirlikdan bo'shatib. «Yangi usmonlilar»ni repressiya qildi. Parlamentni tarqatib yuborildi va mustabid hokimiyat qayta tiklandi. Bu davr Turkiya tarixida «zulm davri» deb ataldi. Demokratik o'zgarish ta'qiqlandi, mamlakalda terror va qatarg'on kuchaydi. Turkiyaning 1877-1878 yillardagi Rus-turk urushidagi mag'lubiyati uning Bolqondagi hukmronligiga chek qo'ydi.

Tayanch iboralar:

Yer mulklari, usmonlilar imperiyasi. Yanicharlar. Xorijiy daviatlar quvvatlashi. Rossiya-Turkiya munosabatlari. Turkiya-Rossiya urushi. Islohotlar. O'zinliklar. Usmoniylar imperiyasining zaiflashuvi. Turkiyaning orqada qolishi. G'arbiy Yevropadagi o'zgarishlar va ularning ta'siri. Kuchuk-qaynarja sulhi. «Islohot farmonm. Qoloqlik sabablari. «Nizomi jadid». Ahmadshoh III. Mahmudshoh 1. Abdulhamid 1. Sulton Salim III. Mahmud II. Yanichar armiyasining yo'q qilinishi, Kamyeralizm, Usmoniy turk davlati elchilari. Modyern mamlakat, G'arbchilik (tanzimot). Turkiyaning 1-Konstitutsiyasi

Nazorat savollari:

1. Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi
2. XIX asr oxirida Turkiyaning iqtisodiyoti
3. Usmoniylarning ichki siyosati
4. «Yangi usmoniy» lar faoliyati
5. Usmoniylar imperiyasining zaiflashuvi

Foydanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998
2. I.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998
3. Millyyer A.F. Osmanskaya imperiya v nachale XX veka. M. 1974.
4. Yangi tarix T., «O'qiluvchi» 1969 y.
5. Novaya istoriya stran zarubejnoj Azii i Afriki M., Nauka. 1971.

Mavzu: Buyuk Britaniya 1871-1918 yillarda.

Reja:

Kirish

1. Vilyam Gladston va Benjamin Dizraeli. «Qo'zg'olonchi Irlandiya».
2. Sotsializm va ishchilar xarakati.
3. «Asr bitimi» va ingliz bur urushlari. Qirolicha Viktoriya o'limi.
4. «Yurakdan kelishuv». Devid Lloyd Djordjning «xalq byudjeti» dasturi.

Xulosa

Kirish:

XIX asrning 70 - yillarida Angliya «Buyuk depressiya» deb nomlangan, uzoq va og'ir krizisni boshidan kechirdi. 1870-1914 yillarda Angliyada maxsulot ishlab chiqarish ikki marta o'sdi, ammo dunyoda (AQSHda, Germaniyada) to'rt marta o'sdi. XIX 80-yillarda AQSH, XX asr boshlarida Germaniya Angliyadan o'zib ketdi. Angliya avval savdo erkinligi siyosatiga amal qilgan bo'lsa, endi proteksionizmga amal qilishi kerak degan g'oyalar keng yoyildi. Proteksionizm yosh kapitalizm uchun mos kelar, u xom ashyo, oziq ovqat, arzon ishchi kuchini bir joyga to'planishini talab qilar edi. Bular Angliyada mavjud emas edi. Ammo Angliya iqtisodiy jixatdan kemasozlik, mashinasozlik, to'qimachilik soxasida raqiblaridan o'zib ketgan edi.

AQSH va Avstraliyadan oziq ovqat maxsulotlarini keltirilishi, 45 ta maxsulotning narxini 25 yilda 40%ga tushishga olib keldi. XIX asr oxirida ishlab chiqarish yanada kamaydi. Yirik sanoatdagi katta yoshdagi ishchilarni ish xaqлари yaxshi bo'lib, ayollar, bolalar, kichiq zavod ishchilarini maoshlari juda oz miqdorni tashkil etar edi. Xalqning axvoli og'ir, uchdan bir qismi kambag'allikda yashar edi. Masalan: Charl's Buts o'zining 9 tomlik «London axolisini mexnati va xayoti» asarini e'lon qildi. Bu asarda oddiy ingliz xalqining axvoli yoritilgan edi.

Vilyam Gladston va Benjamin Dizraeli. «Qo'zg'olonchi Irlandiya».

Buyuk Britaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy xayoti isloxotlarni talab qilayotgan edi. Liberallar va konservatorlar bu isloxotlarni o'zlaricha amalga oshirishga intildilar. Gladston kabineti boshlang'ich maktabni islox qildi, armiyada qator isloxotlar o'tkazdi. Yollanma xarbiy xizmat 12 yildan 6 yilga kamaytirildi. U xarbiy amallarni sotib olish xolatlariga chek qo'ydi. Xukumat davlat xizmatiga kiradiganlardan imtixon ola boshladi, parlament saylovlari yashirin ovoz berish usulida o'tkazila boshlandi, saylovchilarni sotib olishga chek qo'ydi. 1871 yildagi akt bilan treyd-yunionlar qonuniylashtirildi. Gladston spirtli ichimliklarni cheklash uchun kurashda mag'lubiyatga uchradi.

1872 yil Kristal saroyida Dizraeli xalqqa juda katta vadalar berib, xokimiyat uchun yo'l ochdi. Konservatorlar 1874 yilda «tadbirkorlar va ishchilar xaqida qonun» qabul qildi, ishchilarga ba'zi erkinliklar berildi. Ular «Xalq xayotini yaxshilash uchun» kurashdilar. Munitsipalitetlar arzon uy joylar qurish xuquqini oldilar, iste'mol maxsulotlari sifati ustidan davlat nazorati o'rnatildi. 1874 yildan Umumiy palatada 2 ta ishchi deputatlari o'rni paydo bo'ldi. 1880 yilda navbatdagi xokimiyat almashinuvi amalga oshirildi. Britaniya ekspeditsion korpusi chet mamlakatlarda mag'lubiyatga uchradi.

1884 yilda Gladston xukumati saylov xuquqlarini kengaytirdi. Graflik kengashlari tug'risidagi qonuni kuchga kirib, maxalliy boshqaruv vujudga keldi. 80

yillarda D.Chemberlen radikal dasturini ilgari surdi. Randolph Cherrhill' «xalqqa ishon» siyosatini amalga oshirdi. Ammo Angliyada xo'jaliqining axvoli og'irlashdi. 1887 yilning 13 noyabrida Traffalgar maydonida yuz minglab namoyishchilar o'qqa tutilib, tarixga «qonli yakshanba» nomi bilan kirdi. Gladston umupalatatada irlandlar ko'magiga muxtoj edi.

XIX asrda Irlandiya mustaqil davlat belgilaridan xamon maxrum edi. 1840-1850 yillardagi ochlik, axolining kamayishi, agrar krizislar Irlandiya iqtisodiyotini xarob qildi. Ammo tez orada qulay iqlim sharoiti tufayli chorvachilik tezlik bilan rivojlandi. Chorvador-rancherlar qatlami boyib bordi, mayda fermerlik rivojlandi. Irlandiyada terroristik aktlar, o'g'irlik, jinoyatlar ko'paydi. Qadimgi gel tilini, xalq ananalarini tiklash uchun kurash boshlandi.

Sotsializm va ishchilar xarakati.

Butun Yevropani qamrab olgan sotsializm g'oyalari Buyuk Britaniyani, 1870-1880 yillarda keng qamrab oldi. K. Marks va F.Engelslar xam Angliya kapitalizmini chuqur tadqiq va taxlil qildilar. 1884 yilda Sotsial Demokratik Ittifoq (SDI) vujudag keldi. SDI o'zining «Djastis» (Adolat) gazetasida kapitalizmni «fosh» etib, Marks g'oyalarini targ'ib qildi. SDI va uning raxbari Gaidman nazariyada dogmatizm, taktikada sektantlikdan aziyat chekar edi. SDI ommadan uzilgan, revolyutsion kayfiyatdagi intelegentsiyani tor guruxi vakillarini birlashtirgan edi.

Shu yili fabianlik oqimi vujudga keldi. Ular maqsadga evolyutsion yo'l bilan erishmoqchi edilar. Mashxur aktyorlar Sidney va Beatrisa Vebb, dramaturg Bernard Shou, fantastik yozuvchi Gerbert Uelslar bu oqimning yirik namoyondalari edilar. Fabianlarning siyosiy qarashlari «munitsipal sotsializm» nomini oldi. B.Shou « Millioner uchun traktat » asarini yozdi. Fabianlar: xususiy mulkni xar qanday ko'rinishining davlat qo'liga o'tishni sotsializmga o'tish deb atadilar.

Xususiy kapital va shaxar boshqarmasi bilan raqobatda, barcha imtiyoz va xuquqlar shaxar boshqarmasi qo'lida bo'ladi deb xisobladilar.

1889 yilning avgustida «Dokkerlarning buyuk stachkasi» yuz berdi: ish xaqini ko'paytirish, ish soatini kamaytirish, ijara usulidan voz kechish talablarini qo'ydilar. Bu stachkada stivdorlar (doimiy ishchilar), tikuvchilar, transportchilar va barcha mexnatkashlar xam qo'shildilar. Bu xarakatlar liberal o'zgarishlarga, yaxshi xayotga bo'lgan ishonchni yo'qqa chiqardi. 1893 yilda D.Keyr, A.Gardi boshchiligida «Mustaqil Ishchi Partiyasi» vujudga keldi. Ular ishchilar xarakatini liberallar tomonidan bo'ysindirilishiga qarshi kurashdilar va umumiy palataga ikkita deputat saylashga erishdilar. Ular bir qator progressiv g'oyalarni ilg'or surdilar, ammo ular xali ozchilik edilar. Bu xarakatlardan cherkov xam chetda turmadi. Arxiepiskov Iorkskiy: «Ijtimoiy tuzim isloxotlarni talab qilmoqda» deb yozgan edi. Turli tuman xristian sotsializmi g'oyalari keng tus oldi. Ular ishonch, iymon va muxabbat orqali adolatga, xalqni zulm va og'ir xayotdan qutqarishga erishish mumkin deb xisobladilar. Barcha profsoyo'z liderlari diniy talim olgan edilar.

«Asr bitimi» va ingliz bur urushlari. Qirolicha Viktoriya o'limi.

O'z raqiblariga javob sifatida Buyuk Britaniya xududiy ekspansiya siyosatini keskin kuchaytirdi. XIX asrning so'nggi yillarida Osiyo va Afrikada mustamlakachilik ovi keskin kuchaydi. «Savdo bayroq ortidan boradi» shiori keng yoyildi. Ch.Dikk: «Yanada buyuk Angliya», Dj.Sili: « Angliya ekspansiyasi « asarlarida mustakamlachilik siyosatini qo'llab-quvvatladilar. General Kitchener Afrikani shimolidan janubiga tomon 700 ming mil temir yo'llar, 2000 telegraf liniyasini qurib bitirdi.

1875 yilda Misr sultoni Ismoil Suvaysh kanalini aktsiyalarini inglizlarga sotadi. Bu «Asr bitimi» nomini oladi va 4 million funt sterlingga baxolaniladi. Angliya Fransiyani dog'da qoldirib, Suvaysh kanalini nazorat qilish xuquqini

qo'lg'a kiritadi. Suvaysh kanali 1859-1869 yillarda qurilgan. Aktsiyalarni dastlab 53 foiz Fransiya tegishli bo'lgan. Bu g'alabadan so'ng Viktoriya Xindiston qirolichasi nomini olgan. Mustamlakachilik siyosatining kuchaytirilishi Angliyadagi juda ko'plab sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga turtki bo'ldi.

1875 yilda Bosniya va Gertsogovina, 1876 yilda Bolgariya milliy ozodlik xarakati avj oldi. Rossiya xukumati xam slavyanlarga yordamga keldi. Turkiya Angliyadan yordam so'radi. 1877 yilda Rossiya-Turkiya urushlari boshlandi. Angliya va Rossiya o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keldi. 1878 yilning 13 iyunidan, 13 iyuligacha Berlin kongressi bo'lib o'tdi. Rossiya o'zini ba'zi davolaridan voz kechdi. Turkiya Kipr orolini Buyuk Britaniyaga topshirdi. 1880 yillarning boshlarida Misr to'la Britaniya mustamlakasiga aylantirildi. Shu davrda Buyuk Britaniyaning Afrikaning janubi va shimolidagi mustamlakalarini birlashtirish, butun Nil daryosi oqimini egallash fikri tug'ildi. Fransiya qo'shinlariga bu xududlardan jo'nab qolish taklif etildi. Fransiya bunga so'zsiz rozi bo'ldi. Qoxiradan Keyptaungacha yo'l ochildi.

Asosiy e'tibor Tranvall Respublikasi va Oranj Respublikasiga qaratildi. Bu respublikalarda burlar yashar, bu xududlar oltin va olmosga boy edi. Bu respublikalarda ingliz uitlendlordlari xam yashar edilar. Ingliz-Bur urushlari 1899-1902 yillarda bo'lib o'tdi. Angliya g'alaba qozondi. Angliya xarbiylaridan 23 ming kishi yarador bo'ldi, 22 ming kishi o'ldirildi, davlat 222 million funt sterling mablag'idan ayrildi. Britaniya xarbiylari bu xududda katta yaxshiyliklarni amalga oshirdilar. Britaniya ag'oyib yakkalik siyosatiga sodiq qoldi. Ammo Britaniya qudrati darz keta boshlagan, Germaniya ko'p soxalarda Buyuk Britaniyadan o'zib ketish uchun intilmoqda edi.

1901 yil yanvarda qirolicha Viktoriya vafot etdi. U XIX asrning 30-yillarida taxtga chiqqan edi. Ingliz qirollari qirollik qilishadi, ammo boshqarishmaydi. Qirolicha bir butun davrni ramziga aylandi. Viktorian axloqi,

qarashlari, adabiyoti, arxitekturasi, terminlari faqat Angliyada emas, balki butun dunyoda qo'llanila boshlandi. U qirollik xokimiyati avtoritetini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi, barcha qonun qoidalarga qat'iy amal qildi. Uning o'g'li Eduard VII yengil xayot tarziga o'rgangan edi. 1903 yilda Eduard Parijga boradi va «Xalqaro izolyatsiya davri» tamom bo'ldi.

«Yurakdan kelishuv». Devid Lloyd Djordjning «Xalq byudjeti».

1904 yilda muammoli masalalarda Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida, o'zaro kelishuv asosida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaning yashirin bandida Misr va Marokash masalalari o'zaro kelishib olindi. Bu shartnomada ittifoq, xamkorlik xaqida xech qanday fikrlar yo'q edi. Fransiya matbuoti bu kelishuvni «Etente kordial'»- «Yurakdan kelishuv» deb atadilar. XX asr boshlariga kelib asosiy kurash, Bolqondan Osiyo va Uzoq Sharqqa ko'chdi. 1907 yilga kelib, mana shu xududlarga oid ingliz-rus shartnomalari imzolandi va bu xududlar o'zaro ta'sir doiralari bo'lindi. Shu tariqa bo'lajak xarbiy bloqlarga asos solina boshlandi.

XX asr boshlariga kelib, turli siyosiy partiya va guruxlarning ijtimoiy faolligi susaydi, mamlakat xayotida Yangi siyosiy o'zgarishlar uchun vaziyat vujudga keldi. 1900 yilning fevralida Londonda, Memorial xollda yarim millionli kasaba uyushmalari, sotsialistik tashkilotlar ishchi vakillari komiteti tashkil topdi. 1900 yilgi saylovlarda konservatorlar g'alaba qozondilar. «Tafor vodiysining ishi» Angliya mexnatkashlarini larzaga soldi. 1905 yildan IVK leyboristlar partiyasini tashkil etdilar.

Leyboristlar «Tafor vodiysining ishi»ni bekor qildilar. Leyboristlar partiyasiga ikki turda a'zo bo'lish mumkin edi: 1. yakka tartibda, 2. ommaviy. Masalan: treditunionlar ommaviy tarzda bu partiyaga kirganlar. Bu partiyaning xar bir a'zosi mustaqil va erkin ovoz berish xuquqiga ega edi. Leyboristlar o'rtasila ko'plab sotsializm g'oyalari tarafdorlari mavjud edi. Leyboristlar parlamentda juda

iliq kutib olindi. Ular o'zlarini «xuddi o'ylaridagidek» tutdilar. Ular barcha qadimiy urf-odatlariga qat'iy amal qildilar.

1905 yilda liberallar kabinetiga D.L.Djordj birinchi marta savdo ministri lavozimida kirdi. U ota-onasidan erta ajraladi. U advokat lavozimida faoliyat olib borgan. U avval Uel's milliyligi bayrog'i ostida kurashga chiqadi. 27 yoshida parlament saylovlarida g'alaba qozonadi. L.D.Djordj parlamentda «qo'zg'olonchi» nomini oladi. U aristokratiyani qattiq tanqid ostiga oladi, qirol oilasini xarajatlarini kamaytirish kerak degan talabni ilgari suradi. U qattiqqo'llik, turli manyovrlarni ustalik bilan qo'llash, turli tomonlarni kelishtira olish kabi maxoratlarga ega edi. U xazina kantsleri lavozimini egallaydi. 1909 yilda Djordj quyi palataga o'zining birinchi byudjetini taqdim etadi. U o'z dasturiga «Xalq byudjeti» nomini beradi.

Bu dasturda Yangi modda, qarilik pensiyasi (70 yoshdan), mexnat birjalarini qo'llab-quvvatlash, xarbiy dengiz xarajatlarini 4 marta oshirish, soliq sistemasini islox qilish, axolining boy tabaqalaridan olinadigan soliqlarni ko'paytirish kabi Yangi o'zgarishlar bor edi. Konservatorlar bu dasturga juda qattiq qarshilik ko'rsatdilar. 1909 yilning noyabr oyidagina umum palata bu byudjetni qabul qildi. Oliy palata bu byudjetga juda katta qarshilik ko'rsatishiga qaramay, bu byudjet qabul qilindi. Mamlakat xayotidagi katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan bu qonunlar 1911 yildan kuchga kirdi.

Xulosa

Xukumat va D.L. Djordjning barcha xarakatlari mamlakatdagi keskinlikni yumshata olmadi. Ishchilar va xukmron doiralar o'rtasidagi kelishmovchiliklar davom etdi. 1911 yilda konchilar, dokkerlar, dengizchilar, ko'mir qazuvchilar qo'zg'olon ko'tardilar. Ular ish xaqini oshirish, kasaba uyushmalarini tan olish, 8 soatlik ish kunini joriy qilish va boshqa talablarni qo'ydilar. Irlandiyada xam keskinlik davom etdi. 1912 yilda parlament Irlandiya uchun uchunchi gomrul

xaqida Billni qabul qildi, ammo bu xam Irlandiyaga xaqiqiy mustaqillik bermas edi. Olster Irlandiyadan ajralish uchun o'z armiyasini Germaniya yordamida tashkil qildi. Irlandiya xam «Milliy volontyorlar» qismlarini tuzdi. Irlandiya fuqarolar urushi xavfi ostida qoldi. Bu davrda Angliyada ayollarning norozilik xarakatlari keng tus oldi. Faqatgina 1918 yildagina ayollar erkaklar bilan teng xuquqqa ega bo'ldilar.

Tayanch so'z va iboralar:

Proteksionizm, depressiya, konservator, radikal, ekspeditsion korpus, rencher, kizis, terrorist, gel, fabianlik, fantast, dokker, stachka, stivdor, munitsipal.

Nazorat savollari:

1. Nima uchun Angliyada XIX asrning ikkinchi yarmidan sanoat ishlab chiqarishi sekinlashdi?
2. «Xalqqa ishon» dasturini maqsadi nima edi?
3. Fabianlik oqimi xaqida nimlarni bilasiz?
4. Ingliz-Bur urushlarining sababi va oqibatlarini ?
5. «Xalq byudjetining» progressiv axamiyati nimada?
6. «Yurakdan kelishuv bitimi»ning moxiyatini tushuntirib bering .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. Sharq. 1998 y.
2. »Vsemirnaya istoriya.» V 12 t. Moskva. Politizdat. 1990 y.
3. Yurovskoy. E.E, Krivoguz. I. M. «Novaya istoriya stran Evropi i Ameriki.» Moskva. Visshaya shkola. 1998 y.
4. Yurovskaya. E. E. «Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Evropi i Ameriki (1640- 1870 gg) « Moskva . Visshaya shkola. 1990 g.
5. Burjuaznie revolyutsii XVII-XIX vekov v sovremennoy zarubejnoj istoriografii.M, Visshaya shkola ,1986.
6. Istoriya diplomatii v v 5-ti tomox.M,Nauka 1959-1960

Mavzu : «Fransiya uchinchi respublika davrida»

Reja

Kirish.

1. «Gertsoglar respublikasi» va 1875 yil konstitutsiyasi.
2. Respublikachilar xukumatda. XIX asr so'nggidagi krizislar.
3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiyaning iqtisodiyoti. III-respublikaning tashqi siyosati.
4. XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy kurash.

Xulosa.

Kirish

Fransiya- Prussiya urushidan so'ng, (1870 yilning iyuni, 1871yilnig may oyi) Fransiya armiyasi 150 ming askarini yo'qotdi, mamlakatning iqtisodiy axvoli ogirlashdi. Fransiya xukumati urushga 16 mlrd. frank mablag' sarfladi. Urushdan so'ng savdo, sanoat va qishloq xo'jaligida turg'unlik vujudga keldi. Fransiya Germaniyaga 5 mlrd. frank kontributsiya to'lagach, 1873 yilning 16 sentyabirda Germaniya soldatlari Parijni tark etdi. Orleanchilar, Bonapartchilar, legitimistchilar kabi monarxiyachi guruxlar o'zaro xokimiyat talashdilar. 1871 yilda saylangan Milliy yig'in asosan monarxiya tarafdorlari va yuqori tabaqa vakillaridan tashkil topganligi uchun «Gertsoglar respublikasi» nomini oldi.

Milliy majlis 1872 yilda sotsializm targ'iboti uchun ikki yildan, besh yilgacha qamoq jazosini e'lon qildi. III respublikani birinchi prezidenti etib T'er tayinlandi. U xarbiy diktatura xokimiyati uchun noloyiq kishi edi. 1873 yilda T'er istefoga chiqqach, may oyida armiya qo'mondoni general Mak-Magon xokimiyat tepasiga chiqdi.

«Gertsoglar respublikasi» va 1875 yil konstitutsiyasi.

Gertsoglar respublikasi va 1875 yilning 21 yanvarida Ta`sis majlisi siyosiy tuzum masalasini muxokama qila boshladi. Prezident etti yil muddatga saylanadigan, deputatlar partiyasini tarqatib yubora olish va boshqa keng xuquqlarga ega bo`ldi. Ammo prezident xukumatga mustaqil raxbarlik qila olmas edi. Senat munitsipalitetlar vakillari tomonidan saylanadigan bo`ldi. Ijroiya xokimiyatni va Ministrlar Kengashini prezident tayinlar edi. Deputatlar palatasi 21 yoshga to`lgan erkaklar tomonidan, etti yil muddatga saylanar edi. Ayollar, xarbiylar, mustamlakalar axolisi saylov xuquqidan maxrum edilar. Mazkur konstitutsiya respublika tuzumini ancha demokratlashtirdi va 1940 yilgacha o`z kuchida qoldi. 1876 yilgi parlament va senatga bo`lgan saylovlarda respublikachilar galaba qozondilar, Mak-Magon iste`foga chiqdi, bu esa respublika tuzumini yanada mustaxkamladi.

Respublikachilar xukumatda. XIX asr oxiridagi siyosiy krizislar.

1879 yilda birinchi marta respublikachi J.Grevi prezident etib, xukumat boshligi etib o`ng respublikachi Freysini saylandi. Respublikachilar xukumatni Versaldan Parijga ko`chirdilar. Marselezani milliy madxiya deb e`lon qildilar. Bastiliya olingan 14 iyulni Fransiya respublikasining milliy bayrami deb e`lon qildilar. Respublikachilar cherkovni davlatdan ajratdilar, progressiv daromad soligini joriy etdilar. 1880 yilda Parij Kommunasi qatnashchilariga amnistiya e`lon qilindi, namoyishlar o`tkazish xuquqi, nashriyot erkinligi, so`z erkinligi va boshqa qonunlar qabul qilindi. 1884 yilda kasaba uyushmalariga ochiq ishlash xuquqi berildi, bolalar va ayollar og`ir mexnatini cheklash to`g`risidagi qonunlar joriy qilindi.

1880 - 1890 yillarda tub soliqlar oshirildi. Proteksionizm siyosati olib borildi. 1880 yilda iezitlar uyushmalari tarqatib yuborildi, bepul umumiy ta`lim joriy qilindi. Bularga qaramasdan yashash qimmatlashib bordi. Axolining turli

tabaqalari ushbu tuzumdan norozi bo'la boshladilar. Respublikachilardan radikallar guruxi ajralib chiqdi.

Mamlakatdagi respublikachilarga qarshi norozilikni o'sib borishidan monarxiya kayfiyatidagi ofitserlar foydalanishdi. Ular shovinizm g'oyalarini ilgari surdilar, Germaniyadan revansh olish, Yangi diktatorni xokimiyatga kelishi orzusida yashadilar. General Bulanji ularga boshchilik qildi. 1887 yilda kuyovi «Faxriy Legion» ordenlarini sotgani fosh bo'lgach, prezident J.Grevi iste'fo berdi. 1889 yilda Bulanji «Qarshilik komiteti» ga raxbarlik qilib, xarbiylar, radikallar va ishchilarni birlashtirdi. Bulanji monarxiyachilar tomoniga o'tib davlat to'ntarishi uyushtirishga intildi, ammo fitna fosh etildi.

1892 - 1893 yillarda Yangi krizis, «Panama krizisi» ro'y berdi. 1888 yilda Panama kanali qurulishi aksionerlik kompaniyasi tashkil qilinib, katta foizli foydalarni aksionerlarga e'lon qilindi. Xamma tabaqalar bu kompaniya aksiyalarini sotib oladilar. Ammo tez orada kompaniya 800. 000 aksionerga foyda to'lashni to'xtatadi. Panama aksionerlik kompaniyasini ketma ket tekshiruvlar natijasida, poraxo'rlik va o'grilik tufayli kompaniya bankrot bo'lganligi aniqlanadi. Monarxiyachilar bunda xam respublikachilarni aybladilar. Ammo respublika tuzumini krizisi ro'y bermadi.

1894 yilda Yangi chuqur siyosiy krizis ro'y beradi. Fransiya general shtabi to'la monarxiyachilar qo'lida edi. 1894 yilning 14 sentyabrida 28 yoshli ofitser, millati yaxudiy kapitan Alfred Dreyfus Germaniya foydasiga shpionlikda ayblanib, umrbod Fransuz Gvianasiga surgun qilinadi. 1896 yilda Fransiya kontrrazvedkasi boshligi Pikar shpionlik ma'lumotlari yana berilayotganligini e'lon qiladi. Mamalakat «Dreyfuschilar» va «Antidreyfuschilar» ga bo'linadi. Uzoq tortishuvlardan so'ng Dreyfus ozod qilinib, 1906 yilda o'z lavozimiga qayta tayinlanadai. Monarxiyachilarni respublikachilarni obrusizlantirish uchun so'ngi urinishi xam barbod bo'ladi.

1899 yilda «respublikachilar» koalitsion xukumat tuzishadi, uni Valdek Russo boshqaradi. Xukumat uch yil faoliyat ko'rsatadi. Unga birinchi marta sotsialist F.Mileran xam kiradi. Xukumatning xokimiyat yo'li bilan mexnatkashlar turmushini yaxshilashga urinishi natija bermaydi. Fransuz sotsialistik xarakati bo'linib ketadi.

XIX - asr oxiri XX asr boshlarida Fransiya iqtisodiyoti III - respublika tashqi siyosati.

XIX asrda Fransiya jaxon sanoatida Angliyadan so'ng ikkinchi o'rinda turgan bo'lsa, 1873 yilgi krizisdan so'ng, to'rtinchi o'ringa tushib qoldi. Mamlakatning tabiiy resurslarining ozligi, qishloq xo'jaligini qoloqligi axvolni yanada ogirlashtirar edi. Tog' kon sanoati, to'qimachilik, metallurgiya sanoati rivojlandi. Banklarning yiriklashuvi jixatidan Fransiya birinchi o'ringa chiqib oldi. « Leon krediti», «Ipotek Banki» , « General jamiyati» , « Milliy xisob kontorasi» mamlakatni xamma mablag'larini to'plagan edi. XX asr boshida «Parij ittifoq banki» , «G'arbiy Afrika banklari tashkil topdi. 1914 yilda Fransiyada 266 ta bank bo'lib, asosan Parijda joylashgan edi. Bank va sanoat kapitali birlasha boshladi. Monopoliya va ssuda kapitalining ro'li o'sdi. Sanoat va savdoga 1903 yilda 8,5 mlrd. frank, ssudaga 104,4 mlrd. frank jalb etildi. Fransiya imperializmi sudxur imperializmga aylandi.

XX asr Fransiya axolisining 40 % i qishloq xo'jaligida, 36 % sanoatda band edi. Qishloq xo'jalik maxsulotlari importi eksportdan ortib ketdi. Chorvachilik og'ir axvolda edi. Axoli sonini sekin o'sishi Fransiyaning o'ziga xos xususiyati edi. Frankfurt tinchlik shartnomasidan so'ng, Fransiya va Germaniya munosabatlari keskinligicha qolaverdi. 1879 - yilgi Avstro German ittifoqi, Uchlar ittifoqi Fransiya qarshi qaratildi. Fransiya Rossiya bilan yaqinlashdi. 1887 yilda Fransiya Rossiyaga 500 mln. frank zayomini beradi. Rossiya va Fransiya o'rtasida bir qator shartnomalar tuziladi: 1891 yilda xarbiy pakt, 1893 yilda Siyosiy shartnoma, 1912

yilda xarbiy dengiz konvensiyalari tuzildi. Bu bitimlar ikkala davlat pozitsiyasini mustaxkamladi.

Fransiya mustamlakachilar siyosatini davom ettirdi. Fransiya Tunisga katta kapital kirita boshladi. Angliya va Germaniya qarama qarshiligidan Afrika masalasida ustalik bilan foydalandi. 1881 yilning aprelida Fransuz korpusi Tunisni o'qkupatsiya qilib to'la bo'ysundirdi. 1870 - 1880 yillarda Fransiya Senegal va Somali yo'nalishida Afrika qit'asi markaziga yurish boshladi. 1890 - 1893 yilda Senegal, 1892 yilda Dagomeya, 1898 yilda Samori buysundirildi va Fransuz G'arbiy Afrikasi (Senegal, Gviniya, Sudan, Mavritaniya, Dagomeya, Fil suyagi qirg'ogi, yuqori Volta, Niger) tashkil topdi.

Kongo va Ubangi daryolari orasidagi xudud Gambiya daryosidan Chad cho'ligacha, O'rta Kongo va Gabon birlashtirilib Fransuz Tropik Afrikasi tashkil etildi. Fransuz kapitali Xindixitoyga kirib bordi. 1884 yilda Xitoy Fransiyaga qarshi urush e'lon qildi. 1885 yilda Fransiya maglubiyatga uchradi. Ammo Xitoy yon berishga majbur bo'ldi. Annam ustidan Fransuz protektorati o'rnatildi. 1887 yilda Tonkin, Annam, Koxinxin, 1893 yilda Kamboja birlashtirilib Xindixitoy ittifoqi Fransiya mustamlakasi tashkil topdi. 1882 - 1904 yillarda Madagaskar buysundirildi. Fransiya Atlantika va Tinch okeanidagi ko'plab orollarni egallab oldi.

Angliya va Fransiya manfaatlari Shimoliy Sharqiy Afrikada to'qnashdi. 1898 yilda Sudan masalasida nizo kelib chiqdi. Fransiya yon berishga majbur bo'ldi. 1899 yilning martida Ingliz - Fransuz shartnomasi imzolandi. G'arbiy Sudan Fransiya qo'liga o'tdi. Ikki mamlakat mustamlakalarini bo'lishib o'la boshladilar. 1904 yilgi Yurakdan kelishuv shartnomasi Angliya va Fransiyani yanada yaqinlashtirdi. Marokash ko'p mamlakatlarni monopoliyalari o'rtasida taqsimlangan bo'lsada xali o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi. Fransiya

Marokashda o'z faoliyatini kuchaytirib, 1905 yilda Marokash armiyasini qayta tuzish, mablag'larni nazorat qilishni talab qildi. Sulton qarshilik qildi.

Alxessiras shaxrida Germaniya taklifi bilan 14 ta davlat ishtirokida konferentsiya o'tkazildi. Konferentsiya Marokashni mustaqil deb e'lon qildi va barcha davlatlarga iqtisodiy erkin faoliyat yuritishga ruxsat berdi. 1911 yilning baxorida Fransiya Marokash poytaxti Fessni egalladi. 1 iyulda Germaniya Marokashni Agadir portiga «Pantera», «Berlin» kemalarini yubordi. Ammo Germaniya urush ocha olmadi. Germaniya Kongoni bir qismini egalladi.

XIX asr oxiri XX asr boshida siyosiy kurash.

1902 yildan xukumatga radikallar boshchilik qildilar. XIX asrning dastlabki o'n yillarida radikallar Fransiyaning eng kuchli va obro'li partiyasi edi. Ular reaksiya xam emas, revolyutsiya xam emas siyosatiga amal qildilar. Ular diktaturaga qarshi chiqib, sotsialistlar va ishchilar xarakati bilan kelishuvchilik siyosatini olib bordilar, ular respublikani demokratlashtirish uchun kurashdilar, xalqning iqtisodiy va ijtimoiy talablarini qondirishga intildilar.

1902-1906-yillarda radikallar xukumatini E. Komba boshqardi. U klerikalizmga qarshi kurashdi, cherkov davlatdan, cherkov maktabdan ajratildi, ba'zi diniy uyushmalar tarqatib yuborildi. 1906 yildan ministrlar kabinetini mashxur notiq, jurnalist, siyosatchi J. Klemanso boshqardi. U klerikalizmga qarshi kurashdi va revansh siyosatini olib bordi. Ichki siyosatda mamlakatni demokratiyalashtiri, qonunlarni buzilishiga qarshi kurashdi. Ikkinchi tomondan ko'plab qo'zgonlarni shafqatsizlik bilan bostirdi. 1909-1912 yillarda xukumat 11 marta almasldi. Xukumat kuchsiz bo'lib qoldi.

1912 yil saylovlari respublikachilarga g'alaba keltirdi. Raymon Puankare xokimiyat tepasiga chiqdi. Bu sotsialistik xarakatni kuchayishiga, xususiy mulk va vatanparvarlarni qarshi javobi edi. Sotsialistlar o'sib borayotgan ishchilar xarakatiga tayanar edi. Ish tashlashlar va ko'plab ishchi ittifoqlarining tashkil

topishi, 1876 yilda Parijda ishchi kongressini tashkil topishiga olib keldi. Jyul Ged va Pol Lafarglar fransuz ishchilar xarakati rivojiga ulkan xissa qo'shdilar. Ular K. Marks va F.Engels asarlarini Fransuz tiliga tarjima qildilar. Marksizmni targ'ib qilishga katta xissa qo'shdilar. 1879 yilning oktyabrida ishchi ittifoqlari Marsell kongressi Fransiya Ishchi Partiyasini tuzdilar. Uni 1880 yilda qabul qilingan programmasi to'liq marksistik ruxda edi.

XIX asrning 90 yillarida anarxistlar guruxi faol xarakat olib bordi. Senatda, deputatlar palatasida, kuchalarda bombalar portlatishdi, prezident S. Karnoni o'ldirishdi. Oqibatda ishchilar xarakatiga qarshi qat'iy, shafqatsiz qonunlar joriy qilindi.

Xulosa.

Repressiyalarga qaramasdan ishchilar xarakati o'sib, rivojlanib bordi. 1885 yilda Mexnat Birjasi Ittifoqi va Milliy Sindikatlar Ittifoqi yagona Umumiy Mexnat Konferentsiyasiga birlashdi. I Internatsional taklifi bilan mamlakatning barcha sotsialistlari birlashib Internatsionalning Fransuz ishchi sektsiyasini tashkil qildilar. Bu Fransiya ishchilar xarakati faoliyatini yanada kuchaytirdi. Anatol Frans va Jan Joreslar «Rus xalqi do'stlari» ko'ngilli jamiyatini tuzdilar. Ular avval respublikachi, keyin sotsialistlarga aylangan edilar. Ular Fransuz respublikasini Xalq respublikasiga aylantirish, sotsializmni qaror toptirish mumkin deb xisoblar edilar. Ular militarizmga, mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqdilar.

Ammo ko'plab axoli, sotsialistlar Germaniya xavfidan cho'chir, unga zarba berish zarur deb xisoblar edilar. R. Puankare xarbiy xizmatni 3 yilga uzaytirdi. Umumiy Mexnat Konferentsiyasi, Internatsional urushni oldini olishga intildilar. Ammo barcha sotsialist, kasaba uyushmalari liderlari vatanni ximoya qilish zarur deb xisoblar edilar. Xukmron tabaqalar bundan foydalanib Angliya va Rossiya bilan ittifoq yordamida Germaniyadan revansh olish, Yevropada gegemonlik qilishga intilar edilar.

Tayanch so'z va iboralar:

Gertsog, kontributsiya, klerikal, monarxist, revansh, konfederatsiya, shoviniist, radikal, sotsialist, internatsional, koalitsiya, tropik, Xindixitoy.

Nazorat savollari:

1. Fransiya iqtisodiy krizisining sabablari nimada edi?
2. «Panama krizisi» qanday oqibatlariga olib keldi?
3. Nima uchun Fransiya-Rossiya davlatlari yaqinlashdilar?
4. III respublikaning tashqi siyosatini asosiy belgilari nimada?
5. Fransiyaning Afrikadagi mustamlakachilik siyosatining kuchayishi sababi nima?
6. Xitoy nima uchun Fransiyaning talablarini bajardi?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. Sharq. 1998 yil.
2. Yurovskiy.E.E, Krivoguz.I.M: «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» 1,2-period. Moskva. «Visshaya shkola». 1998 god.
3. Yurovskiy.E.E. «Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Yevropi i Ameriki (1640-1870)». Moskva. «Visshaya shkola». 1990 god.
4. Narochitskiy.A. L. «Novaya istoriya». Moskva. «Prosveshenie». 1986 god.
5. «Vsemirnaya istoriya». v 12 tomax. Moskva. «Politizdat». 1960 god.
6. Popova.E.I, Tatarinova.K.N. «Novaya i noveyshaya istoriya». Moskva «Visshaya shkola». 1984 god.
7. «Yangi tarix». 3 tomlik. Toshkent. 1996 yil.

Mavzu: « Italiya 1871-1918 yillarda «

Reja:

Kirish.

1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Italiyaning davlat tuzumi.
2. F.Krispini avtoritar va imperiyacha faoliyati.

3. «Taraqqiyparvar liberalizm» dasturi va «Sog'lom demokratiya» faoliyati.

4. XX asr boshida Italiya tashqi siyosati.

Xulosa.

Kirish

1861 yilda Italiya qirolligi tashkil topganidan, to 1918 yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy soxalarda katta o'zgarishlar yuz berdi. Risorjimento, italyan xalqining birlashishiga, milliy bozor, yagona iqtisodiyot, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat agrar tuzumdan, agrar-industrial va bank tuzumiga o'tadi. 1866 yilda Venetsiya viloyati (Avstriyadan) va 1870 yilda Papa viloyati (Fransiyadan) Italiyaga qo'shib olinib, Rim shaxri Italiya poytaxtiga aylandi. Italiyaning birlashuvi P'emont va Sardiniya sulolasi ta'sirida amalga oshdi va P'emont qiroli Viktor Emmanuel Italiya qiroli bo'ldi.

Qirol katta xuquqlarga ega edi, ammo 1848 yildagi P'emont konstitutsiyasi Statutga ko'ra qirol xokimiyati cheklandi, inson xuquqlari va erkinliklari tan olindi. Statut butun Italiya xududida qo'llanildi. Statutga ko'ra mamlakatda ikki palatali parlament tashkil etildi, yuqori palata (Senat - qirol tomonidan umrbod a'zolikka tayinlangan aslzodalar) va quyi palataga (turli xududlardan saylangan deputatlar palatasi) bo'lingan. Mamlakatda katolik cherkovi katta rol' o'ynar edi. 1871 yilda «Papa va muqaddas taxt kafolati, cherkov va davlatning o'zaro aloqalari» qonuni qabul qilinadi. Papa mulklari Rimda Vatikan va Lateran saroylari bilan chegaralab qo'yildi va 1929 yildan Vatikan deb atala boshladi. Shunga qaramasdan cherkov va davlat munosabatlari keskinligicha qoldi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Italiyaning davlat tuzumi.

1861-1876 yillarda qirollik xukumatida mo'tadil o'ng liberallar faoliyat olib borishdi. Ular brigadalashgan dvoryanlar, savdo, iqtisodiy, sanoat burjuaziyasi manfaatlarini uchun xizmat qildilar. P'emont va Lombardiya burjuaziyasi

munosabatlarini ko'zladilar. «O'nglar» xukumati yagona yo'llar, soliq tizimi, yagona ogirlik, yagona o'lchov birliklari, qirollikda yagona boj tizimi, eksport va import uchun bir xil ta'riflar joriy etilib, ichki bojxonalarga barxam beradilar.

Liberallar xukumati temir yo'llar, shosselar, portlar, telegraf liniyalari qurishga katta e'tibor berdilar. Milliy bank tashkil etdilar. «Ochiq eshiklar» siyosatini olib bordilar. Mamlakat industrilashtirildi, bozor munosabatlari rivojlandi. Ammo xunarmandlar, dexqonlarning kambag'allashuvi, xonavayron bo'lishi jarayoni kuchaydi. Oqibatda ijtimoiy-sinfy qarama-qarshiliklar kuchaydi. Liberallar yer masalasini xal qilishga deyarli intilmadilar. Janubiy Italiya xududlarida, ayrim orollarda feodal tartiblar saqlanib qoldi. To'yib ovqatlanmaslik, (makkajuxori uni ko'p iste'mol qilingan) og'ir mexnat, yuqumli kasalliklar mamlakat axvolini og'irlashtirdi.

Shuningdek banditizm, separatizm xarakatlari kuchaydi. «Rubbatino» paroxodchilik kompaniyasi Qizil Dengiz qirg'oqlarida Assam mustamlakasiga asos soldilar. 1891 yildan bu mustamlaka Eritreya nomi bilan ataldi. 1870 yillarda liberallar va mo'tadil demokratlarning taraqqiyparvar firqalari davlat boshqaruvining konstitutsion-monarxiya shaklini tan olib, «So'llar» oqimini tashkil etdilar. Ular o'z dasturlarida: saylov, soliq, boshqaruv, ma'muriy soxalarda isloxotlar o'tkazish, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, maorif, sog'liqni saqlash soxalarini takomillashtirish zarur degan g'oyalarni ilgari surdilar. «O'nglar» va «So'llar» kurashi 1876 yilgi «Parlament inqilobi» da o'nglar mag'lubiyati bilan nixoyasiga etdi.

«So'llar» xukumati dunyoviy davlat maktablarini, fuqarolik institutlarini vujudga keltirildi. 1880 yilda dexqonlarga solinadigan «bug'doy yanchish» solig'i bekor qilindi. 1882 yilda Yangi saylovlar to'g'risida qonun qabul qilindi. Saylovchilarga mulk senzi kamaytirildi. Fritrederchilik siyosatidan, protektsionizm siyosatiga o'tildi. Xukumat mashinasozlik, shakar, metallurgiya, tikuvchilik

sanoatiga xomiylik qildi, chet el qishloq xo'jalik maxsulotlariga boj soliqlari ko'paytirildi.

1882 yilda Germaniya, Avstriya-Vengriya bilan shartnoma (Uchlar ittifoqi) tuzuldi. Italiya Shimoliy-Sharqiy Afrikada mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi. 1885 yilda Massua egallandi, Somali va Efiopiyada mustamlakachilik urushlari olib borildi. «So'llar» siyosati mamlakatni industrilashtirib, ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Shaxar va qishloq axolisi bu siyosatdan qat'iy norozi bo'ldilar. Respublikachilar, anarxiyachilar, radikallar, sotsialistlar o'rtasida kurash kuchaydi.

F.Krispini avtoritar va imperiyacha faoliyati, (1887-1891,1893-1896 y)

1887 yilda Italiyada iqtisodiy krizislar, siyosiy krizislar yuz berdi. Italiya xarbiy qo'shinlari Efiopiyada mag'lubiyatga uchradi. Mamlakatda norozilik kuchaydi. F.Krispi asli Sitsiliyalik bo'lib, Risorjimentoni ko'zga ko'ringan arbobi, J. Garibaldini yaqin do'sti edi. Krispi mamlakatdagi vaziyatdan foydalanib, xukumatni tanqid qildi, davlatni mustaxkamlash, kuchli armiya, kuchli xarbiy dengiz floti tuzish, Italiyani O'rta yer dengizi va Shimoliy Afrika imperiyasiga aylantirish, barcha muammolarni xal qilishga va'da berdi. Barcha tabaqalar uni qo'llab quvvatladilar.

F.Krispi xukumatni boshqaruv, Ichki Ishlar Vaziri va Tashqi Ishlar Vaziri lavozimlarini o'zi egalladi. Krispi parlament ish soatini qisqartirdi, Yangi jinoyat kodeksi, jamoat xavfsizligi qonunini (stachkalar ta'qiqlandi), senzurani joriy qilib, fuqaro erkinliklarini chekladi. 1891-1893 yillarda mamlakatdagi keskin vaziyat tufayli Krispi iste'foga chiqdi. Xokimiyatni D. Djolitti (Krispini dushmani, taraqqiyparvar liberalizm tarfdori) egalladi.

Ammo «Italiya Panamasi»dan keyin u xam iste'foga chiqdi. 1893 yildan xokimiyatni yana Krispi boshqardi. U xalq xarakatlarini bostirishni birinchi o'ringa qo'ydi. 1892-1894 yillarda Sitsiliyada namoyishlar to'lqini boshlandi. Sitsiliya

«fashi» lari (Mexnatkashlar Ittifoqi) 1893 yilda Sitsiliya Sotsialistik Federatsiyasiga birlashdilar. 1892 yilda «Italiya Mexnatkashlari Sotsialistik Partiyasi», (1893 yildan ISP), 1895 yilda Milanda Italiya Respublikachilar Partiyasi tashkil topdi.

Krispi Sitsiliyadagi namoyishlarni bostirdi, Sotsialistik partiya faoliyatini va «Sinfiy kurash» gazetasini ta`qiqqladi, demokrat va sotsialistlarni sudga berdi. 1895 yilda Krispi safdoshlari bilan parlamentda g'alaba qozondi. Yevropa va Bolqon ishlarida Italiya Germaniya ittifoqchisi bo'ldi. Italiya-Fransiya munosabatlari (Afrika, Yaqin Sharq, Bolqon masalasida) keskinlashdi. Shuningdek Angliya bilan xam Italiya munosabatlari keskinlashdi. Italiya bilan Efiopiya o'rtasida 1889 yilda Uchchal' sulxi tuzuldi. 1895-1896 yillarda Italiya Efiopiyaga qarshi keng qamrovli mustamlakachilik yurishlarini boshladi. Sotsialist Kosta parlamentda «Afrikadagi urushga bir tiyin xam, bitta soldat xam yo'q» deb aytdi.

1896 yilning 1 martida Italiya korpusi (17 ming), shox Menelik armiyasi (Efiopiya 100.000) tomonidan yanchib tashlandi. Mamlakat larzaga keldi. Krispi iste`foga chiqdi. 1902 yilda u vafot etdi. Krispidan so'ng xokimiyat o'nglar vakili markiz Di Rudini qo'liga o'tdi. U Efiopiya bilan sulx tuzdi, Fransiya, Rossiya davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga intildi. 1897-1898 yillarda qimmatchilik, qaxatchilik tufayli Italiyada ocharchilik qo'zg'olonlari boshlandi. 1898 yilning 3-8 may kunlari Milanda tinch namoyishchilar xarbiylar tomonidan o'qqa tutildi, Sotsialistik partiya, turli demokratik tashkilotlar yopildi.

Barcha soxalarda (xatto cherkovda xam) repressiyalar boshlandi. 1900 yilning 29 iyulida anarxiyachilar qirol Umberto birinchini o'ldirdilar. Yangi qirol Viktor Emmanuel III oppozitsiyaga yon berdi, Risorjimento yutuqlarini saqlab qoldi, xukumatni «Konstitutsion oppozitsiya» tarafdorlari Dzanardelli va Jolittilarga ishonib toshirdi. Krispi boshlab bergan «Qonli o'n yillik» barxam topdi.

«Taraqqiyparvar liberalizm» dasturi va «Sog'lom demokratiya» faoliyati.

1901 yilning fevralida Dzanardelli va Djolitti xukumati tuzuldi. Avtoritar va repressiya usulidan, liberal demokratik isloxlarni rivojlantirish siyosatiga o'tildi. Pemont burjuaziyasi vakili Djolitti 1882 yildan parlament deputati, (1928 yilgacha) taniqli va mashhur siyosatchi edi. U konstitutsion monarxiya tarafdori bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy qonunshunoslikka katta e'tibor berdi. Repressiyalar bekor qilindi, matbuot, namoyishlar erkinligi, iqtisodiy, siyosiy, diniy tashkilotlar faoliyati tiklandi. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, avtomobilsozlik sanoati tiklandi, mamlakat xo'jaligida trestlar, konsortsiumlar tashkil topdi. Italiya agrar mamlakatdan, agrar industrial mamlakatga aylandi. 1906 yilda «Umumiy Mexnat Konfederatsiyasi», 1901 yilda «Yerda ishlovchi Mexnatkashlarning Milliy Federatsiyasi» tashkil topdi.

Djolitti radikallar, industrial demokratlar, ishbilarmon doiralar bilan mustaxkam ittifoqni vujudga keltirildi, ammo konservatorlar, sotsialistlar va katoliklar bilan xukumat munosabatlari murakkablashdi, o'zaro qarama-qarshiliklar kuchayib bordi. Demokratlar esa 1904 yilgi, 1909 yilgi, 1913 yillardagi saylovlarda ovoz berish natijalari qalbaqilashtirilgan deb ta'kidlab, tayziq o'tkazishda, va'dalarni bajarmaslikda Djolittini aybladilar. Oqibatda liberallar xokimiyati kuchsizlandi. 1905 yil, 1906 yil va 1909 yillarda papalik taxtiga chiqqan Piy X katoliklarni siyosiy xayotdagi faoliyatini ta'qiqlash qonunini bekor qildi. Oqibatda «Oq kasaba uyushmalari», o'zaro yordam kassalari, kredit kassalari, saylov, yoshlar, ayollar ittifoqlari kabi katolik tashkilotlari vujudga keldi.

Shunga qaramay Djolitti xokimiyati boshqardi. 1906-1909 yillarda temir yo'llar milliylashtirildi. Temir yo'lchilarga, davlat xizmatchilariga namoyishlar o'tkazish ta'qiqlandi. 1908 yilgi Messiniyadagi yer qimirlashi mamlakat axvolini murakkablashtirdi.

XX asr boshida Italiyaning tashqi siyosati.

XX asr boshida Djolitti Krispini Buyuk Italiya davlatchilik g'oyalarini davom ettirdi. U «Mustaxkam ittifoqlarni saqlash, boshqa mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini vujudga keltirish Italiya tashqi siyosatining asosidir» degan g'oyani ilgari surdi. «Tashqi siyosat milliy xarakter kasb etishi kerak» iborasini Djolitti ko'p takrorlar edi. Italiya diplomatiyasi mustamlakachilik kartasini muvaffaqiyatli o'ynab, Uchlar Ittifoqi bilan aloqalarni saqlab qoldi, Italiyani neytrallashtirish istagidagi Antanta mamlakatlari bilan yaqinlashishga muvaffaq bo'ldi. 1902 yilda Uchlar Ittifoqi bilan tuzilgan shartnoma o'zgarishsiz yana o'zaytirildi.

Italiya xukmron doiralari Uchlar Ittifoqidan mudofaa sifatida, Antanta ittifoqidan mustamlakalarni egallash siyosatida foydalanishga intildilar. 1900-1902 yillarda Fransiya bilan betaraflik va Afrika mustamlakalarida o'zaro xamkorlik qilish shartnomasi tuzuldi. 1909 yilda Rossiya podshosi Nikolay II ning Italiyaga tashrifi chog'ida, Bolqonda xamkorlikda xarakat qilish shartnomasi tuzuldi. 1908 yilda Yevropa mamlakatlarini Turkiyaga qarshi yurishida Italiya ishtirok etdi. Italiya diplomatlari xalqaro maydonda Bolqon, Kichik Osiyo, Afrika mustamlakalari masalasida Italiyani xuquqlari xaqida jar sola boshladilar.

Ular dunyoni qayta taqsimlashdan kech qolishdan qo'rqa boshladilar. 1910 yilda «Milliy assotsiatsiya» (mustamlakachilar, buyuk davlatchilar, mustamlakalarni bosib olish tarafdorlari kirganlar) tashkil topdi. Bu tashkilot «Idea natsionale» (Milliy g'oya) gazetasini nashr etib, «Buyuk Italiya» g'oyalarini ilgari surdi. Bu assotsiatsiyaga: intelligentsiya vakillari, yosh liberallar, iqtisodchilar va boshqa tabaqalar kirdilar. Assotsiatsiya Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikani buysundirishga da'vat etdi. 1911 yilning 29 sentyabrida Italiya Turkiyaga urush e'lon qildi. Italiyaning «Yengil xarbiy sayr» xarbiy rejasi amalga oshmadi. Italiya xarbiylari «Yonayotgan yer» jazolash taktikalaridan keng foydalandilar. Italiya Liviyani buysundirdi, Rodos orolini, Dodokaneziya arxipelagini bosib oldi.

Uchlar ittifoqi va Antanta ittifoqi mamlakatlari bu voqealardan tashvishga tushdilar. Italiyani Afrikadagi agressiyasi mustamlakalardagi milliy ozodlik kurashlarining kuchayishiga kuchli turtki bo'ldi. Yevropa davlatlarining tayziqi ostida Italiya Turkiya bilan tezlik bilan 1912 yilning 18 oktyabrida Lozannada tinchlik sulxini imzoladi. Tripolitaniya, Kirenaika Italiya tasarrufiga o'tdi. Italiya Turkiyaga 2 mln. lira miqdorida kompensatsiya to'ladi. Shimoliy Afrika mustamlakalaridan voz kechganligi uchun 1912 yilda Italiya Uchlar ittifoqi bilan shartnomani o'zaytirdi, bu esa jaxon urushini boshlanishini tezlashtirdi.

Xulosa

Turkiya va Liviyaga mustamlakachilik yurishlarini Italiyada ko'plab xalq ommasi qo'llab quvvatladi. Djolitti bir qator Yangi qonunlar qabul qildi. Saylovchilar soni o'sib, 25% axoli saylash xuquqiga ega bo'ldi. Parlament saylovlarida 30 yoshdan yuqori barcha axoli, shuningdek 21 yoshga to'lgan, ta'lim olgan, eng past soliq to'lay oladigan yoki xarbiy xizmatga borgan fuqarolar xam bu xuquqga ega bo'ldilar. Ammo urush va isloxotlar keskinlik, qarama-qarshilikni kuchayishiga olib keldi. Uchlar ittifoqiga a'zo bo'lgach, Italiya Yevropa va dunyo siyosatida faol ishtirok eta boshladi. Mustamlakachilik siyosati kuchaytirilib, Yangi xududlar egallandi. Italiyada kapitalistik munosabatlar yanada mustaxkamlanib, iqtisodiyot asta sekinlik bilan rivojlana boshladi. Xarbiy xarajatlar yildan-yilga o'sib bordi va Italiya jaxon urushiga zo'r berib tayyorlana boshladi. Mamlakatdagi mavjud muammolarni xal qilishda Italiya xukmron doiralari urushlarga aloxida e'tibor berayotgan edilar.

Tayanch so'z va iboralar:

Avtoritar, liberalizm, demoktariya, imperiya, statut, senat, separatizm, mulk tsenzi, proteksionizm, fritrederchilik, konstitutsion monarxiya, risorjimento, repressiya, paterkalizm, intelligentsiya.

Nazorat savollari:

1. Italiyada davlat va cherkov munosabatlari qanday axvolda edi?
2. Mo'tadil liberallar xukumati qanday ichki siyosat olib boradi?
3. Mustamlakachilik siyosati qaysi yillardan boshlandi va dastlab qaysi davlatlar Italiya mustamlakasiga aylantirildi?
4. Qaysi xukumat «Taraqqiyparvar liberalizm» dasturini amalga oshiradi?
5. Italiya-Turkiya urushi natijalari xaqida gapirib bering?
6. Italiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari xaqida gapirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. «Istoriya Italii». v 3 t. Moskva. 1970 g.
3. Kandelorov. J: «Istoriya sovremennoy Italii». Moskva. 1975 g.
4. Serov.O.V: «Ot troystvennogo soyuza k Antante: Ital'yanskoe vneshnyaya politika i diplomatiya v kontse XIX veka». Moskva. 1983 g.
5. Mizano. K.F: «Ital'yanskoe rabochee dvijenie na rubeje XIX i XX vv». Moskva. 1976 g.
6. Kin . S.I: «Italiya na rubeje vekov iz istorii obshchestvenno-politicheskoy misli». Moskva. 1980 god.
7. Yakimovich. Z.P: «Vneshnyaya politika Italii» v 1908-1914 g. Moskva. 1973 g.

Mavzu: «Germaniya 1871-1918 yillarda»

Reja

Kirish

1. XIX asr oxirida Germaniya imperiyasi: davlat tuzumi va iqtisodiyoti
2. Bismark xukumatining tashqi siyosati
3. XX asr boshlarida Germaniyaning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi
4. Germaniyaning jaxon siyosati

Xulosa

Kirish

1871 yilda uzoq davom etgan Germaniyaning birlashishi jarayoni tugallandi. 1871 yilning 18 yanvarida Versal' saroyining ko'zgu zalida Germaniya imperiyasi tashkil toganligi e'lon qilindi. Prussiya qiroli Vilgel'm Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. YUqoridan birlashtirilgan Germaniya 22 ta monarxiya ittifoqidan va 3 ta erkin shaxardan tashkil topgan edi. Germaniya birligi 1871 yilning aprelida reyxstagda qabul qilingan konstitutsiya bilan mustaxkamlandi. Bu konstitutsiya Prussiyani Germaniya imperiyasidagi gegemonligini mustaxkamladi. Faqatgina Prussiya qiroli mamlakat imperatori(kayzer) bo'lishi mumkin edi. U oliy qonun chiqaruvchi xukumat boshlig'i bo'lib, ijroiya xokimiyat boshlig'i-imperiya kantslerini tayinlash, xarbiy kuchlar qo'mondoni, urush va tinchlik masalalarini, xalqaro aloqalarni xal etish xuquqiga ega edi.

Mamlakatning oliy vakillik tashkiloti ittifoq kengashi (bundesrat) va reyxstag edi. Reyxstag 3 yilga, 1878 yildan 5 yilga saylanar edi. Xarbiylardan tashqari 25 yoshga to'lgan erkaklar saylov xuquqiga ega edilar. Reyxstag qarorini qirol va bundesrat tasdiqlashi kerak edi. Bundesrat barcha nemis monarxiyalari vakillaridan tashkil topgan bo'lib, imperiya kantsleri raislik qilgan. 1871 yil konstitutsiyasi mamlakatni xar tomonlama oyoqqa turishiga yordam berdi. 1870 yillarda Germaniyada qator isloxotlar o'tkazildi. 1874 yildan oltin marka yagona pul birligi bo'ldi. Reyxbank tashkil topdi. Sud ishlari birlashtirilib, Oliy sud-imperiya sudi vujudga keldi.

XIX asr oxirida Germaniya imperiyasi: davlat tuzumi va iqtisodiyoti.

Mamlakatni birlashuvi tufayli yagona ichki bozor vujudga keldi. Sanoat to'ntarishi yakunlandi. Savdo, sanoat rivojlandi. Yangi ximiya, elektrotexnika sanoati vujudga keldi, temir yo'llar qurildi. 1870 yilda Germaniya sanoati 4-o'rinda bo'lsa, 1890 yilga kelib, 2-o'ringa chiqdi. Temir, po'lat, ko'mir, cho'yan ishlab chiqarish rivojlandi. Fritrederchilik siyosatidan agrar va sanoat proteksionizm

siyosatiga o'tildi. Ishlab-chiqarish va kapitalni kontsentratsiyalashuvi vujudga kelib, kartellar vujudga keldi. Masalan: 1886 yilda Reyn-Vestfaliya cho'yan qo'yish karteli, 1887 yilda Prokat zavodlari Germaniya ittifoqi vujudga keldi. 1896 yilda 250 ta kartel vujudga keldi. Darmshtadt bank, Berlin savdo birodarligi, Nemis banki va boshqa yirik banklar tashkil topdi. Kirdorf, Shtumm, Krupp kabi savdo kontsernlari siyosiy ta'siri kuchaydi. Mexnat unumdorligi oshdi, proletariat 10,5 mln. kishiga etdi.

Qishloq xo'jaligida xam maxsulot ishlab chiqarish o'sdi. Pomeshchik xo'jaligi sekin burjua xo'jaligiga o'sib bordi. Bu Pruscha yo'l deb ataldi. 3 mln. dan ortiq dexqon xo'jaliklari mavjud edi. Yunker (yosh xo'jayin) er egaligi o'sdi. Nemis qishlog'ida krepostnoylikni ko'p ko'rinishlari saqlanib qoldi, yunkerlar ekspluatatsiyaning yarim feodal usullaridan foydalandilar. Bu davrda Yirik dexqonlar grossbauerlar (katta dexqon) tabaqalarini ta'siri kuchaydi. Chet mamlakatlardan keltiriladigan qishloq xo'jalik maxsulotlariga yuqori bojlar joriy qilindi.

Germaniyaning tashqi iqtisodiy aloqalari juda rivojlandi. Oqibatda XIX asr oxirida Germaniya jaxondagi eng qudratli mamlakatlardan biriga aylandi. Germaniya imperiyasining birinchi kantsleri Otto fon Bismark Prussiya landtagi va imperiya reyxstagi manfaatlarini uyg'unlashtirishga muvaffaq bo'ldi. U oppozitsiyani yoqtirmas, unga qarshi jon-jaxdi bilan kurashgan. Bismark siyosiy manyovrlar va diplomatik usullardan unumli foydalanib, turli partiyalarni bo'lib yuborar, qarama-qarshi qilib qo'yar, mag'lub etardi. Germaniyada bir qator partiyalar vujudga keldi Konservativ partiya barcha german boshqaruv maxkamalarini o'ziga bo'ysindirgan edi. 1866 yilda bu partiyadan Erkin konservatorlar yoki Imperiya partiyasi ajralib chiqib, Bismarkni imperiyacha siyosatini qo'llab quvvatlagan. 1867 yilda Milliy Liberal Partiya vujudga keldi, bu partiya xam Bismarkni tayanchi edi. Ular xam sanoat burjuaziyasi manfaatlarini

ximoya qilar edi. Erkinfikrlovchilar partiyasi o'rta va mayda burjuaziya va intelligentsiya manfaatlarini ximoya qilar edi.

Prussiya gegemonligiga qarshi kurash uchun (Prussiya-protestant) katolik cherkovi, 1870-1871 yillar Markaz partiyasini tashkil qildi. Mexnatkashlar, ko'plab tabaqalar Markazni qo'lladilar. Bismark o'z tarafdorlari bilan kul'turkampf (Madaniyat uchun kurash) kurashini boshladi. Katolik cherkoviga qarshi qator farmonlar chiqarildi. Ruxoniylarga siyosat bilan shug'ullanmaslik, ieziutlar ordenini mamlakatdan quvish, barcha diniy lavozimlarga tayinlashda davlat nazorati o'rnatildi. Fuqaro nikoxi joriy qilindi. Qarshi chiqqan ruxoniylar mamlakatdan xaydab chikarildi. Ammo 1878-1879 yillarda Bismark yon berishga majbur bo'ldi.

1870 yilda Germaniyada ish tashlashlar, noroziliklar kuchaydi. Kasaba uyushmalari, sotsialistik xarakat kuchaydi. Germaniyadagi sotsial demokratik ishchi partiyasi va umumgerman ishchi ittifoqi 1875 yilda birlashib Germaniya Sotsialistik Ishchi Partiyasi deb ataldi. 1890 yildan Germaniya Sotsial Demokratik Partiyasi nomini oldi. Bu partiyani xalq orasida obro'si tez o'sdi. 1878 yilning mayi va iyunida imperator Vil'gelmgga ikki marta suiqasd uyushtirildi. Bismark bundan foydalanib 1878 yilning 19 oktyabrida Sotsial-demokratlarning jamiyat uchun xavfli chiqishlariga qarshi qonunni reyxstagda tasdiqlatdi. Bu qonun 1890 yilgacha amal qildi. Barcha jamiyatlar, ularning a'zolari qatag'on qilindi. Gazeta va jurnallar taqiqlandi. Ammo V. Libinext va A. Bebel' sotsialistik partiyaga raxbarlikni davom ettirdilar. Yashirin tashkilotlar, tipografiya tashkil qilindi. Londonda Sotsial-demokrat gazetasi chop etildi. 80-yillarda a'zolar soni 120.000 ga etdi, namoyishlar, ish tashlashlar avj oldi. Bismarkni tinchlantirish rejasi amalga oshmadi.

Bismark xukumatining tashqi siyosati.

Bismarkni tashqi siyosati Yevropada Germaniya imperiyasini mavqeini kuchaytirishni ko'zlardi. 1873 yilda Rossiya, Avstriya-Vengriya bilan maxfiy shartnomalar tuzilib Uch imperator ittifoqi vujudga keldi. 1879 yilda Bismark Avstro-Vengriya bilan ittifoqchilik shartnomasini tuzdi. 1882 yilda Uchlar ittifoqi vujudga keldi. 1887 yilda Rus-German maxfiy shartnomasi tuzildi va Sug'urta shartnomasi nomini oldi. XIX arsning 80 yillaridan Germaniya mustamlakalarni bosib olishga kirishdi. 1882 yilda «Germaniya mustamlakachilik ittifoqi tashkil etildi. Buyuk davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshilikdan foydalanib Bismark ikki yilda german mustamlakachiligi asosini yaratdi. 1884 yilda janubiy-g'arbiy Afrika qirg'og'i (Bremenlik savdogar Lyuderits) imperiya ximoyasiga o'tganligi e'lon qilindi. Shu yil Tunisdagi Germaniya konsuli Naxtigol' Togo va Kamerun (Gamburglik kemasoz Verman) Germaniya protektorati deb e'lon qildi. Shu yili Karl Piters aldov yuli bilan Sharqiy Afrika erlarini egallab German mustamlakachilik jamiyatini tuzdi. 1885 yilda bu jamiyatga Imperiya ximoya yorlig'i berildi. Ammo Bismark Yevropada mustaxkamlanishga, Frantsiya va Rossiyani buysindirishga intilar edi.

1888 yilda imperator Vilgel'm I vafot etdi. 100 kundan keyin Fridrix III o'limidan so'ng, taxtga 29 yoshli Vil'gelm II chiqadi. U Bismarkni tashqi siyosatda cheklanganlikda ayblaydi, 1890 yilning martida Bismark istefoga chiqadi. Vilgel'm II shuxratparast, nomukammal inson edi, u Bismark bilan tenglasha olmas edi. Vilgel'm II o'zining demagogik Xristian sotsializm siyosatiga kat'iy ishonar edi. Frantsiya-Rossiya ittifoqini yaqinlashuvi, Bismarkni tashqi siyosatdagi mag'lubiyati edi. Pruss generali L. Kaprivi 1894 yilgacha kantsler lavozimini egallab Vilgel'm II siyosatini olib bordi. U yakshanbani dam olish kuni, ayollar uchun 11 soatlik ish kuni, 13 yoshgacha bolalar mexnatini taqiqlash qonunlari bilan cheklandi. Rossiya bilan shartnomalar tuzilib, boj to'lovlari kamaytirildi. Oqibatda agrarlar Kaprivi siyosatiga qarshi chiqdilar. Natijada Kayzer 1894 yilda o'zining

tog'asi katta er egasi Gogenloe-Shillingsfyurstani kantsler etib tayinlashga majbur bo'ldi. Gogenloe aqlli kishi bo'lib, uning xukumati sanoatchilar va agrarlarni birlashtirish siyosatini olib bordi, sotsialistik xarakterga qarshi repressiyalar kuchaytirildi.

1891 yilda erfurt shaxrida GSPD s'ezdi bo'lib o'tdi, sotsialistik jamiyat qurish asosiy maqsadga aylandi. Armiya o'rniga xalq militsiyasi tuzish, 8 soatlik ish kuni, daromad solig'i tashkil etish, 20 yoshdan umumiy saylov xuquqi, xokimiyatni ishchilar qo'liga berish talablari qo'yildi. 1892 yilda Germaniya kasaba uyushmalari bosh komissiyasi tashkil topdi. GSPD 1898 yilda Reyxstagda 56 o'rin olishga erishdi. Bernshteyn kapitalistik jamiyatini o'sib sotsialistik jamiyatga o'tish (evolyutsiya) g'oyasini ilgari surdi.

1891 yilda o'ta agressiv va reaksion tabaqalar Pangerman ittifoqini tuzdilar, ular Germaniya chet el ekspansiyasini ilgari surdilar. 1900 yilda imperiya kantsleri bo'lgan Berngard fon Byulov bu g'oyaning yorqin namoyondasi edi. U Biz o'zimizga quyosh nuri tushadigan joyni talab qilamiz so'zlari bilan «dunyo siyosati» kursini boshlab berdi. Germaniya iqtisodiy yo'l bilan siyosiy, xarbiy ekspansiyani qo'shib olib bordi. Bu ishda xarbiylar katta rol' uynadilar. General fon Shliffen Rossiya va Frantsiyaga qarshi ikki frontda urush olib borish rejasini ishlab chiqdi. 1898 yilda 20 yillik katta dengiz dasturi reyxstagda qabul qilindi. Germaniya asosiy e'tiborni Xitoyga qaratdi. 1897 yilda Germaniya Tszyao-chjouga xarbiy dengiz desanti tushirdi. 1898 yilda Xitoy Tszyao-Chjouni 99 yilga Germaniyaga ijaraga berdi. Buyuk davlatlarning Xitoyga agressiyasida Germaniya faol qatnashdi. 1885 yilda Germaniya Marshall orollarini egalladi. 1899 yilda Ispaniyadan Karolin, Marian, Palau orollarini 17 mln markaga sotib oldi.

1888 yilda Nemis banki Turkiyadan Anatoliya temir yo'llarini qurish uchun birinchi kontsessiyasini oldi. 1898 yilda Vil'gel'm II Falastin va Damashqda bo'lib, 300 mln. musulmonning do'sti ekanligini e'lon qildi. U Sultondan Berlinni Bosfor,

Kichik Osiyo, Fors ko'rfazi bilan bog'lovchi Bog'dod temir yo'lini qurishga nemislarga kontsessiya berishni so'radi. Bu shartnoma 1903 yilda imzolandi.

XX asr boshlarida Germaniyaning sotsial iqtisodiy rivojlanishi

1900-1903 yillardagi iqtisodiy krizis, sanoat va bank kapitalini yanada kontsentratsiyalashuviga olib keldi. Germaniya ishlab chiqarishda AQSHdan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Ayniqsa Germaniya og'ir industriyasi: tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik sanoati rivojlanib, aralash kontsernlar vujudga keldi. Kurdorf, Krupp, Stinnes, Tissen industriya ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar. 1904 yilda Po'lat tresti 1905 yilda Yuqori Sileziya Po'lat eritish Zavodlari Ittifoqlari tashkil topdi. 6 ta ximiya kartellari 2 ta yirik monopol guruxlarga birlashdi. elektrotexnika sanoatida 2 ta kontsern Simens Gal'ske va Simmens Shukkert va Umumiy elektr jamiyati hukmronlik qildi. 1 jaxon urushi arafasida 6 ta yirik bank: Nemis banki, Xisob jamiyati, Drezden banki, Darmshtadt banki, Shafgauzen bank ittifoqi, Berlin savdo jamiyati vujudga keldi. XX asr boshida finans oligarxiyasini monarxiya va yunkerlik bilan ittifoqining marksistlar Yunker burjua imperializmi deb atagan edilar. Yunkerlar administratsiya, armiya, diplomatiya ustidan nazorat o'rnatgan edilar.

XX asr boshlarida Germaniyada siyosiy vaziyat hukmron doiralarning sotsial-demokratlarga qarshi german monopolistik kapitali va yunkerlarni birlashtirish siyosatini, dunyo siyosatini amalga oshirishga intilish bilan xarakterlanadi. Nemis konservativ partiyasi Kayzerni shaxsiy xokimiyatini kuchaytirish, demokratik erkinliklarni tugatish yo'lidan borib, davlat apparatida muxim o'rin egalladi. Markaz katoliklar partiyasi xristian sotsial reformalarni, polyaklarni, elzasliklarni milliy qiziqishlarini ximoya qilish, ishchilar qonunlarini rivojlantirish talablari bilan chiqdilar. Ammo xukumat siyosatini yoqlab, sotsial-demokratlarga qarshi turdilar. Milliy liberal partiya, Pangerman ittifoqi, militaristik, millatchi tashkilotlar bilan yaqinlashish yo'lidan bordi. Ular 1904 yilda Sotsial-demokratiyaga qarshi kurashda

Imperiya ittifoqini tuzdilar. «Erkin fikrlovchilar xalq partiyasi», «Erkinfikrlovchilar birlashmasi» va «Nemis xalq partiyasi» liberal reformalar o'tkazish kerak degan g'oyani ilgari surdilar. Bu 3 ta partiya 1910 yilda Taraqqiyot xalq partiyasiga birlashdilar. Ammo bu partiyalar kuchli ta'sirga ega bo'lmadi.

Sotsial-demokratlarga qarshi kurashish uchun imperiya kantsleri Byulov (1900-1909yillar) barcha xarakatlarni birlashtirdi. Oqibatda «Byulov konservativ-liberal bloki» tashkil topib, milliy g'oyalar va islohotlar o'tkazish va'dasi bilan turli partiyalarni birlashtirib, 1907 yilda sotsial-demokratlarni mag'lubiyatga uchratdi. Bu blok xukumat tayanchiga aylandi. Ammo konservatorlar va liberallar o'rtasidagi kelishmovchiliklar tufayli bu blok tarqalib ketadi. Kantsler Byulov o'rniga Betman-Gol'veg tayinlandi. U tipik pruss byurokrati bo'lib, «er chuvalchangi» deb atalgan. Yangi xukumatni soliq isloxti, saylovni demokratlashtirishga qarshi chiqishi ketma-ket namoyishlarni boshlab berdi. Ish tashlashlar, namoyishlar avj oldi. 1912 yilgi Ruur xavzasidagi konchilar ish tashlashida 200 ming odam qatnashdi.

Tashqi va ichki muammolarni qilishda Germaniyada 2 gurux vujudga keldi:

1. konservatorlar, milliy liberallar, katta er egalari-pangerman Prussiya guruxi. Ular konstitutsion erkinliklarni tugatish, urushga tayyorlanish, kayzer xokimiyatini kuchaytirish, demokratik xarakatlarni bostirish g'oyasini ilgari surdilar.

2. Liberal-monarxiyachi, Markaz, milliy liberallar, taraqqiyotparvarlar esa imperiyani liberal-demokratik islohotlar yuli bilan mustaxkamlash va tinch ekspansiya siyosatini qo'llab quvvatladilar.

Germaniyaning “jaxon siyosati”.

Kuch siyosatini birinchi g'alabalari German xukmdor doiralarini intilishlarini yanada kuchaytirdi. 1899 yilda reyxstagda Byulov Kuchsiz, kuchli armiya va flotsiz Germaniya muvaffaqiyatga erisha olmaydi deb e'lon qildi. Jaxon siyosatida ikki oqim vujudga keldi. 1. Yunkerlar va og'ir sanoatchilar, Pangerman ittifoqi. Ular boshqa xududlarni kuch bilan buysundirish g'oyasini olg'a surdilar. 2. Ximiya,

elektrotexnika, tayyor buyumlar sanoatchilari, ekspansiyasini Germaniya boshchiligidagi o'rta Yevropa Iqtisodiy Ittifoqi g'oyasini ilgari surdilar. Germaniya imperializmi Tinch suqulib kirish usulidan xam keng foydalandi. 1899-1902 yillardagi ingliz bur urushlarida Germaniya burlar tarafini olib, Rossiya va Frantsiyani Angliyaga qarshi demarshga undadi. 1905 yilning 31 martida Vil'gel'm II Marokashning Tanjer portida Germaniya Marokash masalasida boshqa mamlakatlar bilan teng xuquqliligini e'lon qildi. Oqibatda birinchi Marokash krizisi yuz berib, Germaniya diplomatik mag'lubiyatga uchradi.

1908-1909 yilgi Bosniya krizisida Germaniya Avstro-Vengriya tarafini olib, Rossiya bilan munosabatlari keskinlashdi. Avstro Vengriya Bosniya va Gertsogovinani anneksiya qildi va jaxon urushi tomon muxim qadam tashlandi. 1909 yilda Germaniya va Frantsiya Marokashni iqtisodiy ezishga teng xuquqli shartnomasini tuzishdi. 1911 yilda Frantsiya qo'shinlari Marokash poytaxti Fessni egallagach, Germaniya Agadir portiga xarbiy kemalarini yubordi. 2-Marokash krizisi qurolli to'qnashuv xavfini vujudga keltirdi. Frantsiya-Germaniya, Angliya-Germaniya munosabatlari keskinlashdi. Muzokaralardan so'ng Germaniya Marokashni, Frantsiya protektorati ekanligini tan oldi. Frantsuz Kongosidan bir qism er Germaniyaga berildi. Bu krizis Germaniyani Xalqaro maydonda izolyatsiyalanishini kuchaytirdi.

Bog'dod temir yo'lini qurilishi Angliya, Frantsiya, Rossiya tomonidan qat'iy qarshilikka uchradi. Yaqin Sharqda bu 4 ta davlatning strategik, siyosiy, iqtisodiy maqsadlari to'qnash keldi. Turk sultoniga Nemis quollarining kirib kelishi, Usmoniylar imperiyasini avsto-german blokiga yaqinlashtirdi. Germaniyaning 1914 yil iyuldagi Angliya blok muzokaralari xam Angliyani neytral davlatga aylantirishga yordam bermadi.

Xulosa

Angliya - Germaniya raqobati ayniqsa qudratli german xarbiy dengiz flotini bunyod etilishi bilan keskinlashdi. XIX asr oxirida Germaniya xarbiy floti mudofaa floti bo'lib, Yevropada 5-o'rinda turgan bo'lsa, 1898 yildagi birinchi, 1900 yildagi 2-dengiz qonuni (admiral Terpits) Germaniyada dengiz qurolli poygasini shakllantirdi. Germaniya kelajagi dengizda shiori ostida flot qurilishi olib borildi. Yuqori og'ir korabllar qurilib qudratli artilleriya bilan qurollantirildi. Germaniya Angliya ustunligini engdi. 1912 yilda reyxstag qo'shimcha qonuniga ko'ra Germaniya xarbiy dengiz floti avvalgiga nisbatan 60%ga ko'paytirildi. Angliya bunga javoban 1 ta nemis kemasiga 2 ta ingliz kemasi siyosatini olib bordi.

Urush arafasida Germaniya xarbiy sanoati Antanta potentsialidan qolishmas edi. Agar Angliya Germaniyani Rossiya va Frantsiya bilan bo'ladigan urushida betaraf tursa, dengiz qurollarini cheklashini e'lon qildi. Ammo Angliya bunga yo'l qo'yolmas edi. 1911 yilda Italiya-Turkiya urushida Germaniyani Italiyaga yordam bermaganligi Italiyani uchlar ittifoqidan uzoqlashtirdi. Germaniyani xalqaro axvolini og'irlashuvi, 1-2-Bolqon urushidagi mag'lubiyatlari Antantaga qarshi urushni tezlashtirdi.

Tayanch so'z va iboralar

Imperiya, kantsler, kayzer, bundesrat, Reyxstag, kartel, yunker, grossbauer, landtag, demogog, repressiya, militaristik, konservativ, liberal.

Nazorat savollari

1. Germaniya imperatori qanday xuquqlarga ega edi?
2. Germaniyani tezlik bilan yuksalish sabablari nimada?
3. Otto fon Bismark tashqi siyosatini o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflab bering?
4. Germaniyaning qaysi sanoat soxalari yuksaldi?
5. Germaniyaning kelajagi dengizda shiorini sharxlab bering.
6. Nima uchun Italiya-Turkiya (1911y) urushida Germaniya Italiyagayordam bermadi?

7. Bog'dod temir yo'lini qanday axamiyati bor?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov. I. A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. Sharq. 1998 yil.
2. Yurovskiy.E.E, Krivoguz.I.M: «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» 1,2-period. Moskva. «Visshaya shkola». 1998 god.
- 3.Burjuaznie revolyutsii XVII-XIX vekov v sovremennoy zarubejnoj istoriografii.M, Visshaya shkola ,1986.
4. Yurovskiy.E.E. «Sbornik dokumentov po istorii novogo vremeni stran Yevropi i Ameriki (1640-1870)». Moskva. «Visshaya shkola». 1990 god.
- 5.Istoriya diplomatii v v 5-ti tomax.M,Nauka 1959-1960
- 6.Galkin I.S Sozdanie Germanskoy imperii.M,Visshaya shkola,1986
- 7.Bismark O.Misli i vospominaniya.V 3-tomax. M,Gospolitzdat,1940-1941.
- 8.Mixaylov M.I Problemi germanskoy revolyutsii 1848.M,Nauka,1985

Mavzu: Amerika Qo'shma Shtatalari 1871-1918 yillarda.

Reja:

Kirish

1. AQSH ning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti.
2. Tashqi siyosat.
3. XX asr boshlarida AQSH ning iqtisodiy , ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti.
4. Xududiy ekspansiya.

Xulosa

Kirish.

Fuqorolar urushida sanoatlashgan shimolning galabasi gomsted aktini qabul qilinishi, Yangi konlarning ishga tushirilishi AQSHda kapitalizm taraqqiyotini kuchaytirib yubordi. 1870-1900 yillarda cho'yan eritish sakkiz marta (13,8 mln,t), po'lat eritish bir yuz ellik marta (mln.t), ko'mir qazish o'n marta (212,mln.t) o'sdi.

Umuman yalpi maxsulot ishlab chiqarish olti marta o'sdi. Temir yo'llar uzunligi 190 mil (dunyodagi jami temir yo'llarning 50%)ga yetdi. Chet el kapitali 3,4 mlrd.dollarga yetib, AQSH transporti va sanoatiga kiritildi. 1870 yilda axoli soni o'sib 50 mln. kishiga yetdi, 30 yil davomida AQSHga dunyoning turli mamlakatlaridan 14 mln. emigrant ko'chib keldi. 1890 yilda ular AQSH axolisini 33%ini tashkil etdilar. Ishchi kuchi yetishmayotganligi tufayli, tadbirkorlar Yangi texnika texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etdilar .

1870-1890 yillarda 440 ming ixtirochilik patenti berildi. Neftni qayta ishlash , elektro energetika , ximiya, avtomobilsozlik , rezina kabi Yangi sanoat tarmoqlari rivojlandi. 1882 yilda T.Edison birinchi Issiqlik Elektr Stantaiyasini qurdi, 1900 yilda IESlar soni 2800 taga etdi. AQSHda ilk yirik sanoat monopoliyalari : 1870yilda D. Rokfellyer «Standart oyl», Karnegi «Po'lat», « Amerikan shugar rifayning kompani» , «Djeneral elektrik» tashkil topdi. Konsentratsiya banklarni xam qamrab oldi. Rokfellyer, Morgan, Mellon banklari turli korxonalarini mablag bilan ta'minlar edi. Axolini 1% da AQSH milliy boyligining 50% to'plangan edi.

AQSHning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti .

«Yaramas muvaffaqiyatga so'zsiz ta'zim qilish-bizning milliy kasalligimizdir» deb yozgan edi faylasuf U. Djeyms. « Amerikacha orzu» g'oyalari qaror topdi. O'rta va mayda fermerlar tabaqasi AQSH qishloq xo'jaligini rivojlantirdi. Qishloq xo'jaligida band axoli soni 6,2 mln kishidan, 10,4 mln.kishiga etdi, xaydaladigan yerlar 2,2 marta o'sdi, qishloq xo'jalik maxsulotlari ishlab chiqarish 2 marta o'sdi. AQSH oziq ovqat maxsulotlari ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi yirik mamlakatga aylandi. Mayda ishlab chiqaruvchilar yirik xo'jaliklar tomonidan siqib chiqarildi. 1900 yilda 1mln. yirik xo'jaliklar 43% yerga egalik qilib, jami maxsulotni 50% ini ishlab chiqarar edilar.

AQSHning iqtisodiy xayotidagi chuqur o'zgarishlar siyosiy xayotga xam kuchli ta'sir ko'rsatdi. Fuqorolar urushidan so'ng, Respublikachilar xokimiyatini

to'la egallab olishdi. Ular sharqning yirik burjuaziyasi manfaatlarini ximoya qildilar. 1876 yilda Xeyz (respublikachi) prezident bo'lgach, janub rekonstruksiyasiga barxam berdi. Ta'riflar, pul muammolari, trestlar masalasi asosiy o'rinda turdi. Respublikachilar «yuqori ta'riflar - yuqori ish xaqi» shiorini ilgari surib, 1890 yilda kongress Makkenli-Oldrich qonunini qabul qilib, chet el maxsulotlariga 49,5% soliqlar joriy qildi. Xukumat dollarni to'la oltin standart tartibini joriy etdi.

Trestlarning barcha soxalarga kuchli ta'siri keng xalq qatlamlarining noroziligini kuchaytirdi. Xukumatning kelishtiruvchilik xarakati, 1887-1890 yillarda chiqargan qonunlari hech qanday natija bermadi. Oqibatda turli ijtimoiy xarakatlar vujudga keldi. 1867 yilda greynjerlar xarakati vujudga keldi, ular temir yo'llar shtatlar xukumati nazoratiga qat'iy olinishini talab qildilar. Ammo bu talablar bajarilmadi. 1875 yilda grinbekerlar xarakati keng yoyildi, ular pullarni «arzonlashtirish, qadrsizlantirish» g'oyasini ilgari surdilar. 1892 yilda fermerlik al'yanslari birlashib, «xalq partiyasini» tuzdilar. Ular yerni xalqqa berish, oltin tangalarni cheksiz zarb qilish, davlat mulkini xususiy mulk qilib berish, 8 soatlik ish kunini joriy qilishni talab qildilar. 1890 yilga kelib bu partiya demokratlarga qo'shilib ketdi.

AQSHda proletariat tezlik bilan o'sdi. 1870 yilda ishchilar soni 8 mln.kishidan, 1900 yilda 9,4 mln.kishiga o'sdi. Ishchilarning 50% ini emigrantlar tashkil qilgan. Individualizm, qo'nimsizlik, ekonomizm ishchilarni o'zligini anglashida to'sqinlik qildi. 1870-1880 yillarda norozilik xarakatlari keng tus oldi va birinchi marta federal xarbiy qo'shinlar bu qo'zgonlarni bostiradilar. Ishchilar xarakati birlashmaganligi uchun maglubiyatga uchradi. Ishchilar xarakatini birlashtirish uchun 1869 yilda «Mexnat ritsarlari ordeni» tuzilib, Yollanma mexnat qulligini tugatish uchun kurashdi. Ular ishchilar ongini yuksaltirish masalasini birinchi o'ringa qo'yidilar. 1890 yilda bu orden tarqalib ketdi.

1886 yilda Amerika Mexnat Federatsiyasi tashkil topdi. Ishchilar kasbiga, yashash joyiga qarab birlashdilar. AMFga yuqori malakali ishchilar kirdilar. AMF 8 soatlik ish kuni uchun qat'iy kurashdi. 1886 yilning 1 may kunidagi ish tashlashlar markazi Chikago shaxri bo'lib, ish tashlashlarda 350 ming kishi qatnashgan. Ish tashlashlar bostirilib, rahbarlari A.Fisher, A.Shpislar qatl etilgan. Ammo ish soatlari 8 soatga keltirilgan. AQSHda sotsialistik xarakat xam keng yoyilgan. 1876 yilda Sotsialistik Ishchi Partiyasi (rahbari D.de. Leon), 1897 yilda Sotsial Demokratik Partiyalar tashkil topdi. Bu partiyalar asosan parlamentda xokimiyatni egallash uchun kurashdilar.

Tashqi siyosat.

Yirik tadbirkorlar Yangi bozorlar va xom ashyo xududlarini faol talab qila boshladilar. Militaristik guruxlar armiya va xarbiy dengiz flotini kuchaytira boshladilar. 1869-1890 yillarda AQSHda Amerika davlatlari konferentsiyasi chaqirilib, Amerika Respublikalari Xalqaro Ittifoqi tashkil topdi. AQSH davlat kotib R. Olini 1895 yilning 20 iyulida: «Amerika xududidagi Yevropa nazorati mantiqqa zid» deb e'lon qildi. AQSH Amerika va Yevropa davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlardan o'z manfaati uchun unumli foydalandi. AQSH Amerika davlatlari ichki ishlariga faol aralashdi. Ayniqsa Lotin Amerikasi xududida faol siyosat olib bordi. Uzoq Sharqda Yaponiya va Koreya bilan, 1876 yilda noteng shartnomalar tuzilib, 1882 yilda bu davlatlar ustidan AQSH barcha soxalarda katta xuquqlarni qo'lga kiritdi. 1884 yilda Gavaida AQSH xarbiy dengiz bazasi qurilib, 1893 yilda Gavai qirolichi taxtdan ag'darilib, 1898 yilda Gavai AQSHning ajralmas xududiga aylandi. 1889 yilda AQSHning Samoa orolida bitta xarbiy dengiz bazasini qurildi.

Karib xavzasida xukmronlik qilish uchun Kubaga asosiy e'tibor berildi. 1895 yilgi Kubadagi qo'zg'olon ayni muddao bo'ldi. 1898 yilning 15 fevralida, Gavana portida AQSHning Men kreysening portlatilishi AQSH - Ispaniya urushiga

baxona bo'ldi. 19 aprelda AQSH Ispaniya xukumatidan Kubaga ozodlik berishni talab qildi. 23 aprelda Ispaniya AQSHga qarshi urush e'lon qildi. 1898 yilning 1 mayida Manilada Ispan floti, 3 iyunda Santyagoda Ispan floti mag'lub etildi. 1898 yilning 10 dekabrda Parij tinchlik sulxi tuzildi. Ispaniya Kubani mustaqilligini tan oldi, ammo Kuba AQSHga buysinmadi.

AQSH ekspansionizmi demokratik kuchlar qarshi chiqdilar. AQSHda ekspansionizm g'oyalari keng eyildi. Mutafakkirlar B.Adams, G.Lodj, D.Barjes, A.Mexenlar bu g'oyaning namoyondalari edilar. Xalq orasida: boshqa xalqlar taqdirini belgilash burchi, sivilizatsiya tarqatish burchi g'oyalari keng yoyildi. Bu g'oya namoyondalari xukmron tabaqalar bilan yaqin aloqa bog'lagan edilar.

XX asr boshlarida AQSHning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti.

1901-1903 yillardagi, 1907-1908 yillardagi, 1913 yillardagi krizislarga qaramasdan, AQSH XX asrga yetakchi sanoatlashgan davlat sifatida qadam qo'ydi. 1913 yilda AQSHda 33 mln. tonna po'lat, 31 mln tonna cho'yan, 517 mln tonna ko'mir qazib chiqarildi. 80% sanoat maxsulotini yirik korporatsiyalar ishlab chiqardi. Morganni «Po'lat tresti» 1,5 mln dollar mablag'ga ega bo'lib, 60% cho'yanni ishlab chiqarar edi. Konsentratsiyalashuv kuchaydi. Fan va texnika taraqqiy etib, ishlab chiqarishning o'zviy qismiga aylandi. Injener F.Teylor «Injenerlik sotsiologiyasi» faniga asos soldi. Bu g'oya ishlab chiqarishning qat'iy intensivlashtirish, tadbirkor va ishchi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tugatishni maqsad qilib qo'ygan edi. Bu g'oyani G.Ford birinchi bo'lib, o'z avtomobil zavodlarida qo'lladi. Oqibatda bitta avtomobil narxi 950 dollardan 290 dollarga tushdi. 1900 yilda AQSHda 8000 dona, 1913 yilda 1,2 mln dona avtomobil bor edi. Boston va N'yu Yorkda birinchi metropolitenlar qurildi.

Qishloq xo'jaligi xam rivojlandi. 1914 yilda 17.000 dona traktor, 15.000 dona yuk mashinasi bo'lgan bo'lsa, ularning soni 1919 yilda 158 ming dona traktor va 111 ming dona yuk mashinasiga yetdi. Axoli soni o'sib 98 mlnga yetdi.

Urbanizatsiya jarayoni kuchaydi. 1900-1915 yillarda AQSHga 14,5 mln immigrantlar ko'chib bordi. Eksport importdan o'zib ketdi. 1897-1914 yillarda chet el investitsiyasi 5 marta o'sib, 3 mlrd 513 mln. dollarga etdi. Ishchilar soni 17 mlanni tashkil etdi. AQSH sanoatida bir yilda 2 mln baxtsiz xodisa yuz berib, xar 16 minutda bir ishchi xalok bo'ldi. Ish xaqi 30% ga, soliqlar esa 3,5 barobar narxlar esa 32% ga oshib, real ish xaqi 9% ga kamaydi. Amerikalik ishchidan yapon ishchisi 1,5-2 marta kam, ayollar erkaklardan 50% kam ish xaqi olar edi (diskriminatsiya). Uy joy muammosi keskinlashdi.

Amerika madaniyatining yirik namoyondalari: T.Drayzer, L.Steffens, D.London va boshqalar o'z asarlarida Amerika mexnatkashlarining og'ir xayotini tasvirladilar. Makreykerchilar Amerika xayotini tasvirladilar, ammo jamiyatni qayta qurish g'oyasini ilgari surmadilar. Xukmron doiralar xam isloxotlar zarurligini tushunib etdilar. T.Ruzvelt isloxotchi, dono siyosatchi, keng fikrli, taraqqiyparvar inson edi. Ruzvelt korrupsiya, bosslar, monopoliyalariga qarshi kurashgan. Uning davrida oziq ovqat va dori darmonlar ishlab chiqarish va sifati ustidan, temir yo'llar va mexnat sharoiti ustidan kuchli davlat nazorati o'rnatildi. Ruzvelt «trestlarni buzuvchi» nomini oldi. U mamlakatni tabiiy boyliklarini asrash soxasida xam katta ishlarni amalga oshirdi.

1902 yilda g'arbdagi yerlarni sug'orish to'g'risida qonun qabul qilindi. Tabiiy zaxiralarni asrash milliy komissiyasi tuzuldi. Davlat iqtisodiy xayotga faol aralasha boshladi. Ruzvelt o'rniga kelgan U.Taft konservativ siyosat olib bordi va yirik monopoliyalar manfaatini ko'zladi. Proteksionizm g'oyalari keng norozilikni vujudga keltirdi. 1912 yilgi saylovlarda demokratlardan V.Vilson (Nyu Djersi gubernatori, xuquq va tarix fanlari professori) g'olib chiqib, «Yangi demokartiya» dasturini ilgari surdi. Bu dastur 3 ta g'oyaga: individuallik, shaxs erkinligi, raqobat erkinligi g'oyalariga asoslangan edi.

Bojxona soliqlari 42% dan 27%ga tushirildi. Federal rezerv sistemasi tuzilib, kredit va bank soxasi markazlashtirildi, tadbirkorlik krediti kengaytirilib, foizlari kamaytirildi. V.Vilsonning bu dasturi xukumatning yirik kapital bilan aloqasini mustaxkamlandi. XX asr boshlarida ishchilar xarakatining Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Pensilvaniya, Michigan, Virginiya, Alabama shtatlarida ish tashlashlar keng yoyildi. AMF 1,5 mln ishchini birlashtirdi va ish tashlarga, kasaba uyushmasi xarakatiga raxbarlik qildi. 1905 yilda Jaxon Industrial Ishchilari tashkiloti tuzuldi. Bu tashkilot ishchi va tadbirkor, mulkdor manfaatlari qarama qarshi, xech qanday umumiylik yo'q degan g'oyani ilgari surib, yirik ish tashlashlarni uyushtirdi. Sotsialistik g'oyalarni keng tarqalishi tufayli, 1901 yilda Sotsialistik Partiya tashkil topdi.

Tashqi ekspansiya.

XX asr boshlarida AQSH xukumati okeanlarni tutashtiradigan kanal qurishga e'tibor qaratdi. Kolumbiya xukumati kanal qurilishi to'g'risidagi AQSH taklifini rad etgach, 1903 yilning 4 noyabrida Panama mustaqilligi AQSHning ko'magida e'lon qilinib, birinchi bo'lib AQSH tomonidan tan olindi. 1903 yilning 18 noyabr` shartnomasiga ko'ra Panama ustidan AQSH protektorati o'rnatildi. T.Ruzvelt tomonidan «Katta tayoq» siyosati olib borilishi natijasida AQSH Lotin Amerikasi mamlakatlarining ichki va tashqi ishlariga ochiq aralashdi.

AQSH xarbiy dengiz piyodachilari Dominikan, Gonduras, Kuba, Nikaragua xududini egallab, AQSH protektoratini o'rnatdilar. U. Taft tomonidan «Dollar diplomatiyasi» siyosati amalga oshirildi. Lotin Amerikasi mamlakatlariga asoratli qarzlarni berish, iqtisodiy «yordam», kapital kiritish yordamida AQSH Braziliya, Boliviya, Argentina, Venesuela va boshqa davlatlar iqtisodiyoti ustidan nazorat o'rnatdi. 1914 yilda AQSH Lotin Amerikasi tashqi savdosining 50%ini o'z qo'liga oldi. 1899 yili J.Xey (AQSH davlat kotibi) Xitoy masalasida «Teng imkoniyatlar va

ochiq eshiklar» siyosatini e`lon qildi. AQSH Uzoq Sharqda Rossiya mavqeini zaiflashtirish uchun Yaponiya bilan shartnomalar imzoladi.

Tayanch so`z va iboralar.

Kontsentratsiya, trest, grinbeker, populist, al`yans, individuallizm, emigrant, ekspansiya, urbanizatsiya, injenerlik sotsiologiyasi, makreyker, dollar diplomatiyasi, katta tayoq, industrial.

Nazorat savollari.

1. AQSH ning iqtisodiy o`rishining sabablarini bilasizmi?
2. Transmilliy korporatsiyalar xaqida nimalarni bilasiz?
3. Amerika Mexnat Federatsiyasi faoliyati asosan qaysi tabaqalarni manfaatini ximoya qilgan?
4. Karib xavzasidagi orollar uchun AQSH qaysi mamlakat bilan urush olib bordi?
5. «Trestlarni buzuvchi» nomi kimga berilgan edi?
6. Protektsionizm nima?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov.I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q». Toshkent. Fan.1998 yil.
2. Krivoguz. I. M, Yurovskaya. E. E. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». Moskva. Yisshaya shkola. 1998 g.
- 3.Z. Belyavskaya. I. A. «Vnutrennaya ekonomicheskaya politika SSHA». Moskva. Nauka. 1956 g.
4. Fufaeva . V. K «Vneshnyaya politika SSHA v posledney treti XIX veka». Leningrad. 1991 g.
5. Baybakova L. V. «Dvuxpartiynaya sistema SSHA v period pozolochennogo veka». Moskva. 1996 g.
6. Sevast`yanov . G. N. «Istoriya SSHA» v 4 tomax. Moskva. 1985 g.
7. Foster. U. 3. «Ocherki politicheskoy istorii Ameriki». Moskva . 1995 g.

Mavzu: «Lotin Amerikasi XIX asr o'rtalari va XX asr boshlarida.»

Reja

Kirish.

1. Iqtisodiy taraqqiyot va siyosiy kurash.
2. Peru, Boliviya, Chili, Kuba va Markaziy Amerika mamlakatlari.
3. Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSH ekspansiyasi.
4. Meksika inqilobi.

Xulosa.

Kirish:

Lotin Amerikasida mustaqillik uchun olib borilgan urushlar, antifeodal g'oyalar, inqilobiy g'oyalar Lotin Amerikasida kapitalistik munosabatlarni, davlat mustaqilligini, mamlakatlarni milliy birlashuvini mustaxkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga antifeodal inqiloblar yakunlanmadi, urushlar mamlakatlarni vayron qildi. Lotin Amerikasida pomeschiklar iqtisodiy va siyosiy xokimiyatni o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Chet el kapitali esa iqtisodiy va siyosiy xokimiyatga o'tkazadigan o'z ta'sirini saqlab qoldi. Bu mamlakatlar xo'jaligi xom ashyo va oziq-ovqat maxsulotlarini ishlab chiqish va chetga sotishga ixtisoslashgan edi, Lotin Amerikasi mamlakatlari chetdan sanoat maxsulotlarini keltirilishiga qaram edi. Oqibatda xalq ommasi qashshoq va xuquqsiz xayot kechirmoqda edi.

Iqtisodiy taraqqiyot va siyosi kurash.

1870 yilda Argentina-Paragvay o'rtasidagi urush tugadi. Mamlakatda burjua munosabatlari rivojlandi, qurilishlar boshlandi, emigrantlar ko'chib kela boshladi, dunyoviy ta'lim rivojlandi, Yangi fuqaro kodeksi joriy etilib, Milliy bank ochildi. Argentina Lotin Amerikasidagi rivojlangan mamlakatga aylandi. Tashqi savdo Angliya bilan bog'liq edi. Ammo xalqning axvoli og'ir edi. 1880 yilda Argentinani Angliyadan qarzi 20 mln. funt sterlingga etdi. 1890 yilda iqtisodiy inqiroz tufayli «Fuqarolar ittifoqi» tashkiloti boshchiligida qo'zgonon ko'tarildi.

1893 yildagi qo'zgolonda radikallar xokimiyatni egalladilar, xokimiyatni egallashga xalqning kuchi yetmas edi.

Paragvay urushidan so'ng, Braziliyada quldorlik va monarxiya tuzumi saqlanib qoldi. Fazenderolar (pomexchik plantatorlar va yirik chorvadorlar) xokimiyati yanada kuchaydi. Ko'pchilik tabaqalar sanoat va savdoning rivojiga, emigrantlarni kelishiga tusqinlik qildilar. Abolitsionistik xarakat keng quloch yoydi va shoir Kastru Alvares bu kurashga raxbarlik qildi. 1860 yillarda «Isloxotlar klubi» tashkil qilinib, ular qulchilikni bekor qilish, davlat tuzumini demokratiyalashtirishni talab qildilar. 1871 yilning 27 sentyabrida «Tugilgandan boshlab ozodlik», 1885 yilda «60 yoshda qullikdan ozod bo'lish» (Qul besh yil mobaynida xujayin bilan qoladi), 1888 yilning 13 mayida «Qullikni bekor qilish» (Oltin qonun, regent malika Izabella) qonunlari qabul qilindi

Milliy Respublika partiyasi tuzilib, 1889 yilning 15 noyabrida B.Konstan va marshal D. de Fonsekar qo'zgalonga raxbarlik qilib, imperatorni taxtdan ag'darib, mamlakatni Braziliya Qo'shma Shtatlar Respublikasi deb e'lon qildilar. Ma'lumotli erkaklar 21 yoshdan saylov xuquqini oldilar, cherkov davlatdan ajratildi, fuqaro nikoxi joriy etildi. 1890 yilning 15 noyabrida konstitutsiya qabul qilindi. Davlat Braziliya Qo'shma Shtatlari nomini oldi, D. de Fonseka prezident lavozimini egalladi.

1890 yillarda ruxoniy Antoniu (Konsel'eyru-maslaxatchi) «Oxirgi zamon» ta'limotini targib qildi. U va uning tarafdorlari 1893 yilda, Kanudos qishlogida ibtidoiy kommunizm g'oyasiga asoslangan, kichik davlat tuzdilar. 1897 yilda bu davlat armiya yordamida yo'q qilindi.

Peru, Boliviya, Chili, Kuba va Markaziy Amerika mamlakatlari.

1864 yilda Janubiy Amerika mamlakatlari jiddiy xarbiy muammolarga duch keldilar. 1864 yilda birinchi Tinch okeani urushida Ispaniya maglubiyatga uchradi. Peru, Boliviya, Chili o'rtasida selitruga boy xududlar uchun kurash boshlandi.

Selitra urushlarida Angliya yordamida Chili urushda golib chiqib, Peru va Boliviyaning yarmi xududlarini tortib oldi. 1886 yilda Chili prezidenti lavozimini X. M. Bolmaseda egalladi. U mamlakatni Angliya ta'siridan, ingliz kapitali xukmronligidan qutqarish uchun kurashdi. Ammo yuqori tabaqa vakillari uning siyosatiga qarshi chiqib, 1891 yilda qo'zgalon ko'tarib, xokimiyatga general Bakedanoni chiqardilar.

Markaziy Amerika davlatlari mayda, tarqoq, qoloq bo'lganliklari uchun katta qiyinchiliklarga duch keldilar. Nikaragua prezidenti X. S. Selayaning Birlashgan Markaziy Amerika Respublikasini tuzish uchun kurashi mag'lubiyatga uchradi. Markaziy Amerika mamlakatlarida davlat to'ntarishlari, parchalanish, ichki nizolar yanada avj oldi. AQSH Markaziy Amerikadan Yevropa davlatlarini siqib chiqarish, bu yerda o'z ta'sirini o'rnatish uchun xar tomonlama kurash olib bordi va bu mamlakatlarning ichki ishlariga faol aralashdi.

Kuba xalqi 1868-1878 yillarda Ispaniyaga qarshi o'n yil davomida urush olib bordi. 1879-1880 yillarda kichik urushlarni olib bordi, ammo Ispaniya qiyinchilik bilan Kuba qo'zgonchilari ustidan g'olib bo'lib chiqdi. Lekin Ispaniya Kubada qullikni bekor qilishga majbur bo'ldi. 1895 yilda X.Mari, 1896 yilda A.Misso, M.Gomes, K.Garsiyalar ozodlik urushlariga raxbarlik qilib, galabani qo'lga kirita boshladilar. Ammo Ispaniya va Kuba urushiga darxol AQSH aralasha boshladi. 1898 yilda AQSH-Ispaniya urushi boshlandi. Baxona Kubani Ispaniya zulmidan ozod etish, maqsad esa Karib dengizi xavzasidagi ispan mustamlakalarini va Filippinni egallash edi. Maxalliy vatanparvarlar yordamida Filippin va Kuba xududlaridan Ispaniya siqib chiqarildi. Filippin AQSH mustamlakasiga aylantirildi. 1902 yilda Kuba Respublikasi e'lon qilindi Ammo AQSH Kubaning ichki ishlariga aralashib, Kuba ustidan o'z ta'sirini o'rnatdi.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari AQSH, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarining asosiy kurash maydoniga aylandi.

Angliya bu xududga kapital kiritishda yetakchilik qildi AQSH ning bu xududga kiritayotgan investitsiyasi xam yildan yilga ko'payib bordi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSH ekspansiyasi.

1902-1903 yillarda «Vensuela mojarosi» yuz berdi. Vensuelaning Angliya va Germaniyadan olgan qarzlarni undirishga xarakat qildilar. AQSH bu muammoga aralashib, arbitraj yo'li bilan AQSH ning Garbiy yarim shardagi xukumronligini nomoyon etdi. AQSH xukumati Kolumbiyadagi etnik muammolardan keng foydalandi. 1903 yilning sentyabrida AQSH josuslari Kolumbiyaning Panama viloyatiga kelib, separatchilar xarakatiga boshchilik qildilar. 1903 yilning 3 noyabrida Panama Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi

AQSH va Panama o'rtasida noteng shartnomalar tuzildi. Angliya va Fransiya bu xududdan siqib chiqarildi. Panama kanalini qurish xuquqi AQSHga abadiy xuquq qilib berildi. Panama kanali 1904-1914 yillarda AQSH tomonidan qurilgan. Kanalning uzunligi 81,6 km, kengligi 91,5 metrdan 150 metrgacha, chuqurligi 12,5 metr. Bir yilda kanaldan 15 mingta kema o'tadi. 2000 yildan Panama davlati ixtiyoriga berilgan. Soliqdan olingan foydan 60-90 ming dollarni tashkil qiladi.

1904 yilda AQSH prezidenti Teodor Ruzvelt «AQSH G'arbiy yarim sharda xalqaro politsiyachi vazifasini bajaradi» deb e'lon qildi. Bu siyosat «Dollar diplomatiyasi» nomini oldi. XIX asrning 70-80 yillarida Lotin Amerikasida ishchilar sinfining soni o'sdi, 90 yillardan ishchilar xarakati vujudga keldi. Bu mamlakatlarda ishchilar gazetolari chiqarila boshlandi. Ishchilar xarakatlarida 400.000 dan ortiq ishchilar ishtirok etdilar. Ular 8 soatlik ish kuni, ish xaqini oshirish, mexnat sharoitlarini yaxshilash talablarini ilgari surdilar. Shuningdek bu mamlakatlarda kasaba uyushmalari xarakati xam keng quloch yoydi. 1901 yilda Argentina Ishchi Federatsiyasi va Umumiy Mexnatkashlar Ittifoqi, 1908 yilda Braziliya Ishchilar Konfederatsiyasi tashkilotlari tashkil topdi.

Lotin Amerikasida bu davrlarning dexqonarning aniq dasturlarga ega bo'lmagan, tarqoq, foydasiz qozgolonlari yuz berdi va davom etdi. Dexqonlar xarakati, minglab qurollangan dexqonlardan tashkil topgan bo'lsada, xukumat qo'shinlari tomonidan shavqatsizlik bilan bostirildi. Ammo dexqonlar xarakati katta inqilobiy kuchga ega edi.

Meksika inqilobi.

1876 yilda xokimiyatga Porfirio Dias chiqadi va mamlakatda tiraniya tuzumi o'rnatiladi. Xukumatni chet el kapitalini maksimal jalb qilish siyosati, mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi. AQSH va Angliya kapitali Meksika xo'jaligida xukumronlik qildi. Dexqonlarning va maxalliy xindu xalqlarining yer va mulklari tortib olindi. Mamlakat janubida Emiliano Sapata, shimolida Fransisko Vil'ya rahbarligida dexqonlar va partizanlar xarakati keng avj oldi. Xarakatning shiori «Yer va ozodlik» edi. Milliy burjuaziya xam Dias boshqaruviga qarshi chiqa boshladi. AQSH xududida Meksika liberal partiyalari tuzildi.

Fransisko Madeyro katta yerlar , konlar va fabrikalar egasi bo'lib, milliy burjuaziyaning muxolifatchilik xarakatiga boshchilik qilib, demokratiya va iqtisodiy erkinlik uchun kurashga rahbarlik qildi. 1910 yildagi prezident saylovida Dias yana «g'alaba» qozondi. 1910 yilning 15 oktyabrida Madeyro «San Luis potosi rejasi»ni e'lon qilib, saylovlarni noqonuniy deb e'lon qilib, o'zini vaqtinchalik prezident deb e'lon qildi. Xalq qo'zgon ko'tarib, Dias qo'shinlarini mag'lub etdi.

1911 yilning 2 oktabirda Madeyro prezident etib saylandi. Ammo bergan va`dalarini bajarishni paysalga soldi. Sapata «Ayal dasturi»ni e'lon qilib, dexqonlardan va xindulardan tortib olingan yerlarini qaytarib berish, katta yer egaligini tugatish, yersizlarga yer berishni talab qildi. Ishchilar «Dunyo ishchilari uyi» umum milliy markazini tuzib, xaq xuquqlari uchun kurashdilar. Madeyro xalq xarakatiga qarshi qurolli kuchlarni yubordi. Oqibatda o'zining obrusini yo'qotdi.

AQSH yordamida general Uerta 1913 yilning 18 fevralida Madeyroni taxtdan ag'darib, xokimiyatni egalladi. Uerta xam diktatura va terrorni avj oldirdi. Unga qarshi Karransa qo'zgolonga raxbarlik qildi.

AQSH intervensiya uyushtirib, 1914 yilning aprelida Verakrusni egalladi. 1914 yilning 15 avgustida Karransa xokimiyatni egalladi. AQSH qo'shinlarini Verakrusdan chiqib ketishini talab qildi. AQSH qo'shinlari chiqib ketdi. Karransa xam bergan vadalarini bajarishini paysalga soldi. 1916 yilning 15 martida AQSH Meksikaga bostirib kirdi. Karransaning talabi bilan, AQSH askarlari 1917 yilning fevralida Meksikadan chiqib ketdi. Bu Karransani obrusini mustaxkamladi. 1917 yilning 1 mayida Yangi Meksika Konstitutsiyasi e'lon qilindi. Konstitutsiya demokratik ruxda bo'lib, liberal-demokratik tuzum o'rnatildi, agrar isloxot o'tkazildi, chet el kompaniyalarni mulklarini milliylashtirish boshlandi.

Xulosa

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolayotgan, chet el kapitaliga qaram mamlakatlar edi. Lotin Amerikasida feodal va qulchilik munosabatlari saqlabnib qolayotgan va kapitalistik munosabatlar rivojiga to'sqinlik qilayotgan edi. Milliy burjuaziya zaif bo'lib, latifundiyalar, chet el kapitalistlarini birlashgan kuchlari tomonidan siqib tashlanayotgan edi. Xalq ommasining axvoli og'ir bo'lib, sinfiy va iqtisodiy zulm ostida, og'ir axvolda kun kechirayotgan edi. Birinchi jaxon urushi davrida Lotin Amerikasi mamlakatlari iqtisodiyoti bir muncha rivojlandi. Ammo I jaxon urushi ta'sirida xam chuqur o'zgarishlar yuz bergani yo'q.

Nazorat savollari:

1. Lotin Amerikasi mamlakatlarining qoloqligi sabablarini bilasizmi?
2. Nima uchun AQSH Lotin Amerikasidagi inqiloblarni bostirishga aloxida e'tibor berdi?
3. «San Luis Potosi reja»si mazmunini tushuntirib bering.

4. «Dollar diplomatiyasi» siyosatini maqsadi va natijalarini tushuntirib bering.
5. «Panama kanali»ni ahamiyati qanday edi?
6. «Katta tayoq» siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

Tayanch so'z va iboralar

Diktatura, fazendero , latifundiya, abolitsionizm, emigrant, konsel'eyru, investitsiya, separat, tiraniya, dollar diplomatiyasi, konferentsiya, interventsiya.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. Krivoguz.I.M, Yurovskoy.E.E. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». I, II period. Moskva. «Visshaya shkola». 1998 g.
3. Alperovich.M.S, Slezkin.L.Yu: «Istoriya Latinskoy Ameriki». Moskva. Nauka. 1991g.
4. Alperovich.M.S, Slezkin L.Yu: «Novaya istoriya stran Latinskoy Ameriki». Moskva. Misl. 1970 g.
5. Marchun.N.N. «Stanovlenie natsionalnix gosudarstv v Latinskoy Ameriki». Moskva. Visshaya shkola. 1989 g.
6. Larina.E.M: «Istoriya Latinskoy Ameriki 70-e godi XIX v-1918 g.» Moskva. «Parus». 1993 g.
7. Kastro. M: «Soedinennie Shtati i Latinskaya Amerika v XX veke». Moskva. «Visshaya shkola». 1974g.

Mavzu: XIX asr ohiri, XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi.

Reja

Kirish

1. XIX asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti
2. Rossiyada ijtimoiy harakat va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi
3. Rossiyaning tashqi siyosati va ichki chekka o'lkalardagi siyosati.
4. Rus-yapon urushi.

5. XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Xulosa

Kirish

XIX asrning oxirlarida yuz bergan jahon agrar inqirozi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir etgan bo'lsa-da, mamlakat xalq xo'jaligi 80-90-yillarda yana asta-sekin rivojlana boshladi. Og'ir sanoat tezlik bilan ilgariladi. Mayda sanoat ishlab chiqarish va manafaktura o'sa bordi. Temir yo'llarning uzunligi oshib bordi. Sanoat o'zgarishi tugallangan edi, binobarin, bu vaqtda mexanizatsiyalashgan fabrika ishlab chiqarishining xalq xo'jaligidagi salmog'i 60-70-yillardagiga qaraganda ancha baland edi. Chet el kapitali mamlakatga juda tez va ko'plab kira boshladi. Ishchilar soni o'sdi. Sanoatning rivojlanishi bo'yicha 80-90-yillarning ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1881-1892-yillarni, ikkinchi bosqich 1893-1900-yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi jahon agrar inqirozidan katta zarar ko'rgan edi. 1891-1892-yillarda ocharchilik yuz berdi. Temir yo'l qurilishi qisqarib ketdi. Biroq, og'ir sanoat o'sdi. Donetsk havzasi va Krivoy Rog o'rtasida bunyod qilingan temir yo'l metallurgiyaning rivojlanishiga yordam berdi. Ikkinchi bosqichda Rossiya tarixida katta sanoat yuksalishi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmoqlari, ayniqsa, og'ir sanoat o'sdi. 90-yillarda mamlakat xo'jaligiga ko'plab chet el kapitali jalb qilinganligi ham iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda bank kapitalining roli oshib ketdi. 90-yillardagi sanoat yuksalishi davri umuman olganda Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixida yangi davrni boshlab berdi.

XIX asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti

1870-yillarning oxiridan to 1890-yillargacha Yevropa qishloq xo'jaligining ahvoli tarixiy va iqtisodiy adabiyotlarda XIX – asr oxirlaridagi agrar inqiroz deb nom olgan edi. Bu inqiroz asosan g'alla narxining pasayishida ko'ringan edi. Dunyo bozorida g'alla narxining pasayishi 70 – yillarning ikkinchi yarmidan

boshlanib 90 – yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Yigirma yil ichida g'alla narxi taxminana ikki barobar pasaydi. Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chetga chiqarish o'sa bordi. Biroq, g'alla asosiy chetga chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'lib qolaverdi. Agar 1876-1880 – yillarda chetga 291 mln. so'mlik 277 mln. pud g'alla, 56 mln. so'mlik 10 mln. pud zig'ir chiqarilgan bo'lsa, 1896-1900 – yillarda 323 mln. so'mlik 444 mln. pud g'alla, 51 mln. so'mlik 13 mln. pud zig'ir chiqarildi.

Hukumat chetga ko'proq g'alla chiqarishni qo'llab-quvvatlardi, chunki buni chet ellar bilan savdo-sotiq ishida balansni saqlashning asosiy vositalaridan biri deb bilardi. 80-yillarning oxiri – 90-yillarning boshlarida moliya vaziri bo'lgan I.A.Vishnegradskiy: “O'zimiz kamroq yesak ham, chetga chiqaraylik” degan edi. Chor Rossiyasi istilosi O'rta Osiyo qishloq xo'jaligiga albatta o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymadi. 80-yillarda O'rta Osiyodan chiqariladigan paxta hali uncha ko'p emas edi, amma 1900-yilda O'rta Osiyo paxtasi (Buxoro va Xivada yetishtirilgan paxta bilan birga) Rossiya fabrikalarida ishlatiladigan paxtaning 36 foizini tashkil etardi.

Rossiya qisqa vaqt davomida (1898-1901-yillar) neft qazib chiqarishda AQSH dan o'zib ketib, dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Chet elga asosan kerosin chiqarilardi. 90-yillarda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish og'ir sanoatdan ko'ra sekinroq sur'at bilan o'sdi. Ammo sanoatning bu tarmoqlari ham umuman ancha taraqqiy topdi. 1892-yili butun dunyodagi ip gazlama dug'alarining 44 foizi Rossiyada (Polshani ham qo'shganda) edi. Rossiyada korxonalarining birinchi Sindikat bitimlari 80-yillarning boshida paydo bo'la boshladi.

1882-yilda relslar ishlab chiqarish bitimi, 1886-yilda mix ishlab chiqarish bitimi tuzildi. Odatda bunday bitimlar ishlab chiqariladigan bu buyumlarni davlatga yetkazib berish vaqtida ularning narxini oshirish maqsadida tuzilardi. Qand va neft sanoatidagi sindikatlar ancha kuchli edi. Qand sindikati 1887-yilda tuzilgan bo'lib,

1892-1893 – yillarda qand zavodlarining 92 foizini o'z ichiga olgan edi. Sindikat bitimlari qand narxini oshirish maqsadida har bir zavodning har yili ichki bozorda sotish uchun qancha qand ishlab chiqarishi lozimligini belgilab berardi.

Rossiyada ijtimoiy harakat va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi

Mamlakatda bozor munosabatlarining tez o'sib borishi natijasida yuz bergan ijtimoiy taraqqiyot jarayoni dvoryanlarning iqtisodiy ahvoriga putur yetkazdi. Pomeschchiklar olgan vikup (ssudalar) tezda sarf bo'lib ketdi. Dvoryanlar qo'lida hali saqlanib qolgan yer mulklari yuzasidan ularning qarzdorligi ham ko'payib bordi. Kambag'allashayotgan dvoryanlar islohotgacha hukm surib kelgan tartiblarga qaytish bilan najot topmoqchi bo'ladilar. Dvoryanlar monarxiya tartibining asosiy tayanchi bo'lib qolaverdilar.

Korxonalarining o'ndan bir qismidagina ish kuni 12 soatdan kam, uchdan bir (29 foiz) qismida 12-12,5 soat, deyarli yarmida (44 foiz) 13-13,5 soat, nihoyat, hamma fabrika va zavodlarning oltidan bir qismida 14 soat va undan ham ko'p bo'lib, 18 soatgacha yetar edi. Ish kuni 90-yillarning oxirlarigacha, ya'ni hukumat uni qonun bilan cheklashga majbur bo'lgunga qadar ana shunday uzaytirilganligicha qolaverdi. Bu davrda ijtimoiy harakat o'sdi. G.V.Plexanov va uning "Mehnatni ozod qilish" guruhi Rossiyadagi ijtimoiy harakatning "pioneri" bo'ldi. U tuzgan bu guruh, rus ijtimoiy fikrining yangi yo'nalishini shakllantirdi.

"Mehnatni ozod qilish" guruhi bilan deyarli bir vaqtda, lekin undan mustaqil ravishda Peterburgda ham sotsial-demokratik guruh vujudga keldi. Bu guruhni Bolgariyadan Peterburg universitetida ta'lim olish uchun kelgan Dmitriy Blagoyev tashkil qildi. P.V.Tochisskiy tashkil qilgan va Peterburgda 1885-1888 – yillarda ish olib brogan boshqa bir guruh ham mavjud edi. 1883-yilda Peterburgda avvalgilarga qaraganda ancha katta bo'lgan sotsial-demokratik guruh tashkil topdi, bu guruh Brusnev guruhi edi. Shuningdek, 80-yillarda va 90-yillarning boshlarida milliy-

ijtimoiy harakat Ukraina, Boltiqbo'yi, Kavkazorti, Povolje, O'rta Osiyoda ham rivojlandi. O'rta Osiyoda vujudga kelgan bunday harakat jadidchilik edi.

Rossiyaning tashqi siyosati va ichki chekka o'lkalardagi siyosati.

XIX asr oxirida Rossiyaning G'arb davlatlari bilan munosabatlari ancha yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro'siga putur yetgan va harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Rossiyaning diplomatic mag'lubiyati Bolqon yarimorolidagi ustunlikdan mahrum bo'lish demak edi. Qora dengizning daxlsiz qilinishi mamlakat janubini dushman hamlasi xavfidan himoyasiz qoldirdi va shu bilan birga dvoryanlar hamda sanoat doiralarini ochiq dengizgacha chiqish yo'llarini qo'lga kiritish maqsadida istilochilikni amalgam oshirish imkoniyatidan mahrum qilib qo'ydi.

Qora dengiz va Bolqon masalasi Rossiya – Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning bosh sababi edi. Serbiya – Turkiya urushi (1876-1877) tugab, 1877-yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulh shartnomasiga Serbiya qo'l qo'ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G'arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizatsiya va isloxlarni o'tkazish taklif qildilar. Rossiya aynan bir vatqda demobilizatsiya o'tkazish muzokara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o'z vakillarni yuborishni so'radi. Ammo Turkiya taklifni rad qildi. 1877 yilning 12 aprelida Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e'lon qilish haqidagi manifestga qo'l qo'ydi.

Rus qo'shinlari 15 iyunga o'tar ko'chasi Zimnitsa – Sistavo yonida Dunay daryosini kechib o'tdilar. Turkklar qo'l ostlaridagi korpusni Chernogoriyadan Adrionopolga ko'chirdilar. Plevna va shipka uchun bo'lgan janglar ayniqsa shiddatli bo'ldi. 28 noyabrda Usmon podsho qamalidagi Plevnadn yorib chiqishga urinib ko'rdi. Bu urunish boshda muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsa-da, lekin keyinchalik uning qo'shimlari uloqtirib tashlandi. Usmon posho 43 ming turk

soldat va ofitseri bilan taslim bo'ldi. 3 fevraldagi ingliz floti Darddanekk bo'g'ozidan o'tib, Marmar dengiziga kirdi. Ingliz hukumati agar rus qo'shinlari Istanbulga kiradigan bo'lsa, diplomatic munosabatlarni uzamiz deb do'q qildi. Podsho hukumati qiyin ahvolda qoldi. O'zining bazalaridan ajralib qolgan armiya qurol-yarog', kiyim-kechak va poyavzal ta'minotida tanqislik sezardi. Og'ir sharoitlarda o'tgan urush natijasida yuqumli kasalliklar avj oldi. Nihoyat, 1878-yil 19-fevralda San-Stefanoda sulh shartnomasiga qo'l qo'ydi.

1878-iyunda Berlinda Yevropa davlatlarining kongressi ochildi. Bir oy davom etgan keskin tortishuvlardan keyin kelishuvlarga muvofiq Bolqon xalqlarining mustaqilligi tan olindi. Rossiya AQSH, Angilya, Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy eksedinitiyalarida ishtrok etmadi. 1872-yilad Yaponiyaga doimiy vakil tayinlanib, unga Yaponiya bilan bo'ladigan munosabatlarda bu mamlakatning ichki ishlariga mutloqo aralashmaslik haqida ko'rsatma berilgan edi. Yapon hukumati 1875-yilda Fransiya bilan Germaniya o'rtasida urush xavfi paydo bo'lganligidan va Rossiyaning Uzoq Sharqda zaifligidan foydalanib, Janubiy Caxalinga bo'lgan da'vosidan voz kechish sharti bilan Kuril orollarini Yaponiyaga berish to'g'risida shartnoma (1875 yil 25 aprel Peterburg shartnomasi) tuzishga muvaffaq bo'ldi.

70-yillarda rus hukumati bilan ingliz hukumati o'rtasida O'rta Osiyodagi ta'sir doiralrini aniqlash uchun muzokaralar boshlandi va 1873- yili bitim tuzish bilan yakunlandi. Bunga muvofiq, Rossiya Afg'onistonni o'z ta'siridan tashqari deb topdi. Angliya esa Xivani da'vo qilmaydigan bo'ldi. Bu bitim O'rta Osiyodagi kurashni vaqtincha susaytirdi, ammo Qoqon xonligining Rossiyaga qo'shib olinishi inglizlar siyosatini faollashtirib yubordi va rus-ingliz munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Bu narsa, chunonchi, 1878-yilda boshlangan Ingliz-Afg'on urushida va "Sharq inqirozi" davomida Angliyaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borganligiga manoyon bo'ldi.

1880 yilda Abdurahmon boshchiligidagi qozg'olonchilar inglizlar ustidan g'alaba qozondilar. Shundan so'ngina ingliz hukumati Abdurahmonni Afg'oniston amiri deb tan oldi. 1880 yil iyul oyida Rossiya qo'shinlari general Skobelev boshchiligida Turkmaniston tomon yurish boshladi. Bu yurush tarixda o'zining mazmun-mohiyati bilan "qora iz" qoldirdi. 1881-yil 1-yanvardagi shiddatli janglardan keyin Ko'k-tepa qal'asi chor qo'shinlari tomonidan qo'lga kiritildi. 1884-yil Rossiya Marini egallab, Kushkaga chiqdi. 1885-yil 26 martda Kushkada afg'on harbiy qismlari mag'lubiyatga uchradi. Rossiya Kushkani bosib olib, asosiy punkt – Hirot va Qandahorni qo'lga kiritdi. Shundan so'ng Angliya va Rossiya o'rtasidagi Afg'onistonning taqdiri va uning chegarasini belgilash masalasi kun tartibiga qo'yildi. 1885-1887 – yillarda bu masala rus-ingliz komissiyasi tomonidan hal etildi. 1891-yili Rossiyaning tasarrufiga kirgan O'rta Osiyo hududi va Afg'oniston o'rtasidagi chegara Pomirdan o'tkazildi.

1907-1914 – yillardagi xalqaro vaziyatning xususiyati shundan iborat bo'ldiki, mehnat bilan capital o'rtasidagi, rivojlangan davlatlar bilan ularning mustamlakalari va kapitalistik davlatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar keskinlashib ketdi. Yaponiya bilan bo'lgan urushda chorizmning mag'lubiyatga uchraganligi uning Uzoq Sharqdagi bosqinchilik rejalarini barbod qildi va Rossiyaning Eron, Afg'oniston va Turkiyadagi ta'sirini kamaytirdi. 1907-yil 18-avgustda Peterburgda Rossiya bilan Angliya o'rtasida ularning Eron, Afg'oniston va Tibetdagi manfaatlari doiralari chegaralarini belgilash to'g'risida bitim imzolandi.

Davlat Dumasining 1908-yil 27-fevraldagi majlisida Tashqi ishlar vaziri Izvolskiyning Angliya-Rossiya bitimi imzolanganligi to'g'risidagi bayonotidan faqat oshkora germanparastlargina norozi bo'ldilar. Bu bitim Yevropaning bir-biriga qarama-qarshi turgan ikkita harbiy-siyosiy blokka – "Antanta"ga (Rossiya – Fransiya – Angliya) va "Uchlar ittifoqi"ga (Germaniya – Avstriya-Vengriya - Italiya) bo'linishini tugalladi va binobarin, Birinchi jahon urushiga olib boradigan

yo'ldagi "muhim" bosqich bo'ldi. XIX asrning oxirgi choragida rus hukmron doiralarning zulmi ayniqsa ko'p millatli Rossiya xalqlari yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Milliy chekka o'lkalarda hukumat avvalo ilgarigi vaqtlardan beri saqlanib qolgan mustaqil muassasalarni yo'q qila boshladi, bu bilan ham kifoyalanmay, qat'iy "ruslashtirish" siyosatini olib bordi. Polsha podsholigi, Finlandiya va Boltiqbo'yi o'lkalari, O'rta Osiyo ana shu siyosat ta'siri ostida qoldilar. 1899-yil manifestida "Umumimperiya qonunlari" majburiy ekanligi e'lon qilindi, bu hol Finlandiyaning konstitutsiyaviy tuzumini buzish degan gap edi.

Rus-yapon urushi.

Angliya, Yaponiya va AQSH Rossiya bu yerdan juda ko'p ulush oldi, deb hisoblar va uni Manjuriyadan siqib chiqarishga harakat qilardilar. Rossiya-Yaponiya munosabatlaridagi ziddiyatlar ham Xitoy, Manjuriya tufayli kuchaydi. Yaponiya bu masalada Angliya bilan ittifoq tuzishga intildi va 1902-yil 30-yanvarda bitim imzolandi. Urush xavfi tobora ravshanroq ko'rina boshlagan sari, chor hukumati yon berish, shu jumladan, Manjuriya masalasida ham yon berish yo'lini tutdi. Chor hukumati Yaponiyaning va boshqa davlatlarning Manjuriya bo'yicha Xitoy bilan tuzgan shartnomasini tan olishga rozilik bildirdi. Lekin yaponlar ruslarning murosa tomon intilishini tan olmay, urushni tezroq boshlash maqsadida edilar. 1904-yil 24-yanvarda muzokaralarni to'xtatib, urush e'lon qilmasdan jang boshladilar. Yaponiya o'zining asosiy kuchlarini Vladivostokka va Rossiyaning Uzoq Sharqdagi chekka o'lkasiga qarshi qaratishga botina olmadi. Birinchi zarba Rossiyaning Tinch okeanda, Port-Arturda joylashgan flotiga berildi.

1904-yil 17-iyulda Port-Artur qal'asi uchun bevosita kurash boshlandi. Bu kurash 157 kun davom etdi. Qal'aning quruqlikdagi mudofaasiga general R.I.Kondratenko rahbarlik qildi. Port-Artur mudofaasining bosh tashkilotchisi R.I.Kondratenko bir guruh ofitserlar bilan birga 2 dekabrda halok bo'ldi. 20 dekabrda qal'a yaponlarga taslim bo'ldi. 1905-yil 14-mayda rus floti Koreya

bo'g'oziga kirdi. Jang boshlandi. Jangning birinchi soatlaridanoq ruslarning mag'lubiyati boshlandi. 15 mayda esa jang yapon floti g'alabasi bilan yakunlandi. Ruslarning Tsusima yonidagi mag'lubiyatidan butun dunyo xabar topdi. 1905-yil 23-avgustda sulh imzolandi. Rossiya Koreyadagi ta'siridan mahrum bo'ldi va uni iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan Yaponiya manfaatlari doirasi deb e'tirof qildi, o'zining Port-Artur va Dalniy hamda bu joylarda bo'lgan barcha mol-mulkini ijaraga berish huquqidan batamom voz kechdi, Xuanchenzi stansiyasi bilan (Sharqiy Xitoy temir yo'lida) Port-Artur o'rtasidagi temir yo'lni barcha parovoz va vagonlari, toshko'mir konlari bilan birga Tokioga berdi. Yaponiya Sahalinning 50° shimoliy kenglikkacha bo'lgan janubiy qismini ham oldi.

XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

XX asr boshlariga kelib monopolistik birlashmalar tashkil topish jarayoni kuchaydi, bu birlashmalar xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlarini o'z ichiga oldi va mamlakat xo'jalik hayotining asoslaridan biriga aylandi. Rossiya Janubining qora metallurgiyasida bu yillarda "Prodmet" degan yirik monopolistik tashkilot qaror topdi. Rangli metallurgiyada mis prokati zavodlari sindikatlari (1903-y.) bilan "Med" jamiyati (1907-y.) hal qiluvchi mavqeini egallab oldi. Ko'mir sanoatida "Produgol" sindikati vujudga keldi. Neft sanoatida "Nobel-mazut" karteli katta mavqega ega bo'ldi. Mashinasozlik sanoatida "Prodparovoz" (1901-y.), "Prodvagon" kabi monopolistik birlashmalar mavjud edi.

1909-yil 1-yanvarida Rossiyada 45 sanoat tarmog'ida 140 ta monopolistik birlashma bor edi. Ukrainaning janubi, Shimoliy Kavkaz, Zavolje va G'arbiy Sibir uchun bunday monokultura bug'doy bo'lib qoldi. Rossiyada 1905-1907 – yillardagi inqilobiy harakat. Bu inqilobiy harakatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni burjua-demokratik ruhda bo'lib, uning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodi va siyosiy tizimidagi barcha monarxistik, krepostnoylik qoldiqlarini tugatishdan iborat edi. XX asr boshlarida Peterburg shahrida 250 mingga yaqin sanoat ishchisi bor edi.

Pop Gapon “Sankt-Peterburg shahrining rus fabrika-zavod ishchilari yig’ini” degan tashkilot tuzdi. 1905-yil 3-yanvarida Putilov zavodi ishchilari Gapon tashkilotiga mansub bo’lgan to’rt ishchining ishdan bo’shatilishiga norozilik bildirib ish tashladilar.

9-yanvar, yakshanba kuni shaharning turli burchaklarida 250 ming kishidan ko’proq, bayramdagidek kiyingan ishchilar o’z xotinlari va bolalari bilan Saroy maydoni tomon yo’l oldilar. Turli joylarda ommani yoppasiga otishlar bo’ldi. Shu kuni Peterburgdagi kasalxonalarga 5 mingga yaqin yarador keltirildi. 1905-yilning bahoridayoq Boltiqbo’yi va Polshaning qishloq tumanlarida qishloq xo’jaligi ishchilarining chiqishlari bo’lib o’tdi. 1-maydagi ish tashlashlar va namoyishlar davomida ko’plab to’qnashuvlar yuz berdi. 1905-yil 12-mayda Ivanovo-Voznesensk shahrida yirik ish tashlash bo’lib o’tdi. Unda 8 soatlik ish kuni, demokratik erkinliklar, Ta’sis majlisi kabi talablar o’rtaga tashlandi.

1905-yil yozida Qora dengiz flotining sotsial-demokratik tashkiloti – “Sevastopol matrosalar markazi” qo’zg’olon ko’tarishga tayyorlandi. Oktabr ish tashlashi natijasida Nikolay II aholiga demokratik erkinliklar, vijdon erkinligi, so’z erkinligi, ittifoqlar tuzish va yig’ilishlar erkinligi “berilishi” va qonun chiqaruvchi Duma chaqirilishi to’g’risida Manifest chiqardi. Armiya va flot chorizmga qarshi kurashga tobora faolroq tortildi, 26-27 – oktabrda Kronshtatda matrosalar va sodlatlarning stixiyali qo’zg’oloni bo’ldi.

1906-yil 27-aprelda I Davlat Dumasi o’z ishini boshladi. Unda 448 deputat qatnashdi. “So’l” partiyalar Dumani boykot qilishi natijasida saylovda kadetlar g’alaba qozondilar. Duma faoliyatidagi asosiy masala agrar masala bo’ldi. 1906-yil 9-iyulda podsho Dumani tarqatish to’g’risida Manifest qabul qildi, 9-noyabrda esa agrar inqilob va dehqonlarni ko’chirish haqida Farmon chiqardi. 1907-yil yanvarda Dumaga yangi saylov bo’lib o’tdi. Uning yangi tarkibiga 516 deputat saylandi. 20-

fevralda II Davlat Dumasi ish boshladi. Agrar masala asosiy masala bo'lib qolaverdi.

Xulosa

Bu davrga kelib mamlakatda agrar islohot boshlandi. Stolipin agrar siyosatining tarkibiy qismlari dehqonlar va bank siyosati, boshqa joylarga ko'chirish, yer tuzilishi va boshqa tadbirlardan iborat edi. Chorizmning ko'chirish siyosati ham inqilobiy harakatdan oldingi davrga nisbatan o'zgardi. Hukumat ko'chirishni cheklash siyosatidan dehqonlarni Sibirga, Uzoq Sharqqa, O'rta Osiyo va boshqa joylarga ko'plab ko'chirish siyosatiga o'tdi. 1911-yilning mayida yer tuzilishi to'g'risida qonun qabul qilindi. 1906-yil 9-noyabridagi Farmon va 1910-yil 4-iyun qonuni 10 yil davomida amalgam oshirildi va xalqning boshiga ko'p ofatlar keltirdi. 1906-yilda boshqa joylarga ko'chirilganlarning soni 141 ming kishini, 1907-yilda 427 ming kishini tashkil qildi. Agar 1905-1908 – yillarda qayta ko'chib kelganlar 10 foizni, 1909-yilda 13 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1910-yilda qayta ko'chib kelganlarning soni 36 foizga yetdi. Bu hol chorizmning boshqa joylarga ko'chirish siyosatiga bog'lagan barcha umidlarining barbod bo'lganligini ko'rsatdi. Stolipin agrar islohoti qishloq xo'jaligida kapitalizmning taraqqiyotini kuchaytirdi.

Tayanch so'z va atamalar

Agrar inqiroz, depressiya, konsentratsiya, sindikat, monopoliya, ssuda, vikup, feodal dvoryanlar, prusscha yo'l, konferentsiya, San Stefano, umuimperiya qonunlari, Port Artur, Tsusima, Portsmut, Lena Goldfilds, qonli yakshanba, Stolipin, дума.

Nazorat savollari:

1. Rossiyaning iqtisodiyotiga katta kapital kiritgan mamlakatlarni bilasizmi?
2. Rossiyaning O'rta Osiyo masalasidagi asosiy raqibi bo'lgan davlatlar?
3. Russ-yapon urushidagi mag'lubiyatning asosiy sabablari ayting?
4. Stolipin agrar islohotlarining oqibatlari?

5. Davlat Dumasida asosan qanday masalalar ko'rilgan?

6. Birinchi rus inqilobining boshlanishining sabablari ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. Sharq. 1998 y.

2. Yurovskoy.E.E.,Krivoguz.I.M. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki» Moskva. «Visshaya shkola».1998

3. Vsemirnaya istoriya v 12 tomax.T.6-12.M,Politizdat,1960.

4. Burjuaznie revolyutsii XVII-XIX vekov v sovremennoy zarubejnoj istoriografii.M, Visshaya shkola ,1986.

5. Istoriya diplomatii v v 5-ti tomax.M,Nauka 1959-1960

6. Barg M.TSivilizatsionniy podxod k istorii.Kommunist,1991.

7. SkazkinS.D Konets Avstro-russko-germanskogo soyuza.M,Nauka,1974

Mavzu: Avstriya – Vengriya imperiyasi 1871-1918 yillarda .

Reja

Kirish

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Avstriya-Vengriyada milliy qarama-qarshilikning kuchayishi.

2. 1867-1899 yillarda Vengriya qirolligi.

3. Jaxon urushi tomon yo'l va imperiyaning parchalanishi.

4. Monarxiyaning so'nggi o'n yilligi.

Xulosa

Kirish

1859-1866 yillarda Avstriya imperiyasi Italiya, Fransiya va Prussiya mamlakatlaridanmaglubiyatga uchragach, Vengriyaning qattiq qarshiligiga uchragach dualistik, ikki markazli davlatga aylandi. Imperiya isloxotlar tufayli ichki jixatdan mustaxkamlangan, 50 millionli axoli yashaydigan ikki yirik imperiya

nomini saqlab qoldi. Ikki davlat ichki siyosatda to'la mustaqillikka ega bo'lib, imperator, qirol va ikki ministr: Tashqi ishlar va xarbiy ishlar ministrleri boshqarar edilar. Keyinroq moliya ministrligi tashkil topdi. Imperator xukumat raxbarlarini tayinlar yoki ishdan olib tashlar, favqulodda dekretlar chiqarar, xarbiy yurishlarga raxbarlik qilar edi.

1867 yildagi Avstriya konstitutsiyasining 14 paragrafiga ko'ra «zarur taqdirda» imperator mamlakatni yakka boshqarish xuquqiga ega edi. Germaniya va Italiya tomonidan siqib chiqarilgan Avstriya o'z e'tiborini Bolqonga qaratdi, ammo bu yerda Rossiya bilan manfaatlari to'qnash keldi. Isloxotlar tufayli imperiya ichki va tashqi jixatdan mustaxkamlandi. Germaniya imperisiyaning tashkil topishi Avstriya imperiyasining dualizmga chek qo'yish maqsadini chippakka chiqardi. 1871 yilning sentyabrida imperator qonuniga ko'ra dualizm, trializm bilan (ya'ni Avstriya-Chexiya-Vengriya) almashdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Avstriya-Vengriyada milliy qarama qarshilikning kuchayishi.

Avstriya-Vengriyaning burjuaziya konstitutsiyalari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyotiga siyosiy va xuquqiy asoslari yaratildi. Iqtisodiy taraqqiyot notekis bo'lib, Galitsiya, Bukovina, Transilvaniya, Xorvatiya va G'arbiy Ukraina xududlari qoloq agrar xududlar edi. Milliy muammolar keskinligicha qoldi. Xukmron tabaqalarning milliy siyosati Avstriya-Nemis va madyar xukmronligini saqlashni maqsad qilib qo'ygan edi. 1867 yilgi konstitutsiyaga ko'ra millatlar teng xuquqli deb e'lon qilinsada, amalda bu xuquq berilmadi. Nemis tili davlat tili xisoblanar edi. Galitsiya avtonomiya xuquqiga to'la ega bo'lgan. Vena xukumati polyak tilini Galitsiyaning rasmiy tili deb tan olgan va polyak aristokratiyasiga yuqori davlat lavozimlarini taqdim etgan edi. Galitsiyadagi ko'plab millatlarni xam Vena o'z tomoniga og'dirib oldi.

Ammo Chexiyada yosh chexlar xarakati milliy ozodlik xarakatiga rahbarlik qilib, mustaqillik uchun kurash avj oldi. Bosh vazir E. Taffe Chexiyada ikki til g'oyasini targ'ib qildi. 1880 yilda sud ishlarida chex tilida faoliyat yuritishga ruxsat berildi. Praga universiteti ikki qismga, chex va nemis qismlariga bo'lindi. Avstriyada nemis shovinizmi keng quloq yoydi. 1882 yilda dvoryan Georg fon Shyonerer «Nemis milliy ittifoqi» tashkilotini tuzdi. U «Lints dasturi», «Oriylik paragriflari» kabi dasturlarini e'lon qilib, tor doiradagi Avstriya imperiyasini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oyalar keyinchalik A. Gitler tomonidan rivojlantirildi. Antisemitizm bu ittifoqni parchalab tashladi.

Pangermanizm g'oyalari Avstriyada keng yoyildi. Millatchilik siyosiy xayotga xam o'z ta'sirini o'tkazib siyosiy partiyalar milliy asosda tashkil topdi. 1897 yilning aprelida Badeni Chexiyada ikki tillik to'g'risida qonun chiqarib, amaldorlarga 3 yil ichida ikki tilni egallash sharti qo'yilib, aks xolda davlat xizmatidan chetlatish bilan ogohlantirdi. Bu qonun keskin xalq qo'zgolonlariga olib keldi. Milliy muammo keskinligicha qoldi. Avstriya Yevropaning bemor kishisi edi. 1868 yilda Avstriyada sotsialistik tashkilotlar tuzila boshlandi. 1874 yilda Umum Avstriya Sotsial Demokratik Partiyasi tashkil topdi. 1889 yilda Avstriya Sotsial Demokratik Partiyasi tashkil topdi. 1899 yilda Brno s'ezdi, «Bryunna dasturi»ni e'lon qildi. Asosiy e'tibor milliy masalani xalq etishga qaratildi. Maqsad Avstriyani millatlarning ittifoqdosh demokratik davlatiga aylantirish edi. Bu dastur xalqaro ishchilar xarakatida birinchi marta milliy masalani xalq etadigan maxsus dastur edi.

1867-1899 yillarda Vengriya.

Dualistik shartnomani tuzilishi, Vengriya mustaqilligini bir necha o'n yillar ortga surdi. Shuningdek Vengriya ichki mustaqillik, xududiy yaxlitlik, konstitutsion tuzum, Avstriya bilan siyosiy tenglikka erishdi. 1860-1870 yillarda sud, maorif, diniy, boshqaruv sohasida islohotlar o'tkazildi. Vengriya qishloq xo'jaligi

rivojlangan davlatga aylandi. Sabablar: qulay iqlim, unumdor tuproq, arzon ishchi kuchi, Yevropa investitsiyasi, monarxiyadagi qirollik mavqei edi. Vengriya un sanoati Yevropada birinchi o'ringa chiqdi. Temir yo'l va daryo transporti rivojlandi.

Xaydaladigan yerlarning 40% katta yer egalari qo'lida edi. Ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik avj oldi. Proletariat oz sonli edi. Sanoat korxonalarini Budapeshtda to'plangan edi. Vengriya sotsialistik xarakatiga ishchi Lev Frankel rahbarlik qildi. U 1890 yilda Umumiy Ishchi Sotsialistik Partiyasini tuzdi. Partiya barcha millat ishchilarining siyosiy va iqtisodiy kurashiga rahbarlik qilib, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Ular stachka va namoyishlar usulida kurash olib bordilar. 1868 yilda Vengriya parlamenti «Millatlarning tengligi» qonunini qabul qildi va qirollikni yagona milliy davlat deb e'lon qildi. 1870 yillarda millatlarni madyarlashtirish va yagona madyar davlatini qurish, millatchilik g'oyalari keng tus oldi. Vengriya xukmron doiralari turli millatlarning milliy ozodlik va teng xuquqlilik uchun kurashini bostirishda katta g'alabaga erishdilar. Madyarlar qirollik axolisini teng yarmini tashkil etganlar. Vengriya konstitutsiyasi qirollik xalqlarini kollektiv xuquqlarini tan olmagan edi. Faqatgina Xorvatiya-Sloveniyagagina 1868 yil kelishuviga muvofiq avtonomiya xuquqi berilgan edi. Parlament eshiklari xalq ommasi uchun yopilgan, saylov xuquqi cheklangan edi.

XIX asr oxirida Vengriyada qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sanoati rivojlanib, rivojlangan mamlakatlar safidan joy oldi. Vengriya imperiya bozorida monopol mavqeiga ega bo'ldi va bojxona soliqlari bilan ximoya qilindi. Ammo Avstriya-Vengriya munosabatlari keskinlashib bordi. Vengriya ko'proq imtiyozlar uchun kurashdi. Avstriya-Vengriya o'rtasida xar 10 yilda Yangi iqtisodiy shartnomalar tuzilgan.

Jaxon urushi tomon yo'l va imperiyaning parchalanishi.

XX asrga Avstriya-Vengriya imperiyasi, sanoati, qishloq xo'jaligi, madaniyati yaxshi rivojlangan, ammo dualizm bilan «kasallangan» davlat sifatida qadam qo'ydi. Sanoatning elektronika, energetika, kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, metallurgiya tarmoqlari jadallik bilan rivojlandi. Vena, Praga, Budapesht banklari imperiyaning butun iqtisodiyotini o'z nazoratlariga oldilar. Sanoatda kartellar muxim rol o'ynay boshladi. 1903 yildagi iqtisodiy inqirozga qaramasdan Avstriya-Vengriya iqtisodiyoti barqaror rivojlandi. Yillik o'sish Avstriyada 3,8%, Vengriyada 4% ni tashkil etdi. Axolining 50% agrar soxada band edi, ishchilar soni yilga o'sib bordi.

Avstriya, Chexiya yerlarida savodsizlik butunlay tugatildi. Vengriyada 70% axoli savodli edi. Ammo slavyan xalqlari orasida savodsizlik yuqori darajada saqlanib qolayotgan edi. Imperiyada to'rtta Universitet faoliyat ko'rsatgan. Avstronemis millatining shakllanishi nixoyasiga yetmadi. Vengriyada madyar bo'lmagan xalqlarning 20% gina o'z tilida so'zlashar edi. 1907 yilda Avstriyada umumiy saylov xuquqi joriy qilindi. 24 yoshga to'lgan, bir joyda bir yildan ortiq yashagan erkaklarga saylov xuquqi berildi. Reyxstagda slavyanlar ko'p o'ringa ega bo'ldilar.

Imperiyada Chexiyadagi milliy ozodlik xarakati eng kuchli va yuqori saviyada tashkil etilgan edi. Chexlar Chexiya, Moraviya va Sileziyaning avtonomiya xuquqi uchun kurashdilar. 1917 yilning may oyida esa imperiya tarkibidan chiqish uchun kurashdilar. Chex va slavyanlar o'rtasida milliy va madaniy aloqalar jonlandi. Slovaklarning milliy xarakati juda zaif edi. Imperiyaga qo'shni mamlakatlar o'z qardosh xalqlarini milliy ozodlik xarakatiga xayrixoxlik bildirdilar. Bu imperiya xukmron doiralarning qo'rqitib yubordi va milliy masalaga jiddiy e'tibor berishga va ayrim tadbirlarni o'tkazishga majbur qildi. Ammo bu tadbirlar hech qanday natija bermadi va birinchi jaxon urushiga imperiyani yanada kuchliroq torta boshladi.

Monarxiyaning so'nggi o'n yilligi.

Ertsgertsog Frans Ferdinand va uning tarafdorlari monarxiyaning ichki boshqaruv usullarini keskin o'zgartirishni orzu qilar edilar. Ertsgertsog dualizmga chek qo'yish va Gabsburglarni avvalgi qudratini tiklashga intildi. Monarxiyada cheklangan federallashtirish orqali markazlashtirish loyixasi yaratildi. Tashqi ishlar vaziri graf L. Erentel dualizm o'rniga trializm Avstriya, Vengriya, Yugoslaviya g'oyasining ashaddiy tarafdori edi. U Serbiyani neytrallashtirish va Vengriyani barcha xuquqlaridan maxrum etish uchun kurash olib bordi. Ammo bu urunish mag'lubiyatga uchradi.

1890 yillarda Venger muxolifatini armiyada venger tilini joriy etish, milliy bayroqlardan foydalanish, venger xarbiy qismlarini faqat qirollik xududida joylashtirish, mustaqil bojxona, milliy bank ochish uchun kurashi mag'lubiyatga uchradi. 1905-1907 yillardagi birinchi rus inqilobi imperiyadagi ishchilar xarakatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Vengriya xukmron doiralari qo'zgolondan qo'rqib, Avstriya imperiyasi bilan navbatdagi bitimni imzoladilar. Dualizmni saqlanib qolishi, tubdan keskin isloxotlarni amalga oshirish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Monarxiyaning so'nggi o'n yilligi qirol Frans Iosif nomi bilan xam bog'liq edi. 1848 yilning dekabrda taxtga chiqqan Frans Iosif 70 yil taxtni boshqarib, 1919 yilning dekabrda vafot etdi. U xarbiy mundir kiyib yurgan, aloxida ajralib turadigan jixatlari yo'q edi. Uning xayoti doimo bir maromda kechgan. Shaxsiy xayoti qayg'uli, Elizabet bilan nikoxi tez tugagach, o'g'li Rudolf o'z o'zini o'ldirgan, qarindoshi Frans Ferdinand xam o'ldirilgan. Biron bir urushda g'alaba qozonmagan. U «kulrang shaxs» toifasiga kirgan. Imperiyaning boy viloyatlari uning davrida ajralib ketgan. 1867 yilning iyunida Vengriya qiroli (Xayr yoshligim) taxtini xam egallagan. Faqat bir marta 1853 yilda unga suiqasd uyushtirilgan. Yuqoridagilarga qaramasdan u «keksa va saxiy monarx» deb atalgan. U «Mening

xalqlarim» iborasini ko'p takrorlagan va xalqlar Gabsburglar dinastiyasiga xizmat qilishi kerak deb xisoblagan. U imperiyaning mustaxkamligi kafolati sifatida, isloxotlar yo'lidagi asosiy g'ov xam edi.

Xulosa

Imperiyaning xukmron doiralari mavjud inqirozdan chiqish uchun tashqi avantyuralarga e'tibor qaratdilar. Ularning fikricha urush ichki muammolarni tugatish va millatlarning markazdan qochishiga chek qo'yish lozim edi. Imperiya qo'shinlariga qarshi agressiv urushga zo'r berib tayyorgarlik ko'ra boshladi. Buning ikki salbiy oqibatlari mavjud edi: Germaniyaga xar tomonlama qaramlikning kuchayishi va mamlakatda demokratik erkinliklarni yo'q qilinishi edi. 1914 yil baxorida landtag va parlamentlar tarqatib yuborildi.

Graf Ishtvan Tisa (Vengriya premyer ministri) imperiyada katta mavqega ega bo'lgan, monarxiyadagi vaziyatga to'g'ri baxo bera olgan. U xududlarni kengaytirishga va urushga qarshi bo'lgan. U dualizm Vengriya yaxlitligini kafolati ekanligini yaxshi tushungan va faqat Serbiyaga qo'yilgan ultimatumga qat'iy qarshilik ko'rsatgan. 1914 yilning iyulida Avstriya-Vengriya Serbiyaga ultimatum qo'yadi, oqibatda Serbiyaga qarshi urush e'lon qilinadi va birinchi jaxon urushi boshlanib ketadi. Bu urush Gabsburglar imperiyasiga yakun yasaydi.

Tayanch so'z va atamalar.

Dualizm, dekret, imperator, trializm, provintsiya, landtag, seym, aristoqratiya, antisemit, pangerman, investitsiya, absolyut, agrar, madyar, avtonomiya, reyxstag, neytrallashtirish.

Nazorat savollari.

1. 1867 yil konstitutsiyaga ko'ra imperator qanday xuquqlarga ega edi?
2. «Bryunna dasturi» qanday maqsadni amalga oshirgan edi?
3. Madyarlashtirish siyosatini tushuntirib bering.
4. Trializm g'oyasini tushuntirib bering.

5. Nima uchun Avstriya-Rossiya munosabatlari keskinlashdi?

6. Frans Iosif xaqida nimalarni bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. Krivoguz.I.M, Yurovskaya.E.E: «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki «. Moskva. Visshaya shkola. 1998.
3. Prister.E . «Kratkaya istoriya Avstriyi». Moskva.1952 g.
4. Rubinshteyn. E. I. « Krusheniya Avstriya – Vengerskoy monarxiyi». Moskva. 1963 g.
5. Pisarev.Yu.A. «Osvoboditel'noe dvijenie Yugoslavyanskix narodov Avstro-Vengrii». 1905-1914 gg. Moskva 1962 g.
6. Istomin.G.M. «Kratkaya istoriya Vengrii». Moskva. 1991 g.
7. Vinogradov.K.B. «Bosniyskiy krizis 1908-1909 gg. Prolog pervoy mirovoy voyni». Leningrad. 1964 g.

Mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xitoy

Reja:

Kirish

1. XIX asr oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.
3. Xalq qo'zg'olonlari va ijtimoiy harakat.
4. Xitoydagi chet el intyerventsiyasl.

Xulosa

XIX asr oxirida xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

XIX asrning oxirida Xitoy qoloq, yarim feodal davlat bo'lib, uni manjur sulolasiga mansub impyeratorlar boshqarardilar. Yyerning asosiy qismi zamindor boylar qo'lida edi. Ko'pchilik dehqonlar zamindorlardan yyerni ijaraga olar, yyer haqini pul bilan yoki hosil hisobidan to'lab qutular cdilar. Yyeri bor dehqonlar

ham mavjud bo'lsa-da, ular juda kam edi. Dehqonlar shaharga ish qidirib kelardilar, lekin har doim ish topilmas edi, chunki Xitoy sanoati juda sekin taraqqiy etayotgan edi.

XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshida mamlakatda kapitalistik korxonalar: ko'mir shaxtalari, to'qimachilik korxonalari vujudga kelib, rivojlana boshladi. Dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi. Yirik shaharlar barpo etildi. Ishchilar soni ko'paydi. Sanoat paydo bo'iishi bilan milliy burjuaziya ham paydo bo'la boshladi. Xitoy burjuaziyasining ko'pchiligi kompradorlar, ya'ni chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qilar edi. Ular chet el firmalarining agentlari bo'lib, xorijliklar bilan birgalikda mamlakatni ekspluatatsiya qilar, chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xom ashyo sotib olish hisobiga boyib borardilar.

Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.

Pulga muhtoj bo'lgan Tsin sulolasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar to'zar va milliy manfaatiarga xilof ravishda ularga «yon» byerardi. 70-yillardayoq ajnabiylar Xitoyning 26 portiga bemalo! kiradigan, Xitoy portlarida o'zlarini hech kim nazorat qilmaydigan xo'jayiniardek ish yuritardilar. Temir yo'llar qurilishi xorijliklar tasarrufida edi. Ko'mir shaxtalarining, konlarining katta qismi ham ularning ixtiyorida edi. Xitoy chet el davlatlarning xom-ashyo bazasiga aylanib qoldi. Hatto chet elliklar katta shaharlarda o'z hududlarini tashkil etib, Xitoy ma'murlarini mensimasdan ish yuritardilar.

Xitoyning Yaponiya bilan 1894-1895 yillardagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo'ldi. 1897 yilda nemis bosqinchilari Szyaochjovan ko'rfazini bosib oldilar va Shandun viloyatini o'z ta'sir doiralari-ga kiritdilar. Fransiya Guanchjouvan ko'rfazini egalladi va Yunnan viloyatida hukmronlik ta'sirini o'tkaza boshladi. Rossiya Port-Artuni, Angliya Veykay portini bosib oldi. Eng boy

hudud - Yantsizi daryosi havzasi Angliyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. Fuszian viloyatida Yapon bosqinchlari hukmron bo'lib oldilar. Xitoydagi har qanday qurilish yoki o'zgarishlar bosqinchilar tomonidan nazorat qilinardi. Shunday qilib, Xitoy yarim mustamlakaga aylana boshladi. Bosqinchilar tomonidan Xitoy milliy boyliklarining talanishi xalq ommasining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. 1897 yil tumanlarda dehqonlarning xo'jayinlariga qarshi g'alayonlari boshlandi, bu g'alayonlar 1898-1899 yillarda mamlakatning lurli viloyatlariga tarqaldi.

Feodallarga qarshi g'alayonlar chet el monopolistlariga qarshi qaralilgan edi. Dehqonlar harakati, ayniqsa, nemis bosqinchlari tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinayotgan Shandun viloyatida juda katta g'alayonga sabab bo'ldi. Nemis bosqinchlarining o'zboshimchaligi xalq noroziligini keltirib chiqardi. Shandunda yashirin jamiyatlar tuzuldi, jangovar otryadlar tashkil qilindi. Ular «tinchlik va adolat» shiori ostida kurashib, «ixetuan» (musht) - otryadlari «boksyorlar qo'zg'oloni» nomini oldilar. Jangovar otryadlar bosqinchlarga hujumlar uyushlirar va ularning hayotini tahlikaga solib turardilar. Ixetuanchilar chet el bosqinchlariga qarshi ochiq kurashga o'ldilar. XIX asrning oxirida Xitoyda ilk sanoat ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'la boshladi. Eski yer mulkchiligi tizimining yemirilishi tezlashdi. 1872 yilda Li Xunchjuan yirik paroxod kompaniyasini tashkil qildi. 1878 yilda Kaylan ko'mir boshqarmasi tuzuldidi.

1881 yilda Shimoliy Xitoyda birinchi temir yo'l ishga tushirildi. 1895 yilda Shanxayda yirik to'qimachilik fabrikasi ishga tushirildi. 1897 yilda 600 ga yaqin chet el firmalari mavjud edi. lekin sanoat korxonalarining o'sishi va ko'payishi sust bordi. Xitoy Yaponiya, AQSh., Angliya singari yirik kapitalistik davlatlarga qaram, yarim mustamlakaga aylandi. Mamlakat ichida jamiyatning kambag'al, qashshoq qatlamlari bilan boyih borayotgan burjuaziya va eski an'anaviy zamindorlik hukmronligi uchun kurashayotgan yer egalari o'rtasida ziddiyat kuchayib bordi.

Yevropaning savdodagi hissasi 1890 yilda 40 mln. ienga teng bo'ldi. Import eksportdan. ancha ko'p bo'lib, bu mamlakatning qaramligi belgisi edi.

Xitoy bilan Angliya o'rtasida 1876 yil tuzuldigan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Angliyaga Xitoyning 10 dan ortiq portiga erkin kirish, qator viloyatlarda o'z foydasiga imtiyozli savdo qilish huquqini berdi. 1880 yillarda Frantsiyaning V'etnamni bosib olishi tufayli Frantsiya - Xitoy munosabatlari yomonlashdi. 1884 yili Xitoy markaziy V'etnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yerdagi Frantsuz protektoratini tan oldi. Lekin Shimoliy V'etnam (Tonkin) viloyati Frantsuzlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Xitoy partizanlari yordam berib turdilar. Frantsiya buni bahona qilib, Xitoyga qarshi urush ochdi. 22 ta Xitoy harbiy kemasi cho'klirildi. Xitoy xalqidagi baland ruh, milliy shakllanish jarayoni Sin imperatori sulolasida vahima uyg'otdi. Bundan cho'chigan Xitoy hukumati Frantsiya bilan shoshilinch bitim to'zdi. G'olibona urushni mag'lub sifatida yakunlab, Frantsiyaga qator masalalarida «yon berdi».

Xitoyning Frantsiya bilan urushda yengilganidan foydalangan Angliya 1886 yil 1 yanvarda Birmaga qarshi urush e'lon qildi. Tez orada Birma Angliya mustamlakasiga aylandi. Yaponiya Xitoyga nisbatan bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga kirishdi. 1872 yil Ryu-kyu orolini, 1874 yil Tayvanni bosib olishga harakat qildi. Tayvandagi urushda AQSh harbiy kuchlari ishtirok etgani uchun bu orol Amerikalik savdo sanoatchilar uchun «ochiq» deb e'lon qilindi. 1894-1895 yillarda Yaponiya-Xitoy urushi bo'lib o'tdi. Yaponiyaning maqsadi Koreyani Xitoy ia'siridan ajratib olish edi. Xitoy Koreyani Yaponlar istilosidan himoya qila olmadi. Aksincha, unga «G'arb davlatlarini yordamga chaqirish»ni maslahat berdi. Bu Xitoyning Koreyadagi manfaatlariga kuchli zarba bo'ldi. 1893 yilgi koreys dehqonlarning «Tanxak» (sharq kurashi) yashirin jamiyat yetakchiligidagi qo'zg'olonini bostirish bahonasida Xitoy Koreyaga qo'shin yuborgan edi.-

Yaponiya ham o'z qo'shinlarini shu bahona bilan Koreya hududiga kiritdi. 1894 yil iyul oyida Yaponiya urush harakatlarini Xitoyning o'ziga qarshi qaratdi. Urush e'lon qilmay turib. Xitoyning bir qancha kemalariga hujum qilib, cho'ktirib yubordi. 1-avgust kuni urush rasmiy ravishda e'lon qilindi.

Avgust-noyabr oylari orasida Yaponiya Xitoyni Koreyadan «siqib chiqardi». Keyin esa Port-Artur (Lyaodun) portini bosib oldi. 1894 yil sentyabrda Xitoy Shimoliy flotidan ajraldi. 1895 yil fevraligacha Shandun yarimorolidagi Veyxay portini ham Yaponlar oldi. Nihoyat, 1895 yil 17 aprelda Yaponiyaning Simonoski shahrida bitim tuzuldidi. Xitoy Tayvan, Lyaodun, Penxu orollarini Yaponiyaga byerdi. Shashi, Syuychjou, Xanchijou, Chunsin portlarini «ochib» qo'ydi. Yaponiya Xitoyda istagan joyda, xohlagan sanoal korxonasi qurish huquqini oldi. Bitimning Lyaodun orolini Yaponiyaga byerish haqidagi bandiga Rossiya va boshqa davlatlar qarshi bo'lishdi. Bu hoi Yaponiyani Rossiya chegaralariga juda yaqinlashtirib qo'ygan edi. Xitoy endigina sanoatlashuv yo'Hga qadam qo'yganda xorijiy davlatlar tomonidan talon-taroj qilinishi xalq ahvoliga og'ir ta'sir ko'rsatdi. Xitoyning to'g'ri taraqqiyot yo'lga olib chiqish haqida turli ilg'or ijtimoiy g'oyalar shakllandi. Bularning hammasi yaxlit ma'noda XIX asr oxirlarida Xitoyda islohotchilik harakati deb ataldi.

Islohotchilar Xitoyning parchalanib ketish xavfini tushunar edilar. Eng xavfli dushmanlar- Yaponiya. Rossiya, Frantsiya, Angliya va AQShning nayranglarini fosh qilardilar. Harakat g'oyaviy rahbarlaridan Kan Yu-vey, Lyaan Si-CHao, Mey Men-Xualar manjursin hukmdorlari nomiga memorandumlar yozib, islohotlar qilinishini taklif etishdi. Shu davr ijtimoiy harakatlarida Sun Yat Sening o'rni alohida edi. U Xitoyni inqilob yo'liga yetaklagan «rahnamo» edi. Sun Yat Sening «Xitoy uyg'onish jamiyati» nomli tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlab. Xitoyda demokratik milliy davlat to'zish uchun kurashar edi.

Yapon-Xitoy urushidagi mag'lubiyat islohotchilik harakatini yanada «jonlantirdi». 1897 yili Kan Yu-veyning beshinchi murojaatiga javoban nihoyat impyerator islohot haqida farmon byerdi. Impyerator farmoni bilan «100 kunlik islohotlar» davri boshlandi. Isiohotlar. Xitoyni kuchli. zamonaviy davlatga aylantirishga qaratitgan edi. Kan Yu-vey safdoshlari hukumatga kiritildi. Sanoat, transport, kon, xom- ashyo. qishloq xo'jaligi tarmoqlarini davlat qo'lida to'plashga harakat qilindi. Ammo bular eskilik tarafdori bo'lgan yuqori tabaqa zarbasiga uchradi. 1898 yil 21 sentyabrda islohotchilar dushman harbiy qismi boshliq to'da davlat to'ntarishi qilib, barcha islohotlarni bekor qildi. Impyerator Tuan Syuy qamab qo'yilib, idorasiz «qo'g'irchoq» podshohga aylantirildi. Islohotchilarning keng demokratik o'zgarishlar yo'liga chiqmaganliklari ularning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Kan Yu-vey boshliq bu islohotchilar aslida impyerator hokimiyatini saqlab, uning ishtirokida davlatni qayta . to'zmoqchi edilar. Bu yo'l tub o'zgarishlarga olib borishi qiyin edi.

Xalq qo'zg'olonlari va ijtimoiy harakat.

Xitoyda XX asr oxiridagi ijtimoiy harakatda «Ixetsyuan» (uni «ixetuan» deb ham yuritiladi) yashirin tashkilotining o'rni katta bo'ldi. Bu tashkilot tarixi XVII asrga, Xitoyni manjuriar bosib olgan davrga taqaladi. O'sha davrda «baylyanszyao» («Oq nilufar») yashirin tashkiloti lo'zilgan bo'lib, uning qanoti. «Ixetsyuan» (tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan musht) deb atalar edi. «Ixetsyuan» lar manjur tsinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz shiori bilan ish ko'rardilar. 1899 yili ixeyutsan harakati qo'zg'olon tusini oldi. Bu tarixda «boksyorlar qd'zg'oloni» deb ham nom olgan edi. Qo'zg'olon markazi Shandun, Chjili viloyatlari edi. Tyansnzin rayonida qo'zg'olon alohida yutuqqa yerishdi. Ixetuanlar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoyga birlashtirish kabi talablarni qo'yidilar, «CHet elliklar yo'qolsin, sotqin hokimlarning boshi chopilsin» shiorlari bilan chiqdilar. Sin hukumati qo'zg'olondan cho'chib qoldi. Chunki,

ixetuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyib yarmini qo'lga tutib turgan edilar. 1900 yili hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi.

Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari chet mamlakatlarning konsulhonalari, savdogarlarga, missionerlarga hujum qilib, Pekinga yurish boshladilar. Lyuyiun yonida hukumat qo'shinlari tor-mor etildi. Pekinda ixeluanlarning hokimiyati o'rnatildi. Ixetuanlar qo'zg'olonini chet el kapitalistik doiralari Xitoyga bostirib kirish uchun bahonaga aylantirdilar. 1900 yil iyunda Xitoyning Dagu porti bosib olindi. Impyerator Guan Syuuning xotini Sisi bosqinchilarga qarshi urush e'lon qilib, xalqni urushga ko'larish o'rniga ixetuanlarga qarshi kurash boshlab yubordi. Ixetuanlar Pekinda chet el elchixonalarini o'rab oldilar. Germaniya elchisi va Yaponiya elchixonasining maslahatchisi o'ldirildi.

Xitoyga chet el intyerventsiyasi

Bu voqea Pekinga chet elliklar yurishi boshlanishiga bahona bo'ldi. Intyerventsiyada sakkiz davlat qatnashdi: Germaniya, Yaponiya, Italiya, Angliya, AQSh, Frantsiya, Rossiya va Avstriya-Vengriya. Ularning har biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlar edi. Xitoyning markaziy va janubiy viloyatlari malika Sisi buyrug'iga itoat etmay chet elliklar uchun «ochib» byerildi. 1900 yil iyul oyida chet el intyerventlari yalpi hujumga o'tdilar, sin hukumati ularga qarshi ixetuanlarni urushga soldi. Maqsad qo'zg'olonchilardan urush bahonasi bilan qutulib olish edi. Xorijiy davlatlarning eng yangi harbiy texnika bilan qurollangan qo'shinlari birlashib, qo'zg'olonchilarga qarshi tashlandilar. Intyerventlar tinch aholini va qo'zg'olonchilarni shafqatsizlik bilan jazoladilar, shahar va qishloqlarni to'pga tutib yakson qildilar. xotin-qizlar, yosh bolalar va qariyalarni ham ayamadilar. Avgust oyida Pekin «qo'ldan ketdi». Xorijliklar shaharni va impyerator saroyini talon-larqj qildilar. Manjur Sin hukumati qochib ketdi. Chet elliklar oddiy xalqdan qasos ola boshladilar.

AQSh monopolistlari 90-yillarda Xitoyga bostirib kirishni o'zlariga asosiy maqsad qilib oldilar. Biroq, boshqa yirik davlatlar Xitoyni o'z ta'sir doiralari «taqsimlab» olganliklari uchun AQSh tovarlarini ana shu «ta'sir doiralari»ga olib kirishga, so'ngra esa o'zining tanho hukmronligini o'rnatishga imkon bo'ladigan doktrina topishi zarur edi. 1899 yilning sentyabrda AQSh davlat kotibi Xeyning Angliya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Frantsiya va Italiyaga yuborgan bir mazmundagi notalarida targ'ib qilingan «ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar» siyosatiga ana shu g'oya asos qilib olindi, hamda «Xey doktrinasi» deb nom oldi. AQSh Xitoydagi mavjud «ta'sir doiralari»ni tan olishdan bosh tortmadi. Lekin AQSh tovarlari uchun ana shu ta'sir doiralari «eshigini ochiq» qilib qo'yishini, ya'ni savdo-sotiq erkinligini va teng imkoniyatlar printsiplarini saqlab qolishni talab qildi. Bundan maqsad, Angliya, Rossiya, Yaponiya va boshqa davlatlar o'z tovarlari bilan savdo qilish uchun o'ziga hech qanday imtiyoz olmasligi kerak edi. O'zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoydagi barcha raqiblarini yengishga umid bog'ladi.

SHunday bir sharoitda boshlanib ketgan «boksyorlar» qo'zg'olonini bostirish uchun sakldz davlatning harbiy kuchlari birlashib, jazo ekspeditsiyasini to'zdilar. Shafqatsiz eksulpatatsiyaga qarshi ko'tarilgan shahar va qishloq kambag'allar ommasining bu qo'zg'olonini bostirishda AQSh faol qatnashdi. Sakkiz davlat Xitoyni asoratii shartnomada 1901 yil 7 sentyabrda imzolashga majbur qildi. SHartnomada qo'zg'olonga qatnashgan mansabdor shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shartnomada shuningdek, Pekin bilan dengiz sohili o'rlasidagi yo'llarni muhofaza qilish uchun chet davlatlarga Xitoyda o'z qo'shinlarini saqlashga ruxsat berildi. Bundan tashqari, horijliklarning Xitoydagi imtiyozlari ko'paydi. Nalijada Xitoy yanada himyasiz bo'lib qoldi. Har qanday chiqishlar shafqatsizlik bilan bostirildi.

Xorijiy bosqinchi kuchlarga qaratilgan «ixeluan» qo'zg'oloni natijasiz qolmadi. Mustamlakachilarni ehliyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi. Xitoydan olingan tovon pulining 25 mln.dollarini AQSh oladigan bo'ldi. 1907 yilda AQSh tovon miqdorini kamaytirib, 10.785.286 dollarga keltirishga rozi bo'ldi. Biroq Xitoy hukumati Xitoydan AQShga borib o'qiyotgan Xitoylik talabalar uchun mo'ijallangan maxsus fondga shu pulni o'tkazib qo'yishi lozim edi. Bu Xitoy ziyolilarini «sotib olish» va ularni AQShning josuslariga aylantirish tizimini o'rnatish uchun qilingan harakat edi. AQSh Rossiyani o'zining Xitoydagi asosiy raqibi deb bilar, shuning uchun Angliya kabi Yaponiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlar edi. XX asr boshlarida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Manjurlarning Tsing sulolasi hukmronligi inqirozga yo'z tutdi.

SHoshilinch ko'rilgan islohot choralari jamiyat ahvolini tubdan yaxshiladi. Xitoyda sanoat taraqqiyoti bilan unga to'siqqa aylangan yyer mulkchiligiga xos qoloq ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida ziddiyat chuqurlashmoqda edi. Omma orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakat kuchaydi. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushi, dunyodagi inqilobchilik harakati Xitoyga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Lekin bu harakat Xitoyning o'zida «siqib» tashlangan edi. Xorijiy davlatlar Xitoyda o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Chet el kapitali ko'paydi. Chet elliklar Xitoydan juda ko'p foyda oldilar. Xitoy bozorlari chet el gazlamalari bilan to'lib ketdi. Xitoy milliy sanoati savdosi rivojlanishi ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsada, XX asrning birinchi o'n yilligida 386 ta fabrika, shaxta, konlar ishga tushirildi. Har yili 50 tadan ko'proq korxonalar ishga tushirildi. Eksport 1901 yildan 1911 yilgacha 122 mln. dollardan 245 mln. dollarga o'sdi. Chet el kapitali 750 mln. dollardan 1650 mln. dollarga ko'paydi. 1900 yildan 1913 yilgacha xorij firmalari soni oshib, 2400 ga yeldi. Xitoyda yashovchi chet elliklarning soni 53 mingdan 165 mnga yetdi. Xorijiy davlatlar ichida Angliya tovar ayriboshlashda birinchi o'rinda (50 foiz) turar edi. 1914 yilga kelib Xitoy xorijiy davlatlardan 835 mln. dollar qarz

bo'lib qoldi. Hali ishchilar sinfi katta kuchga aylanmagan bo'lsa ham, unga a'zolar soni tobora o'sib bordi. Qishloqlarda dehqonlar feodallar zulmi ostidajafa chekardilar.

1905-1906 yillarda Xitoyda ijtimoiy harakat yanada kuchaydi. Konstitutsiya yaratishga urinishlar bo'ldi. Sin sulolasini saqlab, konstitutsion monarxiya hukumatini to'zish rejalari ishlandi. Sun Yat Sen tashkiloti konstitutsiyaviy - monarxiya haqidagi fikrlarni qoraladi. Sin sulolasini umuman yo'qotib, Respublika to'zish talabi quyildi; Bu chaqiriqlar manjurlarga qarshi harakalni yanada kuchaytirildi. Bu harakat, ayniqsa 1911 yili chet elliklardan Xankou-Sichuan, Xankou-Guanchojou temir yo'liari qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzuldigach, qurolli qarshilik tusini oldi. Sichuanda bu harakat avjga chiqdi. Hukumat qo'shinlari qo'zg'olonchilarni o'qqa lutdi. Bu voqea mamlakatda norozilikni kuchaytirdi. Xitoydagi ijtimoiy harakat manjurlar hokimiyatini tugatish maqsadlari bilan «Sinxay inqilobi» nomli voqealarga ulanib ketdi. Manjur ma'muriyatining qo'zg'olon harakati vakiliarini qidirish, tutib qatl etish kabi choralari xalqning sabr kosasini lo'ldirdi.

Uchan shahrida askarlar yotog'ini tintuv qilishga kirgan manjur ma'muriyati tarafdorlarini askarlar tutib o'ldirdilar. Qurol-aslaha omborini bosib oldilar. Boshqa qo'shin qismlari ham ularga qo'shildi. Inqilobchilar 11 oktyabrda Uchanni to'la qo'lga kiritdilar. Ular Respublika hukumati to'zdilar va barcha Xitoy viloyatlarini Respublika atrofida birlashishga chaqirdilar. Manjurlar sulolasi hukmronligi tugatilgan, deb e'lon qilindi. Xunan, Sheni, Szyansu, Chjenszyan, Guandun, Guansi, Chuichjou, Yunan, Shanxay, Shandun va boshqa viloyatlar ham manjur sulolasiga itoatdan chiqdilar. Shunday qilib, «Sinxay inqilobi» qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda XVII asrdan boshlab hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi.

Inqilobchi -demokrat Sun Yat Sen (1866-1925) Xitoydagi milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi edi. U Guanchjou (Kanton) yaqinida dehqon oilasida tavallud topdi. Sun Yat Sen 90-yillarning boshida Gonkong (Syangan)da ingliz tibbiyot institutini tamomladi. Bu ittifoq 1905 yil noyabrda «Minbao» (Xalq gazetasi)ni chiqara boshladi. «Ittifoq» Sun Yat Sen rahbarligida keng daslur qabul qildi. Dasturda Sin monarxiasini ag'darib tashlash, Xitoyda Respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashirish, muslaqillikni tiklash, rnillatparvarlik, demokratiya va xalq farovonligi talab etiigan edi. Sun Yat Senning agrar dasturi yyer olishga «tashna» bo'lgan dehqonlar ommasining orzu-tilaklarini ifoda etar edi. Sun Yat Sen ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yerga egalik huquqini tenglashirish yo'li bilan ijtimoiy adolatli to'zum yaratish mumkin, degan fikrda edi. Sun Yat Sen muttasil ta'qib ostida bo'lgani uchun ham tez-tez Xitoydan chiqib ketishga majbur bo'lardi. U Yaponiya, AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlarda muhojirlikda bo'lib, ko'p sonli Xitoy muhojirlari orasidan o'ziga tarafdorlar jalb qildi.

1911 yil oxiriga kelib, Xitoyning barcha janubiy va markaziy viloyatlari qo'zg'olonchilarning la'sirida edi. 1911 yil 25 dekabrda ko'p yillik muhojirlikdan so'ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi. Uni Xitoy xalqi xursandchilik bilan kutib oldi. 29 dekabrda Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat milliy majlisi to'plandi. Millat majlisi Xitoyni Respublika, deb e'lon qildi va muhojirlikdan qaytib kelgan Sun Yat Senni Xitoy Respublikasining vaqtincha Prezidenti qilib sayladi. 1912 yil 1 yanvardan Sun Yat Sen o'z Prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. Millat majlisi vaqtincha qabul qilingan Konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi va turli demokratik erkinliklar e'lon qilinsa-da, dehqonlarning orzu-tilaklarini ifoda etuvchi «yerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish» shiori Konstitutsiyada ham, millat majlisining ko'rgan chora tadbirlarida ham o'z aksini topmadi. Lekin dehqonlar o'zlaricha tashabbus

ko'rsatib, pomeshchiklarga ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar. Chunk! ko'pchilik viloyatlarning rahbarlari inqilobchi demokratlar emas, balki libyeral kayfiyatdagi pomeshchiklar va burjuaziya vakillari edi. Ular «Birlashgan Inifoq»qa kirib uning qarorlarini bajarmay, katta salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Bundan tashqari.-Sun Yat Senning ko'plab sodiq safdoshlari ham libyerallar tomonga o'tib ketishdi. Sun Yat Senning o'zi ham ularning tazyiqi bilan o'z dasturining asosiy bandidan- yyerga egalik qilishda teng huquqli bo'lib talabidan voz kechdi.

SHanxayda 1911 yil dekabr oyining o'rtalari Pekindagi impyeralor hukumatining boshlig'i Yuan Shikay vakiilari bilan inqilobiy ruhdagi janub delegatsiyasi o'rtasida mo'zokaralar bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, Pekin hukumati inqilobchilarni umumiy avf etishni va mamlakatda konstitutsiyaviy to'zum o'rnatishni va'da qildi. Qo'zg'olonchi Janub vakillari Sin sulolasini ag'darib tashlashni Respublika e'lon qilishni qat'iy talab qilishdi. Yevropa davlatlari va AQSh 20 dekabrda Shanxayda muzokaralar olib borayotgan vakillarga po'pisa qilib, muzokaralarda zudlik bilan murosaga kelishni va fuqarolar urushini to'xtatishni taklif qildilar.

Chet el monopolistlari Xitoydagi o'zlarining moddiy manfaatlari va xavfsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi bahonasida o'z laklflarini bildirdilar. Ular diplomatik yo'l bilan aralashganlari holda o'z harbiy kemalarini ayni paytda Yansizi daryosiga kiritib, to'plarini inqilobiy Uchan va Xankau shaharlariga to'g'rilab qo'ydilar. Xorijlik bosqinchilar Xitoydagi inqilobni qurol kuchi bilan bostirish maqsadida o'z kuchlarini birlashtirishga yycrishgan edilar. Rivqjlangan xorijiy davlatlarning Pekin hukumatini qo'llab-quvvatiashidan maqsadi Xitoyning ichki ishlariga o'z bilganicha aralashish edi. Biroq, bu Xitoyda umumiy norozilik mitinglari o'tkazilishiga sabab bo'ldi. Xitoyliklar mitinglarda chet el tovarlarini boykot qilish to'g'risida qarorlar qabui qildilar. Libyerallar Pekin hukumatining

Bosh vaziri. reaksion genyeral va yirik amaldor Yuan Shikay bilan bitim to'zdilar. U qal'iyatsiz amalparast kishi edi.

Pekin Saroy ahli unga monarxiyaning homiysi-xaloskori deb qarar edi. Yuan Shikay inqilobiy harakatning tazyiqi bilan 1912 yil 12 fevral kuni Sin sulolasining taxtdan voz kechishiga yerishdi. Buning evaziga u libyerallardan o'zini respublika Prezidenti qilib saylash haqidagi va'dani oldi. Yuan Shikay Nankinda hukumat to'zdi. Bu paytda xorijiy davlatlar ham Xitoyning ichki ishlariga aralashib, Sun Yat Senning hukumat «tepasidan» ketishini ochiqdan-ochiq talab qildilar. Libyerallar ham Sun Yat Senga oshkora tazyiq o'tkazib, prezidentlikdan Yuan Shikay hisobiga voz kechishni so'radilar. Chunki libyerallar inqilobning yana davom elishini xohlamas edilar. Xorijiy davlatlar esa reaksiya kuchlarini quvvatlab turdilar va Xitoyga intyervensiya uyushtirishga oshkora tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Xitoyga qarshi intyervensiya xavfi ostida 1912 yil 1 aprelida Sun Yat Sen prezidenttik lavozimini Yuan Shikayga topshirishga majbur bo'ldi.

Hokimiyat «tepasiga» kelgan Yuan Shikay demokratik erkinliklarni «oyoq osti» qilib reaksion yo'lga kirdi. U avval ishni inqilob qo'shinlarini butunlay qurolsizlantirishdan boshladi. Isyonkor dehqonlar qishloqlariga jazo otryadlarini yuborib inqilobehilarni ta'qib qila boshladi. Ishchilarning kasaba uyushmaiari tarqatib yuborildi. Hukumatga qarshi tuzuldigan bar qanday guruh a'zolarining taqdiri o'lim bilan yakunlanardi. Mamlakatdan ilg'or fikrli kishilar yashlrin chiqib keta boshladilar. Har bir qishloqda jazo ekspeditsiyasi ish ko'radigan bo'ldi. Reaksiya kuchaydi.

Ayni vaqtda «Birlashgan ittifoq» bilan libyeral guruhlar qo'shilib, 1912 yil avgustda Gomindan (Milliy partiya)ni to'zdilar. Partiya boshqaruvi raisligiga Sun Yat Sen saylandi. Gomindan Xitoy pomeschiklarining hujumiga konstitutsiya ishlab chiqish va parlamenl chaqirish yo'li bilan halaqit byerishga urindi. Gomindan partiyasining dasturida dcmokratik talablaryo'q edi. 1912 yilda bo'lib o'tgan

prezident saylovlarida Yuan Shikay reaksiya yo'liga o'tib nomzodlarni kamsita boshladi. Konstitutsiyaga ko'ra, Gomindan partiyasi o'z hukumatiniK to'zishga haqli edi. Yuan Shikay Gomindanning prezidentlikka nomzod bo'lgan vakili Sun Szyao-CHjenni yashirin qatl ettirib yubordi.

Xulosa

Mamlakatda tyerrorning kuchayishi Yuan Shikayning kimligini oshkor etdi. Aksil inqilobning g'alabasidan ruhlangan Yuan Shikay o'zini rivojlangan xorijiy davlatlar qo'liab-quvvatlashi uchun harakat boshlab, yubordi. Uning diklatura o'rnalishga bo'lgan birinchi qadami parlamentni tarqalib yuborish bo'ldi. So'ngra millat majlisiga po'pisa qilib, o'zini besh yil muddalga Prezidentl qilib saylashga majbur qildi. Aprelda Yuan Shikay rivojlangan monopolistik davlatlar bilan yangi asoratli qarz to'g'risida shartnoma imzoladi. Shundan so'ng xorijiy davlatlar Xitoy Respublikasini tan olganliklarini ma'lum qildilar. Xitoyning iqlisodiy ahvoli og'irlashdi. Sun Yat Sen Xitoy xalqini qo'zg'olon boshlashga undadi. 1913 yi yozida Xitoyning janubida hukumatning reaksion siyosatiga qarshi «Ikkinchi inqilob» deb nomlangan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Qo'zg'olonga Sun Yat Sen boshchilik qildi. Biroq kuchlar teng bo'lmaganligi, qo'zg'olonchilar zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganliklari tufayli, chet davlatlardan harbiy madad olgan hukumat qo'shinlari tomonidan «Ikkinchi, inqilob» harakati tor-mor etildi.

1914 yil mart oyida Yuan Shikay Konstitutsiyaviy kengash chaqirdi. Unda «Yangi Xitoy Konstitutsiyasi» qabul qilindi. To'plangan odamlar lining so'zini «ikki» qilmaydiganlar edi. Yuan Shikay Prezident sifatida eheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Harbiy diktatura o'rnalildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi. Bu hoi amalda 1911 yilgi «Sinxay inqilobi»ning mag'lubiyati edi. Yuan Shikay diktaturasi armiyaga va eski davlat ma'muriy idoralarining vakillariga suyandi. Sun Yal Sen Yaponiyaga ketib u yyerda «Xitoy inqilobiy» (CHjun Xua -gomindan) partiyasini to'zdi. Boshlanib ketgan birinchi jahon urushi

Xitoyning Yaponiyaga qaramligini kuchaytirdi. Buning ustiga Yuan Shikayning xalqqa qarshi siyosati Xitoyda qator qo'zg'olonlarga sabab bo'ldi. Chunki, Yuan Shikay imperatorlik tojini kiyib, Xitoyda podsholik to'zimini o'rnatishni o'ylab qolgan edi.

Tayanch iboralar:

Xitoyning yarim mustamlakaga aylantirilishi. Kompradorlar. Muxolif jamiyatlar. Ixetuanxilar. Tsin hukumati. Sinxay inqilobi. Sun Yat Sen. Yuan Shi Kay. Gomindan. Xitoyga interventsia. AQShning «ochiq eshiklar» siyosat. Xorijiy davlatlarning Xitoyga bo'lgan munosabatlari.

Nazorat savollari:

1. Xitoyning xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari va tashqi siyosati.
2. Xalq qo'zg'olonlari va ularning bostirilishi
3. Ijtimoiy harakat. Sun Yat Sen.
4. Xitoyga xorijliklarning inlyatsiyasi
5. Ikkinchi dunyo urushining kelib chikish sabablari.
6. Tyantszin sulh shartnomalari va ularning oqibatlari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tayninskaya vosstanie, 1850-1864: Sb. dokumentov. M. 1960
2. Vasilev L.S. Istoriya Vostoka. V2t. M. 1998. T1-2
1. Ilyushechkin V.P. Krestyanskaya voyna taypinov. M.1998
2. Fan Ven Lan Navayaisskoriya Novaya istoriya Kitaya. M., Nauka, 1972.
3. Vneshnyaya politika Gosudarstva Tsinn. M., Nauka, 1977
4. Yefimov T.V. Vneshnyaya politika Kitaya v 1894-1899 gg. M., V.I., 1958.
5. Txvinskiy S.L. Istoriya Kitaya i Sovremennost M., 1976
6. Novaya istoriya stran zarubejnoj Vostoka. M., Nauka 1961.
7. Novaya istoriya Azii i Afriki. M., Nauka 1982.

10. Yefimova T.V. Revolyutsiya v Kitae i Sun Yat Sen (1911-1913) M., 1957.

11. Ko'znetsov.S. Ekonomicheskoe politika tsnskogo pravitelstva v pyervoy polovine XIX veka. M., 1973

Mavzu. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Hindiston.

Reja:

Kirish

1. XIX asr oxirida Hindiston
2. Hindiston Milliy Kongressi partiyasining tuzilishi.
3. Tilak va uning inqilobiy faoliyali
4. XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

Xulosa

Kirish

Hindistonning bu davr tarixi jahonda mustamlakachilik harakatining yangi bosqichi, Angliya tomonidan hind xalqini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va milliy-ozodlik harakatining umum Hindiston miqyosida keng tarqalishi bilan bog'liq kechdi.Hindiston buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylangan edi. Inglizlar Hindistonni vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya apparati yordamida boshqarar edilar.

Ingliz mustamlakachilik istibdodi sharoitiga qaramay, Hindistonda ham sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886 yilda to'qimachilikning 95 ta fabrikasi bor edi, konlar soni 1880-1900 yillarda 56 tadan 286 taga yetdi. Temir yo'l tarmoqlari 1900 yilda salkam 40.000 kmni tashkil qildi. Bu xom-ashyo tayyorlash va tashishda ham muhim ahamiyatga

ega boldi. Hindistonda sanoatni Angliya o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalarini dengiz bo'yi port shaharlari yaqinida edi, maqsad Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish edi.

1873 yildan 1883 yilgacha Hindiston bilan Angliya savdosi 60 foizga o'sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi. Ingliz banklaridan Hindistondagi boshqaruv apparati katta miqdorda zayomlar olib turadi. Bu summa 1856 yildagi 4 mln. funt sterlingdan 1900 yilga kelib 133 mln. funt sterlingga ko'tarildi. Britaniya banklari juda katta foiz olardilar. Sanoatga biryoqlama zo'r berilishi qishloq xo'jaligini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati past edi. Mustamlakachilik harakati bilan ochilgan sug'orish inshootlari bor-yo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetar edi. Bu daraja Boburiylar (1526-1858) davridagidan ham kam edi. Qishloqda eski feodal mulkchiligi, yarim qaram dehqonlarni ekspluatatsiya qilish davom etdi. Yerni 60-70 foiz hosilni to'lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berildi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur qilingan odamlar toifasi tobora ko'paya bordi.

XIX asr oxirida Hindiston

Qishloq xo'jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu sohada ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ularni qul deb atalar edi. Ularni ezishning barcha usullaridan foydalanilardi. Shunday qilib Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi, xolos. Mehnatkashlar ahvoli esa tobora yomonlashdi, qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. Bengaliya kanop, Assam choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta, Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Lekin texnik ta'minotda hech narsa o'zgarmadi. Dehqon yanada qattiq ezildi. Zamindorlar, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, oxirgi parcha

nonini ham qoldirmas edi. 1870-1890 yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik bo'lib, unda 18 million odam ochlikdan qirildi.

Sunday ahvol Hindistonda milliy ozodlik va ijtimoiy harkatlarga olib keldi. Dastlab Kalkutta, Bombay, Madras kabi shaharlarda bu harakat uch oqim bo'lib shakllandi. Jumladan, Bombayda burjua-zamindorlarining konsyervativ «Britaniya-Hindiston assotsiatsiyasi» tuzildi. So'ng nisbatan ilg'or g'oyalar bilan bogliq (libyeral) «Hindiston assotsiatsiya» paydo bo'ldi. Ilg'or (radikal) oqimlar ham bor edi. lekin bu harakatlar keng ommani yetaklashda yirik zamindorlarga xizmat qilardi. Dehqonlarning stixiyali harakatlari kuchaygan sari Britaniya mustamlakachilari Hindistonda reaksion kuchlar-knyazlar, pomeschiklar, kompradorlar bilan yaqinlashib. musulmonlar bilan hindlar o'rtasida dushmanlik, nizo «urug'ini» socha boshladilar. 1870-1880 yillarda ingliz mustamlakachilariga, mahalliy zamindorlarga va sudxo'rlar zulmiga qarshi dehqonlar qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Panjobda Baba Ram Singx boshliq yarim harbiy tashkilot qo'zg'olon ko'tardi. 1872-1873 yillarda Patna, Bogra, Sharqiy Bengaliya dehqonlari, 1875 yili Barod hokimligida, Puna, Ahmadnazar rayonlarida qo'zg'olon boshlandi.

1871 yil 1-yanvarda Angliya qirolichi Viktoriya Hindiston qirolichi deb e'lon qilindi. Bu tadbir reaksiya kuchlarini bir yerda to'plashga qaratilgan edi. Mustamlaka ma'murlari turli soliqlarni yanada oshirish, ochlarga yordam fondini qisqartirish, davlat xizmatchilariga beriladigan maoshlar miqdorini kamaytirish yo'lidan bordi. Yangi-yangi qo'zg'olon va g'alayonlar boshlandi. 1871-yili Bombay, Madras, Puna, Suratda ish tashlashlar, 1879 yili Marath dehqonlarining qo'zg'olonlari bo'ldi. Ularning boshlig'i Vasudev Phadke mustaqil marath davlati tuzish shiorini qo'ydi. Bir yildan so'ng, 1880-yili inglizlar bu qo'zg'olonne bostirishdi. Phandke osib o'ldirildi, 70 kishi badarg'a qilindi.

1877 yilda Dehlida qirolicha Viktoriyani Hindiston qirolichasi qilib ko'tarish marosimi bo'lib o'tdi. Hindistonning turli burchaklaridan kelgan knyazlar Viktoriyaga sodiqlik haqida qasamyod qildilar. Bu narsa knyazlar bilan ingliz mustamlakachilarini yaqinlashtirishi lozim edi. 1878 yilda ingliz ma'muriyati «vitse-qirol» deb ataldi. Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qilindi va bu qonun bo'yicha barcha gazetalar inglizlar nazoratiga o'tdi. Oradan bir yil o'tgach, o'q otar qurollarni saqlamaslik haqida akt qabul qilindi va barcha aholining o'q otar qurol saqlashni man qilindi. Ammo, bu narsa yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan o'rmonlar yaqinida yashovchi dehqonlarning noroziligiga sabab bo'ldi.

Inglizlar shu bilan bir vaqtda o'zlarini mahalliy burjuaziyaga «yon berganday» qilib ko'rsatishga harakat qildilar. Shahar ma'muriyatiga boy hindlar saylansada, amalda hokimiyat shahar boshlig'i ingliz qo'lida edi. Ingliz vitse-qirol Kyerzon Hindistonda zo'ravonlik siyosati o'tkaza boshladi. 1883 yili u kumush rupiya pul zarb qilishni taqiqladi. Rupiyaning valyuta qiymatini sun'iy ravishda ko'tarib qo'yib, yangi qiymatga «mos» keluvchi oltin rupiya chiqardi. Shu yo'l bilan Hindistondagi tarixiy pul tuzimiga barham berdi. Uning chet mamlakatlar bilan an'anaviy savdo aloqalariga zarba berdi. Hindistonni faqat Angliya orqali savdo qilishga majbur etdi. 1885 yili Broche viloyatida Lakx boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Lakx inglizlar hukmronligiga barham byerdi. Hindiston mustaqil podsholik deb e'lon qilindi. Inglizlar kuch, bilan qo'zg'olonni bostirib, Lakx va uning ikki safdoshni osib o'ldirdi, 57 kishi surgun qilindi.

Hindiston milliy kongressi partiyasining tuzilishi. Tilak va uning inqilobiy faoliyati

Xalq harakatiga boshchilik qiladigan darajada kuchga ega bo'lgan, muayyan dasturi bor siyosiy partiya Hindiston Milliy Kongressi 1885 yilda Bombay shahrida tuzuldi. Keyinroq «Musulmonlar ligasi» ham tuzuldi va shundan e'tiboran

inglizlar hind-musulmon raqobatini kuchaytirib yubordilar. Unga Kalkuttada 1884 yili tuzulgan «Hindiston Milliy ittifoqi» tashkiloti ham qo'shilib ketdi. Delegetlarning yarmi hind yuqori tabaqa ziyolilaridan bo'lsa, yarmi sanoatchilar, savdogarlar va katla yer egalari edi. O'sha davrda qabul qilingan nizomda mamlakatda o'z-o'zini boshqarishda hindlar bilan inglizlarning lengligi aytilgan edi. Yana bir bandi Hindiston sanoatchilari manfaatlarini ko'zlab, chet eldan keltirilgan mollarga bojxona tarifi joriy qilishga bag'ishlandi.

Dastlabki vaqtlarda Hindiston Milliy Kongressiga ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Angliyaning Hindistondagi vitse-qirol lord Daffyerin: «Milliy Kongress inqilobdan arzonroq» deb izohlagan edi. Chindan ham 1880 yillarda Hindistonda milliy ruh kuchaygan edi. Xalq mustamlaka zulmi azobidan holdan toygan, hukmron doiralarni vaziyatni nazorat qilib turishlari qiyin bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham HMK partiyasi tuzulishiga inglizlar xayrihoh bo'lib, ular bu libyeral tashkilot vaziyatni yumshatib turadi, deb hisoblar edilar. Lekin ingliz ma'murlari biroz vaqt o'tgach, HMK partiyasi tutgan yo'ldan dahshatga tushib, uni parchalab, zaiflashtirib qo'yishga harakat qila boshladilar.

HMK partiyasining talablari dastlabki paytlarda juda mo'tadil edi, bu talablar Buyuk Britaniya hukmronligini saqlab qolib, ba'zi islohatlarnigina ko'zda tutardi. Masalan, chetdan keltiriladigan gazlama(tovar)larga bojlarni belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining vakolatlarini kengaytirish, hindlarni boshqaruv ishiga jalb etish, texnik ta'limni uyushlrish va boshqalar edi. Lekin mamlakatda kapitalistik munosabatlar rivojlanib borgan sari metropoliya bilan koloniya o'rtasidagi kurash, ziddiyat kuchayib bordi. Hind xalqining esa mustaqillikka intilish harakati ham yetilib, ular inglizlarning hiyla nayranglarini tushunib yetdilar. Tilak va uning inqilobiy faoliyatida, dastlab HMK ning tepasida turadigan loyiq kuch topilmadi. Nihoyat 1890 yillarda HMK da ilg'or, xalqchil, so'l radikal-

demokratik oqim shakllandi uning rahbari Bal Gandgathara Tilak (1856-1920) edi. Maratxlik, ijtimoiy (til, tarix. huquqiy) bilimlar bilan yaxshi qurollangan Tilak mustamlakachilik tuzumi bilan kelishuvchi HMK dan yuz o'girdi. U Hind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan borib, ayni vaqtda dinga va uning ommani birlashtiruvchi kuchga katta baho berdi.

Uning sevgan qahramonlari Garibaldi va Madzini edilar. Kollejni tugallash paytida butun kuchini, vatan mustaqilligiga sarflashga, sadoqatli bo'lishga qasamyod qildi. Tezda u Puna shahrida maktab tashkil qilib, unda o'quvchilarga mustaqillik g'oyalarini singdira boshladi. 1880 yilda «Kesari» (Sher) gazetasini tashkil etdi, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. Ayniqsa, maratxlar qahramoni, chet elik bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib borgan Shivoji xotirasiga bag'ishlab xalq bayramlarini tashkil qildi, «Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas», degan edi Tilak, bu harakat katta ta'sirga ega bo'lib, mustamlakachilar undan qo'rqib qoldilar, hatto 1897 yilda Tilak qamoqqa olindi. Biroq xalq talabi bilan u tezda ozod qilindi. Bu voqeaning o'zi Hindistonda mustaqillik harakati jadal rivojlanayotganidan dalolat berar edi.

XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy iqtisodiy ahvoli

XX asr boshida Hindistonda kapitalizm yanada o'sdi. 1910 yilda kanop tola fabrikalari ikki barobar ko'paydi. Paxta xom ashyosidan surp mato ishlab chiqish o'sdi. Korxonalar soni 215 taga, ishchilar soni 1 mlnga yetdi. Yangi ijtimoiy qatlam bo'lgan bu sinfning soni ko'payib bordi. Inglizlar Hindistonni boshqarishni agentliklar va banklar qo'lga topshirib qo'ygan edilar. Agentliklar ingliz kapitalini Hindistonga joylashtirish uchun dallollik qilar edilar. Shunday yo'l bilan mustamlakachilar barcha tarmoqlarni, masalan, ko'mir havzalari, kanop sanoati, choy plantatsiyalari, transport, savdo, sug'urta jamiyatlarini o'z

qo'llariga oldilar va bu bilan butun Hindistonda ishlab chiqarish, iqtisodiyot ustidan nazorat o'rnatdilar.

Angliyaning sharqdagi mustamlakalari orasida eng rivojlangani Hindiston edi. Shu sababli bu yerda Angliya kapitali tez o'sib bordi. Ular 1893-1907 yillarda temir yo'l 53%, xususiy kompaniyalarda 23, banklarda 95 foizga oshdi. 1905 yilda Hindistonda 165 ta chet el Aktsionyerlik kompaniyalari mavjud bo'lib, ular mamlakatni taladilar, xalqning ahvoli og'irlashdi. 1896-1906 yilda 10 mln odam ochlikdan o'ldi. 1904 yilda 1 mln odam vabodan qirildi. 1899-1900 yilda markaziy viloyatlarda dehqonlar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Inglizlar bu qo'zg'oloni kuch bilan bostirdilar. O'z manfaatlari uchun yangi-yangi qonunlar chiqardilar.

1901 yil Kerzonning «Kon qonunlari» e'lon qilindi. Unga muvofiq 20 fut chuqurlikdagi yer osti boyliklari Angliyaniki deb e'lon qilindi. Bu hind mulkini talon-taroj qilish edi. Soliq tizirni murakkablashdi. 44 mln funt sterlinglik yig'implarining 37 mlni oylik va nafaqalarga va politsiya uchun sarflandi. 1905 yil Kerzon univyersitetlarga kirish haqini 2 barobar oshirdi, ulardagi huquqshunoslik fakultetlari «yopib» qo'yildi. Xalqchil, demokratik, mustaqillik, vatanparvarik ruhidagi talabalarga oliy o'quv yurti eshiklari yopildi. Bu qonun irqchilik va milliy kamsitish ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, u xalq nafratini oshirdi. Mustamlakachilikda milliy ozodlik harakatini bo'lib tashlash maqsadida, Hindiston hududini parchalab yuborish siyosatini tutdilar. 1905 yili Bengaliya ikkiga bo'lib tashlandi, chunki bu o'lka mustaqillik markazlaridan biri edi, kalkuttaliklardan 100 ming kishi namoyishga chiqdi. Ular «Bande mataram» (Salom senga Vatanim onam) qo'shig'ini aytib bordilar. Norozilikning yana bir ko'rinishi xorij mollaridan yuz o'girish-baykot qilish bo'ldi, bundan ingliz kompaniyalari katta zarar ko'rdi.

Inqilobiy harakat. «Svaraj» va «svadeshi» shiorlari. Tilak va tilakchilar harakati.

1906 yil dekabrda Tilakchilar talabi bilan HMK qaror qabul qilib, unda uch narsa ilgari surildi: Birinchisi - «Svaryaaj» (o'z hokimiyatimiz), ikkinchisi - Svadeshi» (o'z ishlab chiqarishimiz) va uchinchi - ingliz mollariga boykot e'lon qilish. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. «Paysa fond» jamiyatini tuzib, hind sanoati ko'rgazmasini tashkil qildi. 1905 yilda Angliyada hokimiyat tepasiga kelganda ingliz hukumati mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. 1907 yili qurg'oqchilik va o'latdan 1,5 mln kishi o'ldi. Bengaliya, Ravalpindi, Panjobda qo'zg'olonlar bo'ldi. 1905 yil Bombayda HMK qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda «Mo''tadil» oqim bilan «radikal» oqim o'rlasida qattiq tortishuv bo'ldi. «Mo''tadillar» koloniya bo'lib mamlakatni o'zlari idora qilmoqchi, Tilak boshliq radikallar mustamlakachilikka qarshi edilar. Radikallar zaldan haydab chiqarildi. Shunday qilib, HMK ikkiga bo'linib ketdi. Qurultoy mustamlakachilarga yon bosuvchi qaror qabul qildi. Asta-sekin boruvchi islohotlar yo'lini tanladi. Tilak va uning izdoshlari «Millatparvar» partiya tuzganliklarini e'lon qilib, ko'plab varaqalar chiqardilar. Ularni butun hind xalqi quvvatladilar, asosan ishchilar ular tarafida bo'ldilar.

1905 yilda Bombay ishchilari ish tashladilar, mart oyida ularga aloqachilar qo'shildi. Kalkuttada, Madrasda ish tashlashlar boshlanib ketdi. Tijeveli shahrida «Svaraj» harakati tarafdorlari qamaldi. 1908 yil 24 iyunda Tilak qamoqqa olindi va sud qilindi. Sudda so'zlagan nutqida Tilak inglizlarning mustamlakachilik qiyofasini fosh qildi, o'sha nutqi boshdan oyoq mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan edi. U 6 yil katorga ishlariga hukm qilindi. Bombay mehnatkashlari bunga qarshi bosh ko'tardilar, doker va boshqa 100 minglab ishchilar Tilakni ozod qilishni, talab qildilar. Ma'murlar yon berishga majbur bo'ldilar, biroq jazoning katorga qismigina olindiyu, u qamoq bilan almashtirildi, xolos. Xalq kurashni davomi ettirdi, qurollana boshladi.

1906-1908 yiillardagi inqilobiy harakat HMK va inglizlarni cho'chitib yubordi. HMK dagi o'ng qanot kelishuvchilari dominionlikni (o'z-o'zini boshqarish huquqini) berishni talab qildilar. Tilak va uning tarafdorlari to'la mustaqillik nuqtai nazarida turdilar. Panjob xalqi ham ularni quvvatladi, ayniqsa, ishchilar, dehqonlar ular taratida edilar. HMK Tilakchilarni partiya safidan chiqardilar. Hind zamindorlari, rojalar va yirik moliyachilar bu qo'zg'olonlarni bostirishni talab qildilar va qo'zg'olon bostirildi. Inglizlar hindlar o'rtasidagi bu kelishmovchiliklardan ustalik bilan foydalandilar, ularni bir-biriga qarshi qo'yib, adovat o'tini yoqdilar. Shu bilan birga hindilar va musulmonlar o'rtasida nizo chiqarib, mustaqillik kuchlarini zaiflashtirdilar. Inqilobiy harakat so'ndi. Inglizlarning hukmronligi ta'minlandi va ular Hindistonni talab, boyliklarini tashib ketdilar.

Xulosa

Shunday qilib, birinchi jahon urushi arafasida Hindiston amalda ingliz mustamlakasi sifatida Angliyani zarur xom-ashyo bilan ta'minlovchi o'lka bo'lib qolaverdi. 1909 yil noyabrda «Hindiston kengashlari haqida qonun» qabul qilindi. Unga muvofiq joylardagi kengashlarning a'zolari soni oshirildi, aholining yarim foizi saylov huquqini oldi, xolos. Saylovlar diniy jamoaga qarab o'tkaziladigan bo'ldi. Bu bilan ular o'rtasiga nifoq solindi. 1912 yilda mustamlaka ma'muriyati 12 soatli ish kunini joriy qildi, ilgari u 13-19 soat edi. Bu qonun yirik korxonalarni ko'zda tutgan bo'lib, amalda kichik korxonalari ko'p bo'lgan Hindiston ishchilariga hech bir naf bermadi. Ishchilar harakati o'sib bordi, mustaqillik masalasi nihoyatda o'lkir, ahvol esa tangligicha qoldi.

Bundan cho'chigan mustamlaka ma'murlari hind xalqini chalg'itadigan (ovutadigan) tadbirlarni o'ylab topdilar, masalan, Bengaliya 1911 yilda birlashtirildi. lord Kerzon poytaxtni Dehliga ko'chirdi, chunki Kalkutta ozodlik markazi edi. XX asr boshlarida Hindiston ana shunday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy

vaziyatlar girdobida o'z taraqqiyot yo'lidan ilgaritab borar edi. Milliy ozodlik harakatida muvaffaqiyatsizliklar, orqaga ketish ro'y berdi. Sarmoyadorlar, savdo, sanoat va moliyachilar har qanday sharoitdan o'z manfaatlari yo'lida foydalandilar. Hindiston MK, uning ilg'or qanoati shakllanishi ijtimoiy, milliy ozodlik harakatiga kalta ta'sir qildi. Shu yillarda Hindistonda mustamlakachilarga qarshi kurashda o'ziga xos kurash usullariga asos solingan edi.

Tayanch iboralari:

Ingliz mustamlakachiligi. Inglizlarning soliq tizimi. Hunarmandchilik. Savdo. Sanoat. Ingliz mustamlakachiligining oqibatlari. Milliy-ozodlik harakati. Qo'zg'olon markazlari. Qo'zg'olonning oqibatlari. Ingliz mustamlakachilik tizimi. Soliqlar asorati. Milliy-ozodlik kurashi. Hindiston Milliy Kongressi. Musulmonlar ligasi. Siyosiy oqimlar. Tilak. Kyerzon qonunlari. Bengaliyaning bo'linishi. Svaraj. Svadeshi. Boykot qilish.

Nazorat savollari:

1. Hindiston sanoati.
2. Mamlakat qishloq xo'jaligi.
3. Milliy ozdlik harakati.
4. Dehqonlarning stixiyali kurashi.
5. Ijtimoiy harakatdagi oqimlar.
6. Hindiston Milliy Kongressi partiyasining tuzulishi.
7. HMKdagi o'ng va so'l qanotlar.
8. Bal G.Tilak va uning mustaqillik uchun kurash yo'li.
9. XX asr boshida Hindiston iqtisodiyoti.
10. Vitse qirol lord Kerzonning ichki siyosati.
11. Inqilobiy harakat. Svaryaj. Svadeshi.
12. Birinchi jahon urushi arafasida Hindiston.

Foydalailgan adabiyotlar:

1. Glazami družey. Russkiye ob Indii. Sbornik. Sots. A.V.Zanadova i E.P.Proxorova. M.1957
2. Alaev I.B Sotsial'naya sruktura indiyskoy derevni: Uattar Pradesha XIX v. M. 1976
3. Antonova K.A Angliyko zavoevanie Indii v XVIII veke. M. 1958.
4. Osipov A.M. Velikoe vostsanie v Indii. 1887-1859. M. 5957.
5. Pavlov V.I. Cotsial'no-ekonomicheskaya sruktura promishlennosti Indii. Predposilki genezisa kapitalizma konets XVIII seredina XIX v) M. 1973
6. Novaya itsoriya Indii. Otv.red. K.A.Antonova i dr. M. 1961
7. Vasilev A.S.Itsoriya Vostoka. V 2x t. M. 1998.t.2.
8. Novaya istoriya Indii M., Nauka, 1981 god.
9. Levnovskiy A.I. Osobennosti razvitiya kapitalizma v Indii. M., Nauka 1963.
10. Yangi tarix. T., «O'qituvchi», 1969 yil.

Mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiya.

Reja:

Kirish

1. XIX asrda Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi va milliy zulmning kuchayishi
2. Rus - Turk urushi va uning oqibatlari
3. Xalqaro munosabatlar va milliy harakat
4. XX asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli
5. Usmoniylar impyeriyasining inqirozi va halokati

Xulosa

Kirish

1876 yilda (Zomay) libyeral guruK rakbari MidKal poshsho «Yangi usmonlilarw bilan birga saroy to'ntarishi yasadi. Taxtga sulton AbdulKamidll o'tirdi. U Midicat poshsho ishlab chisarilgan konstitutsiya loyikasini tasdisladi va u 1876 yil 23-dekabrda tantanali ravishda e'lon sildi. Ammo sulton 1877 yil boshida MidKat poshshoni bosh vazirlikdan bo'shatib. «Yangi usmonlilar»ni repressiya sildi. Parlamentni tarsatib yuborildi va mustabid Kokimiyat sayta tiklandi. Bu davr Turkiya tarixida «zulm davri» deb ataldi. Demokratik o'zgarish ta'sislandi, mamlakalda tyerror va satar)on kuchaydi. Turkiyaning 1877-1878 yillardagi Rus-turk urushidagi mahlubiyati uning Bolqondagi Kukmronligiga chek qo'ydi.

XIX asr 70-yillarida Turkiyaning rivojlangan xorijiy mamlakatlarga qaramligi kuchaydi, ulardan olgan qarzlari ko'paydi. Xorijiy mamlakatlar esa talon-tarojni kuchaytirdilar. Frantsiya-Rossiya urushidan so'ng Turkiyaning xalqaro ahvoui nihoyatda murakkablashdi. Usmonli turk yyerlariga Rossiyadan boshqa Angliya, Frantsiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya ham ko'z tikib turar edi. Turkiya iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga tayangan bo'lib texnikasi yo'q edi. Qo'l mehnatiga asoslangan bu tarmoqda mehnat unumdorligi past, dehqonlar zo'rg'a kun ko'rardilar. Soliqlar juda ko'p bo'lilib, shunday maqol to'qishgan: «Hosilning bir qismi dalada yo'q bo'ladi, bir qismmi sovuq uradi, biq qismini qushlar yeb, ketadi, xudo hohlasa menga qoladi». Lekin ana shu qolgani ham yyer egasi va soliqchiga ketardi.

XIX asrda Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi va milliy zulmning kuchayishi

Bu lushkunlik ustiga 1873-1875 yillarda ocharchilik bo'lilib, ko'p kishilar qirilib ketdi. Shaharliklaming ahvoui ham og'ir edi. eski tartiblar va xorijiy mollarning ko'pligi hunarmandchilikni kasodga uchratdi. Sulton o'z foydasini ko'zlab chet eldan qarz olaboshladi. 1870-1874 yillarda 3 mlrd frank qarz

olingan. Ammo bu bilan mamlakatning moliyaviy ahvoni yaxshilanish o'rniga, u asoratga tushdi, qarzga botdi. XIX asrning 70-yillarida inqiroz boshlandi, norozilik kuchaydi. Muhojirlikda bo'lgan yangi usmonlilar faollashdilar. Ular cho'elda gazetalar chop etib, varaqalar tarqatib, konstitutsion to'zumni va islohotlarni talab qildilar. Ularni libyeral amaldorlar va ofitsyerlar' quvvatladilar ularga «Ulug'vazir» Midxat poshsho ham qo'shildi. Ular Angliya bilan yaqinlashish tarafdori bo'lib, sulton rejimiga qarshi kurashdilar. 1871 yilda Mahmud Nadim poshsho Ulug'vazir etib tayinlandi. Vatanparvarlarga hiyla ishiatib, «yangi yosh usmonli» larga umuiniy avf e'lon qilib; vatanlariga qaytishga ruxsat byerdi. Ammo yangi usmonlilar bu aldovga uchmadilar. Sulton Abdulaziz (1861-1876) ya Nadimni tanqid qilib maqolalar va varaqalar chiqardilar. Ularni fosh qildilar. 1873 yili Istanbul teatrida Nomiq Kamolning vatanparvarlik ruhidagi dramasi qo'yildi. U yyerda hukumatga qarshi namoyish bo'ldi. Shundan so'ng N.Kamol qamaldi, gazeta va teatr yopildi, siyosiy qatog'onlik kuchaydi. Mamlakatda ahvol tobora yomonlashdi.

1870-1880 yillarda Turkiya iqtisodiy inqiroz ichida qoldi. Chunki hukumat o'tkazgan islohotlar qoloq ishlab chiqarishi munosabatlarini o'zgartirishga qodir emas edi. Turk burjuaziyasi yangi boshqaruvga noqobil edi. Hukumat davlat xazinasidagi kamomadni to'ldirish bilangina shug'ullanardi. Viloyatlardagi to'rachilik va o'zboshimchalik xalq ommasini og'ir ahvoliga soldi. Hukumatning soliq siyosati kuchaydi, Qishloq xo'jalik mollari sun'iy, arzon narxlarda olinar, dehqon o'z mehnatidan manfaatdor emas edi. viloyatlararo boj undirish siyosati ham savdoga to'siq bo'ldiki, hukumat uni bckor qilishga majbur bo'ldi. Sanoatda ham o'sish yo'q bo'lib, qishloq xo'jaligi sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlab byerolmas, chet el sarmoyasi bozorni butkul cgallab olgan edi.

Buning ustiga 1874 yili chet el kompaniyalariga konlarni ishga solishga ruxsat byerildi. Bu haqda qonun qabul qilindi. Davlatning moliyaviy ahvoli halokat

yoqasida qoldi. Tashqi qarz 5,5 mlrd frankka yetdi. Bu Turkiyaning moliyaviy jihatdan «singanini» ko'rsatdi va uning yarim mustamlaka, qaram mamlakalga aylanganini ko'rsalar edi. O'tmishda qurol kuchi. Zo'rlik bilan birlashtirilgan va shu usulda, hech qanday iqtisodiy aloqafarsiz boshqarilgan Usmoniylar impyeriyasi tobora zaiflashib bordi. Ishlab chiqarish sekinlashdi. 1875 yilda sarflar 570, 5 mln frank bo'lgani holda, daromad 380 mlanni, tashkil etdi. Davlat chet elning qarzlarini to'lashga va fuqarolarga maosh byerishga qodir bo'lmay qoldi. Turk puli qadri (30%) yo'qoldi, narx ko'tarildi. Mamlakatda qo'zg'olonlar boshlandi.

Ular sulton hokimiyatini tugatishni talab qildilar. Yangi usmonlilar ham jonlanib qoldilar. Ular o'zlarining «Ibrat» nomli gazetalarida ilg'or demokratik g'oyalar ruhidagi maqolalar chop etishdi. Ularni ziyolilar quvvatladilar. 1876 yil 30 mayda qo'zg'olon boshlanib u sulton Abdulazizni taxtdan ag'darish bilan tugadi. Uning o'rniga Murod V sulton bo'ldi. Biroq ahvol o'zgarmadi. Bolqondagi ahvol chigaflashdi. Chyemogoriya va Syerbiya Turkiyaga urush e'lon qildi. Syerbiya yengildi. Rossiya uning tarafini oldi, u xalqaro aralashuvni talab qildi. Bu orada Murod V kasal bo'lib taxtdan tushirildi va o'rniga Abdulhamid 11 sulton bo'ldi. 1876 yil 23 dekabrda Istanbulda qurultoy bo'lib, unda Turkiya Konstitutsiyasi e'lon qilindi. Parlamenl saylanadigan deputatlar palatasi va tayinlanadigan senaldan iborat edi. 1877 yil 19 martda viloyat hokimlari va ruhoniylar vakillaridan iborat 1-parlament to'plandi. U 69 musulmon, 45 g'ayridin vakillardan iborat edi. Parlament sultonga tobelik ruhida ishladi.

Rus - Turk urushi va uning oqibatlari

Turk qo'shinlarining slavyan xalqlari ustida zulmi Rossiya siyosatdonlariga bahona bo'lib. umshga tayyorgarlik boshlandi. Rossiya o'ziga ittifoqchi izladi. Avstriya-Vengriya betaraf bo'ldi. Buning cvaziga u Bosniya va Gyertseogovinani bosib olishi mumkin edi. 1877 yil Londonda buyuk davlatlar yig'ilib xristian ahoiisiga turkzulmi oshib boryotganidan unga qarshi ogohlantimvchi bitim to'zdilar.

Turkiya bu bitimni pisand qilmadi 1877 yil 4 aprelda Rossiya urush e'lon qildi. Turkiya urushda yengildi. Sulton aybni parlamentga qo'ydi va uni tarqatdi yana sultonning mutloq hokimiyati tiklandi. San-Stefano sulhiga ko'ra Bolgariya mustaqil bo'lib, alohida davlat sifatida tuzuldiishiga kelishildi. Ammo Angliya bunga qarshi chiqdi va qo'shimcha bitim tuzuldiib, u Kipr orolini va Egey dengizining nazoratini oldi. 1878 yili 13 iyulda Yevropa davlatlari Byerlinda yig'ilib, bu bitimni qayta ko'rib chiqdilar. Bolgariya, Chyernogoriya, Syerbiya, Ruminiya mustaqil bo'ldiiar. Gyerlstgovina Avstriya-Vengriyaga byerildi. Rossiya Ardagan, Kars, Botumi shaharlarini va katta tovon oldi.

Xalqaro munosabatlar va milliy harakat

Bu urushi Turkiya iqtisodiyotiga katta ziyon keltirib, u yarim qaram davlat holiga tushib qoldi va Yevropa davlatlarining kurash maydoniga aylandi. 1881 yil Frantsiya Tunisni, Angliya 1882 yil Misrni bosib oldi. Fessaliya Gretsiyaga tegdi. Turkiya qarzga botib qoldi. CHet ellik sarmoyadorlar Turkiyada katta qurilishlar qilish uchun ruxsat -konsessiyalar olishar edilar. Ayniqsa, nemislar bu sohada oldinga ketdilar. Ular 1888 yili Bog'dod temir yo'lini qurish uchun ruxsat oldi. Savdo, sanoat izdan chiqdi.

Abduhamid II davri Turkiya tarixida «zulm davri» deb nom olgan. U parlamentni tarqatib yuborgach, Konstitutsiya tarafdorlarini ham quvg'in qildi, ko'pini o'ldirib yubordi. Masalan, Nomiq Kamol 1888 yili surgunda o'ldi. Midxat poshsho Toif shahriga surgun qilinib yollangan qotil tomonidan o'ldirildi. Milliy zulm, ijtimoiy norozilik kuchaydi. 1889 yili Istanbul harbiy-tibbiyot bilim yurtining kursantlari AH Shafhatbey va Ahmad Rizobeylar tomonidan «Birlik va taraqqiyot» tashkiloti tuzuldid. Parijda ularning «Mashvarat» gazetasi chop etilardi. Turk muhojirlari ular atrofiga to'plandilar. Tashkilotning sho'balari butun Turkiyada tarqaldi. Ularning dasturi Turkiyada Konstitutsiyaviy rejim o'rnatishdan iborat edi. Sulton Abduhamid II 1897 yili tashkilol ustidan sud uyushtirdi. 13 kishi o'limga, 69 kishi

katorgaga hukm qilindi. Keyinchalik bu harakatning omon qolgalari «Yosh turklar» deb ataldi va ular Turkiya tarixida katta iz qoldirdilar.

XX asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

XX asr boshiga kelib, Turkiya rivojlangan mamlakatlarning yarim mustamlakasi bo'lib qolavayardi. Xorijiy kapitalistlar zulmi kapitalistik ekspluatatsiya zulmi va Abduhamid II izulmi bilan ulanib ketgan edi. Sug'oriladigan yerning 65 foizi katta yiyer egalari va ruhoniylar qo'lida bo'lib, ular asosan yiyersiz dehqonlarga ijaraga byerilardi. Ichki bozor tor, mavjud tizim esa sanoat va savdo rivojiga g'ov edi. Usmoniylar impyeriyasida inqilobiy harakat yetilayotgan bo'lib, uning alohida o'ziga xos tomonlari bor edi. Turklar aholining uchdan bir qismini tashkil etardilar. Mamlakat viloyatlari orasidagi iqtisodiy aloqalar sekin rivojlanmoqda edi. Turk adabiy tili impyeriyada yashovchi xalqlar uchun birdek tushunarli emas edi.

Turk savdo burjuaziyasi turklardan emas, arman va yunonlardan iboral bo'lib, milliy-burjuaziyaning shakllanishi kech sodir bo'ldi XX asr boshlarida ishchilar soni (40-50 ming kishi) oz, ular tarqoq, mahalliy mtlat vakillari kam edi. Milliy burjuaziya kuchsiz, fabrika-zavodlar nihoyatda kam, sudxurlik harakati va yer egatigiga bog'liqligi bilan qorishib ketgan edi. Milliy burjuaziya xalq ozodlik harakatiga boshchilik qilgan boMsada xorijiy monopoliyalar hukmronligiga qarshi chiqmadi va dehqonlarning yyer haqidagi talablarini qondira olmadi. Ular konstilutsion monarxiya lizimi tarafdorlari edilar. Usmonli turk impyeriyasidagi siyosiy harakatlar impyeriya tarkibida milliy mustaqil davlat, avvalo Turkiya mustaqil davfati tashkil etilmasdan turib taraqqiyot yo'lga chiqib olish mumkin emasligini ko'rsatdi. Turk milliy burjuaziyasi shovinistik yo'ldan borib, boshqa millatlarning taraqqiyparvar kuchlarini birlashtira olmadi.

Ana shunday sharoitda Rossiya va Erondagi inqilobiy voqealar Turkiyaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. «Yosh turklar» tashkilotining asoschilaridan biri Abdulla Javdat o'z vatandoshlariga murojaat qilib. «Barcha ezilgan musulmon bo'lmaganlar birlashingiz!» - deb xitob qildi. «Yosh turklar»ning I-qurultoyi 1902 yil Parijda bo'ldi. Unda 1867 yilda bekor qilingan Konstitutsiyani tiklashga qaror qilinadi. Boshqa masalalarni hal qilishda ular bo'linib ketishdi. «Yevropacha yo'l» tarafdorlari «Markazdan qochish va shaxsiy tashabbus» ligasini to'zdilar, boshqa guruh «turkparastlik» va islomiy yo'nalish yo'lini tutdi. Inqilobiy yo'nalish tarafdori Mustafa Otaturk «Vatan» tashkilotini to'zdi. Keyin u «yosh turklar» harakati bilan birlashib ketdi.

1907-1908 yillarda Turkiyada inqilobiy vaziyat vujudga keldi. Bu davrda Bolqonda milliy ozodlik harakati kuchaydi. Sulton Abdulhamid II bu ahvolga qarshi chiqqan olmadi. Mamlakatni idora qilishda oqizlik qildi. «Yosh turklar» bu ahvoldan foydalanishga qaror qildilar. 1908 yil 3 iyulda Nijozbey harakat bayrog'ini ko'tardi. U «Birlik va taraqqiyot» tashkilotining a'zosi va harbiy garnizon qumondoni edi. Bosh shtab a'zosi Anvarbey uni quvvatlab, qo'zg'olon ko'tardi. Ularga rakedon va alban parizanlari qo'shildilar. Sulton qo'zg'olonga qarshi hech narsa qila olmadi. 20 iyulda sullonga Konstitutsiyani tiklash haqida talabnoma yuborildi. Lekin sulton uni bajarmadi.

1908 yil 20 iyulda Monastir shahrida «Birlik va taraqqiyot» partiyasi Konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildi. Armiya «Yosh turklar» tarafida ekanligini hisobga olib, sulton 24 iyulda Konstitutsiyani qayta tiklash to'g'risida farmon chiqardi. Turkiya inqilobi g'alaba qildi. «Yosh turklar» hukumatni qo'lga oldilar. Inqilobda xalq talablari qondirilmadi. «Yosh turklar» inqilobni chuqurlashtirishdan cho'chidilar, ular 262 o'rindan 150 tasini egalladilar. Ammo parlamentda bu ko'pchilik ovozdan ustalik bilan foydalana olmadilar. Ular xalq ommasining ehtiyojlarini tub demokratik o'zgarishlar zarurligini tushinib

yetmadilar. «Yosh turkiarw adliya, huquq, maorifda islohot o'lkazish yo'lidan bordilar. Ro'honiylar va ba'zi feodal doiralar bunga qarshi cdilar. 1909 yil 13 aprelda davlat lo'ntarishi o'tkazildi. Abdulhamd TI taxtdan tushirildi, o'rniga Mexmed V Rishod taxtga o'tirdi. «Yosh turklar» hokimiyatni to'la qo'lga kiritdilar. 23 iyul «Milliy ozodlik kuni» - deb e'lon qilindi. Konstitutsiyaga o'zgarishlar kiritildi, parlamentning huquqlari kengaytirildi.

Ammo xalq talablar lo'laqondirilmadi. Turkiya «Hurriyat va birdamlik» nomli inglizlarga xayrihoh partiya tuzuldidi. Turkiya Tripolitaniya va Kirenayka, Shimoliy Afrikada yyerlarini Jtaliyaga topshirdi. Bu yyerlar Liviya nomi bilan Italiya mustamlikasiga aylandi. (Lozanna bilimi- 15 oktyabr 1912 y). Ammo Turkiya tinchlikka yerisha olmadi. Bolgariya, Syerbiya, Chyyernogoriya, Gretsiya unga urush e'lon qildilar. (1-Bolqon urushi). Makedoniya va Frakiyaga muxtoriyat byerilmagani urushga bahona bo'ldi. Urushda turkiya yengildi va g'oliblar Bolqonni boMib olishdi. Albaniya mustaqil bo'ldi (26 iyun 1913 yil London bitimi). lekin Bolqon davlatlari o'zaro kelisholmasdan yana urush boshladilar (2-Bolqon urushi). Vaziyatni idora qilolmagan «Hurriyat va birdamlik» hukumatini 1913 yil yanvarida Anvar poshsho isyon ko'tarib, ag'darib tashladi. Yana hukumat tepasiga «Yosh turklar» keldilar. Mamlakatda Germaniyata'siri kuchaydi.1913-1914 yildan «Yosh turklar» harakatiga qarshi kurash boshlandi.

1914 yilga kelganda mamlakatdagi butun hokimiyat lidyer Anvar, Tal'at va Jamoal poshsholar qo'lida bo'lib. ular mamlakatni yirtqich German impyerializmiga batamom tobe qilib qo'ydilar. Turkiyaga nemis genyerali Aliman fon Sandyers boshchiligidagi missiya kelib, lurk armiyasim urushga tayyorlay boshladi, mamlakat xo'jaligidan ingliz va Frantsuzlar siqib chiqarildi, nemis kapitali, amaldorlari hukmronlik qila boshladilar. Birinchi jahon urushi boshlanganda Turkiya o'zini betaraf,deb e'lon qilgan bo'lsada, 1914 yil avgust oyi boshidayoq Germaniya bilan maxfiy shartnoma to'zgari va Rossiyaga qarshi urushish uchun katla qarz olgan edi.

Turkiya urushga kirgan paytda chet davlatlardan olgan qarzi 3,3 milliard doliarni tashkil etdi. Bu qarzlardan bir milliardga yaqinini yosh turklar hukumati olgan edi. Germaniyaning «Geben», «Breslau» nomli harbiy kemalari Dardanel bo'g'oziga kirdi. 1914 yil 29 oktyabrda Turkiya Rossiyaga urush e'lon qilmay harbiy harakatlar bosiladi. Shunday qilib, nemis imperyalistlari va turk panturkistlari mamlakatni birinchi jahon urushi girdobiga tortdilar.

Usmoniylar imperiyasining inqirozi va halokati

XVIII asr oxiri va XIX asr mobaynida Usmoniylar imperiyasi halokatli davrni boshidan kechirdi. Sulton Salim III (1789-1807) saltanatni saqlab qolishga urindi. Yuqorida aytilgan «Nizomi jadid» tadbirlari yoki islohotlarga yirik feodallar, ayniqsa, yanicharlar, ulamolar va boshqalar qaltiq qarshilik ko'rsatganlar. Oqibatda ular 1807 yilda uni taxtdan ag'darib tashladilar va o'rniga Maxmud II (1808-1839) taxtga o'tirdi. U ancha murakkab sharoilda atrofdagilari bilan murosa yo'lini tutib, sekin-asta islohotlar orqali mustahkamlani boldi, jumladan, oldinroq ta'kidlangandek yanicharlarni yo'qotib, muntazam armiya to'zdi, boshqaruv tizimida ba'zi bir o'zgarishlar qildi, iqto' harbiy majburiyatini bekor qildi. Endi harbiylarga xizmat uchun yer byerilmaydigan bo'ldi.

Ammo Mahmud II islohotlari Usmoniylar imperiyasining inqiro'zini lo'xtata olmadi. XIX asr oshlarida Misr amalda mustaqil bo'lib oldi. 1804-1813 va 1815 yillarda Syerbiyada turklar zulmiga qarshi qo'zg'olon bo'ldi. 1806-1812 yillardagi Rossiya bilan urushda yengilgach, Buharest bitimiga ko'ra, Turkiya Prut daryosiga qadar yerlardan ajralgan.-1828-1829 yillarda Rossiya bilan urushib, mag'lub bo'lgach, Adrianopol sulhiga binoan Gro'siyaga avlonomiya byerishga majbur bo'ldi. Burring ustiga Turkiyaning Yevropa davlatlariga qaramligi, qarzdorligi kuchaydi. Bu ahvoldan qutulishi uchun XIX asr 30-yillarda yangi islohot (lazimat) yo'li bilan, ya'ni davlat ma'muriy boshqaruvidagi o'zgarishlarni amalga oshirdi. To'g'ri, bu Yevropacha yangiliklar feodal-harbiy tarlibni tugatib, turk ziyolilarini

shakllanishiga yordam bergan bo'Isada, Usmoniylar imperiyasini saqlab qola olmadi.

1853-1856 yilgi Qrim urushidan so'ng Parij sulhi (1856)da «Usmoniy imperiyasining butunligi va daxlsizligi» tan olingan bo'Isada, aslida bu G'arbits Yevropa davlatlarining Turkiya ichki ishlariga aralashishlari uchun niqob edi. XIX asr 2-yarmidan so'ng davom etgan islohotlar Turkiyada chet el kapitali ta'sirining oshishiga olib keldi, xorijiy banklar ochildi. Ayni paytda «yangi usmoniylarning» konstitutsion to'zum chun kurashi kuchaydi. XIX asr 70-yillarning oxiriga kelib, Turkiya xorij mamlakatlarining yarim mustamlakasiga aylanib bo'ldi. XorijHklar o'z sarmoyalarini Turkiyada unumli sanoat tarmoqlariga va mahsuloli ko'proq eksport qilinadigan korxonalariga qo'ydilar. Ulaming banklari asosan shu vazifani bajargan. Midhat poshsho ishlab chiqqai konslilulsiyani bekor qilib, Abdulhamd II yana mustabid to'zum yo'ii bilan usmoniylar saltanatini tiklash uchun yana bir marta, bu safar oxirgi marta urinib ko'rdi. Ammo imperiya ham ichki, ham tashqi tomondan chok-chokidan so'kilib keta boshlagan edi. biz yuqorida 1877-1878 yildagi rus-turk urushi. Bolqon mamlakatlarining mustaqilligi uchun asos bo'lganini qayd etgan cdik. 1801 yilda Frantsiya Tunisni, 1882 yilda Angliya Misrni bosib oldi.

Xulosa

Abdulhamd II (876-1909) tobe xalqlarini itoatda saqlash uchun bar qanday ozodlik harakatini shafqatsizlik bilan bostirdi, milliy va diniy adovatini, musulmon va xristianlar o'rtasida nizoni ko'chaytirdi. Ammo o'sib kelayotgan taraqqiyparvar kuchlarni to'xtala olmadi. Yosh turklar 1889 yilda «E'tiqod va taraqqiyot» maxfiy tashkilotini to'zdilar. 1908 yilda Turkiyada yosh turklar inqilobi bo'ldi. Ular barcha xukumat lovozimlarini egallab, diktatorlik (zo'rlikka asoslangan) to'zumni o'rnatdilar. 1912-1913 yilda ular buyuk Turkiya 9pan turizm), buyuk islom (panislomizm) davlati to'zish g'oyalarini targ'ib qila boshladilar. 1914 yildan

hokimiyatda yosh turklarning rahbarlari - Anvar poshsho tal'at poshsho, jamoal poshsholar turdilar. 1914 yil boshlangan birinchi jahon urushida Turkiya Germaniya tomonidan turib urushdi. 1917 yil oktyabr to'ntarishidan so'ng Sovet Rossiyasiga qarshi urush olib bordi. 1918 yil 30 oktyabrida Turkiya Antanla davlatlariga taslim bo'ldi. Shu bilan amalda Usmoniylar impyriyasi tugatildi. Oxirgi sulton Muhammad VI sultonlik tugatilgach, 1922 yilda chet elga qoehgan. Turkiyaning buyuk majlisi shaxzoda Abdulmajidni xalifa qilib sayladi. 1924 yil 3 marlda Turkiyada xalifalik ham tugatilgan.

Tayanch iboralar:

«Islahot farmoni. Qoloqlik sabablari. «Nizomi jadid». Ahmadshoh III. Mahmudshoh I. Abdulxamid I. Sulton Salim III. Mahmud II. Yanichar armiyasining yo'q qilinishi, Kamyeralizm, Usmoniy turk davlati elchilari. Modern mamlakat, 'G'arbchilik (tanzimat). Turkiyaning 1-Konstutsiyasi Karma tijorat, Nizomie mahkamasi. Nomiq Kamol, Ziyo poshsho. Ibrohim Shinoziy. Midhat poshsho. Saroy to'ntarishi. 1878 yil Konstitutsiyasi va parlamentning tarqatilishi. «Zulrn davri». Yarim mustamlakachilik. Xalq harakatlari. Yangi usmonlilar. Usmoniylar impyriyasining tushkunligi. Iqtisodiy inqiroz Parlament. Yosh turklar. Yosh turklar inqilobi. Tashqi siyosat. Rus-turk urushi. Bog'dod temir yo'li. Bolqon urushlari.

Nazorat savollari:

1. Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi
2. XIX asr oxirida Turkiyaning iqtisodiyoti
3. Usmoniylarning ichki siyosati
4. «Yangi usmoniy» lar faoliyati
6. Usmoniylar imperiyasining zaiflashuvi
7. Rus-turk urushi. San-stefano sulhi
8. Turkiyaning xalqaro ahvoli
9. Turkiyada ijtimoiy harakat. «Yosh turklar»

10. Usmoniylar imperiyasining inqirozi

11. Turkiyaning birinchi jahon urushiga tayyorlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998
2. I. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998
3. Millyyer A.F. Osmanskaya imperiya v nachale XX veka. M. 1974.
4. Yangi tarix T., «O'qiluvchi» 1969 y.
5. Novaya istoriya stran zarubejnoj Azii i Afriki M., Nauka. 1971.

Mavzu: «XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar»

Reja:

Kirish

1. «Uch imperator ittifoqi»dan «Uchlar ittifoqi» sari.
2. Frank-rus ittifoqidan «Uchlar ittifoqi» sari.
3. Ikki xarbiy bloqlarni qarama-qarshiligi va Bolqon urushlari.
4. Papalik. Patsifistik xarakat.
5. II internatsional.

Xulosa

Kirish

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar juda ziddiyatli va keskin tus oldi. 50 yil ichida axoli 1 mlrd 300 mln. kishidan 1 mlrd 700 mln. kishiga o'sdi, sanoat ishlab chiqarishi besh marta, jaxon savdosi to'rt martaga o'sdi. Mamlakatlar industrlashtirish tomon qadam tashlashdi. Xom ashyo manbalari, bozorlar, tabiiy boyliklarni egallash uchun kurash yanada kuchaydi. Rivojlangan davlatlar tomonidan qoloq mamlakatlarni mustamlaka yoki yarim mustamlakaga aylantirildi. Rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi.

Rivojlangan mamlakatlar xayotida moliya oligarxiyasi tanxo xukmronlik qila boshladi.

Moliya oligarxiyasi o'z intilishlarini millat manfaati nomi bilan xaspo'shladi. Ayrim mutafakkirlar tomonidan shovinizm g'oyalari keng targ'ib qilindi. Insonlarning xuquq va erkinliklari kengaydi, natijada mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatiga xalq ommasi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yangi noxukumat xalqaro tashkilotlari tuzuldi. Xarbiy to'qnashuvlar va kichik urushlar odatiy xolga aylanadi. Qurollanish poygasi avj oldi va bularning barchasi birinchi jaxon urushiga olib keldi.

«Uch imperator ittifoqi» dan «Uchlar ittifoqi» sari.

1871 yilda Germaniyaning Fransiya ustidan g'alaba qozonishi, Italiyani birlashuvi, Yevropadagi vaziyatni tubdan o'zgartirib yubordi. Rossiya Germaniya bilan yaqinlashishga, Rossiya-Turkiya urushida Avstriya-Vengriya neytralitetiga umid qilar, Avstriya-Vengriya Serbiyaga qarshi kurashda ittifoqchiga extiyoj sezar, Germaniya uchun Fransiya qarshi kurashda ittifoqchi zarur edi. 1873 yilning kuzida Aleksandr II, Vilgelm I, Frans Iosif «Uch imperator shartnomasi»ni tuzdilar va muammolarni birgalikda xal etish, urushda birgalikda xarakat qilishga kelishib oldilar. Ammo Yevropa davlatlari Germaniyani kuchayishini, Fransiyaning zaiflashuvini xoxlamas edilar.

Bu ittifoq 1887 yilgacha amal qildi, ammo ishonchni oqlamadi. Germaniyaning Fransiya qarshi kichik urushlar olib borishiga Rossiya qarshi chiqdi. Rossiyaning O'rta Osiyo masalasida, Turkiyaga qarshi urushdagi g'alabalari ittifoqchilar o'rtasidagi munosabatlarini keskinlashtirdi. San Stefano shartnomasi Berlin konferentsiyasida qayta ko'rib chiqildi, Rossiya egallagan xududlardan maxrum bo'ldi va Bolqondagi gegemonligiga chek qo'yildi.

Konferentsiyada Bismark Avstriya-Vengriya, Angliya davlatlari tomonida turdi. Germaniya va Rossiya o'rtasida boj urushlari yuz berdi. 1879 yilda

Germaniya va Avstriya-Vengriya o'rtasida neytralitet to'g'risida va Rossiya xujumidan birgalikda ximoyalanish to'g'risida maxfiy shartnoma tuzildi. 1881 yilda Avstriya-Vengriya, Germaniya va Rossiya o'rtasida o'zaro neytralitet shartnomasi tuzildi, ammo shartnomaga ishonch yo'q edi. 1882 yilda Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya «Uchlar ittifoqi» shartnomasini tuzdilar. Ittifoqchilar Fransiya xujum qilgan taqdirda bir-birlarini qo'llab quvvatlashga kelishdilar. Rossiya bilan urush bo'lgan taqdirda Avstriya- Vengriya yoki Italiya neytralitet e'lon qilishi mumkin edi. Rossiyaning O'rta Osiyodagi g'alabalari Avstriya-Vengriya, Buyuk Britaniya bilan munosabatlarini keskinlashtirdi. 1887 yilda Rossiya va Germaniya «Ximoyalanish» shartnomasini tuzdilar. Fransiya Germaniyaga xujum qilganda Rossiya, Buyuk Britaniya Rossiyaga xujum qilganda Germaniya neytralitet saqlab turishga va'da berdilar. Bu ittifoq shartnomasi atiga uch yil amal qildi.

Frank-Rus ittifoqidan Antanta ittifoqi tomon.

Germaniya bilan boj urushlari Sharq masalasida Buyuk Britaniya bilan Rossiya raqobati, Rossiya va Fransiyaning moliya-kredit soxasidagi xamkorligi Rossiya va Fransiyaning yaqinlashtirdi. 1891 yilda Fransiya va Rossiya Konsultatsiya pakti, maxfiy xarbiy konventsiya shartnomalarini imzoladilar. Fransiya Rossiyaga Germaniya va Italiya bilan xarbiy to'qnashuvlarda xarbiy yordam qilishga va'da qildi. 1890 yillarda AQSH, Yaponiya, Italiya va Germaniyaning mustamlakachilik siyosatini faollashuvi Fransiya va Rossiyani yanada yaqinlashtirdi.

1894 yilda Yaponiya Xitoyni yenggach, Xitoy va Koreya ustidan nazorat o'rnatish uchun Angliya, Germaniya, Rossiya, Fransiya, AQSH o'rtasida kurash kuchayib bordi. Yevropa davlatlari Yaponiyani Rossiyaga qarshi qilib qo'ydilar. AQSH Ispaniya mustamlakalarini egallay boshladi. Italiya Eritreya mustamlakasiga asos soldi. Janubiy Afrikada Buyuk Britaniya faoliyatini kengaytirdi. Germaniya Berlin-Bog'dod temir yo'lini qurish bilan Osiyodagi mustamlakachilik siyosatini

kengaytirmoqchi edi. Angliya uchun burlar ustidan qozonilgan g'alaba qimmatga tushdi, mustamlakachilik siyosati zaiflashdi. Angliya Germaniya, Fransiya, AQSHga yon berishga majbur bo'ldi. Angliya ajoyib yakkalik siyosatidan voz kechib, 1902 yilda Yaponiya bilan shartnoma tuzib, Yaponiyaga iqtisodiy yordam ko'rsatdi.

1902 yilda Fransiya va Italiya o'rtasida neytralitet to'g'risida shartnoma imzolandi. 1904 yilda Buyuk Britaniya qiroli Eduard VII va Fransiya prezidenti Lube o'rtasida Afrikani ta'sir doirasiga bo'lish masalasida «Samimiy kelishuv» (Entente kordial) shartnomasi tuzuldi. 1881-1900 yillarda xalqaro arbitraj sudlari tomonidan 111 ta xalqaro muammolar tinch yo'l bilan xal qilindi. 1881-1900 yillarda Yevropa davlatlarining xarbiy xarajatlari ikki marta, askarlar soni 25 % ga o'sdi. 1899 yilda Rossiyaning tashabbusi bilan Gaaga konferentsiyasi o'tkazildi. Konferentsiyada xarbiy xarajatlarni qisqartirish va muammolarni tinch yo'l bilan xal etish konventsiyasi qabul qilindi.

1907 yildagi ikkinchi Gaaga konferentsiyasida 44 ta davlat ishtirok etdi. Bu konferentsiyada birinchi marta xalqaro xuquq normalari (urushlar davrida amal qilinishi lozim bo'lgan) qabul qilindi. Rus-Yapon urushidan keyingi mag'lubiyat, 1905-1907 yillar inqilobi, ko'plab davlatlarni qo'llab-quvvatlashiga muxtojlik Rossiyani ittifoqchiga muxtoj qilib qo'ydi. Germaniyaning mustamlakachilik siyosatini faollashuvi Fransiya va Angliyani yaqinlashtirdi. Fransiya va Angliya Germaniyaga qaraganda Rossiyaga ko'proq yordam berdilar.

Ikki xarbiy bloklarning qarama-qarshiligi va Bolqon urushlari.

1907 yilning 31 avgustida Antanta bloki tashkil topgach, ikki blok o'rtasidagi raqobat xalqaro munosabatlarning asosiga aylandi. 1900-1913 yillarda xarbiy xarajatlarga 90 milliard marka sarflandi, xarbiy qo'shinlar soni 30% ga ko'paytirildi. Germaniya, Avstriya-Vengriya Bolqon va Yaqin Sharqdagi ekspansiyasini kuchaytirdilar. 1908 yilda Bosniya va Gertsogovinani Avstriya-

Vengriya o'ziga qo'shib oldi. 1909 yilda Rossiya va Italiya Bolqon va Shimoliy Afrika masalasida maxfiy bitim imzoladilar. Rus-German muzokaralari hech qanday natija bermadi.

1911 yilda Germaniya Agadir portiga kemalar yuborib, Marokash xududiga da'vo qiladi. Fransiya Germaniyaga Kongoni bir qismini tortiq qildi. Italiya 1911-1912 yillardagi urushlar tufayli, Usmoniylar imperiyasidan Tripolitaniyani va Kirenaikani tortib oldi. 1912 yildagi Angliya-Germaniya muzokaralari hech qanday natija bermadi. Usmoniylar imperiyasi zaiflashgach, 1912 yilda Bolqon davlatlarining «Janubiy-Sharqiy Yevropa» ittifoqi vujudga keldi va Rossiya, Fransiya tomonidan faol qo'llab quvvatlandi. 1912 yildagi Birinchi Bolqon urushlarida Turkiya armiyasi mag'lubiyatga uchradi, bu esa Germaniya, Avstriya-Vengriyani tashvishga soldi. Londonda olti mamlakat rahbarlari uchrashib, Bolqon mamlakatlari ustidan Antanta, Usmoniylar imperiyasi ustidan Uchlar ittifoqi o'z nazoratini o'rnatdi.

1913 yilda Ikkinchi Bolqon urushlari bo'lib o'tdi. Urushda Bolgariya va Usmoniylar imperiyasi mag'lubiyatga uchradi. 1913 yilning avgustida Londonda sulx shartnomasi imzolandi. Serbiya, Chernogoriya, Gretsiya, Ruminiya Antanta tomoniga, Usmoniylar imperiyasi, Bolgariya Uchlar ittifoqi tomoniga o'tdilar.

Papalik. Patsifistik xarakat.

Katolik cherkovi xalqaro munosabatlardagi muammolarni xalq etishda katta mavqega ega edi. Rim papalari liberal, demokratik va sotsialistik xarakatlarni kuchayishiga qarshilik ko'rsatayotgan edi. 1891 yilda Rim papasi Lev XIII ijtimoiy muammolarni xristianlik sotsializmi asosida xalq qilish lozimligini ta'kidladi. Cherkov xususiy mulkni daxlsizligini tan oldi, ammo bu mulk jamoa maqsadlari asosida ishlatilishi lozimligini ta'kidladi. Natijada xristian sotsializmi xarakati keng avj oldi. Ammo papalik Osiyo va Afrikada katolitsizmni keng yoyishga asosiy e'tiborni qaratdi.

1880 yillarda ommaviy xarakatlar avj oldi va bu xarakatlar XX asrda patsifistik xarakat nomini (Tinchlikparvarlik xarakati) oldi. Bu xarakat a'zolari turli diniy va falsafiy g'oyalarga asoslanib insonni birinchi o'ringa qo'yib barcha muammolarni tinch yo'l bilan xal etish lozim deb ta'kidladilar. Patsifistik xarakatda barcha toifa va tabaqalar faol ishtirok etdilar. Ular quolsizlanish xalqaro mojarolarni sud yordamida xal etishga xarakat qildilar va millatchilik, shovinizm, militarizmga qarshi kurashdilar. 1889 yilda Parij shaxrida 100 dan ortiq patsifistik tashkilotlarning xalqaro kongresslari bo'lib o'tdi.

1912 yilda 19 ta mamlakatda 136 ta patsifistik uyushmalar faoliyat ko'rsatdilar. 20 ta xalqaro markazlar faoliyat ko'rsatgan. Dunyoda patsifistik xarakatlar tomonidan 33 ta davriy nashrlar chop etildi. Xar ikki yoki uch yilda patsifistlarning kongress va konferentsiyalari o'tkazilgan. Kongresslarda turli mojarolar va muammolar xal qilinar edi. 1912 yilda Jenevada o'tkazilgan XIX xalqaro kongressda 600 ta delegatlar qatnashdilar. 1901-1911 yillarda patsifistik xarakatning o'n beshta vakillari va ikkita xalqaro patsifistik tashkilotlar Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar.

II internatsional.

Xalqaro munosabatlarning rivojlanishida II internatsionalning xam aloxida o'rni bor. 1914 yilga kelib ishchilar soni 70 million kishiga yetdi. 1880 yillarda ko'plab mamlakatlarda kasaba uyushmalari va ishchi partiyalari yuzlab ish tashlashlar, mitinglar uyushtirdilar. Sotsialistik xarakatda asosan K.Marks va F.Engel's g'oyalari keng tarqaldi. 1889 yilning iyulida Parijda 20 ta davlat ishchilari vakillarining Xalqaro Sotsialistik Kongressi bo'lib o'tdi. Ular xar yili 1 may kuni 8 soatlik ish kuni uchun ommaviy namoyish o'tkazishga chaqirdilar. 1907 yilda II internatsionalning ustavi ishlab chiqildi.

Ammo II internatsional tarkibidagi partiyalar va kasaba uyushmalari sotsialistik yo'nalishda faoliyat yuritgan bo'lsalarda g'oyalar va xarakat usullari

turlicha edi. XX asr boshidan boshlab Internatsionalning kongresslarida palamentlararo konferentsiyalarida Xalqaro Sotsialistik Byuroda o'ng va so'l sotsialistlar o'rtasida keskin kurash avj oldi. Internatsional kongresslari mustamlakachilikka, tengsizlikka, shovinizmga, qurollanishga millatchilikka qat'iy qarshi chiqdilar. Internatsional patsifistik xarakatlar bilan xamkorlik qildi.

1914 yilda 25 mamlakatning ishchilari Internatsional tarkibiga kirdilar. A'zolar soni 4 million 200 ming kishini tashkil etdi, 600 dan ortiq gazeta va jurnallar nashr etildi. Internatsionalning ko'magida kasaba uyushmalari xarakati keng yoyildi. 1914 yilda kasaba uyushmalari a'zolari soni 10 million kishiga etdi. 1913 yilda Kasaba uyushmalarining xalqaro federatsiyasi tashkil topdi. 1910 yilda ayollarning teng xuquqliligi uchun birgalikda kurashish kuni, 8 Mart Xalqaro Xotin-qizlar kuni belgilab olindi. Turli mamlakatlardagi sotsialistik xarakatlarda 200 mingdan ortiq ayollar ishtirok etdilar.

Ammo Internatsionalning raxbarlari va ko'plab ishchilar partiya va tashkilotlari ishchilar xarakatida mexnatkashlarning kichik bir guruxi bo'lgan ishchilar ishtirok etayotganligini ko'ra bilmadilar va mexnatkashlarning boshqa tabaqalari xaq xuquqlari muammolarini xal qilish uchun kurashmadilar. Oqibatda II internatsional mag'lubiyatga uchradi va Birinchi jaxon urushini oldini olgani yo'q.

Xulosa

XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar juda keskin tus oldi. Dunyoda rivojlangan mamlakatlar o'rtasida xom-ashyo uchun, maxsulotlar sotiladigan bozorlar va Yangi yerlarni egallash uchun kurashlar keskin tus oldi. Dunyoning turli xududlarida yetakchi mamlakatlarning manfaatlari o'zaro to'qnashdi. Muammolarni xal qilish uchun yetakchi davlatlar maxfiy, yashirin shartnomalar tuza boshladilar. Oqibatda xarbiy bloklar vujudga kela boshladi. Bu

bloklar mustamlakachilik manfaatlariga buysindirilgan edi. Bolqon urush o'chog'iga aylanib bordi.

Kapitalistik ishlab chiqarish usullari to'la g'alaba qozondi, chetga kapital chiqarish yildan yilga rivojlanib, kuchayib bordi. Dunyoning turli mamlakatlarida urushga qarshi xarakatlar kuchayib bordi. Xatto diniy tashkilotlar xam tinchlik uchun kurash olib bordi. Xalqaro munosabatlarda ishchilar xarakati, kasaba uyushmalari xam aloxida o'rin tuta boshladi. Ammo mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar keskinligicha qoldi va jaxon urushini keltirib chiqardi.

Tayanch so'z va iboralar:

Antanta, blok, patsifist, sotsialist, internatsional, konferentsiya, gegemon, kongress, xristian-sotsializmi, katolitsizm, Uchlar ittifoqi, Ximoyalanish pakti, imperiya, sharq masalasi, jaxon urushi.

Nazorat savollari:

1. San Stefano shartnomasi qaysi davlat uchun og'ir oqibatlar keltirdi?
2. Fransiya-Germaniya, Avstriya-Vengriya-Rossiya qarama-qarshiligini sabablarini tushuntirib bering?
3. Qaysi konferentsiyada urush davrida amal qilish lozim bo'lgan xalqaro qoidalar e'lon qilingan?
4. Bolqon davlatlari ittifoqining ikkinchi nomini eslang?
5. Katolik cherkovi xalqaro mojarolarga qanday munosabat bildirdi?
6. Patsifistik xarakat vakillariga nima uchun Nobel' mukofoti berilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.» Toshkent. «Sharq.» 1998 y.
2. Krivoguz.I.M, Yurovskiy.E.E. «Novaya istoriya stran Yevropi i Ameriki». Moskva. Visshaya shkola. Vtoroy period. 1998 g.
3. Alekseev.I.V. «Agoniya serdechnogo soglasiya: Sarizm, burjuaziya i ix soyo'zniki po Antante». 1914-1917 gg. Leningrad. 1990 g.

4. Shneerson.L.M. «Na perepute yevropeyskoy politiki. Avstro-Russko-Germanskie otnosheniya». Minsk. 1984 g.
5. Vinogradov.K.B. «Mirovaya politika 60-80 x godov XIX veka: sobitiya i lyudi». Leningrad. 1991 g.
6. Tupoleva.B.M. «Yevropa i SSHA i kolonialniy mir». Moskva. Misl. 1998 g.
7. «Yangi tarix». 3 tomlik. Toshkent. Fan . 1976 y.